

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**A.N. NORCHAYEV, T.B. SADIKOV, M.Z. NURFAYZIYEVA**

## MINTAQAVIY TURIZM

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quv-  
 metodik birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5610100 -  
 “Xizmatlar sohasi (turizmni tashkil etish va boshqarish)” ta‘lim yo‘nalishi talabalari  
 uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.*

TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2019

### MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>		6
<b>1-BOB</b>	<b>“MINTAQAVIY TURIZM” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI</b>	8
1.1.	O‘zbekistonda turizmni mohiyati va uni mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri	8
1.2.	Mintaqaviy turizm fanining predmeti va obyekti	10
1.3.	Mintaqaviy turizm fanining maqsadi va vazifalari	11
<b>2-BOB</b>	<b>MINTAQAVIY TURIZMNING IJTIMOIV-IQTISODIY MAZMUNI, ULARNING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI</b>	13
2.1.	Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uni jamiyatdagi o‘rni	13
2.2.	Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati	14
2.3.	O‘zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati.	15
<b>3-BOB</b>	<b>MINTAQAVIY TURIZMDAN FOYDALANISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARI</b>	18
3.1.	O‘zbekistonning turistik mintaqalarida turizmning tashkil qilinishi	18
3.2.	Mintaqaviy turizmni rivojlantirish chora tadbirlari	20
3.3.	Mintaqalarda turizmni rivojlantirish muammolari	21
<b>4-BOB</b>	<b>MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARI TASNIFI</b>	22
4.1.	Turistik resurslar tushunchasi, mohiyati	22
4.2.	Turistik resurslar tasnifiga yondoshuvlar	24
4.3.	Turistik resurslar turlari	25
<b>5-BOB</b>	<b>MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH</b>	29
5.1.	Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari.	29
5.2.	Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati	30
5.3.	Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash	31
<b>6-BOB</b>	<b>MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH</b>	35
6.1.	Ekoturizm tushunchasi va turlari.	35
6.2.	Ekoturizmning tarkibiy qismlari	37
6.3.	O‘zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish	39
<b>7-BOB</b>	<b>MINTAQALARDA ZIYORAT TURIZMI MARKAZLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH RESURLARI</b>	44
7.1.	Ziyorat turizm to‘g‘risida tushuncha	44
7.2.	O‘zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	46
7.3.	O‘zbekistonning islom obidalari	47
<b>8-BOB</b>	<b>MINTAQALARDA QISHLOQ TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURLARI</b>	49
8.1.	Agroturizm tushunchasi va turlari.	49
8.2.	Qishloq joylarida turizm resurslari.	50
8.3.	O‘zbekistonda agroturizm resurslari va imkoniyatlari	51
<b>9-BOB</b>	<b>MINTAQAVIY REKREATSIYA RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-IQTISODIY XUSUSIYATLARI</b>	54
9.1.	Rekreatsiya resurslari tushunchasi	54
9.2.	O‘zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalari	55

9.3.	Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari	59
9.4.	Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza qilish	60
<b>10-BOB</b>	<b>TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQOBATBARDOSH OMILLAR ASOSIDA BUYUK IPAK YO'LI DAVLATLARINING GURUHLANISHI</b>	63
10.1.	Madaniy – tarixiy merosini muhofaza qilish va saqlashda YUNESKO va BTTning o'ri	63
10.2.	O'zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan foydalanish	64
10.3.	O'zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an'analarni tutgan o'ri	66
10.4.	O'zbekistonda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish	67
<b>11-BOB</b>	<b>MARKAZIY OSIYO TURIZMI IMKONIYATLARINI TADQIQ QILISH.</b>	69
11.1.	Markaziy Osiyo turistik mintaqalari imkoniyatlari	69
11.2.	Markaziy Osiyo mamlakatlarida turizmning rivojlanishi	70
11.3.	O'zbekistonda turistik mintaqalar	74
11.4.	Turistik mintaqalarda xizmatlar bozorining raqobatbardoshligi	75
<b>12-bob</b>	<b>O'ZBEKISTONNI TURISTIK RAYONLASHTIRISH XUSUSIYATLARI</b>	78
12.1.	Hududiy rekraetsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM).	78
12.2.	Turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari.	79
12.3.	O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar	81
12.4.	O'zbekistonning turistik rayonlari tavsifi	82
12.5.	O'zbekistonda ekturistik rayonlashtirish xususiyatlari	85
<b>13-BOB.</b>	<b>TOSHKENT TURISTIK MINTAQASI</b>	92
13.1.	Toshkent viloyatining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'ri	92
13.2.	Toshkent turizm mintaqasining turistik imkoniyatlari	96
13.3.	Toshkent turistik mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari.	98
<b>14-BOB</b>	<b>SAMARQAND TURISTIK MINTAQASI</b>	100
14.1.	Samarqand viloyatining tabiiy-geografik o'ri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi	100
14.2.	Samarqand mintaqasi turizmi rivojlanishining ko'rsatkichlari	112
14.3.	Samarqand mintaqasi turizmi rivojlanishini mavsumiy rejalashtirish.	125
<b>15-BOB</b>	<b>BUXORO-NAVOIY TURISTIK MINTAQASI</b>	130
15.1.	Buxoroda turizm sohasining rivojlanish holati	130
15.2.	Buxoroda turizm infratuzilmasining tahlili	135
15.3.	O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati.	142
<b>16-BOB</b>	<b>XORAZM TURISTIK MINTAQASI</b>	154
16.1.	Xorazm viloyati tarixi va tabiiy-geografik o'ri va iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari.	154
16.2.	Xorazm viloyatida turistik resurslarning hozirgi kundagi holati va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.	163

16.3.	Xorazmda turizm infratuzilmasi va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.	169
16.4.	Xorazm viloyatida turizmi rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	172
<b>17-BOB</b>	<b>FARG'ONA TURISTIK MINTAQASI</b>	177
17.1.	Farg'ona mintaqasining tabiiy-geografik o'ri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.	177
17.2.	Farg'ona mintaqasining turistik imkoniyatlari	180
17.3.	Farg'ona mintaqasining milliy hunarmandchilik va turizmi rivojlantirishdagi o'ri.	
17.4.	Farg'ona mintaqasida milliy hunarmandchilikni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi o'ri va ahamiyati	186
<b>18-BOB</b>	<b>JIZZAX-SIRDARYO TURISTIK MINTAQASI</b>	191
18.1.	Jizzax turistik mintaqasining resurslari va ularni belgilari	191
18.2.	Turizmi rivoji, rivojlanish uchun turizm	193
<b>19-BOB</b>	<b>O'ZBEKISTONNING JANUBIY TURISTIK MINTAQASI</b>	196
19.1.	Qashqadaryo viloyati tarixi va tabiiy-geografik o'ri	196
19.2.	Viloyatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	200
19.3.	Surxandaryo viloyatida turizm sohasining istiqbollari	203
<b>20-BOB</b>	<b>QORAQALPOG'ISTON TURISTIK MINTAQASI</b>	205
20.1.	Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy-geografik o'ri	205
20.2.	Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	206
<b>21-BOB</b>	<b>MINTAQAVIY TURIZM INFRATUZILMALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b>	214
21.1.	Madaniy tarixiy merosimizning turizmdagi o'ri.	214
21.2.	Madaniy – tarixiy resurslar	216
21.3.	Turizm resurslari va milliy turistik resurslarni shakllantirishning iqtisodiy va ijtimoiy mazmuni	220
GLOSSARIY		223

## KIRISH

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalariga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YUNESKO ning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Turizm bo'yicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingida dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyohlik maskani qayd etilgan bo'lib, ushbu ro'yxatda Qozog'iston 85-o'rin, Qirg'iziston 116-o'rin, Tojikiston 119-o'rinni egallagan, O'zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida eng oxirgi o'rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan<sup>1</sup>. Bu esa bizning Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurarkan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo'la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

Raqamlarda mamlakatimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Agar mamlakatimizda asosiy sayyohlik mavsumi mart oyining o'rtalarida boshlansa va dastlabki mavsum yakuni iyun oyi so'ngigacha qadar bo'lsa, shu davr mobaynida shuncha sayyoh kelib ketishini tasavvur qilish qiyin. Qolaversa, bizda mehmonxonalar yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo'lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4,260 tani tashkil etarkan. Bizda esa bu ko'rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past, ya'ni, yurtimiz bo'yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Abduhakimov A. "O'zbekistonda turizm qay ahvolda va uni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak" 2018- yil.

<sup>2</sup> Abduhakimov A. "O'zbekistonda turizm qay ahvolda va uni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak", 2018- yil.

Demak, turistik infratuzilma ham yildan yilga rivojlanib bormoqda, mavjud turistik resurslarimizdan foydalana olish, yangi turistik raqobatbardosh mahsulotlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish kabi vazifalar oldimizda turadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada mamlakatimizning mintaqalar bo'yicha imkoniyatlari bo'yicha nazariy bilimlar berilgan.

O'quv qo'llanmada 21 bobdan iborat bo'lib, har bir bob O'zbekistonning turistik mintaqalari istiqbollari ochib beradi.

**1-bob. “MINTAQAVIY TURIZM” FANINING MAQSADI VA  
VAZIFALARI**

**1.1. O‘zbekistonda turizmni mohiyati va uni mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri.**

**1.2. Mintaqaviy turizm fanining predmeti va obyekti.**

**1.3. Mintaqaviy turizm fanining maqsadi va vazifalari**

**1.1. O‘zbekistonda turizmni mohiyati va uni mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri**

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun etarlicha resurslarga ega.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz jahon sivilizatsiya o‘choqlaridan biri sifatida, o‘zining asori-atiqalari bilan mashhurdir. Bizning madaniyatimiz dunyo xalqlari san’at, arxitektura, shaharsozlik va ko‘pgina sohalarga o‘lkan hissani qo‘shgan. Tarixda ma’lumki, mintaqaning rivojlanishida ma’lum darajada turizmning ham hissasi bo‘lgan. Chunki, mamlakatimiz «Buyuk ipak yo‘li» markazida joylashgan, Shuning uchun savdo-sotiq va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar rivojlangan bo‘lib, ulardan tushgan daromadlar mamlakat xazinasiga katta ulush qo‘shgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar va yangilanishlar boshlandi. Shu o‘tgan davr mobaynida, mamlakatimiz o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon tajribasidan keng foydalanmoqda. Shu o‘rinda turizm sohasida ham tub islohotlar olib borilib, davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

**1.1-jadval**

**O‘zbekistonning turistik salohiyati<sup>3</sup>**

<b>Noyob madaniy-tarixiy meros</b>	<b>Xilma xil noyob tabiiy - iqlimiy ko‘rkam joylar</b>
Jahon sivilizatsiya markazlaridan hisoblangan, «Buyuk ipak yo‘li»ning markazida joylashganligi sababli buyuk tarixiy merosga ega ekanligi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning mavjudligi va boshqalar.	Mintaqada tabiatning turli ko‘rinishlari – cho‘llar, dashtlar, vohalar, tog‘ va muzliklarning mavjudligi. Undan tashqari noyob o‘simlik va hayvonat olami muhofaza etiladigan milliy bog‘, qo‘riqxonalar va buyurtmalarning faoliyat ko‘rsatayotgani turizmni rivojlantirish resurslari hisoblanadi.
<b>Rekreasion-gidromineral resurslar</b>	<b>Diniy – tarixiy diqqatga sazovor joylar</b>
Mamlakatimiz bir qancha mineral suv manbalariga ega. Bu o‘z navbatida sog‘lomlashtirishga imkon beradi. Jumladan, Janubiy OlamuShk shaharchasi va Polyvontoshda (Andijon viloyati), Buxorodagi “Citorai Mohi Xossa” Jizzax viloyatidagi Gagarin va G‘allaorol shaharlarida, Muborak shaharchasida (Kashqadaryo viloyati), Kattaqo‘rg‘on shahri Nagornyy temiryo‘l stansiyasida (Samarqand viloyati) sanatoriya-kurort, profilaktika muassasalarida bu resurs turidan keng foydalanilmoqda.	Diyorimiz Ulug‘ Islom dini rivojlanishiga hissa qo‘shgan ulamonlar vatani hisoblanadi. Imom Al-Buxoriy, Al-Motrudiy, (Samarqand), At-Tyermeziy (Sur-xondaryo), Naqshbandiy (Buxoro) kabi ulug‘ qadamjolarning mavjudligi diniy turizmni rivojlanishi uchun asos hisoblanadi
<b>Noyob xalq urf-odatlari, marosimlari</b>	
Boy o‘tmishga ega xalqimizning takrorlanmas urf-odat, an‘analarga ega. Xalq ijodiyoti namunalari, hunarmandchilik mahsulotlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Undan tashqari folklorShnsoqlikni rivojlanganligi sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.	

Dengiz va okeanlarga chiqish imkoniga ega bo‘lish, sayohatchilarning davlatlarga jalb etilishida alohida o‘rin tutadi, biroq O‘zbekiston bunday imkoniyatlarga ega bo‘lmasligiga qaramay, u Markaziy Osiyoning yo‘llar tuguni chorrahasida joylashgan. Bu esa nafaqat harakatlarning, tovar almashish, texnologiyalar va uskunalarni ayirboshlash uchun, balki turizmni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratadi.

Masalan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon, Shahrisabz kabi qadimiy shaxarlarimiz bugungi kunda butun dunyoga mashhur Respublikamiz hududidagi 4 mingdan ortiq arxitektura yodgorliklari YUNESKO himoyasiga olingan. O‘zbekistonning rekreatsiya resurslari yil mobaynida sayohatchilarning qabul qilish va ular uchun turli xildagi sayohat yo‘nalishlarini tashkil etish imkoniga ega.

<sup>3</sup> Ibdullayev N. “O‘zbekistonning turistik resurslari” ma’ruzalar matni Samarqand 2010

Ko'pgina xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, O'zbekiston kuchli turistik potensialga ega, bu esa ko'pgina sayohatchilarni oqimini o'ziga jalb etadi. Bu esa o'z navbavida, bizning respublikaga keladigan xorijiy turistlar sonini ko'paytirish, ularga yuqori malakali servis xizmatlarini tashkil qilishgina emas, balki vatandoshlarimizning boshqa davlatlarga turistik yo'nalishlar bo'yicha chiqishlari uchun qulay sharoitlarni ham yaratadi. Bizning davlatimizda turizm faqatgina tarixiy obidalar borligi uchun emas, balki hukumatimiz tomonidan e'tiborni kuchaytirilganligi, turistik biznes sohasiga oid bir qator me'yoriy – xuquqiy hujjatlarning qabul qilinishi sababli ham rivojlanib borishi lozim.

O'zbekiston ko'pgina turistik resurslarga ega mintaqadir. Ulardan madaniy – tarixiy, ekologik turizm resurslari hamda diniy turizm resurslari alohida ajralib turadi.

## **1.2. Mintaqaviy turizm fanining predmeti va obyekti**

Ma'lumki, jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida daromad keltirishi bo'yicha eng yuqori o'rinlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholini ish bilan banlligini ta'minlab, ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini taqazo etadi va Shu jihatdan ham u har doim barqaror rivojlanishga moyil. Shuning uchun ham turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda, bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish yo'llarini qidirmoqda va uni barqaror rivojlanish jarayonlariga e'tiborini qaratishmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab, O'zbekistonda ham turizmni shakllantirish va qaror toptirishga katta ahamiyat berilib, bu jarayonda turistik resurslardan, ayniqsa mintaq hududlarida mavjud bo'lgan salohiyatdan samarali foydalanish yo'l – yo'riqlari qidirilmoqda va uning imkoniyatlari o'rganilmoqda.

O'zbekistonda tarixiy – madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7 mingdan ortiq obyektlar mavjud. Ekspert B. To'raev fikricha ulardan 545 tasi – arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq obyektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasi esa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanish

jarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obyektlari miqdori bo'yicha Toshkentda -144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda - 201 ta, Xiva -310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadida foydalanish tashkil etilmagan. Sh sababdan milliy madaniy va tabiiy merosimizni turizm faoliyati maqsadida har jihatdan o'rganish va muhofaza etish o'ta muhimdir. YUNESKONing «Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish» konvensiyasida har bir davlat o'z hududidagi madaniy va tabiiy merosini muhofaza etishi, uni targ'ibot etishi, bunda o'zining samarali siyosatini olib borishi lozimligi ta'kidlanadi.

Fanning obyektidan kelib chiqib, mazkur fanning predmeti kelib chiqadi. Bu fanning predmeti turistik resurslarni, turlari va mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, hudud bo'yicha joylanish xususiyatlarini, milliy iqtisodiyotda samarali foydalanishni, ekologik-iqtisodiy xususiyatlarini, turizm faoliyatida foydalanish va muhofaza qilishni o'rganishdan kelib chiqadi.

## **1.3. Mintaqaviy turizm fanining maqsadi va vazifalari**

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashda yangi ish o'rinlarini ochish katta ahamiyatga ega. Shning uchun qaysi tarmoqlarda yangi ish o'rinlari ochish imkoniyati bo'lsa, undan samarali foydalanish lozim. Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes ko'rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Iqtisodiyotimizda turistik resurslardan samarali foydalanishda sohada yangi ish o'rinlari ochish katta ahamiyatga ega.

Har bir hududda turizm shakllanar ekan, bu hududda turizm faoliyatida foydalanilayotgan turistik resurslar mavjud bo'ladi. Bu resurslarni turizmni tashkil

etish asosi desak bo'radi. Lekin, har bir hududning resurs salohiyati resurslarning miqdor va sifat jihatiga ko'ra farq qiladi. Shu sababli turistik resurslarni har jihatdan o'rganish, baholash, umuman olganda turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini, tahlil etish ma'lum mintaqada turizmni rivojlantirish istiqbolini belgilaydi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib bu fanning maqsadi mamlakatimizning turizm salohiyatini belgilash nuqtai nazaridan turistik resurslarimizni har taraflama o'rganib chiqishdir. Shu jihatdan kelib chiqib turizm faoliyatida turistik resurslardan samarali foydalanish, uni iqtisodiy asoslarini yaratish bu fanning asosiy vazifasidir. Undan tashqari, Vatanimizning kelajagi hisoblangan yoshlar ongida Milliy merosimizga, jumladan, madaniy-tarixiy, tabiiy yodgorliklar va milliy an'analarimizga bo'lgan munosabatni shakllantirish fanning asosiy maqsadidir. Xalqimiz milliy boyligimiz hisoblangan turistik obyektlarimizni, tabiatimizni qanchalik asrab-avaylasa, Shunchalik mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari oshib boradi. Fanning vazifasi - turistik resurslar haqida tushuncha berish, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, mintaqalar bo'yicha joylanishi, turistik rayonlashtirish hamda, mamlakatimiz turistik resurslarini muhofaza qilish tadbirlari to'g'risida talabalarda tasavvur hosil qilishdir.

**Tayanch so'zlar. Mintaqaviy turizm, O'zbekistonning turistik mintaqalari, Samarqand, Buxoro, Toshkent.**

#### **Savol va topshiriqlar**

1. O'zbekistonda turizmni mohiyati va uni mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirining asosiy mazmunini.
2. O'zbekistonni nechta turistik mintaqaga ajratish mumkin?
3. Turistik mintaqalarning tushunchasining mohiyati.
4. O'zbekistonda turizm istiqbollari qaysi mintaqaga bog'liq.
5. Mintaqalarda resurslar qanday ahamiyatga ega?

## **2- bob. MINTAQAVIY TURIZMNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MAZMUNI, ULARNING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

### **2.1. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uni jamiyatdagi o'rni.**

Turizm bugungi kunda jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi sohaga aylandi. So'nggi yillarda uning jahondagi tovarlar va xizmatlar savdosining 10 % to'g'ri kelmoqda. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga davlat darajasida qarab, barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega. Birinchi navbatda, turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir.

Albatta turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi.

Turistik resurslarning turizmning ahamiyati uning ijtimoiy – iqtisodiy mazmunidan kelib chiqadi. Turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo'lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchiga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o'zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog'liqni muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining umumiy ma'lumoti va madaniy – texnik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda turistik resurslar orqali dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtdan unumli, to'g'ri foydalanish ta'minlanadi. Shuningdek, turistik resurslar shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual darajasini oshirishda, asabiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida tavsifini berishda xalqaro, davlatlararo va va shaharlararo munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi. Undan tashqari turistik resurslar turizmni ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydi. Bu soha bevosita aholining ijtimoiy sohaga muhtoj qatlamini, ya'ni maktab o'quvchilarini, nafaqaxo'rlarni, talaba – yoshlarni, nogironlarni, keksa nuroniylari kabi aholining shunday toifasini sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhimi ushbu sohaga qo'yilgan investitsiya foyda uchun emas, balki ijtimoiy qo'llab – quvvatlash uchun mo'ljallangan bo'radi).

## **2.2. Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati**

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o'rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashilotining ma'lumotlariga ko'ra, axoli salomatligi 50-50 % ularning iqtisodiy ta'minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30 % tibbiy xizmat darajasiga bog'liq bo'ladi. Xavoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo'ladi.

Zamonaviy gigiena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o'rtacha darajasi 20% ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, u aholining ishdan bo'sh vaqtdan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo'nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog'lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog'lomlashtirish, umrni o'zaytirish, insonning jismoniy va ma'naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm) shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini oshirishnigina ta'minlab qolmay, balki 20-50 % ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo'lishining oldini olishni ta'minlaydi.

O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat O'zbekiston fuqarolarining, balki Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. O'zbekiston

hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh er osti mineral suv manbalariga ko'plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. Chimyon va To'rtko'l kabi tog' - chang'i sportini rivojlantirish mumkin bo'lgan bir qancha tog' maskanlari mavjud. Baland qorli tog'lar alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog' turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning ko'pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o'simliklar yig'ish uchun turlarni tashkil etishga ikmoniyat yaratadi. Bu esa ko'plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi.

Turistik resurslar xalq madaniyati, urf-odatlari, rustumlari, ma'naviyatini ko'rsatuvchi, belgilovchi milliy boylikdir. Xattoki, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur "Bizni qudratimizni bilmog'chi bo'lsangiz, biz qurdirgan inshootlarga boqing" deb bejiz ta'kidlamagan. Ana shu qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy obyektlar hamda atrof-muhit, tabiatning qay ahvolda ekanligiga qarab o'sha joyning aholisining ma'naviy-madaniy darajasini belgilash mumkin.

## **2.3. O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati**

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori daraja foydalanishning ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligining ochishida qanday rol o'ynashiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoiti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalariga axborotlashtirish sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni tatbiq etish sur'atlarini g'oyatda tezlashtirib yuboradi.

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar,

jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi.

Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi.

Xivadagi Ichan-Qal'a majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi. Buyuk Ipak Yo'li chorrahasida yashovchi o'zbek xalqining an'ana va odatlari ko'plab asrlar davomida zoroastritlar, so'g'diylar, baqtriyaliklar va ko'chmanchi qabilalar urf odatlari va shuningdek islom dini urf-odatlari tasiri natijasida shakllandi. O'zbekiston bo'ylab sayohat mobaynida, sayyohlar nafaqat me'moriy yodgorliklarni ko'rishi va shuningdek xalq bayramlarini nishonlashda ham ishtirok etishlari mumkin. (Misol uchun Navro'z yangilanish, bahorgi bayram 21-mart kun va tun teng bo'lgan vaqt).

Mevalar va sabzavotlar rastasi oldidan o'tayotgan har qanday odam mo'l-ko'llikdan va rangbaranglikdan hayratda qoladi. Sharq bozorlari ayniqsa yoz va ko'zda hayratlanarli tusga kiradi. Bozorning qizg'in hayoti erta tongda boshlanib kech tushganda tugaydi. Savdogarlarning mijozlarni chaqirishi, avtomabillar shovqini, milliy musiqa ovozi, zirovorlar isi va qovurilgan go'sht hidi, rastalardagi rang-barang mevalar va sabzavotlar sharqona bozorning takrorlanmas jozibasini yaratadi.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. O'zbekistondagi qaysi viloyatimizda borishni xohlaysiz .
6. Xalqaro turizm va mintaqaviy turizmning farqlarini izohlang ? Natijani konseptual jadval ko'rinishida to'ldiring.
3. O'zbekistonda turistik resusrlarni mintaqalar bo'yicha sanab o'ting va tavsif bering (2-adabiyotga qarang). Natijalarni texnologik sxema ko'rinishida shakllantiring.

### **3-bob. MINTAQAVIY TURIZMDAN FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI**

#### **3.1. O'zbekistonning turistik mintaqalarida turizmning tashkil qilinishi.**

O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-qal'a majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi.

#### **Toshkent**

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. O'zbekistonning hozirgi paytda ham Toshkent o'zimizning O'zbekiston Havo Yo'llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo'nalishlarining chorrahasidir.

Toshkent dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. 2009-yilda u o'zining 2200 yilligini nishonladi. Bir paytning o'zida Toshkent zamonaviy ishlab chiqarish markazidir, bu yerda 500 dan ortiq kompaniyalar turli xil mahsulotlar; samolyotdan traktorgacha, televizordan to'qimachilik va oyoq kiyimlargacha ishlab chiqaradi. Toshkent tez sur'atlarda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy osmono'par binolarning o'zaro uyg'unligida zamonaviy rivojlangan xalqaro megapolisga aylanmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o'zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo'lib, uning ulkan ko'k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi. Uning eksponatlari O'zbekiston hududida o'rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va san'atning rivojlanishini aks ettiradi.

#### **Samarqand**

Asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo'li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o'ynadi. Birgina Samarqand esa



“Buyuk Ipak yo‘lining yuragi” deb nom oldi. Qadim davrlarda Samarqand “Islom me‘morchiligi marvaridi”, “Dunyo ko‘zgusi” kabi nomlar bilan ta‘riflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo‘lgan Samarqand o‘zining 2750 yilligini nishonladi. Samarqand buyuk qo‘mondon va Chingizxondan keyingi markaziy Osiyoning hukmdori Amir Temur davrida Buyuk Movarounnahr davlati poytaxti etib tanlanganda o‘zining eng yuqori gullab-yashnash nuqtasiga yetdi.

Bu vaqtda keng qamrovda shaharsozlik ishlari amalga oshirildi. Buyuk hukmdor Samarqandda o‘z davrining eng mohir hunarmand va ustalarini to‘pladi va ular yaratgan ishlar asrlar mobaynida yashab kelmoqda. Amir Temurning nevarasi Ulug‘bek bu an‘analarni davom ettirdi. Bugunda Samarqandagi yodgorliklar go‘zal va ulkan. Bu shaharda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadim tarixning nafasini his etish mumkin. Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me‘moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo‘lgan. Bu yerda bir necha asrluk uch ulkan binolari Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko‘targan. Amir Temur maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvarididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug‘bek qabrlari joylashgan.

Havorang lolalarning yaproqlari tig‘iz qilib joylashtirib chiqilgan g‘unchaga o‘xshash Amir Temur maqbarasi sayyohlar uchun juda taniqli joy. Registon maydoni, Amir Temur, Bibi-xonim, Shohi-Zinda maqbaralari, Ulug‘bek rasadxonasi va shuningdek bir qancha yodgorliklar shaharga tashrif buyuruvchilarni o‘ziga maftun qilib kelmoqda.

### **Buxoro**

Qadimdan Buxoro vohaning zich aholiga ega markazi bo‘lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 da. Qulay muhit va 140 dan ortiq qadimiy me‘moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo‘lib qolaveradi. Huddi to‘r bilan qoplangan Ismoil Samoniy maqbarasi, ulkan qo‘rg‘on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko‘plab

masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo‘q marvaridlaridan bo‘lib qoladi.

### **Xiva**

Buyuk ipak yo‘li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xivadir. U “ochiq osmon ostidagi muzey” deb nomlanadi. Shahar markazidagi ko‘plab me‘moriy yodgorliklar joylashgan Ichan-Qala majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Buyuk Ipak Yo‘lining chorrahasida joylashganligi va bu yerdan karvon yo‘li o‘tganligi sababli Ichan-Qalaga dunyoning to‘rt tomoniga qaragan to‘rtta darvozalar qurilgan. Qal‘a devorining balandligi huddi haqiqiy sharq etaklaridagi kabi shaharga maftunkor ko‘rinish beradi.

Minoralar osmonga yetay deydi, va ularning orasida O‘zbekistondagi eng uzun minora Islom-Xo‘jadir. Uylarning tekis tomlari uzra maqbara va masjidlarining charaqlagan ko‘k gumbazlari viqor bilan turadi. Xivada xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo‘lib ulardan eng mashxuri marosimlar o‘tkaziladigan, xon dam oladigan va xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan Tosh-hovli saroyidir. Tashqi tomon va devor mozayka bezakli toshlar bilan qoplangan. Shaharning ajoyibligini bilish, tor ko‘chalarini o‘rganish va ”ochiq osmon ostidagi muzey” ning asl taftini his qilish uchun bir kun ham kamlik qiladi.

### **Termiz**

Ko‘p qirrali O‘zbekiston tarixi shubhasiz uning geografik joylashishini ham aks ettiradi. Termiz mamlakatning eng janubiy shahridir. Termiz Amudaryo sohilining o‘ng tomonida karvon yo‘lida asos solingan bo‘lib asosiy port sifatida 2500 yildan buyon shu vazifani bajaradi. Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo‘lgan. Qora-tepadagi toshga o‘yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Budda ibodatxonasi, ko‘plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari sayyoh va budda sig‘inuvchilar uchun mashxur joy. Termiz faqatgina o‘zining budda dini yodgorliklari bilangina mashxur emas. Bu yerda o‘rta asrlar boshiga tegishli bo‘lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar ham bor. Ularning orasida Hakim at-Termiziyning qabri, Sulton Saodat ansambli (X-XVII asrlar) va afsonaviy Qirq-Qiz qal‘asi (IX asr) mavjud.

### 3.2. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish chora tadbirlari

Mamlakatimizda ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 16- avgustda «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda dasturga muvofiq, Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etish, shuningdek, Navoiy viloyatida To'dako'lining janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko'l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, qarorda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishini muntazam o'rganish tizimini joriy qilish belgilangan. Shu maqsadda:

- Dastur ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, yurtimizda turizm sohasi rivojiga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi;

- rejalashtirilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etilishini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari rahbarligida faoliyat yuritadigan turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar tashkil etildi.

### 3.3. Mintaqalarda turizmni rivojlantirish muammolari

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turizmning rivojlanishi va mamlakatning sayyohlik salohiyatidan yetarli darajada foydalanishga to'siq bo'layotgan asosiy sabablarni ma'lum qildi. Muammolar va yechimlar O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo'yicha Kontseptsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to'g'risida»gi qarori loyihasida taqdim etilgan. Hujjat matni Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi saytida joylashtirilgan.



1-rasm. Xiva shahri tarixiy obidalari<sup>4</sup>.

Hujjatda qayd etilishicha, milliy sayyohlik mahsulotlarining raqobat bardoshligiga yashash va aviaparvozlar uchun yuqori narxlar, servis darajasining cheklanganligi, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarning nomukammalligi, qulay sayyohlik axborot ta'minoti (navigatsiya va axborot markazlari) mavjud emasligi, malakali kadrlarning tanqisligi, O'zbekistonni xorijda targ'ib qilishning zaifligi jiddiy muammolardir.

## 4-bob. MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARI TASNIFI

### 4.1. Turistik resurslar tushunchasi, mohiyati

Hozirgi vaqtda ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi – xodimlar orqaligina shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo'lish lozim.


Mutaxassislar turistik resurslarga quyidagicha ta'rif berishgan: turistik resurslar – tabiiy, tarixiy, ijtimoiy – madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir obyektlarga aytiladi. Rekreatsiya faoliyati nuqtai nazardan turistik resurslarga tabiiy va antropogen geosistemalar kiradi, tabiat manzaralari, rekreatsiya faoliyati ehtiyoji qiymatiga va maishiy xususiyatga ega, insonlarni ko'rsatilgan vaqtda ma'lum texnologiyalar yordamida sog'ligini tiklash va dam olishida foydalanish mumkin bo'lgan, rekreatsiya faoliyati qobiliyatiga ega resurslar kiradi.

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan barcha obyektlar kiradi. Turizmni rekreatsiyaning ko'rinishi sifatida olsak, «turistik resurslar» tushunchasi «rekreatsiya resurslari» bilan birgalikda uyg'unlashadi.

Turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsiya resurslari ikki guruhga ajratiladi: **tabiiy va antropogen** rekreatsiya resurslari (1-chizma).

Tabiiy rekreatsiya resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport

bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxonalar va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.



4.1-rasm. Rekreatsiya resurslari<sup>5</sup>

Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan ijtimoiy obyektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari, rekreatsiya resurslarni qo'yidagi asosiy belgilariga ko'ra ajratish mumkin:

- landshaft – iqlimiy xususiyati;
- tabiiy resurslar potensial zahirasi;
- jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- qulaylik va foydalanish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy – demografik xususiyati.

<sup>5</sup> Ibdullayev N. "O'zbekistonning turistik resurslari" Samarqand 2008.

#### 4.2. Turistik resurslar tasnifiga yondoshuvlar

Turistik resurslar tasnifiga bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan polyak iqtisodchisi M.Truasi (1963y) va fransuz iqtisodchisi P.Deferem (1972y) taklif qilgan tasnifi ancha takomillashgan.

Truasi turistik resurslarni uch guruhini ajratadi:

1. Tabiiy turistik resurslar, «turistik kapital potensiali» sifatida unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko'l, daryolar, tog'lar, o'rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarni tabiiy – iqlimiy resurslar deb atash mumkin.

2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya'ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy obyektlar va boshqalar. Bular ekskursiya obyektlari hisoblanadi.

3. «Qo'shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma'lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash mumkin.

Lekin, Rossiyalik mutaxassislar M.E.Nemolyaeva va L.F.Xodorkov qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini turistik resurslarga qo'shish mumkin emas deb hisoblashadi. Chunki, bu korxonalar mavjud turistik resurslardan foydalangan holda ish yuritadilar, aks holda bir butun turistik sayohatni qamrab olgan holda xizmat ko'rsata olmaydilar.

Defer barcha turistik resurslarni 4ta guruhga ajratadi: *gidrom, fitom, litom* va *antropom*.

*Gidrom* – bunga suv bilan bog'liq turistik resurslar kiradi. Bu guruh tarkibiga ko'l, daryolar, dengiz bo'yi, muzliklar, mineral suv manbalari, gidroelektrstansiyalar, sharsharalar va boshqalar kiradi. Misol uchun, mashhur Niagara sharsharasi, Amazonka daryosi, Ispaniyadagi dengiz bo'yi plyajlarini kiritish mumkin. *Fitom* – tabiiy turistik resurslar, buning tarkibi ikki turda bo'lishi mumkin: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon, tog'lar, cho'qqilar, vo'lqonlar, tabiiy manzaralar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar).

*Litom* – inson tomonidan yaratilgan va o'zi yoki belgilariga ko'ra turistlar qiziqishini orttiradigan resurslar bo'lib, uning tarkibiga arxitektura yodgorliklar, qadimgi insonlar yashash joylari, ochiq osmondagi muzeylar kiradi. Undan tashqari litomlarga zamonaviy qo'rilmalar: ko'priklar, aeroportlar, sport majmualari, universitetlar, akvariumlar, observatoriyalar va boshqalar kiradi.

*Antronom* – turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati ko'rinishlarini kiritish mumkin. Antronom elementlariga insonning o'zi, uning hayoti, urf – odatlari, yuqolgan yoki yuqolish arafasida turgan, ya'ni milliy xalq bayramlari, folkrol, milliy musiqa va kiyimlarni kiritish mumkin. Undan tashqari antronomga sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini, o'quv dargohlari va ijtimoiy – maishiy obyektlarni ham kiritish mumkin. Misol uchun Rio-de-Janeyrodagi mashhur karnaval, Fransiyaning SHampan provensiyasidagi mashhur uzumzorlar va vino ishlab chiqarishni ko'rsatish mumkin. Defer tasnifini xususiyati shundaki, unda ayrim turistik resurslar bir necha guruhda birdaniga uchratish mumkin.

Umuman olganda turistik resurslarga turlicha qarashlar mavjud. SHuni ta'kidlash lozimki, turizm maqsadida turistik resurslardan to'g'ridan – to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Buning uchun ko'pgina qo'shimcha xizmatlar, ya'ni joylashtirish, ovqatlanirish, sayohat va transport xizmatini tashkillashtirish kabi xizmatlardan foydalanish orqaligina turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalanish mumkin.

#### 4.3. Turistik resurslar turlari

Turistik resurslarni foydalanish xususiyatiga ko'ra *bevosita* va *bilvosita* turlarga bo'linadi. Bevosita turdagi resurslarga turistlarni o'zlari to'g'ridan – to'g'ri foydalanadigan tabiiy va tarixiy – madaniy resurslar kiradi. Bilvosita turdagi resurslarga bevosita turistik resurslardan foydalanish asos bo'ladigan ijtimoiy – iqtisodiy resurslar – moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi.

#### 4.1- chizma

<p><b>Kelib chiqishiga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• tabiiy - (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar);</li> <li>• biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna);</li> <li>• axborot beruvchi - tabiatdan o'ziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish bo'lib, bu resurslar madaniy, ziyoratli kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.</li> </ul>
<p><b>Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• mineral suvlar;</li> <li>• botqoqlar;</li> <li>• tuzlar;</li> <li>• o'rmonlar.</li> </ul>
<p><b>Resurslarning tugashi darajasiga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• tugaydigan tabiiy resurslar, ular o'z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o'simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo'linadi.</li> <li>• tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to'lqinlari, suvlar kiradi.</li> </ul>
<p><b>O'zi qayta tiklanishi va o'sishi imkoniyatiga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• qayta tiklanadigan resurslar, bunga o'rmonlarni misol keltirish mumkin, o'rtacha 50 yilda qayta tiklanadi.</li> <li>• qayta tiklanmaydigan resurslar.</li> </ul>

Bogolyubov V.S. va Orlovskaya V.P. lar (Ekonomika turizma. M.2005,151b.) turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi qo'yidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qulaylik (jozibadorlik);
- Iqlimiy sharoit;
- O'rganganlik darajasi;
- Sayyohlik ahamiyati;
- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy – demografik xususiyatlari;
- Potensial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va boshqalar.

Mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizmni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ammo oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridagi ikki guruhni ham ahamiyati yuqori. Har qanday yuqori turistik resurs potensialidan, kommunikatsiya, aloqa vositalari, xizmat ko'rsatish sohasisiz foydalanib bo'lmaydi.

Umuman olganda, butun turistik resurslar majmuasini tabiiy – iqlimiy, madaniy – tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy, axborot beruvchi resurslarga bo'lish mumkin. Bu resurslardan turizm maqsadida saqlashni quyidagicha amalga oshirish taklif qilinadi:

- mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish obyektlari sifatida qayta tiklash;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;
- turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof – muhit saqlash va yaxshilashda boshqaruv organlari ma'suliyatini oshirish

Turistik resurslar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy obyekt va yodgorliklar asosiy o'rinda turadi. «Madaniy meros» deyilganda qo'yidagilar tushiniladi:

- *Yodgorliklar*: arxitektura binolari, arxiologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g'orlar, yozuvlar;
- *Ansanbillar*: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o'zaro bog'langan binolar guruhi. Masalan, Registon ansambili;
- *Mehmondo'stlik joylari*: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga jalb qiluvchi o'ziga xos joylar.

Butunjahon madaniy merosi ruyxatiga kiritiladigan obyektlarning qo'yidagi hususiyatlari hisobga olinadi:

- Inson ijodining noyob namunalari;
- Ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;
- Zamonaviy sivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;
- Inson tarixi bilan bog'liq binolar yoki arxitektura ansambillari, landshaftlari.

Tabiatning noyob ko'rinishlarini butunjahon ruyxatiga kiritiladigan hususiyatlari qo'yidagilardan iborat:

- Yer taraqqiyotida geologik-geomorfologik jarayonlar asosida shakllangan yodgorliklar;

- Turli-tuman o'ziga hos ekosistemalar, landshaftlar;
- Ma'lum mintaqaning o'ziga xos o'simlik va xayvonlari;
- Kamyob biologik turlari.

Umuman olganda hozirgi kunda turistlar uchun informatsiya asosiy o'rinni egallaydi. Chunki turist borayotgan joyi haqida qancha ko'p bilsa, sayohatini samarali o'tkazadi. Albatta har qanday turist ma'lum vaqt oralig'ida iloji boricha ko'proq joylarga borishga harakat qiladi. Buning uchun u albatta ma'lumotlarga etarli darajada ega bo'lishi kerak.

Axborot tashuvchilar moddiy obyektlar – inson va ijodlari, nomoddiy obyektlar – turli axborot manbalari hisoblanadi. Diniy turizm moddiy obyektlar bo'lib, monax va dindorlar, ekskursiya olib boruvchilar, hamda diniy markaz va shaharlarning fotosi, kartasi, sxemalari hisoblanadi.

**Tayanch iboralar.** Turistik resurslar, antropogen, ekologiya, fitom, litom, atmosfera, o'simlik, resurs.

#### Savol va topshiriqlar

1. Nima deb o'ylaysiz turistik resurslar O'zbekistonda bir tekis rivojlanganmi ?
2. Fikringizcha, ekoturistik marshrutlar ko'proq kimlar qiziqadi ?
3. Ziyorat turizmini rivojlantirishimizga asos bo'luvchi turistik resurslardan qaysilarini bilasiz?
4. Qaysi viloyatimiz ekologik resurslarga boy?

## 5- bob. MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH

### 5.1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari.

Jahon bo'yicha xalqaro turizmni rivojlanishi mintaqalar bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Albatta, bu o'sha mintaqaning turistik-rekreatsiya resurslarga qanchalik ega ekanligiga, undan tashqari turizm infratuzilmasi va industriyasi shakllanishi uchun shart- sharoitning qanchalik qulayligiga ham bog'liqdir.

#### 5.1-jadval

#### O'zbekistonda turistik resurslarga bo'lgan talab va undan foydalanish<sup>6</sup>.

Resurslar	Mahalliy sayohatchilar talabi	Xorijiy sayohatchilarning talabi	Resurs salohiyati	Foydalanish darajasi
Rekreatsiya va ekologik turizm resurslari	past	yuqori	o'rta	past
Madaniy va etnografik turizm resurslari	o'rta	yuqori	yuqori	past
Tarixiy, me'moriy va arxeologik tanishuv resurslari	o'rta	yuqori	yuqori	o'rta
Diniy turizm resurslari	yuqori	o'rta	yuqori	o'rta
Ekzotik muhit va har xil sarguzasht resurslari	past	o'rta	o'rta	past
Servis sifati	past	yuqori	past	past

Turistik resurslar asosiy tuzilishiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

- jozibadorligi, ko'rkamligi;
- iqlimiy sharoiti;
- borish mumkinligi;

<sup>6</sup> Ibdullayev N. "O'zbekistonning turistik resurslari" Samarqand 2008

- ekskursion ahamiyati;
- manzarali tuzilishi;
- ijtimoiy – demografik tarkibi;
- qayta ishlab chiqarish darajasi;
- foydalanishga qodirligi;
- noyobligi va boshqalar.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, mamlakatimiz turistik resurslariga bo‘lgan talab yuqoridir. Shu sababdan kelib chiqib, turistik resurslardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni har jihatdan tahlil etish o‘ta muhimdir. Turizmni rivojlanishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Asosiy omillarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Bular, *barqaror* va *o‘zgaruvchan* omillar.

### 5.2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati

Turistik resurslar turli tabiiy, madaniy – tarixiy, hamda ijtimoiy – iqtisodiy obyektlar ko‘rinishida bo‘lib, turistik xizmatlar ko‘rsatishga asos bo‘la oladigan resurslarga aytiladi. Undan tashqari, turistik resurslar turistik mahsulotlar yaratishga asos bo‘ladigan tabiiy hamda, insonlar tomonidan yaratilgan obyektlar majmuasidan iborat.

Turistik resurslardan sog‘lomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniladi. Undan tashqari turistik resurslarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: *tabiiy* va *infrastrukturali*. Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridagi ikki guruhni ham ahamiyati yuqori. Har qanday yuqori turistik resurs potensialidan, kommunikatsiya, aloqa vositalari, xizmat ko‘rsatish sohalarisiz foydalanib bo‘lmaydi.

Har bir hududda turizm shakllanar ekan, bu hududda turizm faoliyatida foydalanilayotgan turistik resurslar mavjud bo‘ladi. Bu resurslarni turizmni tashkil etish asosi desak bo‘ladi. Lekin, har bir hududning resurs salohiyati resurslarning miqdor va sifat jihatiga ko‘ra farq qiladi. Shu sababli turistik resurslarni har jihatdan o‘rganish, baholash, umuman olganda turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini, tahlil etish ma’lum mintaqada turizmni rivojlantirish istiqbolini belgilaydi. Shu sababdan mavjud turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalanilganida ularni har

jihatdan *baholash* o‘ta muhimdir. Turistik resurslarni baholash bo‘yicha ham turli yondoshuvlar mavjud. Turistik resurslarning iqtisodiy bahosi bevosita resurs turiga, uning sifatiga, joylashuviga, foydalanish texnologiyasiga hamda atrof – muhit holatiga bog‘liq. Hozirgi kunda turistik resurslardan to‘laligicha foydalanish uchun turistik resurslarni atroflicha tahlil etish va baholash katta ahamiyatga ega. Bunda ularni baholash asosiy o‘rinni egallaydi. Baholash orqaligina ulardan foydalanish, muhofaza qilish me‘yorini o‘rnatish mumkin.

### 5.3. Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash

Turistik – rekreatsiya resurslarini mutaxassislar asosan **miqdor** va **sifat** jihatdan baholashni taklif etishgan. Miqdor jihatdan baholashda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo‘lgan turistik resurslar hisobi olinadi hamda baholashda qo‘yidagi xislatlar hisobga olinadi:

1. Zahira ko‘rsatgichi, ya’ni hududiy rekreatsion tizimning qabul qilish potentsiali;
2. Mavjud resurslarni maydon ko‘rsatgichi, ulardan rekreatsiya maqsadida foydalanish imkoniyati;
3. Rekreatsiya resurslaridan mavsum sifatida foydalanishning davomiyligi.

Bu bahoni Samarqand viloyati misolida ko‘radigan bo‘lsak, birinchi navbatda viloyatning turistik obyektlarini o‘rganishimiz lozim. Quyida viloyatning turistik obyektlari 5.3 - jadval asosida ko‘rsatilgan.

### 5.3-jadval

#### Samarqand viloyatining turistik obyektlari<sup>7</sup>

Tumanlar	Turistik obyektlar nomi
Samarqand shahri	Ulug‘bek observatoriyasi, Xo‘ja Doniyor payg‘ambar ziyoratgohi, Ishratxona, Qadimiy Siyob arig‘i, Afrosiyob arxeologik muzeyi va xarobalari, Xazrati Xizir masjidi, Shohi – Zinda majmuasi, Bibixonim ansambli, Siyob bozori, Registon ansambli, Al-Motrudiy maqbarasi, Ruhobod maqbarasi, Amir Temur maqbarasi, shahar bosh jom‘e masjidi, O‘lkashunoslik muzeyi, Samarqand bosh tarixiy muzeyi, Universitet xiyobonidagi qadimiy chinorlar va boshqa daraxtlar, Alisher Navoiy muzeyi, SamDU arxeologik, zoologik muzeylari, shahar istirohat bog‘lari, shifobaxsh chashma buloqlar, qadimiy mahallalar.
Samarqand	Xo‘ja Ahrori Vali Ziyoratgohi, Mironqul, Sazag‘on, Ohalik Dam Olish

<sup>7</sup> Манба: А.С.Солиев, М.П.Усмонов Туризм географияси. Самарқанд-2005

tumani	Maskanlari, Ohalik tog'i soyliklaridagi xushmanzara dam olish maskanlari, milliy an'analar, yog'och o'ymakorligi, metallga ishlov berish, milliy urf odatlar.
Urgut tumani	CHor chinor, chinorlar va buloqlar, G'ovsul A'zam ziyoratgohi, Xo'jabtol ota, Miqqilloq tosh, Teshiktosh, Qaynar, SHirvog'ota ziyoratgoh va dam olish maskanlari, «Toshqo'y» tabiiy haykali, Bug'jamatosh, Toshkelinchak, Go'rimor tabiiy tosh shakllari, Lev, Qaynarbuloq, Rohatbuloq buloqlari, Omonqo'ton dam olish maskanlari, Eski davon yo'llari, taxti Qorachabegim saroyi xarobalari va b.
Bulung'ur tumani	Qadimiy Tuyatortar kanali, Fozil Yo'ldosh o'g'li uy muzeyi, xalq etnografik folklor ansambllari, mahalliy hunarmandchilik va b.
Jomboy tumani	Xolvoyi qishlog'idagi qadimiy chinorlar, Zarafshon daryosi va uning Oqdaryo va Qoradaryoga ajralishi, Zarafshon qo'riqxonasi, xalq milliy an'analari va urf-odatlar.
Ishtixon tumani	Qoradaryo sohillari, shayxlar qo'rg'oni xalq milliy san'ati, milliy an'analar, urf-odatlar va b.
Kattaqo'rg'on tumani	Kattaqo'rg'on suv ombori, Andoqiy ziyoratgohi va bulog'i, «cho'kkan tuya» shaklidagi tabiiy yodgorliklar va milliy an'analar.
Narpay tumani	Qo'chqorli ota ziyoratgohi, Qo'tirbuloq dam olish maskani, shifobaxsh bulog'i va avliyo baliqlari, Qo'shtepa ikkita tabiiy tosh tepalik va milliy an'analar.
Nurobod tumani	Xazrati Dovud ziyoratgohi va g'ori, Tim qishlog'idagi qadimiy archalar, Qarnobcho'l ekolandshaftlari, xalq hunarmandchiligi, jumladan jun yigirish, gilam to'qish, ko'pkari o'yinlari, milliy kurash, qadimiy sardobalar va b.
Oqdaryo tumani	Mahdumi A'zam Dahbediy ziyoratgohi, Oqdaryo daryosi sohillari dam olish maskanlari, Miyonqol oroli ekolandshafti, xalq milliy an'analari.
Payariq tumani	Imom Buxoriy masjid majmuasi va ziyoratgohi, Navro'ztepa, G'ilonsoytepa, Oqtepa tabiiy tepaliklari, xalq milliy an'analari va b.
Pastdarg'om tumani	Qadimiy Darg'om kanali dam olish maskanlari, milliy an'analar, milliy kurashi, ko'pkari o'yinlari va b.
Paxtachi tumani	Dobussiya qal'a xarobalari, Zarafshon daryosi sohillari dam olish maskanlari, qadimiy sardobalar.
Tayloq tumani	Tayloq ota qo'rg'oni ziyoratgohi, jom'e masjidi, istirohat bog'i, Bandikushon ziyoratgohi va b.
Qo'shrabod tumani	Tog' oldi dam olish maskanlari, Qaynar avliyo bulog'i, milliy an'analar, urf-odatlar, mlliy dostonchilik, baxshichilik, Ergash Jumanbulbul o'g'li dostonchilik maktabi va b.

Jadvaldan ko'rish mumkinki, qanchalik hudud turistik obyektlarga boy hisoblansa, turistik mahsulotlar turini ko'paytirish imkoniyati yaraladi. Har bir hudud ma'lum tur turistik resurslarga ega bo'ladi. Qaysidir hudud tarixiy obidalariga boy hisoblansa, ayrimlari tabiiy turistik obyektlarga boy hisoblanadi. Turistik faoliyatda barcha turistik resurslardan bir zaylda foydalanib bo'lmaydi, chunki obyektlarning joylashishidagi qulayligi, jozibadorligi turlicha. Shuning uchun turistik resurslarni sifat jihatdan baholash muhim sanaladi. Sifat jihatdan baholashda qo'yidagi belgilar

e'tiborga olinadi: ta'sirchanligi, ulug'vorligi, joylashuvidagi qulaylik, atrof-muhit holati, tabiiy rekreatsiya resurslarining o'ziga jalb qilish qobiliyati va boshqalar.

Agarda shartli ravishda besh balli tizimda baholasak, tabiiy turistik resurslari imkoniyati bo'yicha Samarqand shahri, Samarqand tumani, Urgut tumani - 5 ballga, Nurobod va Qo'shrabod tumani - 4 ballga, Pastdarg'om, Paxtachi va Tayloq tumanlari - 2 ballga teng. Tarixiy obidalar va diniy qadamjoli obyektlarga ega hududlar imkoniyati bo'yicha, Samarqand shahri va tumani - 5 ballga, Payariq va Urgut tumani - 4 ballga, Bulung'ur va Qo'shrabod tumanlari - 1 ballga baholash mumkin. Milliy etnografik va madaniy obidalar resurslari bo'yicha Samarqand shahri va Kattaqo'rg'on tumanlari - 5 ballga, Nurobod, Oqdaryo va Urgut tumanlari - 4 ballga, qolgan tumanlarni - 3 ballga baholash mumkin.

YUqoridagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Samarqand shahri va tumani, Urgut va Payariq tumanlari turistik resurslarga boy hisoblansa, ayrim tumanlarning turistik resurs imkoniyati kam. Shu jihatdan tumanlarning turistik resurslari potensialini uch kategoriya (yuqori, o'rtacha, past) asosida baholash ham mumkin. Bu yerda, Samarqand shahri va tumani, Urgut va Payariq tumanlari yuqori kategoriya, Nurobod, Kattaqo'rg'on, Narpay va Oqdaryo tumanlari o'rtacha kategoriya, qolgan tumanlarni past kategoriya kiritish mumkin.

#### 5.4-jadval

Tabiiy resurslarni baholash<sup>8</sup>

Rekreat-siya bahosi	Trassa balandligi, m	Mehmonxon a va trassa orasidagi masofa, km	Trassa uzunligi, m	O'rtacha aylana, gradus	Qiyalik yuzasining xususiyati	Ko'chki xavfi
Qulay sharoit	1000-2500	1	1000	12-18	Toshli hududning yuzasi tekis hamda mustahkam	Ayrim kuchli qor yog'ishidan keyin bo'lishi mumkin
Qisman qulay	1000;2500-3000	1-5	200-1000	18-20; 10-12	Toshli hududning yuzasi qisman tekis, lekin qo'shimcha ravishda hamda mustahkam	Kuchli qor yog'ishidan keyin bo'lishi mumkin

<sup>8</sup> Тоғ чанғиси учини ташкил этиш учун рельеф баҳоси (Е.В.Колтовой, 1998)



Qulay emas	3000-4000	5-30	50-200	5-10; 20-25	Tez-tez bo'lib turadi
------------	-----------	------	--------	-------------	-----------------------

Umuman olganda, mintaqalarni turistik resurslarini baholash orqali, bu mintaqalarda turizm industriyasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini belgilash mumkin. Shunday ekan, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslarni baholashni bir qancha turlari mavjud. Bular: texnologik – rekreatsiya faoliyatining u yoki bu turiga resurslarning *funksional yaroqliligi*, *fiziologik – shinam*, *qulaylik darajasiga ko'ra*, *psixologik – estetik xususiyatiga ko'ra* baholanadi. Bu baholashga misol tariqasida quyidagi 2 – jadvalni ko'rsatish mumkin.

**Tayanch iboralar.** Rekreatsiya, fiziologik, biologik, trassa, mehmonxona infratuzilmasi.

#### Savol va topshiriqlar

1. Nima deb o'ylaysiz, rekreatsion resurslarni qanday asosiy belgilariga ko'ra ajratish mumkin:

2. Bogolyubov V.S. va Orlovskaya V.P.lar turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi quyidagi asosiy belgilarni ajratishgan

3. O'ylang, Ulug'bek observatoriyasi, Xo'ja Doniyor payg'ambar ziyoratgohi, Ishratxona, Qadimiy Siyob arig'i, Afrosiyob arxeologik muzeyi va xarobalari, Xazrati Xizir masjidi, Shohi – Zinda majmuasi qayerda joylashgan?

4. Qo'chqorli ota ziyoratgohi, Qo'tirbuloq dam olish maskani, shifobaxsh bulog'i va avliyo baliqlari, Qo'shtepa qayerda joylashgan?

5. Xazrati Dovud ziyoratgohi va g'ori, Tim qishlog'idagi qadimiy archalar, Qarnobcho'l ekolandshaftlari, xalq hunarmandchiligi, jumladan jun yigirish, gilam to'qish, ko'pkari o'yinlari, milliy kurash, qadimiy sardobalar Samarqand viloyatining qaysi tumanida joylashgan?

## 6- bob. MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

### 6.1. Ekoturizm tushunchasi va turlari

Dunyo miqiyosida turizmning eng yangi yo'nalishlaridan biri ekologik turizm yoki ekoturizmdir. «Ekologik turizm» termini birinchi marotaba 1980- yil meksikalik iqtisodchi G.Seballos –Laskureyn taklif qilgan. Ekoturizmning asosiy maqsadi sayohat paytida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan bahra olish, «yovvoyi» tabiat bag'rida dam olish, shuningdek, boshqa xalqlar urf-odati, madaniyati, san'ati, tarixiy obidalarini ko'rishdan iborat. Turizmning bu ko'inishi Kanada, AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, Markaziy va Janubiy Amerika, Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda tez rivojlanmoqda. Ekologik turizm ayniqsa Avstraliyada yaxshi rivojlangan bo'lib, bu soha bo'yicha maxsus dasturlar yaratilgan.

Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun obyektlar bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- milliy bog'lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari;
- botanik bog'lar;
- davolash-sog'lomlashtirish joylari va kurortlar;
- qo'riqxonalar.

Ekoturizmning muhim obyekti bo'lib, ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari hisoblanar ekan, mamlakatimiz bu resurs turlariga boy hisoblanadi. Respublikamizda tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslar mavjud. O'zbekistonning boshqa mamlakatlarda uchramaydigan ekzotik tabiati, xilma-xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Hozirgi vaqtda to'rt xil ekoturizm turlari va ekotururlar mavjud.

**1. Ilmiy turizm.** Bunda turistlar dala sharoitida kuzatish ishlari olib boradilar, tabiatda izlanish ishlarida ishtirok etadilar. Masalan Lotin Amerikasi mamlakatlaridan biri Kolumbiyada, u erdagi boy qo'shlar olamini o'rganish uchun «Kolumbiya qushlari» degan ekotururlar o'tkazilib, unda boshqa davlatlardan kelgan

ornitologlar ham qatnashib ilmiy izlanishlar olib boradilar. Bunda turistlar aktiv harakat usullari qo'llab, tabiiy go'zallikdan bahra oladilar. Ilmiy tushumga chet elga bo'lgan ilmiy-tekshirish ekspeditsiyalari va tabiiy fakultetlarda o'qiyotgan talabalarning dala praktikasi ham kiradi.

**2. Tabiat tarixini o'rganish turlari.** Bu atrof- muhitni va mahalliy madaniyatni o'rganish uchun qilingan sayyohatdir. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'larda takshil etilishi mumkin. Bu turlar tabiat fenamentlari bor joylarda ham tashkil qilinishi mumkin. Bunga maktab o'quvchilarining poxodlari ham kirib, unda o'qituvchi, o'quvchilarga o'tilgan joylarning tabiati tarixi to'g'risida hikoya qilib beradi.

Samarqand shahridan janubiy – g'arbda Nurobod tumanida qoratepa tog' tizmasi joylashgan bo'lib, undagi cho'qqi ustida Xazrati Dovut g'ori joylashgan. Bu g'orga borish yo'li obodonlashtirilgan va unga hamma ham borishi mumkin. Lekin g'orga borgan vaqtda malakali ekskursovod rahbarlik qilib, u g'orni paydo bo'lish tarixi va sabablarini tushuntirib bersa, unda mistikaga yo'l qolmas va g'or to'g'risida afsonalarga izoh berilgan bo'lar edi. Bundan tashqari ekoturistlar olib borgan tozalash ishlarida g'or va tashqarisining ko'rinishi ancha manzarali bo'lishi mumkin.

**3.Sarguzasht turizmi.** Bu tur turizm barcha aktiv xarakatni turlarini o'zida jamlangan sayohatlarni o'z ichiga oladi hamda tabiatda dam olish turlari ham bunga kirib ulardan maqsad yangi xissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan kechirish, turistlarni fizik formasini yaxshilash va yangi sport muvoffaqitlarga erishishidir. Bu tur turizmga alpinizm, qoyalarda yurish, tog' va piyoda yurish turizmi, suv, chang'i va tog'-chang'i turizmi, otda yurish turizmi kiradi.

**4. Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat (AMETHS)** etish ekoturizmning asosiy turi hisoblanadi.

Ekoturizm funksiyalarining asosiy farqi va o'ziga xosligi.

Ekoturizm o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- mahalliy aholining o'z hududlarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojida ishtirok etishi;
- turizm obyektlari ichida tabiiylikni ko'pligi;

- mo'tadil tabiatdan foydalanish
- energiyani kam iste'mol etishi;
- turistlarni ekologiyadan bilimli bo'lishi

## 6.2. Ekoturizmning tarkibiy qismlari

1997- yil Braziliyada bo'lib o'tgan Butunjahon kongressida e'tirof etilgan ma'lumotga ko'ra, dunyo bo'yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12 foizi ekoturizmga ya'ni «yashil» sayohatga chiqqan. Chet ellik olimlar baholashiga 1993- yil ekoturizmdan tushgan daromad 30 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan, ya'ni xalqaro turizmdagi jami daromadning 10 foizini tashkil etgan. Sayyohatning bu turi asosan AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Filippen, Keniya, JAR davlatlarida tez rivojlanmoqda.

Turistik sayohatlarga chiqishdan maqsad sayohat vaqtida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan bahra olish, «yovvoyi» tabiat bag'rida dam olish shuningdek, o'zga xalq urf-odati, madaniyati, san'ati va tarixiy obidalar ko'rishdan iboratdir.

Ekoturizmni rekreatsion resurslarga: tabiat, tog' va tekisliklar, daryolar, cho'l va vohalar, ko'l va turli landshaft zonalari kiradi. SHular asosida ekoturizm qo'yidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi.

- Dengiz va okeanlar ekoturizmi;
- O'rmon va sun'iy bog'lar zonalariga ekoturizm;
- Daryo va ko'llarda ekoturizm;
- Tog' ekoturizmi;
- Tarixiy obidalar ekoturizmi;
- Me'morchilik yodgorliklariga ekoturizm;
- Arxeologik qazilmalar ekoturizmi;
- Ekologik mushkul joylar ekoturizmi;
- Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi.

Yuqorida ta'riflangan ekoturizmning tarkibiy qismlari ichida oxirgisi alohida salmoqli o'rin tutadi va ko'pchilik olimlar ekoturizm tushunchasini faqat alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi deb qo'llashadi.

Ekoturizmning rivoji natijasida uning uch asosiy xususiyati paydo bo'lib, ular mahalliy aholining ma'naviy kayfiyatiga, iqtisodiy ahvoriga to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bo'larga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy xususiyati
2. Iqtisodiy xususiyati
3. Ekologik xususiyati

Ijtimoiy jihatdan olib qarasa, ekoturizmning ijobiy tomoni shundaki, u mahalliy aholiga o'zining yurti tabiatini muhofaza qilgani uchun unga iqtisodiy samara beradi, ularni muhofaza etilayotgan hududlarida hamkorlikda ish olib borishga imkoniyat beradi. Ko'pincha muhofaza etiladigan hududlarni asosiy muammolari mahalliy aholining muhofaza etiladigan tabiat hududlari bilan o'zlari yashaydigan joylardan foydalanish uchun kurashi natijasida kelib chiqadi. Ekoturizm qishloq aholisi uchun, ularning iqtisodiy manfaati uchun kurashda, tabiatning nodir burchaklarini saqlab qolgan taqdirda, undan maxsus foydalanish yo'li bilan iqtisodiy foyda olish yo'lini ko'rsatadi. Lekin, mahalliy aholi o'rtasida ularning olayotgan iqtisodiy foydasi o'sha erning tabiatini saqlanishi bilan chambarchas bog'liqligini chuqur tushuntirish ishlari olib borish yo'li bilan isbotlash kerak. Yangi ochilayotgan qo'riqxonalar hududida hamisha ma'lum miqdorda shu erda yashab turgan aholi qoladi. Masalan, Kitob geologik qo'riqxonasi hududida ayrim qishloqlar qolib ketgan. Qishloqlarning ko'p sonli aholisi azaldan qo'riqxonada maydonida dehqonchilik yoki mol boqish bilan shug'ullangan.

Qo'riqxonaga chegarasi aniqlangan vaqtda charvachilik bilan shug'ullanayotgan aholiga ikki shart qo'yiladi, birinchidan qo'riqxonaga maydonidan tashqariga chiqib yangi turar joyga ko'chish, ikkinchidan, ularni shu vaqtga qadar shug'ullanib kelgan dehqonchilik yoki charvachilik ishlarini qat'iy taqiqlash. Chunki qo'riqxonaga talabiga asosan, qo'riqxonalar va ularning muhofaza mintaqalarida ularga aloqasi bo'lmagan har qanday xo'jalik ishlari olib borish taqiqlanadi. Qo'riqxonada ekoturistik

marshrutlar tashkil etish yoki turistlar talabi asosida, turistik iste'molni qondirish, tabiatni o'rganish, tabiat ekosistemalarini muhofaza etishda o'z hissasini qo'shish yo'li bilan, mahalliy aholining qiziqishini himoya qilgan holda, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizm ishlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qo'riqxonalar va milliy bog'lar rekreatsion funksiyasini ekologik baholash ma'lum murakkablikka ega. U qo'riqxonaga yoki milliy bog'ga kelayotgan turistlarning xizmat ko'rsatishdagi ekologik samaradorligi bilangina emas, balki kelayotgan foyda bilan ham o'lchanadi. Masalan, «Azchek» va «Teberda» turistik bazalari Teberda qo'riqxonasi chegarasida joylashib, bir yilda 350 ming dollar, Litvaning milliy bog'ida joylashgan «Ignamena» turbazasi esa 76 ming dollar foyda keltiradi.

Rekreatsion faoliyatdan kelayotgan foydani baholashda, unga qo'shimcha xizmat ko'rsatayotgan yoki turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga qo'shilgan, hamda dam oluvchilarga qo'shimcha xizmat ko'rsatayotgan korxonalar foydasi ham hisobga olinadi. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'lardan kelayotgan foydadan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Masalan 27 ming turistlarni Teberda qo'riqxonasiga olib borayotgan transport tashkilotlarining foydasi «Azchek» va «Teberda» turbazalari olayotgan foydadan 1,5 marta ko'p bo'lgan.

#### **6.4. O'zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish**

O'zbekiston ekologik turizm va uning sarguzasht turlaridan rafting, trekking, miniladigan turizm ("door of road"), agroturizm, alpinizm va boshqa sport turlarini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga va o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik va hayvonot olami resurslari, kam uchraydigan va kamayib borayotgan organizmlar genofondi, ajoyib tabiiat komplekslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmi rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi.

Ekologik turizm nuqtai-nazaridan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tayanch hududlar sifatida qaralmog'i lozim. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'zlarining tabiiy landshaftlaridan allaqachon mahrum bo'lganliklari sababli, yildan-yilga boshqa mamlakatlarning tabiatiga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. SHuning uchun turistik resurslardan samarali foydalanishda tabiat muhofazasining o'rni katta.

Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishga, balki mahalliy aholini ish bilan ta'minlab iqtisodiyotimizni rivojlantirishiga katta hissa qo'shadi. Ekoturizm faoliyatidan kelib chiqib alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Mahalliy, aholini ehtiyojini qondirish ko'proq tabiatdan foydalanish turlariga borib taqaladi.

Tabiiy resurslardan ishlab chiqarishda tobora ko'proq foydalanish, jamiyatning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish, inson hayoti va faoliyatini ta'minlash uchun tabiiy muhitdan foydalanishning kuchayishi tabiatning ayrim hududlarini tabiiy holatda saqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday uchastkalar alohida muhofaza qilinadigan hududlar (akvatoriyalar) bo'lib, ular ekologik, genetik, asrash, muhofaza qilish, sanitariya-gigiena, sog'lomlashtirish, madaniy-maorifiy funksiyalarni bajaradi va ular faol xo'jalik o'zlashtirilishidan chiqariladi. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar ekologik balansni qo'llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish, ekotizimlar va organizmlar genofondlari etalonlarini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash, rekreatsiya va tabiat muhofazasi ta'lim-tarbiyasi, shuningdek, ham tabiiy sharoitlarda, ham inson ta'sirida kechadigan mahalliy, mintaqaviy va global tabiiy jarayonlarni o'rganish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun obyektlar bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- milliy bog'lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari;
- botanik bog'lar;

- davolash-sog'lomlashtirish joylari va kurortlar;
- qo'riqxonalar.

Alohida muhofaza qilinadigan hududlar statusi, funksiyasi, rejimi va boshqarishni tashkil etishdagi farqlari hisobga olinib, quyidagi kategoriyalarga bo'linadi (tasniflanadi):

1. Davlat tabiat qo'riqxonalari, shu jumladan, biosfera qo'riqxonalari.
2. Milliy parklar.
3. Davlat milliy tabiat parklari (bog'lari).
4. Davlat tabiat buyurtma qo'riqxonalari (zakazniklar).
5. Davlat tabiat yodgorliklari.
6. Alohida muhofaza qilinadigan boshqa tabiiy hududlar: suv muhofazasi mintaqalari, kurort-sog'lomlashtirish tabiiy hududlari, rekreatsiya zonalar, botanika bog'lari, dendrologiya bog'lari, qo'riqlanma (oraliq) tegralari, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, hayvonot bog'lari, baliqchilik xo'jaligi tegralari.

Bundan tashqari alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning boshqa shakllari – yashil zonalar, shahar o'rmonlari, shahar parklari, bog'-park san'ati yodgorliklari, muhofaza qilinadigan qirg'oq liniyalari, muhofaza qilinadigan daryo tizimlari, muhofaza qilinadigan landshaftlar, biologik stansiyalar, mikroqo'riqxonalar va boshqalar ham tashkil etilishi mumkin.

Mamlakatimizda ham bir qancha qo'riqxonalar, buyurtmalar tashkil etilgan. Biz bu alohida qo'riqlanadigan hududlardan faqatgina ilmiy maqsadlarda emas, ekoturizm maqsadida foydalanishimiz katta iqtisodiy samara beradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ekoturizm yo'nalishlari «Ekosan» xalqaro jamg'armasining ekoturizm bo'linmasi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Yo'nalishlar hozircha Zomin milliy bog'i va Nurota qo'riqxonalariga uyushtirilgan xolos. Albatta, bu mavjud imkoniyatlardan yaxshi foydalanmayapmiz.

### 6.3-jadval

#### O'zbekistonning maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlarida turizmni tashkil etish xususiyatlari<sup>9</sup>

Asosiy maqsadlar	Tashkil etish asoslari	Xuquqiy asoslari
- mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish; - yangi ish o'rinlarini yaratish; - aholini yashash darajasini oshirish; - bioxilma-xillikni saqlash; - turizm vositasi orqali yangi tabiiy zonalar yaratish; - mahalliy aholini tabiat resurslaridan foydalanishni kamaytirish va ularga alternativ daromat manbalarini yaratish; - tabiiy zonalarini byudjetdan tashqari vositalar orqali moliyalashtirish; - aholini ekologik o'qitish, tabiat bilan aloqa madaniyatini oshirish; - insonlarga dam olishini imkoniyat yaratish; - ma'lum mintaqalarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish.	-keluvchilar tomonidan tabiiy zonalar bioxilma-xilligiga bo'lgan salbiy ta'sirlariga yo'l qo'y maslik; - keluvchilarni tabiiy zonalar bo'lgan xatti harakatini kuzatishni ta'minlash, turistik marshrutlarda turli tartiblarni joriy etish; -tabiiy zona hududlarida turistik faoliyatni iqtisodiy samadorligini ta'minlash; - tabiatni saqlash tadbirlari va aksiyalarida qatnashish va b.	-O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" qonuni (20.08.1999); - O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish" qonuni (9.12.1992); - Hammasi bo'lib, 15 ta tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlar, 550 ta qonun asosidagi tabiatni qo'riqlash ahamiyatiga ega aktlar, standartlar amal qilmoqda.

Buning uchun o'z navbatida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- qo'riqxonalar va milliy bog'lar sonini oshirish;
- mavjud qo'riqxonalar va milliy bog'larni turistik resurs sifatida ilmiy jihatdan o'rganib chiqish;
- mavjud qo'riqxonalar va milliy bog'lardan ekoturizm obyekti va rekreatsion resurs sifatida foydalanish uchun kerakli infratuzalmani shakllantirish;
- ekoturizm obyekti sifatida mavjud tabiat go'shalaridan tartibli foydalanish;
- ekologik turizm rivojlangan mamlakatlar malaka va tajribasini o'rganish;
- tabiat muhofazasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va ularning ekologik holatini inobatga olib, turistik obyektlarni o'rganish va aniqlash, turistik yo'nalishlarni belgilash, ularning hududiylik va majmuaviylik jihatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish shu kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Tayanch iboralar.** Ekologiya, ekologik resurslar, turlar, O'zbekiston resurlari, qo'riqxonalar, milliy bog', buyurtmaxonalar

#### Savol va topshiriqlar

1. O'z fikringizdan kelib chiqib, ekoturizm tushunchasiga izoh bering?
2. Ekoturizmni qanday turlari mavjud deb o'ylaysiz?
3. O'ylang, ekoturizmning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
4. O'zbekistonda ekoturizm resurslarini izohlang.
5. Nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish nimalardan iborat.i? Javobingizni asoslang.

<sup>9</sup>Тухлиев Н., Абдуллева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т., 2006.

## **7-bob. MINTAQALARDA ZIYORAT TURIZMI MARKAZLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI**

### **7.1. Ziyorat turizm to'g'risida tushuncha**

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgoh, o'zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln. xristianlar, 45 mln.musulmonlar, 40 mln. buddistlar, sintoistlar, 30 mln. induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat uyuushtirgan (Aleksandrova, 2002). Demak, dunyoda diniy turistik migratsiyasi aktiv hisoblanib, sayohlar asosan ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat etishadi. Turistik oqimlarga diniy motivatsiyalar sezilarli ta'sir o'tkazadi. Diniy turizm ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Ilk sayohatlar to'g'risida ma'lumotlar Antik davrga taaluqlidir<sup>2</sup> Ziyoratchining keng va xilma-xil geografiyasini o'rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniladi. Jahonda ziyoratning 11 makro hududi ajralib turadi:

- Xristian Yevropasi;
- Xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rin egallovchi Shimoliy Amerika;
- Xristianlik va an'anaviy dinlar bilan Lotin Amerikasi;
- Islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika;
- Islom hukmron va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud g'arbiy va Sharqiy Afrika;
- Buddizm islom, xristianlik va hinduzimni egallagan Janubiy-Sharqiy Osiyo;
- Buddizm bilan (asosan lamaizm) mustahkamlangan Markaziy Osiyo;
- Islom hukmron O'rta Osiyo;
- G'arbiy Osiyo islom va xristianlik, iudizm bilan mustahkamlangan;
- Janubiy Osiyo iudizm va buddizm tarqalgan, shuningdek xristianlik, jaynizm, sikxizm va islam mavjud.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo'shib ketadilar.

Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish obyektlari mavjud. Quddus-jahonning yirik diniy markazi.

Quddus uch din e'tiqodchilari islom, xristianlik, iudizm uchun muqaddas markaz. Jahon ilohiy markazlari orasida alohida o'rin egallaydi. Iudizmga sig'inuvchi yaxudiyalar, ancha ilgari monoteist dinlaridandir. Ulardan ko'pchilik xristianlikka mansub – muqaddas toqqa, yig'i devorlariga boradilar. Bu erda devor oldidagi uncha katta bo'lmagan maydonda ular qachonlardir arablar tomonidan vayron qilingan ibodatxonaga qatg'u bildirdilar. Qora kiyingan ziyoratchilar qo'l ushlab bir ohangda chayqalgan holda Xudo Yaxvega iltijo bilan murojat qiladilar. Xristianlar uchun quddus Iso payg'ambari yerda bo'lishi bilan bog'liq. Ularning ziyorat programmasida eng muhim manzil tirilish ibodatxonasi:

- jahon xristian olamining bosh muqaddas joyi hisoblanadi. Har bir sig'inuvchi bu ibodatxonaga tashrif buyurishga intiladi. Uning Golgofa butiga, Pomozoniya toshiga, tangrining tiriklik nishon tobutiga sajda qiladilar. Xudoning o'g'li dafn etilgan joy ramzi;

- xochga mixlangan siymo turli xristian ibodatlari buyumlari bilan zich qurshalgan. Rim katoliklari xudoga qayg'uli sukutda turgan armon ruhoniylari qatorida toat-ibodat qiladilar. Xuddi shu erda suriyalik sig'inuvchilarning shivirlab ibodat qilganlari eshitilib qoladi.

Ruhiy hotirjamlikka limmo-lim qalb va xor qo'shiqning Afrika ohanglariga xos ovozi ostida efiopiyaliklar o'z marosimlarini bajo keltirishadi. Boshqa qo'shni joylashgan xorda greklar ibodat qiladilar. Hech kim, hech kimga halaqit bermaydi, hammaning diqqati o'z ibodatiga qaratilgan. Musulmonlar quddusda o'z bayrog'lariga ega. Ular to'planadigan joy – bizning ko'plargacha saqlanib qolgan ilohiy inshooti – Umar mochiti hisoblanadi. Gumbazi muqaddas qoya timsoli, diniy tasavvurlarga ko'ra Muhammad payg'ambar undan arsh-a'loga ko'tarilib ketgan.

Muazzaining dinamiklar yordamida kuchaytirilgan ovozi har kuni besh marotaba qadam shahar o'zra yangrab musulmonlarni namozga chorlaydi.

## **7.2. O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.**

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoni, Imom al-Buxariy, Mahtumi A'zam, SHohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu erda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andozalariga yarasha bo'lishi, masalani asosiy yechimdir.

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolariga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd. Musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik

kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yo'l qurish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod qiladi, sig'inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni ho'xlaydi. Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **7.3. O'zbekistonning islom obidalari**

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Ziyoratchilik turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ya'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar.

Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan engillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular er sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgandir.

Musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent

viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi SHayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirg'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Abubakr Muhammad Kaffal Shashi maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang qishlog'idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Axror Vali, Oq saroy, Cho'ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi–Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadridin Buxarzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida–Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida–Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg'ona viloyatida Daxmon SHaxon go'rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo'lib hisoblanadi. O'zbekistondagi islom obidalariga to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni 3 – ilovadan olishingiz mumkin.

**Tayanch iboralar.** Ziyorat, islom, xristian, Quddus, Imom Buxoriy, Ibodat, obida

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Fikr bildiring, ziyorat turizm to'g'risida tushuncha bering?
2. Nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
3. O'zbekistonning islom obidalariga ta'rif bering?

## **8- bob. MINTAQALARDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI**

### **8.1. Agroturizm tushunchasi va turlari**

Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes ko'rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Jahon tajribasida turizmning agroturizm shakli keng rivojlanmoqda. Agroturizmni mamlakatimizda rivojlanishi istiqbollari porloq hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz agrar-industrial xo'jalikka ega bo'lib, asosiy mehnat resurslarimiz qishloq xo'jaligida band. Undan tashqari, mamlakatimiz rekreatsiya resurslariga boy hisoblanib, rekreatsiya faoliyati tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tuvchi mamlakatlar uchun moliyaviy resurs manbalari o'ta zarur hisoblanadi. Shu jihatdan oladigan bo'lsak, agroturizm yuqori daromat keltiruvchi xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Mutaxassislar agroturizmni besh turini ajratishadi:

- Sport;
- Madaniy – tanishuv;
- Fermerchilik;
- Ish yuzasidan faoliyat;
- Ekologik.

Bunda, birinchi ikkitasi ijtimoiy ahamiyatga, keyingi ikkitasi ishlab chiqarish ahamiyatiga ega. Fermerchilik asosida agroturizmni tashkil etish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati yotsa, ish yuzasidan agroturizm ilmiy – texnik hamkorlik, qo'shma korxonalar tashkil etish va boshqa faoliyatlarda shakllanadi.



Agroturizmni rivojlantirishni o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bularga quyidagilar hisoblanadi:

- qishloq joylarida joylashish va ovqatlanish shaharga nisbatan 2-2,5 marotaba arzonligi;
- qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;
- ekologik toza ovqat turlarining mavjudligi;
- etnografik turizm obyekti sifatida, qishloq joylarida milliylikni ko'proq saqlanib qolganligi va boshqalar.

## 8.2. Qishloq joylarida turizm resurslari

Qishloq turizmi haqida gapiradigan bo'lsak, XX asr boshlarida Sankt - Peterburg aristokratlari va ular qatoriga o'zlarini qo'yuvchi bylar ham Baden – Badenda dam olishga qurlari etmagan. Bunday kishilar o'sha vaqtlarda kurort rayon hisoblagan Martishkino (peterburgning janubiy qismi)da yoki Finlyandiya poytaxtiga 30 km. lik yo'l bo'lgan Teriokoda arzon dala hovlilarni dam olish uchun ijaraga olishgan. Sababi, u yerda xorij pasportlarini rasmiylashtirish kerak bo'lmagan. Bunday dala hovlilarni ijaraga oluvchi talabdorlar asosan ziyolilar bo'lgan.

Dam olish vaqti har qanday shaharlik uchun qishloqdami yoki hovlidami juda ham maroqlidir. Bu hayot talabi, me'yoridir. Har qachon ham dala hovlilarni yoki boshqa joylarni ko'p yillar davomida ishonganva tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olingan. Qishloq turizmining o'ziga xos tomonlari shundaki, masalan, Sitsiliyaning agrar viloyatlarida ishchi kuchi keragidan ortiqligi kambag'al turistlarni yoki talabalarni ish haqi to'lamasdan, boshrana va ovqat uchun ishga yo'llash mumkin. Bunday «dam oluvchi» o'sha erga borib qaytishi uchun mablag' topsa bo'lgani. Yo'l-yo'lakay bir-ikki kun plajlarda cho'milish, muzeylarni, yodgorliklarni va boshqalarni ko'rishi mumkin.

Hozirgi vaqtda qishloq turizmi alog'ida daromad keltirilgan tur hisoblanib, dunyo turizm bozorida alohida qat'iy o'rin tutadi.

Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, turizm sohasida muayyan o'rin tutadi. Uni o'rganib rivojlantirish alohida

e'tiborga loyiq. Respublikamiz qishloq turizmi yo'q darajada. Qishloqdagi aholining kamligi, tabiatning tozoligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor.

Aytish joizki, qishloqlarada turist bo'lib turish, kurort zonalariyoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatboho turistik markazlarda dam ololmaydi, shu jihatdan qishloq turizmini rivojlanish katta ahamiyatga ega. Qishloq turizmi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- qishloq joylarda aholida kategoriya odamlar uchun ularning pul mablag'lari miqdoriga qaramay, masalan, oilaning an'analari ko'ra;
- shifokor maslahatiga binoan qishloq iqlim sharoitlarida sog'lomlashtirishni olib borishga ko'ra;
- tabiat bilan yaqinlik, ko'proq vaqtni toza havoda o'tkazish maqsadiga;
- ekologik toza va arzon mahsulotlar bilan oziqlanish mumkinligi uchun;
- qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'lish, ishlash uchun real imkonlar borligi;
- hayot uchun zarur bo'lgan kerakli narsalarni topish maqsadida minglab kilometr masofani bosib o'tirmaslik uchun;
- boshqa ijtimoiy guruhidagi odamlar bilan muloqotda bo'lish, ularning madaniyati, urf-odati bilan tanishish, bayramlari va o'yinlarida qatnashish imkoniyatini mavjudligi.

Tabiiy rekreatsiya resurslariga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxona, milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

## 8.3. O'zbekistonda agroturizm resurslari va imkoniyatlari

Turizmini shakllanishiga asos bo'luvchi turistik resurslar asosan qishloq joylarida joylashgan. Bu holatni Samarqand viloyati buyicha tahlil etadigan bo'lsak, viloyatning er osti va er usti gidrologik suv resurslari, tog', tog' oldi etaklari hamda

tog' oralig'i soylarida tabiiy ravishda hosil bo'lgan landshaftlar (tabiat manzaralari), yam-yashil o'rmonzorlar (Omonqo'ton), tog'u-tosh jins shakllari (Qoratepa), tog' daralari (chuqurliklari), g'orlar (Hazrati Dovud, Kelsi, Lev), noyob tabiat yodgorliklari (Kamangaron, G'us), shifobaxsh buloqlar, YUqori chinor (Mingchinor), Qaynar buloq, Rohatbuloq, ajoyib ko'llar (Muz buloq, Alvasti ko'llari), go'zal shar-sharalar (G'ussoy, Kamangaron) va hokozolar mintaqamiz turizm imkoniyatlarini yanada oshiradi. Zarafshon daryosi qadimiy turistik obyektlarga boy yaxlit sayyohlik majmuasi hisoblanadi. Qishloq joylaridagi ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari ekoturizmni muhim obyekt bo'lib hisoblanadi. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar (milliy bog' va qo'riqxonalar) doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik hamda hayvonot olami resurslari, ajoyib tabiat kompelkslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Bu hududlarda tabiat ne'matlaridan foydalanilgan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasi (servis)ni yo'lga qo'yish, kompleks rivojlantirish va turli tematik marshrutlarni tashkillashtirish sohani rivojida hamda qishloq joylarida ko'pgina yangi ish o'rinlarini yaralishiga zamin bo'ladi. Undan tashqari tog'li hududlardagi xushmanzara joylar nafaqat mahalliy aholini, balki chet ellik sayyohlarni ham o'ziga jalb qiladi. Bu imkoniyatlardan qishloq joylarida samarali foydalanish uchun quyidagi talablarni amalga oshirishimiz lozim:

- mavjud qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tog'lardagi xushmanzara va noyob tabiat go'shalarini turistik resurs sifatida ilmiy jihatdan o'rganib chiqish;
- mavjud qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tog'lardagi xushmanzara va noyob tabiat go'shalarini ekoturizm obyekti va rekreatsiya resursi sifatida foydalanish uchun kerakli infratuzalmani shakllantirish;
- ekoturizm obyekti sifatida mavjud tabiat go'shalaridan tartibli foydalanish;
- hududlarni turistik rayonlashtirish va ularni ekoturistik nuqtai nazardan baholash;
- tabiat muhofazasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Qishloq joylarimiz turizmni rivojlantirish resurslariga boy ekan, faqat undan samarali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini ko'rstish, umuman olganda xizmat ko'rstish sohalarini shakllantirish asosiy omil hisoblanadi.

Bu sohalarining rivojlanishi natijasida quyidagilarga erishamiz:

- qishloq manzilgohlarida yangi ish o'rinlari ochilib, mehnat resurslari ish bilan ta'minlanadi;
- aholi salomatligi yaxshilanadi;
- qishloq manzilgohlaridagi turistik – rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish katta iqtisodiy foyda keltiradi va shu joyning ekologik holatini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi;
- qishloq manzilgohlarida turizm rivojlanib, turistik infratuzilma shakllanadi va h.k.

**Tayanch iboralar.** Agroturizm, qishloq turizmi, yerlar, dehqonchilik, vino turizmi, hosil, ekin maydonlari

#### Savol va topshiriqlar

1. Agroturizm tushunchasiga ta'rif bering.
2. Amaliyot daftaringizda Agroturizmni qanday turlari mavjudligini yozing.
3. Mamlakatimizda qishloq joylarida qanday turizm resurslari mavjud
4. O'zbekistonda agroturizm resurslari va imkoniyatlarini izohlang.

## **9-bob. MINTAQAVIY REKREATSIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-IQTISODIY XUSUSIYATLARI**

### **9.1. Rekreatsiya resurslari tushunchasi**

Rekreatsiya deb, insonlar sog'ligini va mehnatga qobiliyatini dam olish obyektlarida qayta tiklashi, sayyohlik yo'li bilan tabiatning turli maskanlariga borishi, arxitektura va tarixiy yodgorliklarni borib ko'rishiga aytiladi. Rekreatsiya sohalari bir qancha bo'lib, ularga kurort – sanatoriya va boshqa salomatlik obyektlarida sog'likni tiklash, sayyohlik yo'li bilan tabiatning go'zal go'shalariga (daryo, ko'l, o'rmon, tog', g'orlar, sharshara va b.) borish, sport bilan shug'ullanish, hamda noyob tarixiy va arxitektura yodgorliklari bilan tanishishlari kiradi. Rekreatsiya va davolash sog'lomlashtirish zonalarida ularning resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhit muxofazasi katta ahamiyatga ega. Rekreatsiya zonalariga aholining tashkil etilgan va ommaviy dam olishi va turizmga mo'ljallangan yer va suv muhitining tabiiy yoki madaniy hududlari kiradi.

Shunday zonalar tarkibiga shaharning ayrim hududlari, shahar atrofi va yashil zonalar, o'rmonlar, parklar, milliy, tabiiy parklar (bog'lar), botanika, zoologiya bog'lari, dendrologik parklar, turistik marshrutlar, dam olish uylari va bazalari hududlari, qo'riqxonalar va buyutmalarning aholi borib ko'rish uchun ajratilgan ma'lum joylari kiradi. Rekreatsiyaga mo'ljallangan erlar tabiat muhofazasi erlarining alohida turi bo'lib, ularga tabiat muhofazasi, sog'lomlashtirish, tarixiy - madaniy maqsadlarga mo'ljallangan erlar ajratiladi. O'rmonlar ham rekreatsiya uchun katta ahamiyatga ega. Davolash-sog'lomlashtirish zonalariga fuqoralarni davolash va salomatligini tiklashga mo'ljallangan er va suv muhitlari hududlari, ularga kurort va sanatoriya zonalarini kiradi.

Rekreatsiya faoliyati bevosita rekreatsiya resurslari asosida shakllanadi. Rekreatsiya resurslari tabiiy va madaniy, iqtisodiy, tarixiy resurslarning bir qismlaridan iborat bo'lib, kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsiya resurslari ikki guruhga ajratiladi: *tabiiy* va *antropogen* rekreatsiya resurslari.

Tabiiy rekreatsiya resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'yolari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxonalar va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir. Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan ijtimoiy obyektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi.

Rekreatsiya faoliyati dunyoning ko'p mamlakatlarida daromat manbaiga aylangan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi. Mamlakatimiz ham rekreatsiya resurslariga boy hisoblanib, nafaqat dam olish, sayyohlik, sog'likni tiklash, shuningdek chet el sayyohlarini qabul qilish imkoniyatlariga ega.

### **9.2. O'zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalari**

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o'rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashilotining ma'lumotlariga ko'ra, axoli salomatligi 50-50 % ularning iqtisodiy ta'minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30 % tibbiy xizmat darajasiga bog'liq bo'ladi. Xavoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo'ladi. Zamonaviy gigiena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o'rtacha darajasi 20 %ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, u aholining ishdan bo'sh vaqtdan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo'nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog'lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog'lomlashtirish, umrni o'zaytirish, insonning jismoniy va ma'naviy darajasini

o'shish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni o'shish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm) shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini o'shishning ta'minlab qolmay, balki 20-50 %ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo'lishining oldini olishni ta'minlaydi.

O'zbekiston tabiati rang – barang bo'lib, yilning issiq vaqtlaridan tashqari, qish va kuz fasllarida ham dam olishni tashkil etishni imkoniyati mavjud. Misol uchun tog'li hududlarda qishki sport – dam olishni amalga oshirish mumkin. Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon sport – dam olish majmuasi kata imkoniyatlarga ega. Xuddi shunday majmualarni Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari tog'li mintaqalarida ham tashkil etish mumkin. Sog'likni tiklash manbasi hisoblangan mineral suv va balchiqlar soni mamlakatimizda 200 dan ortadi. Bu er osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir – biridan farq qiladi. SHuning uchun bu joylarda turli shifoxonalar, sanatoriy – kurortlar va boshqa sog'lomlashtirish muassasalar qurish mumkin.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Sangzor, Ohangaron va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklari rekreatsiya resurslariga boy bo'lib, bu mintaqalarda dam olish oromgohlarini tashkil etish ko'paysa, birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchidan, shu joy aholisi ish bilan ta'minlanib, iqtisodiy daromat oshadi.

Demak, tabiat qo'ynilarida dam olish va sog'lomlashtirish muassasalarini qurishning ahamiyati yuqori ekan, lekin masalaning boshqa tomoni ham bor. YA'ni dam olishning ham o'ziga yarasha mezonlari mavjudki, ularni tuliq hisobga olish rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishga olib keladi. Bu mezonlarga mavjud resurslardan rekreatsiya faoliyatida foydalanishning ekologik xususiyatlari kiradi.

Rekreatsiya faoliyati (dam olish, sog'lomlashtirish) ma'lum hududda amalga oshiriladi. Mazkur hudud hordiq chiqarishga kelganlarni ekologik nuqtai nazardan sig'dira oladimi yoki yo'q, bu ekologik sig'im mezoni bilan aniqlanadi. Ekologik

sig'im bu, dam oluvchilar mitqdori mazkur ekologik maydonga to'g'ri kelishini ko'rsatuvchi o'rtacha me'yor hisoblanadi. Bu borada ma'lum andoza va me'yoriy ko'rsatgichlar ishlab chiqilgan. Bunga quyidagi jadvalni misol keltirish mumkin.

**9.1-jadval**

**Suv havzalarida cho'milishni tashkil etishda me'yoriy ko'rsatgichlar<sup>10</sup>**

Suv havzasi turi	Cho'miluvchilar soni	Me'yoriy ko'rsatgich, m <sup>2</sup>
Dengiz plyaji	1	5
ichki suv havzasi	1	8
jumladan, bolalarga	1	4
daryolar	1	5-10
oqmas suv havzalari	1	10-15

*Manba: A.A.Rafiqov va boshqalar. Ekologiya. -T., 2004.*

Jadvaldan ko'rish mumkinki, agarda suv havzasi maydoniga nisbatan cho'miluvchilar soni oshib ketsa, u holda suvning ifloslanishi ortib, insonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bahor oylarida tog' yonbag'rlari, qirlar, adirlarda dam oluvchilar soni keskin ortadi. Bunda dam olish hududiga nisbatan dam oluvchilar soni ancha ortiq bo'ladi. Bu jarayonda turli giyohli, manzarali o'simliklarga ziyon etqiziladi, atrof – muhit turli chiqindilar bilan ifloslanadi, natijada ekologik muvozanat buziladi.

Rekreatsiya faoliyatining ana shunday samaradorligi tabiiy omillarning foydali ta'siri va bunday faoliyatni ushbu omillar mavjud hududlarda tashkil etish bilan bog'liqdir.

Rekreatsiya sohasini rivojlantirish va joylashtirish, uning samaradorligini oshirish muammolarini hal etishda quyidagi vazifalarni hal etishga alohida ahamiyat beriladi:

- tumanlar va hududlarda rekreatsiyada tabiatdan foydalanish imkoniyatlarining optimal strukturasi shakllantirish;

<sup>10</sup> Rafiqov A.A. va boshqalar. Ekologiya. –T., 2014.

- tumanlar va hududlarda rekreatsiyada tabiatdan foydalanish va boshqa sohalarda tabiatdan foydalanishni taqqoslab baholash;

- tabiiy rekreatsiya resurslarini muhofaza qilish, ulardan ratsional foydalanish, ularni takror ishlab chiqarish bo'yicha xo'jalik tadbirlarini baholash;

- tabiiy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholash.

Rekreatsiya samaradorligini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi va ta'riflanadi:

1. *Tadbirlar maqsadi*, ya'ni rekreatsiya faoliyatining kutilayotgan va erishish mumkin bo'lgan natijalari.

2. Rekreatsiya faoliyatining konkret mintaqaviy va ijtimoiy- demografik xususiyatlarini eng pastki darajadagi sharoitlarini ta'riflovchi tegishli *ijtimoiy standartlar*.

3. *Tadbirlar natijasi*, ya'ni tadbirlarning har biriga asosanib tashkil etish mumkin bo'lgan variantlari yoki quyilgan maqsadga erishishning muqobil yo'llari.

4. Tadbirlar variantining har birini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan *resurslar xarajati* (tabiiy rekreatsiya resurslarini qo'shib).

5. Hisob-kitob sharoitlarida qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan (resurslar bo'yicha cheklovlar) *resurslar* va ayniqsa ko'rib chiqilayotgan hududlarning tabiiy rekreatsiya resurslari.

Ko'rsatilgan besh guruh ta'riflar samaradorlikni baholash maqsadida iqtisodiy-matematik modellarni shakllantirish uchun etarlidir. Bundan tashqari ular tadbirlar natijalarini qo'yilgan maqsadlar, real ajratilishi mumkin bo'lgan resurslar bilan talab qilinadigan resurslar xarajatiga taqqoslashga imkon beradi. Bular yo'l qo'yish mumkin bo'lgan qarorlarni shakllantirishga va variantlarni yo'l qo'yish mumkinligi nuqtai nazaridan dastlabki baholashga yordam beradi.

Barcha beshta guruh ta'riflar yoki natijalarning (1-3 – guruhlar) yoki xarajatlarning (4 va 5 - guruhlar) tarifini beradi.

Rekreatsiyada tabiatdan foydalanish faoliyatining ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini xo'jalik tadbirlari natijalarining ayrim tomonlarini ifodalaydigan natural-

moddiy, sifat va qiymat tavsiflarining o'zaro bog'liq ko'rsatkichlari tizimida aks ettiriladi.

Natural ko'rsatkichlarda quyidagilar ifodalanadi:

- rekreatsiyada tabiatdan foydalanish sohasida amalga oshirish mo'ljalalanayotgan tadbirlarning aholini qamrab olishi (hisoblangan kontingent odamlar)- xizmat ko'rsatiladigan odam-kun miqdori yoki bir yilda xizmat ko'rsatiladigan aholi soni, xizmat ko'rsatish va sifati (kategoriyasi)bo'yicha alohida hisoblar;

- marshrut, dam olish dasturi, hududlar yoki barpo etiladigan obyektlarning quvvati (qancha kishi qabul qilish imkoniyati);

- ijtimoiy natijalarga imkon beradigan rekreatsiya faoliyatiga aholi sarflaydigan vaqt;

- aholining rekreatsiya faoliyatiga kiradigan vaqt sarfining qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan vaqtini tejash (rekreatsiya xizmatini kutish).

Nisbiy ko'rsatkichlarda xizmat ko'rsatish sifatining ekspert bahosi, hududlar va obyektlarning xossalari (funktsionalligi qulayligi bilan birga, shinamligi, nafasati, tashqi ko'rinishining o'ziga jalb etishi, atrof-muhit bilan uyg'unligini ham qo'shib) ifodalanadi (odatda ballarda hisoblanadi).

Qiymat ko'rsatkichlarida quyidagilar aks ettiriladi:

- belgilangan baholarda mahsulotlar va xizmatlarni realizatsiya qilishning yillik hajmi va ularni realizatsiya qilishdan olingan foyda;

- sog'liqni saqlash muassasalarida kasallanishning kamayishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning shartli – hisoblangan kamayishi;

- mehnat unumdorligining oshishi xodimlar kvalifikatsiyaning oshishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy infratuzilmani barpo etish va uning xizmatiga xarajatlarning kamayishi;

- aholi vaqtini tejashining qiymat bahosi.

### **9.3. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari**

Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari, mavjud resurslar asosida dam olish, sog'lomlashtirish uchun qulay shart – sharoit yaratish

bilan bog'liq. Bu birinchi jihatdan, tegishli infratuzilmani tashkil etishni talab etadi. Rekreatsiya infratuzilmasi – dam olish obyektlari (sanatoriya, kurort, pansonat va b.) transport kommunikatsiyalari, elektr energiya, tabiiy gaz va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari (sport maydoni, suv havzasi, ovqatlantirish tarmoqlari, klub, telefon tarmog'i va b.) bilan ta'minlangan majmuadir. Rekreatsiya infratuzilmasi qanchalik takomillashgan bo'lsa, dam oluvchi va sog'ligini tiklovchilar uchun qulay sharoitga ega ekanligini bildiradi, hamda bu erga keluvchilar sonini oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

Ikkinchi jihatdan, dam olish maskanlarining malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi katta samara beradi. Mamlakatimiz rekreatsiya resurslariga boy bo'lsada, ulardan talab darajasida foydalana olmayapmiz. Bu esa, qanchadan – qancha iqtisodiy daromatdan qolayotganimizni bildiradi. SHuning uchun ayni vaqtda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- Hududiy rekreatsion tizimning qabul qilish potentsiali aniqlash;
- mintaqalar bo'yicha dam olish va davolanish muassalarni tabiiy – iqlimiy sharoit, mineral suv va boshqa rekreatsiya resurslaridan kelib chiqib joylashtirish;
- ovqatlantirish, kommunal va madaniy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, hamda suvenir mahsulotlari ta'minotini yaxshilash;
- zamonaviy transport, yo'l tarmoqlari va aloqa vositalarini rivojlantirish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- rekreatsiya maqsadida foydalanishda tabiat muhofazasiga e'tibor qaratish.

#### **9.4. Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza qilish**

Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan obyekt turlaridan hisoblanadi. Ayrim hollarda tabiiy obyektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni ishg'ol qilinadigan qo'riqxonalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Shuning uchun kichikroq maydonlardagi tabiiy obyektlar «tabiat yodgorliklari» deb qilinadi va muhofaza ostiga olinadi. «Tabiat yodgorliklari» terminini dastlab A.Gumbolt taklif qilgan. O'tgan asrimizning boshlaridayoq Yevropada tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish boshlangan edi.

Tabiat yodgorliklari tabiatning o'zgarishi va unda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ma'lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy – tarixiy va madaniy – estetik ahamiyatga ega.

Umumiy xarakteriga ko'ra, tabiat yodgorliklari geologik – geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga bo'linadi.

**Geologik – geomorfologik** yodgorliklarga nodir geologik tog' jinslari, karst voronkalari, relief shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar kiradi. Mamlakatimizdagi Kils (Qirqtog'da), Qorlug' (Ko'hitang tog'ida), Hazratidovut (Zirabuloq tog'ida), Amir Temur g'orlari, Zarafshon tizmasidagi karstlarni misol keltirish mumkin.

**Botanik** yodgorliklarga yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relik o'simliklar kiradi. Bu yodgorliklarga Surxondaryo viloyatidagi, Urgut tumanidagi ming yillik chinorlarni kiritish mumkin.

**Peleontologik** yodgorliklarga toshga aylangan organizm va qirilib ketgan hayvonlarning izlar qolgan joylar kiradi.

**Landshaft** yodgorliklariga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Ilono'tdi (Temurlang) darasi, Ko'ksuv daryosidagi sharshara, Nurota va Urgutdagi buloqlar, Katta va Kichik CHimyon soyligi, Oqtosh soyligi va boshqalar kiradi.

**Astronomik** tabiat yodgorliklariga yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi.

Hozirgi kunda respublikamiz hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari qayd qilingan va muhofazaga olingan. Bundan buyon jamoatchilik kuchi bilan tabiat yodgorliklarini hisobga olib chiqish, uni tarqilish xaritasini yaratish juda muhim hisoblanadi.

Respublikamiz bo'yicha 35 ta noyob tog' o'rmonzorlari muhofaza qilinmoqda. Shulardan biri Samarqand shag'ridan 40 km janubi – g'arbida, 'ni Zarafshon tizmasining g'arbidagi Omonqo'ton tog' o'rmonidir. Omonqo'ton o'rmon xo'jaligi 1887 – yilda tashkil etilish boshlangan bo'lib, 2158 ga maydonni egallaydi. O'rmonning amaliy ahamiyatidan tashqari ajoyib rekreatsion resurs hisoblanadi.

Shuning uchun dam olish kunlari shahar aholisini xordiq chiqarishini tashkil etish katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

**Tayanch iboralar.** Tog‘ manzaralari, noyob yodgorliklar, noyob o‘simliklar, qo‘riqxonalar, tabiiy hududlar, o‘rmonlar.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. Olgan bilimlarizdan kelib chiqib rekreatsiya resurslariga tushuncha bering.
2. Nima deb o‘ylaysiz, O‘zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalari qaysilar?
3. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik xususiyatlari nimalardan iborat?

## **10-bob. TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQOBATBARDOSH OMILLAR ASOSIDA BUYUK IPAK YO‘LI DAVLATLARINING GURUHLANISHI**

### **10.1. Madaniy – tarixiy merosini muhofaza qilish va saqlashda YUNESKO va BTTning o‘rni**

Jahon madaniyati va turistik faoliyatda boshqarish va standartlashda asosiy rolni YUNESKO va BTT o‘tkazadi. Mazkur tashkilotlar turli turli o‘tkaziladigan anjumanlar, tadbirlarda mazkur resurslardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berib boradi.

Ko‘pgina tarixiy obidalar YUNESKO tasarrufida bo‘lib, ular muhofaza ostiga olingan. Bu kabi meroslarni saqlash, muhofaza qilish bo‘yicha Mexiko (1981- y) deklaratsiyasi qabul qilingan.

Ko‘pgina hududlar o‘ziga xos qadimiy shaharlar, arxitektura, tarixiy madaniy yodgorliklarga boy hisoblanadi. Turistik infrastruktura rivojlanishi tarixiy o‘zlikni manzarasi buzilmasligi kerak. Har bir tashkil etilayotgan yangi turistik markaz (obyekt) Milliylik bilan uyog‘unlashgan, qaytarilmas o‘ziga xoslikka ega bo‘lishi lozim. Albatta, tarixiy-madaniy, arxitektura va madaniy majmualarni milliy qadriyatini, tarixiy bahosini tiklash va muhofaza qilish orqaligina turistlar qiziqishini o‘rttirish, bu orqaldi turizmni rivojlantirish mumkin.

Madaniy-tarixiy majmualarni qayta tiklashda umumiy (ansambl) va yakka (individual) uslubida loyihalashtirish qabul qilingan.

Madaniy tarixiy va tabiiy merosni quyidagicha kategoriyalarga bo‘lishni mutaxassislar qo‘yidagicha taklif etgan:

- asosan turistlar ishlatadigan obyektlar (festivallar, namoyishlar, yodgorliklar va h.k.)
- aralash foydalaniladigan obyektlar (kamiga tarixiy yodgorliklar va muzeylar, teatrlar, qo‘riqxonalar va b;)
- asosan mahalliy aholi foydalaniladigan obyektlar (fuqarolar inshootlari, madaniy obyektlar, kinoteatrlar, kutubxonalar va b;)

Madaniy va turizm sohasida asosiy yo'nalishlarida turli tashkilotlarning o'zaro hamkorligini aniqlab olish juda muhim sanaladi.

Turistik rivojlanish siyosati quyidagi talablarni keltirib chiqaradi:

- turistik resurslar ruyxatini tayyorlash, turizmni rivojlanishi uchun madaniy tarixiy, tabiiy merosni tasniflash muhim obyektlarni ajratish;
- turistik ahamiyatga ega joy va asosiy turistik hududlarni ajratishni hamda tegishli mahalliy madaniy, tarixiy va tabiiy yodgorliklarni muhofaza qilishni ta'minlash;
- milliy bo'lylik hisoblangan sun'iy va tabiiy, moddiy va nomoddiy obyektlar hamda mahalliy aholi yashadiki (san'at, folklor va b.) turizm maqsadida foydalanish;

## 10.2. O'zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan foydalanish

Milliy madaniy meros obyektlarini ijodiy va ehtiyojli qondiradigan holatda namoyish qilish kerak. Hozirgi ilmiy texnik rivojlanish natijasida hamma mintaqalarda bir xil madaniy ko'rinishlarni namoyon qilgan. SHuning uchun har bir hudud boshqa joylardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Shundagina ular turistik bozorga taklif etuvchi mahsulotlarga ega bo'ladi.

**Madaniy meros obyektlariga** quyidagilar kiradi:

- arxeologik yodgorliklar;
- madaniy arxitektura;
- landschaft arxitektura yodgorliklari;
- katta va kichik tarixiy shaharlar;
- qishloq joylari;
- muzeylar, teatrlar, ko'rgazma zallari va b.;
- satsiomadaniy infratraktura;
- etnografiya obyektlari, xalq udumlari va an'analari amaliy madaniyat markazlari;
- texnik komplekslar va asbob - anjomlar.

Mamlakatga keluvchi chet ellik sayyoxlar o'rtasida katta talab bilan foydalaniladigan yo'l ko'rsatkichlarni chet tillarda chiqarishda tashabbus ko'rsatishi rus, ingliz, fransuz va nemis tillarga ustunlik berish lozim. Diqqatda sazovor joylar to'g'risidagi ma'lumotlar yonida shu tillarda yozma yoki ovoz tasviridagi tushuntirishlar berilishi lozim. Mehmonxonalar va sayyoxlar uchun yo'nalish beruvchi axborot markazlarini shakllantirish turizm rivojida muxim ahamiyat kasb etadi. Samarqand shahrida turistik axborotlar markazini vujudga keltirish, mehmonxonalarni taklif qilish, diqqatga sazovor joylar haqidagi materiallarni ko'rsatish va asosiy e'tiborga loyiq hududlarni reklama qilish muhim ahamiyatga egadir. Markaz tijorat asosida ishlashi ham mumkin (kirish badali, turlar, yo'l ko'rsatkichlar va boshqa xizmatlarga, mehmonxonada joylarni bron qilish hisobiga haq olish, yodgorlik buyunlarini sotish va h.k). Bunda qo'yidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

*Mavjud diqqatga sazovor joylarni mustahkamlash:*

- axborot lavhalari, plakatlar, ko'rgazmalar va boshqa shu kabi vositalar yordamida turistlarni asosiy malumotlar bilan ta'minlash bo'yyicha dasturlarni amalga oshirish. Mumkin bo'lgan barcha joylarda oddiy varaqalardan foydalanib bir necha tillarda ma'lumotlarni etkazib berish;
- ayrim asosiy shaharlarda audio-turlarni tashkil qilish;
- muzey ekspozitsiyalarini kengaytirish va arxeologik kazishmalar amalga oshirilayotgan joylarda (eng qiziqarli punktlarda to'xtab o'tish bilan) piyoda sayir qilishni tashkil qilish juda muxim.

*Yangi diqqatga sazovor joylar:*

- ipak to'lasini ishlab chiqarish bazasida tashrif buyurishning yangi joylarni tashkil qilish;
- ipak to'qishdan boshlab, tayyor mahsulotgacha jarayonlar haqida hikoya qilish bilan eskursiyalar uyushtirish;

Buning uchun juda mos joy Marg'ilon bo'lishi mumkin. U yerda pillaga ishlov berishdan boshlab, ipak matolar ishlab chiqarish bilan tudallanadigan barcha



bosqichlarni o'z ichida olgan juda qiziqarli ipakka qo'lda ishlov berish fabrikasi mavjud.

Ekskursiyaning yakunlovchi bosqichi tayyor mahsulotlar ko'rgazmasi hisoblanadi. Bu yerda ipakdan tayyorlangan buyumlarni taklif qilib, ularning xarid qilish imkoniyatini ham yaratish mumkin.

Milliy turistik mahsulot infratuzilmasini shakllantirish investitsiyalar barqarorligini va uning darajasini o'stirishni taqozo qiladi. Bu davlatda milliy turistik mahsulotni rivojlantirishga va turizmning barqaror o'sishiga yordam ko'rsatishni talab etadi.

Milliy turistik mahsulotni rivojlantirishning xususiy sektoriga va O'zbekistonda turizm infratuzilmasi shakllantirish va takomillashtirishga xalqaro investitsiyalarining jalb qilish va joylashtirish turizm industriyasini rivojlantirishning muhim omili xisoblanadi.

### **10.3. O'zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an'analarni tutgan o'rni**

O'zbek xalqi boy tarixiy o'tmishga ega. uzoq rivojlanish davrida u O'rta Osiyoning boshqa xalqlariga o'xshash, insoniyatga ilm va san'atning buyuk namoyondalarini berdi. Asrlar davomida boy o'ziga xos madaniyat yaratildi. O'rta Osiyoning ko'pgina bosqinchiligi natijasida o'tmish yodgorliklarida turli qadimiy madaniyatlar-yunon, hind, eron, arab-ta'siri ko'rinadi. Ammo bu ta'sirlar o'zbek madaniyatini boyitib, uning o'ziga xosligini yo'qotmadi. O'zbek xalqining san'ati o'zining badiiy an'analarini, ustalik qonunlarini, ifodalash vositalarini ishlab chiqdi. Xalq ijodining turli janrlari yaratildi. Bu bir-biriga ta'sir qilish va bir birini boyitish jarayoni asrlar davomida O'zbekistonga o'zining badiiy madaniyatini keyingi rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari (qoyadagi naqshlar, monumental xaykallar, bareflar, xaykalchalar va b.), shuningdek bizgacha etib kelgan yozma manbalar (m.a. 2 asr), o'zbek xalqining musiqa merosining ashula, raqs va kiyimlar qadimiy

manbalariga guvohlik beradi. Ularning O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi muhim roli haqida m.a. 5 asrda Yunon olimi Gerodot yozib qoldirgan.

Musiqiy san'atning yuqori namunalari og'zaki xalq sheri ijodidir. Folklorning g'oyaviy boyligi va janrining turli tumanligi ruhiy va badiiy qimmatidir. Unda xalq tarixi, hayoti aks ettirilib, eng yaxshi insoniy sifatlar, do'stlikka, sevgiga sodiqlik tasdiqlanadi. Qurg'oqchilikda dexqonlar «Sus xotin» (yomg'ir yog'ishini so'rash) ashulasini, kuchli shamol bo'lganida «Moy-moma» (shamolga murojaat) ashulasini aytish bilan boradigan udumni bajarishadi. Xalq og'zaki ijodi doim rivojlanadi, uning ko'p asarlari ajdodlarning dunyo qarashi, ijtimoiy, xo'jalik va oilaviy turmushini aks ettiradi. Xalq she'riyat ijodining asosiy xususiyati asar yaratish va ijro etishning ommaviy xarakteridir.

O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayoti O'rta Osiyo xalqlarining hayoti bilan birlikda shakllandi. Xalqimizda afsonalar, qabila to'g'risidagi bitiklar keng tarqalgan. Jun ishlab chiqishning rivojlanishi kigiz, palas, jundan qilingan gilamlar va yupqaroq jun matolarining-sidirga, naqshli, suratli-chiqarishni oshishiga olib keldi. Mahalliy xalqlar kiyimining o'ziga xosligi, avvaldan iqlim, turmush sharoiti moslashganligi turistlar uchun juda qiziqarlidir. O'rta Osiyo xalqlarining raqs san'ati, ashula sa'nati ham xorijiy turistlarni befarq qoldirmaydi. Shu sababli milliy san'atchilik asosida turli shoular tashkil etish orqali turistlarni yanada jalb qilish lozim.

### **10.4. O'zbekistonda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish**

Turli kolleksiyaga ega bo'lgan muzeylarning mavjudligi O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini xususiyatlarini aks etdiradi. Muzeylar madaniy, tarixiy, badiiy me'rosimiz, xalqlar dini va e'tiqoti, ularning an'analari bilan tanishtirib, yoshlarimizni vatanparvarlikka va buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishga o'rgatadi. Davlatimiz muzeylarni rivojlanishi, yodgorliklarni tiklanishga katta ahamiyat beradi. Temuriylar tarixi muzeyining yaratilishi bunga misol bo'la oladi. Respublika muzeylarining ichida 3 ta muzey-qo'riqxonalar: Samarqand, Buxoro, Xiva («Ichan-Qala»); 3ta yirik badiiy muzeylari: O'zbekiston Davlat san'at muzeyi

(Toshkent shahari); Davlat xalq-amaliy san'ati muzeyi, Nukus shaharidagi Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi mavjud.

O'zbekistonda yagona bo'lgan (Toshkent sh.) Tabiat muzeyi 120 yildan beri mavjuddir. Muzey jamg'armasida 1.5 mln. ekponatlar bor. Qadimiy muzeylardan biri-O'zbekiston xalqlarining tarixi muzeyi respublika tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy tekshiruvlar olib boryapti. A. Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi juda katta kitob va qo'lyozma jamg'armasiga ega. O'zbekiston tibbiyot muzeyi (Toshkent) tibbiyot bilimlari tashuviqoti, ekologiya muammolari, sanitariya va gigiena tarixi bilan tanishtiradi. Abu Ali ibn Sinoga bagishlangan zali bor.

Toshkentda Olimpiya shon-sharafi muzeyi, Urush va mehnat sharafi muzeyi, kino san'ati muzeyi tashkil qilingan; badiiy ko'rgazma direksiyasi, RTVS «O'zbekspotsentr», U. Tansikbaev, Tamara xonum, A.Qahhor, G'afur G'ulom muzeylari ishlaydi. Har bir viloyatda o'lka muzeylari mavjud. Angren, Sirdaryo, Urganchda badiiy galereyalar ochilgan. Respublika muzeylari shuningdek turli ekskursiya, ma'ruza, adabiyot kechalari, Mustaqillikka, «Navro'zga» bag'ishlagan etnografik ko'rgazmalari va b. o'tkazadi.

O'zbekiston madaniyati vazirligi xalqaro «Oltin meros» xayriya fondi, Badiiy akademiyasi bilan birgalikda muzeylarning kelajak faoliyatini yaxshilash dasturini yaratdi. Respublikaning madaniy hayotidagi yutuqlarini tashuviqot qilish maqsadida «Moziydan sado» jurnali yaratildi. Xorij tajribasidan ma'lumki muzeylardan turizm faoliyatida keng foydalaniladi. Shu sababdan mavjud muzeylarimizni keng targ'ibot qilish orqali turizm maqsadida foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammosidir.

**Tayanch iboralar.** YUNESKO, BMT, madaniy-tarixiy obidalar, etnografiya, urf-odatlar, qadroyatlar.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. O'zbekistonda nechta muzey bor?
2. Davlat muzey qo'riqxonasi qanday tashkiilot?
3. YUNESKONing bosh ofisi qaysi shaharda joylashgan?
4. BMT tashkilotining turizmdagi o'rni qanaqa?

## **11-bob. MARKAZIY OSIYO TURIZMI IMKONIYATLARINI TADQIQ QILISH**

### **11.1. Markaziy Osiyo turistik mintaqalari imkoniyatlari**

Mintaqadagi turizm hajmining 1/3 qismi to'g'ri keladigan, ichki mintaqaviy turizmga bog'lanib qolgan AQSH va Yevropaning boshqa mamlakatlaridan keladigan turistlar soni 10 %ga oshishi evaziga jami turistlar oqimini 1 % oshirishga muvoffaq bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi №PF-4947 sonli Farmonidagi 3-qismi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari"da ta'kidlaganidek, "axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyotga, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga tatbiq etish kerak"<sup>11</sup>.

Jumladan, joriy yilning 8 mart kuni Andijon viloyatining Izboskan tumani faollaridan iborat sayyohlar guruhi Xorazm viloyatiga tashrif buyurishdi. Sayohat dasturi 1 kundan iborat bo'lishiga qaramasdan mehmonlar Xiva shahri "Ichon-qal'a" muzey qo'riqxonasidagi "Paxlavon Maxmud" ziyoratgohi, "Ko'hna Ark" majmuasi, Xiva xonlarining mashhur "Toshxovli" saroyi, "Kalta minor" minorasi, "Juma" jome masjidi, "Allaqulixon", "Muxammad Aminxon" madrasalari bilan yaqindan tanishdilar

Yaponiyaning «ROTOBO» jurnali fevral sonida «Turizmi rivojlantirishda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi UNESCO madaniy merosi obyektlarining o'rni: mintaqaning turizm markazi – O'zbekiston misolida» nomli maqola chop etildi. Maqola muallifi Mizuki Chuman Yaponiyaning Rossiya va MDH mamlakatlari bilan savdo uyushmasi yetakchi ilmiy tadqiqotchisi sanaladi.

Ushbu maqolada so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida turizmi rivojlantirish bo'yicha tadbirlar shiddat bilan o'tkazilayotgani hamda har bir

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 й., № 6, с. 70.

mamlakat o'ziga xorijlik sayyohlarni jalb qilish bo'yicha boshlagan tadbirlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston hukumati yangi saylangan prezident tashabbusi bilan, sohaga e'tibor va sayyohlar oqimini oshirish uchun viza talabini bosqichma-bosqich dunyoning rivojlangan 27 mamlakati shu jumladan, Yaponiya fuqarolari uchun bekor qilish rejasi tadqiqodchi tomonidan ijobiy baholangan.

Markaziy Osiyo davlatlari qadim davrdan Yaponiya bilan Ipak Yo'li bo'yab savdo va madaniy aloqalar olib borgan va hozirga kelib ham Yaponiya aholisi ushbu mintaqadagi tarixiy shaharlar va yodgorliklar haqida yaxshi ma'lumotga egalar.

Tadqiqodchi xulosasiga ko'ra, Markaziy Osiyoda turizm sohasida yetakchi mavqeini mustahkamlash uchun mamlakat UNESCO e'tirofidagi yodgorlik obyektlari ko'pligi, Ipak Yo'li brendi orqali tanilgan shaharlari jozibasini, zamonaviy transport infratuzilma imkoniyatlari beradigan ustunliklardan oqilona foydalanishi zarur. Xususan, yapon sayyohlari uchun sayohatni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish, mamlakatlar o'rtasidagi charter parvozlarni tashkil etish, sayyohlar ehtiyojidan kelib chiqib sayohat marshrutlarini tuzish Kunchiqar mamlakatdan turistlar oqimiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va ikki mamlakat xususiy turfirmalari hamkorlikda 2017- yil mobaynida Yaponiyadan to'g'ridan- to'g'ri Samarqand shahri aeroportiga 10 charter parvozlarni amalga oshirishga kirishdi. Aprel oyining o'zida faqat shu 3 ta reys bilan 750 nafar yapon sayyohi yurtimizga tashrif buyurdi.

### **11.2. Markaziy Osiyo mamlakatlarida turizmning rivojlanishi**

Ushbu mintaqaning ko'rsatkichlari jahondagi o'rtacha o'sishga nisbatan ancha tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Jumladan, turistlar oqimi 5,3 %ga, tushum 6,4 %ga o'sgan. Hududdagi mamlakatlardan Livan (18%), Iordaniya (12 %), Baxreyn (4 %) oqimning ko'payish erishdi. Boshqa mamlakatlarga nisbatan rivojlangan Misr turistlarga servis xizmati ko'rsatishni yaxshilash natijasida sayyohlar oqimi 3 %ga o'sishiga erishdi. Hozir butun dunyodan turistlar Misrning qadimiy chomrlarini

ko'rish uchun va afsonaviy Nil daryosi qirg'oklarida tashkil etilgan qadimgi yodgorliklarni ziyorat qilishga oshiqmoqdalar.

Turizm (sayohat) ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo'lgan nazariy va amaliy fan sifatida o'qitiladi. U o'zining ijtimoiy tizimlar (formatsiya) bilan bog'liq bo'lgan o'z tarixi hamda rivojlanish jarayonlariga ega. Turizm umumiy ma'noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ular ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlaridan tarkib topadi. Turizm haqida ilmiy-ommabop risolalar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar juda ko'p.

Ularning mazmunida turli yoshdagi kishilar va aholining talablariga qarab sayr-sayohatlarni tashkil qilish yo'llari bayon etilgan.

Turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Eng qadimgi insonlar yashash uchun ov va mehnat qurollarini yaratishga harakat qilganlar. Shu tarzda tog'lar, daryo va ko'llarning sohillarida yashab, yovvoyi hayvonlarni ov qilganlar, ularni qo'lga o'rgatib o'z mehnatlarida foydalanaganlar. Ov manzillari va dam olishga qulay bo'lgan joylarda ma'lum bir belgilarni (tur) qo'yishgan va zarur bo'lgan paytlarda ana shu joylarga kelib hordiq chiqarishgan, turli o'yinlar tashkil qilib musobaqalashishgan. Ishlab chiqarish va mehnat jarayonlarining takomillashuvi, ov va jang qurollarini yaratishining yangi usullari odamlarning uzoq joylarga borib ov va mehnat qilishi, shu asosda eng qulay va yaxshi joylarni tanlab dam olish, hatto o'troqlashib qolishlariga olib kelgan. Shu tariqa daryolar, ko'llar, dengizlarda ov qilish, sayr o'tkazish, izlanish uchun kemalar yasab, ulardan maqsadli foydalanaganlar. Bu sohada Xristofor Kolumbning Amerika qit'asiga borib qolishi (kashfiyot), turli sayohatchilarning Hindiston, Afrika, Avstraliya va boshqa qit'alar, mamlakatlarga borganligi tarixdan ma'lum.

XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator rus sayyohlari, mutaxassis olimlari (asosan harbiylar) Markaziy Osiyoning iqlimi, tabiiy boyliklari, aholining madaniyati va boshqa jihatlarni o'rganish uchun tashrif buyurishgan. Ular orasida P.P.Semyonov, Tyanshanskiy, Prejevalskiy kabilar tog' sharoitlarini chuqur o'rganib, maxsus xaritalar tayyorlaganlar. O'zbekistonda turizmning dastlabki

rivojlanish davri asosan o'tgan asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. 1925–1930-yillarda Markaziy Kasaba uyushmalari kengashi qoshida maxsus turistik jamiyat, ya'ni ishchi-dehqonlar turizm tashkilotini ta'sis etgan.

Bu jamiyat asosan mehnatkashlarning turli shaharlarga sayohatini (ekskursiya) uyushtirish, o'quvchi-yoshlarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish, o'lkani o'rganish kabi tadbirlar bilan shug'ullangan.

Shuningdek, dam olish kunlari ommaviy ravishda shahar atroflariga piyoda chiqish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish kabi amaliy faoliyatlarni tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi jismonan chiniqish, mehnat faoliyatini oshirish va mudofaa ishlariga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945-yillar) harbiy tayyorgarlik jarayonlarida o'quvchi-yoshlar va mehnatkashlarning topografik bilimlarini oshirishga alohida e'tibor berildi. Atroflarni chamalab (ориентирование) topish, xaritani o'qish, mo'ljalga tez yetib borish (jismoniy harakat) kabi turistik faoliyatlar keng rivojlandi. Bu jarayonlar o'sha davrlarda va hatto keyinchalik ham "Mehnat va mudofaga tayyor" majmuyidan o'rin oldi.

Urushdan keyingi yillarda (1950–1960-yillar) Markaziy Kasaba uyushmalarining tashabbusi bilan barcha viloyatlarda va ularning quyi tarmoqlarida turistik klublar tashkil etildi. Klublar turizm bo'yicha (piyoda yurish, tog' turizmi, velosiped turizm va hokazolarni uyushtirish) seksiyalar, to'garaklar, jamoalar tashkil etib, musobaqalar tashkil etishga kirishdi. Keyingi 30–40 yil davomida (1955–1990-yillar) Respublikalar, hududlar (Markaziy osiyo, Kavkaz, Boltiq bo'yi, O'rol, Sibir va hokazo) miqyosida slyotlar (musobaqalar) tashkil etildi. Ularning dastur mazmunida kategoriyali (darajali) piyoda yurish, tog' so'qmoqlari va dovonlaridan oshish, daryolardan kechib o'tish, arqonlarga osilib daryo, jarlarning us-tidan o'tish hamda belgilangan joylarni kompas orqali va chamalab topish, gulxan yoqish, chodirlarni tez (vaqtga) o'rnatish, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jamoaning ish faoliyatlarini ifoda etuvchi albomlarni namoyish etish, qo'shiq-raqs bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazish kabi ko'p qirrali ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlar o'rin egallagan edi. Bunday nufuzli turistik tadbirlar boshlang'ich jamoalarda (ta'lim muassasalari,

ishlab chiqarish korxonalarini va hokazoga) ham u yoki bu darajada o'tkazilishi odatga aylandi. Ommaviy piyoda yurish, shahar va tarixiy yodgorliklarni tomosha qilish sayr-sayohatlari asosan quyi jamoalarda yaxshi yo'lga qo'yildi.

Markaziy shaharlar, viloyatlarda tashkil qilingan seksiyalardagi terma jamoalar tog' turizmi, velosiped turizmi kabilar bilan shug'ullanib, ularda chamalab topish (ориентирование) bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil qilindi. Shu asosda yuqorida zikr etilgan turlar maxsus sportga aylandi. Ularning qoidalari (ni- zomlar) ishlab chiqilib, sport razryadlari (I-II-II darajalar, sport ustaligiga nomzod, sport ustasi, xizmat ko'rsatgan sport ustasi va hokazo unvonlar) tasdiqlandi. Belorussiya, Boltiqbo'yi, O'rol, Sibir o'lkasida o'z hududlariga mos, asosan turizmning tog' turizmi, chamalab topish, suv turizmi kabi turlari amalga oshirildi. Kavkaz, Qirg'iziston va shu kabi boshqa tog'li hududlarda esa tog' turizmi (g'orlarni topish, qoyalarni zabt etish) ko'proq rivojlanadi. Boshqa hududlarda ommaviy piyoda yurish turizmi keng rivojlandi. Jamiyatdagi qayta qurish (1980–1990-yillar) tadbirlari boshqa sohalar kabi turizm ishlariga, ayniqsa, jamoalarda ommaviy sog'lomlashtirish sayohatlarini tashkil qilishga salbiy ta'sir ko'rsatdi, ya'ni: – shug'ullanuvchilarning erk va istaklarini chegaralash, moddiy-texnik ta'minotni bekor qilish, faollarning sa'y-harakatlarini to'xtatish kabi tadbirlar rasmiy ravishda amalga oshirildi. Buning oqibatlarini hozirgacha turizmning rivojlanish jarayonida seziladi.

Butunjaon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jahon bo'yicha keyingi o'n yillikda turistik oqimning o'rtacha yillik o'sishi Yevropa mintaqasida 3,1 %, Yakin Sharqda 6,9 %, Janubiy Osiyoda 6,4 %, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 7,7 %ni tashkil etdi. Bizning respublikamizda ushbu ko'rsatkich yiliga 15% darajasida belgilangan, bu esa BTTning Osiyo mintaqasiga oid taxminlaridan ikki marotaba yuqoridir. Lekin, respublikamiz turmahsulotini jahon talabi darajasiga keltirish va marketing sohasidagi ba'zi bir kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'proq mablag' ajratish taqozo qilinadi. Jahon mamlakatlarida turizmga sarflanayotgan xarajatlarni ko'rib o'tganimizda, bu xarajatlar tez orada o'zini qoplashining guvohi bo'lamiz.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, u yoki bu mamlakat iqtisodiyotiga qat’iy valyuta tushumi, ular uchun katta iqtisodiy samara keltiradi. Ayniqsa iqtisodiyoti endi oyoqqa turayotgan mamlakatlar uchun bu jarayon juda katta ahamiyat kasb etadi. Turizmdan olinadigan daromadning samaradorligi mamlakat iqtisodiyotiga qo’shgan hissasi bilan belgilanadi, ammo masalaning ikkinchi tomoni ham borki, turizmni rivojlantirish uchun davlat oldin xarajat qilishi kerak bo’ladi. Turizmga davlat tomonidan sarflangan xarajat vaqti kelib bir qancha muvaffaqiyatlarni olib keladi. Buning misolida Avstriya, Germaniya va Fransiyalarni ko’rishimiz mumkin.

### 11.3. O‘zbekistonda turistik mintaqalar

Mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko’tarish borasida, eng avvalo ko’hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo’lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi markazlar ustida to’xtab o’tish zarur. Bu shaharlarda jahon ahlini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi tarix yodgorliklari mavjud. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchilar bu shaharlarni o’z ko’zlari bilan ko’rish orzusida yashaydilar. Ko’p mamlakatlarda O‘zbekiston ana shu shaharlari ila mashhurdir. U shaharlarda qad ko’targan qurilish san’ati xorijdan kelgan turistlarni hayratga soladi. O‘zbekistonning ana shunday tarixiy shaharlarini bemalol Sharqning javohirlari deb atash mumkin. Shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar bu shaharlarning ajoyib chiroyi, ularda yashagan hunarmandlar, arxitektorlarning ishlariga qoyil qolganlar.

Samarqand jahonning eng ko’hna shaharlaridan biri. U Bobil, Rim, Afina shaharlariga tengdosh. Samarqand haqidagi eng dastlabki axborotlar eramizdan oldingi IV asrga taaluqlidir. O’sha paytlarda Marokand nomi bilan mashhur bo’lgan bu shahar uzunligi 10 kilometrdan ortiqroq bo’lgan qudratli mudofaza devorlariga ega edi.

Murakkab tarixiy yo’lni bosib o’tgan Samarqand o’z tarixida bir necha marta gullab yashnadi va xarobalikka ham uchradi. U jahonning xar bir shahri kabi jamiyat tarixiy taraqqiyotining obyektiv qonunlari asosida shahar sifatida qad ko’tardi va rivojlandi.

Samarqand hali madaniyatining bebaho xazinasi hisoblanadi. Ko’p shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, sayyohlar uni haqli ravishda “Jahonning qimmatbaho gavhari”, “Sharq Rimi”, “Qadimgi Shark Jannati” kabi so’zlar bilan atashgan.

### 11.4. Turistik mintaqalarda xizmatlar bozorining raqobatbardoshligi

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko’lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo’ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o’ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur’atlar bilan o’sishini, inflyasiyani prognoz ko’rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o’tgan taraqqiyot yo’lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o’zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro’yobga chiqarishni taqozo etmoqda. 1993 yildan buyon bizning davlatimiz “Xalqaro turizm tashkiloti” (UNWTO)ning a’zosi hisoblanadi. 2004 yildan boshlab Samarqandda – buyuk Ipak yo’lining “yuragi”da UNWTO ning transkontinental magistralda turizmni koordinatsiyasi bilan shug’ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda. Hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mehmonxona infrastrukturasi yaxshilash, hamda turizmga normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga

oshirilmoqda. Turizm mahsulotlarini horijda tanitish maqsadida “Mega-info-tur” – tanishuv safarlari marketing loyihasi horijiy turistik kompaniyalar va ommaviy axborot vakillari uchun amalga oshirilib kelinmoqda. Shu kabi safarlar turistik mavsumlarning kengaytirish, vatanimizga keluvchi turistlarning oqimlari muddatini optimallashtirish, hamda O‘zbekistonda har bir fasl turistlar uchun o‘ziga hos bo‘lishini ko‘rsatib berishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Bundan tashqari O‘zbekistonning turistik salohiyatini qo‘llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o‘tadigan, Toshkentdagi xalqaro “Ipak yo‘lidagi turizm” yarmarkasining ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o‘zbek hamda horij mutahassislarini birlashtirish, ular o‘rtasida professional hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugungi kunga kelib bu xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko‘rgazmalardan biri sifatida nom qozongan. Afsonaviy o‘tmishi, Ipak Yo‘lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avlodan-avlodga o‘tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo‘stligi va insoniy qadriyatlarini bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni hursand etuvchi O‘zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o‘ziga jalb etadi.

Amalga oshirilayotgan o‘zaro hamkorlik aloqalarining samarasi o‘laroq, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan ustuvor yo‘nalish va vazifalarning mazmun-mohiyatini hududlarda targ‘ib etish, shuningdek, joylarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishini o‘rganish maqsadida Taraqqiyot strategiyasi markazi bilan hamkorlikda tashabbuskorlik asosida 2017 yilning yozgi ta‘til davrida professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlar uchun amaliy loyiha ishlab chiqildi. Unda har bir hudud bo‘yicha professor-o‘qituvchi va ko‘ngilli iqtidorli talabalardan iborat ijodiy ishchi guruhlar shakllantirildi.

Mazkur loyiha ta‘lim va amaliy jarayonni bevosita uyg‘unlikda olib borish, respublikamiz hududlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tarkibiy qismlarining tahliliy davomi hisoblanadi. Bunda professor-o‘qituvchilar o‘quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot faoliyatlari uchun zarur bo‘ladigan tahliliy materiallarni to‘playdilar,

talabalar esa nazariy bilimlarini amaliyotda yuz berayotgan voqea-hodisa va jarayonlar bilan mustahkamlashga muvaffaq bo‘ladilar.

Respublika hududlari kesimida Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” bandida belgilangan chora-tadbirlarni hududlarda bajarilishini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

**Tayanch iboralar.** Harakatlar strategiyasi, iqtisodiyotni liberallashtirish, raqobatbardoshlik, turistik mintaq, Samarqand, Bobil, Vavilon.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. O‘zbekistonning turistik mintaqalarini sanab bering.
2. Qoraqalpog‘iston respublikasi turistik imkoniyatlarini tavsiflang.
3. Harakatlar strategiyasi milliy dasturini izohlang.
4. Bobil, Vavilon qadimiy shahrlariga teng tarixiy shaharlarimiz qaysilar/

## 12-bob. O‘ZBEKISTONNI TURISTIK RAYONLASHTIRISH

### XUSUSIYATLARI

#### 12.1. Hududiy rekraetsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar

##### (HTM)

Rekreasiya jihatdan rayonlashtirish bu – rekreasiya sifatida foydalanish maqsadida shu belgilar asosida hududlarni ajratishdir.

Sog‘lomlashtirish va dam olishni tashkillashtirish, hamda hududlardan samarali foydalanishda rekreasiya maqsadida rayonlashtirishni katta ahamiyati bor. Bunda, hududiy rekreasiya tizimlari (HRT), hamda hududiy turistik majmualar (HTM) asosiy o‘rinni egallaydi. HRT – hududiy tabiiy va madaniy infrastrukturali majmua. U turli ixtisosga ega bo‘lib, asosiy vazifasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: *ijtimoiy* va *tibbiy – biologik*. Undan tashqari insonlarni davolanishi va dam olishi xususiyati kelib chiqib, mutaxassislar HRTning 4 ta guruhini ajratishadi:

- Davolanish;
- Sog‘lomlashtirish;
- Sport;
- Tanishuv.

HRTning birinchi guruhida, insonlarning davolanishiga qaratilgan bo‘lib, unda mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar, issiq qumlar mavjud joylar asosida xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladi.

HRTning ikkinchi (sog‘lomlashtirish) va uchinchi (sport) guruhi esa, insonlarning sog‘ligini tiklash hamda, dam olishiga qaratilgan. Bunda, dam olishning aktiv turlaridan, sayohat, ekskursiya va cho‘milish bilan Shg‘ullanish amalga oshiriladi.

To‘rtinchi guruh, insonlarning dam olishini mazmunli o‘tkazishda maqsadida, turli tabiiy va madaniy obyektlarga sayohat tashkil etish orqali, insonlarning ruhiy – psixologik sog‘ligini tiklashga qaratilgan.

HRT – bu murakkab xo‘jalik tizimi bo‘lib, ya‘ni sog‘lomlashtirish va davolanish muassalari (turli sanotoriyalar, dam olish tashkilotlari, motellar, kempenglar, lagerlar)

sport bilan shug‘ullanish muassalari, ekskursiya obyektlari, hamda yo‘l – transport tarmoqlaridan iborat. HRT shakllanishida hududda barcha xo‘jalik tarmoqlarini birgalikda rivojlanishini tashkillantirishni talab etiladi. Bunda, bir qancha muammolarni hal qilish lozim bo‘ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- mintaqalar bo‘yicha dam olish va davolanish muassalarni tabiiy – iqlimiy sharoit, mineral suv va boshqa resurslardan kelib chiqib joylashtirish;
- rekreasiya resurslaridan tizimli ravishda samarali foydalanish;
- infrastrukturani shakllanishida tarmoqlar o‘rtasida to‘g‘ri ixtisoslashishni tashkil etish;
- ovqatlantirish, kommunal va madaniy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini, hamda suvenir mahsulotlari ta‘minotini yaxshilash;
- zamonaviy transport, yo‘l tarmoqlari va aloqa vositalarini rivojlantirish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- rekreasiya maqsadida foydalanishda tabiat landshaftlarini muhofaza qilish.

Undan tashqari rekreasiya majmualarining 5 tipi ajratiladi:

- 1) Sanotoriya – kurort tipidagi;
- 2) Turistik – sog‘lomlashtirish tipidagi;
- 3) Sanotoriya - turistik – sog‘lomlashtirish tipidagi;
- 4) Ov qilish - baliq tutish tipidagi;
- 5) Turistik – sog‘lomlashtirish tipidagi - ov qilish - baliq tutish tipidagi.

Hududiy turistik majmualarga A.S. Soliyev va M.R. Usmonovlar (Turizm geografiyasi, 38b.) quyidagicha ta‘rif berishgan: HTM – ma‘lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik obyektlarning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi va uni boshqarishini anglatadi. HTM va HRT bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq, ammo ular o‘rtasidagi tafovut ko‘proq ularning hududiy jihatdan qanday masshtabni egallashida yotadi.

#### 12.2. Turistik – rekreasiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari

Rekreasiya maqsadida rayonlashtirishda rekreasiya resurslari xususiyatlarini, hamda mintaqani rekreasiya sifatida qabul qilish sig‘imini o‘rganish talab etiladi. Bu

maqsadda rayonlashtirish ishlari bilan bir qancha olimlar shug'ullanishgan. Kotlyarev E.A turistik – rekreasiya jihatdan rayonlashtirishda quyidagi belgilarni asos qilib olishni taklif qilgan:

Ma'lum hududni kurort – sog'lomlashtirish xo'jaligini ixtisoslashuvi jihatdan ifodalash.

Kurort – turistik – sog'lomlashtirish xo'jaligini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari bilan aloqasi uyg'unligida ifodalash.

Butun aholiga nisbatan, mehnat resurslaridan kurort – turistik – sog'lomlashtirish xo'jaligida band mehnat resurslari ulushi jihatdan belgilash.

Kotlyarev E.A. ko'lamiga ko'ra turistik – rekreasiya rayonlarni 4 guruhga ajratadi: respublika (o'lka, viloyat), rayon, rekreatsion joy (hudud), rekreatsion mikrorayon.

Rus olimlaridan A.M.Vetitnev va L.B.Juralevalar esa turistik – rekreasiya jihatdan rayonlashtirishda 4 jihatga e'tibor berishgan:

- Ijtimoiy
- Iqtisodiy
- Geografik
- Ekologik

Ijtimoiy nuqtai nazardan aholini jismoniy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish hisoblansa, iqtisodiy nuqtai nazardan turistik xizmat ko'rsatishni boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan aloqada, majmua sifatida shakllanishi hisobga olinadi.

Geografik jihatdan turizm sohalarida hududiy mehnat taqsimoti shakllanishi, hududda rekreasiya resurslarining foydalanish darajasiga e'tibor qilinadi. Ekologik jihatdan olganda, rayonlashtirishda insonni o'rab turgan atrof – muhit va rekreasiya resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, rayonlashtirishda obyekt hududiy uzluksiz ko'rinishida yoki hodisa va voqelik hududning ayrim joylarida mavjud bo'ladi. Sh jihatdan turistik rayonlashtirish ko'p jihatlariga bog'liq. Bularga:

- tabiiy landshaftlarni jozibadorligi nuqtai nazardan;
- ijtimoiy – iqtisodiy nuqtai nazardan;

- madaniy – tarixiy nuqtai nazardan qarashga bog'liq.

Turistik rayonlashtirishda tabiiy landshaftlarni jozibaligi hisobga olinganda geografik omillar (relef, iqlim, cho'l, tog', voha va boshqa lanjshaft rayonlari) asos vazifasini bajaradi. Bunday rayonlashtirish butun mamlakatni qoplab oladi. Ijtimoiy - iqtisodiy hamda madaniy – tarixiy nuqtai nazardan turistik rayonlashtirishda, arxeologik yodgorliklar, arxetektura hamda shaharsozlik obyektlari, ziyoratgohlar va boshqa turistik obyektlar hududning faqat ayrim joylarida uchraydi. Shning uchun ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy – tarixiy obyektlarni turistik jihatdan rayonlashtirishda murakkabliklar mavjud.

### 12.3. O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar

Turistik rayonlashtirish sohaviy yoki tarmoq rayonlashtirish turkumiga kiradi. Bunday rayonlashtirishda hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashtirish asos qilib olinadi. Turistik rayonni shakllantiruvchi omillar sifatida tabiat landshaftlari, ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy – tarixiy obyektlar va turistik infrastruktura xizmat qiladi (A.S. Soliyev, M.R.Usmonov, Turizm geografiyasi. 2005).

O'zbekistonda turistik rayonlashtirish mutaxassislar tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilmoqda. Bu borada ham turli qarashlar mavjud. Masalan, M.R.Usmonov o'zining tadqiqotlarida mamlakatimizda 6ta turistik rayonni ajratgan (Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Zarafshon, Janubiy, QuyiAmudaryo turistik rayonlari). A.N.Norchaev esa o'z tadqiqotlarida 7ta turistik rayonni ajratgan (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Jizzax - Sirdaryo, Qashqadaryo - Surxondaryo turistik rayonlari). Biz yuqoridagi metodologik asoslarga ko'ra mamlakatimizni quyidagicha rayonlashtirishni taklif qildik:

- Toshkent turistik rayoni (Toshkent viloyati);
- Farg'ona turistik rayoni (Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari);
- Mirzacho'l turistik rayoni (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari);
- Samarqand turistik rayoni (Samarqand viloyati);
- Buxoro – Qizilqum turistik rayoni (Buxoro, Navoiy viloyatlari);
- Janubiy turistik rayoni (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari);



- Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi).

#### 12.4. O'zbekistonning turistik rayonlari tavsifi

**Toshkent turistik rayoni** Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iborat mintaqa hisoblanadi. Toshkent shahri – Markaziy Osiyoning eng yirik shahri – O'zbekistonning Respublikasi poytaxtidir. Toshkent qadimiy shaharlardan hisoblanib, u haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi II asrdagi Xitoy solnomalarida uchraydi. Hozirgi kunda Toshkent yirik transport tuguni sifatida (havo, temir yo'l, avtomobil) o'zida mamlakatimizning tarixiy o'tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamonoviy sanoat shahridir.

Shuningdek, Toshkent turistik rayoni turistik resurslarga boy hisoblanib, mahalliy va halqaro ahamiyatdagi sayyohlikni rivojlantirish imkoniyatlariga ega.

Mazkur rayonda madaniy – tarixiy, tabiiy rekreatsiya resurslari mavjud. Bu yerda Oqtosh, Xumson, G'azalkent, Tovoqsoy, Boldirsoy, Chorbog', Chimyon, Kumushkon, So'qoq, Ohangaron, Yangiobod, Yertosh, Ko'ksaroy, Qizilchi kabi dam olish va davolanish resurslariga ega. Rayonning turli tekislik va tog'li qismida ekskursiya obyektlari va shifobaxsh maskanlari ko'p. Bu rayonda Botanika, Turon, Chinobod, Toshkent mineral suvi, 8 mart, Qibray, Bo'ston, Zangchi ota kabi bir qancha sanatoriya va kurort zonalari joylashgan.

**Farg'ona turistik rayoni** respublikamizning uch viloyatidan iborat (Farg'ona, Andijon, Namangan), eng so'lim, tabiati go'zal maskandir. Rayon uzoq tarixga ega hunarmandchilikning yirik markazi sifatida hozir ham ahamiyatini yuqotmagan. Qadimiy shaharlardan hisoblangan Qo'qon shahrida bir qancha arxitektura yodgorliklari mavjud. Masalan, Qo'qonning oxirgi xoni Xudoyorxon saroyi, Modarixon maqbarasi Shlar jumlasidandir. 2700 yil yoshga kirgan Marg'ilon (2007y) X asrda o'zining ipak matolari bilan mashhur bo'lgan. Marg'ilonning monumental yodgorliklaridan bezatilgan, masjid, minora, maqbara va kaptarxonadan iborat bo'lgan Kaptarlik kompozitsiyasi (XVIII) hamda SHouda masjidini ke'ltirish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek turistik rayonda milliy hunarmandchilik taraqqiy etgan. Sh o'rinda Marg'ilon ipaklari, shoyilari va do'ppilari, Chust

pichoqchiligi, charmdo'zligi, Rishton kulolchilik mahsulotlari hamda Andijon, Asaka, Pop, Qo'qon, Shahrixon kabi shaharlari ham ma'lum hunarmandchilik turlari bilan turistlarini jlb qilish imkoniyatiga ega. Yozyovon cho'llari noyob cho'l landshafti bo'lsa, Axxi, Eski Pop, Tuproqqal'a ekoturistik obidalar va rayon etnografiyasi, san'ati, madaniyati, urf-odatlarini (tuylari, milliy uyinlar) hamda choyxonalarini turistik qiziqishni orttiruvchi resurslardir.

**Mirzacho'l turistik rayoni** o'zining tabiiy rekreatsiya resurslari, o'ziga xos landshaft zonalari va qadimiy manzilgohlari bilan mashhur. Jizzax viloyatining Morguzar va Turkiston tog' tizmalaridagi tabiiy va rekreatsiya maskanlari, Sangzor daryosi havzasining landshaft zonalari ushbu rayonning turizm imkoniyatlarini oshiradi. Undan tashqari Zomin va Baxmal tog' va tog'oldi mintaqalari aziz qadamjolar hamda dam olish maskanlariga boy hisoblanadi. Turistik rayonda ekologik turizmni rivojlantirish borasida amaliy ishlar boshlangan. «Ekosan» xalqaro jamg'armasining ekoturizm bo'linmasi tomonidan Jizzax viloyatining Zomin milliy bog'i va Nurota qo'riqxonalariga marshrutlar ishlab chiqilgan. Zomin milliy bog'i Toshkentdan 250 km uzoqlikda bo'lib, viloyatdagi Tureiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'ida joylashgan. Bog'ning umumiy maydoni 24,1 ming ga, Shndan 12,1 ming ga o'rmonlar va 16,7 ming ga o'rmon bilan qoplangan yerlardan iborat. Milliy bog' rekreatsiya zonalardan iborat. Unga ekologik turizmni soylar bo'ylab, hamda tabiatning ajoyib obyektlariga piyoda va otlarda uyushtiriladi.

**Samarqand turistik rayoni** mamlakatimizning asosiy turizm markazidir. Turistik rayon ma'muriy jihatdan Samarqand viloyatidan iborat bo'lib, respublikamizda tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan qulay mintaqada joylashgan. Rayon tabiiy shart-sharoiti, yer usti tuzilishi geografik jihatdan chegaralanishi, ya'ni uning janub va shimol hamda shimoli-sharq tomonlari tog' va tog'liklardan iboratligi ham turizm sohasida juda katta mazmun kasb etadi. Uning chegaralari shimolda Nurota tog'lari (Oqtov, Qora tog', G'o'bdin tog', Qo'ytosh tog'i), janubdan Zarafshon tog' tizmalari (CHAqilqalon, Qoratepa, Ziyovuddin, Zirabuloq h.k.) bilan o'tadi.

Viloyatning asosiy yyer usti tuzilishi o'ziga xos bo'lgan tabiiy va landshaft xususiyatlari rekreatsiya resurslarining rivojlanishiga sabab bo'lgan. Uning tekislik qismida ya'ni Zarafshon daryosi sohillarida, Qarnabcho'l va Jom kabi cho'l hududlarida sayyohlikning kabi ekoturizm turlarini tashkil etish mumkin.

**Buxoro - Qizilqum turistik rayoni** respublikamizning asosiy turizm markazlaridan hisoblanadi. Bu rayonga Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi. Turistik resurslarga eng boy shahar bu Buxoro shahridir. SHahar o'zining 170 tadan ortiq bebaho, takrorlanmas tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Hozirgi kunda shaharning umumiy maydoni 710 gektardan ortiq bo'lib borgan sari go'zallashib bormoqda va sayyohlar oqimining ko'payishiga imkoniyat keng ochilmoqda.

**Janubiy turistik rayon** ma'muriy jihatdan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan iborat bo'lib, tarixiy va tabiiy turistik resurslarga ega. Qashqadaryo viloyati o'zining qadimiy shaharlariga ega. Qadimda yirik savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan Shahrisabz shahri Amir Temur qurdirgan Oqsaroy ansambli ko'plab diniy ziyoratgohlarga boydir. Viloyat markazi hisoblangan Qarshi bir necha arxitektura yodgorliklarga ega. Bular: Ko'kgumbaz masjidi (1463y), Jome' masjidi, Minorali Qo'rg'oncha, Xo'ja Abdulaziz madrasasi, Qilichboy madrasasi, Zaxox – Moron shaharchasi xarobalari va Qashqadaryo daryosi ustidan o'tgan qadimiy ko'prik kabilar. Mazkur shaharning 2006- yilda 2700 yillik yubileyi munosabati bilan yuqoridagi arxitektura obidalarining jozibadorligi yanada oshdi.

#### 12.1-jadval

##### Turistik rayonlarning turistik resurslari salohiyati<sup>12</sup>

Mintaqalar	Turistik resurslar va obyektlar
Toshkent	Ko'kaldosh madrasasi, Kaffol Shoshiy maqbarasi, Hazrati Imom arxitektura majmuasi, Abulqosim madrasasi, Baroqxon madrasasi, Jome' masjidi, Amir Temur muzeyi va xi-yoboni, Mustaqillik maydoni, Xalqlar do'stligi maydoni, Jasorat monumenti, Xasti Imom maydoni, Tilla SHayx masjidi, Xadra maydoni, So'fi Ota maqbarasi.
Samarqand	Afrosiyob arxeologik majmuasi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, SHohi Zinda arxitektura majmuasi, Hazrati Hizr masjidi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi, SHeydor madrasasi, Tillakori madrasasi, Ruhobod maqbarasi, Oqsaroy maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Namozgoh masjidi, Ishratxona

<sup>12</sup> N. Ibodullayev O'zbekistonning turistik resurslari ma'ruzalar matni Samarqand 2010

	maqbarasi, Hoja Ahror majmuasi, Hoja Abdu Darun qabristoni
Buxoro	Ark, Bolo – Hovuz majmuasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chashmai – Ayub, Abdulloxon madrasasi, Modari – Xon madrasasi, Masjidi Baland, Gavkushon majmuasi, Zayniddin Hoji xonaqosi, Poyi – Kalon majmuasi, Labi – Hovuz majmuasi, Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi xonaqosi, Ulug'bek madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Bolohovuz masjidi, Sayfiddin Boharziy maqbarasi, Bayonqulixon maqbarasi, Fayzobod xonaqosi, Chorminor madrasasi, Buxoro amirining Sitorai Mohi – xosa yozgi saroyi, CHor – Bakr majmuasi.
Xorazm	Ichan qal'a, Saidboy masjidi va madrasasi, Polvon Darvoza, Olloqulixon madrasasi, Qutlug'murod – inoq madrasasi, Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi, Abdulloxon madrasasi, Anushxon masjidi va harami, Toshhovli, Oqmasjid, Juma masjidi va minorasi, Said Olovuddin maqbarasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kaltaminor, Ko'na Ark, To'ramurod minorasi, Sherniyoqxon madrasasi, Bog'landi masjidi, Arabxona madrasasi.
Qashqadaryo	Oqsaroy, Dorus – Saodat majmuasi, Hazrati Imom masjidi, Jahongir maqbarasi, Dor – ut – Tilovat arxitektura majmuasi, Ko'k Gumbaz masjidi, Gumbazi Saidon, SHamsiddin Kulol maqbarasi.
Surxondaryo	Qirg' – qiz saroyi, Termiz hukmdorlari saroyi, Hakim at Termiziy arxitektura majmuasi, Sulton – Saodat arxitektura majmuasi, Qoratepa ibodatxonasi, Fayoztepa ibodatxonasi.
Farg'ona	Xudoyorxon saroyi, G'ishtlik masjidi, Jome' masjidi va minorasi, Mulkobod masjidi, Saida Ahmadhoji madrasasi, CHokar masjidi, Xo'ja Magiz maqbarasi, Mullo Qirg'iz madrasasi, Axsikent qadimiy shaharchasi.

#### 12.5. O'zbekistonda ekoturistik rayonlashtirish

O'zbekiston ekologik turizmni (ekoturizm) rivojlantirishni keng imkoniyatlariga ega. Turizmni bu sohasini rivojlantirish uchun rayonlashtirishni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Ekologik turizm nuqtai nazardan ekoturistik rayonlashtirish – ma'lum bir hududni uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollari-ga ko'ra ajratishdir.

#### 12.2- jadval

##### O'zbekistonning turli hududlarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari<sup>13</sup>

Turizm turlari	Shahar	Shahardan 10-20 km uzoqlikda	Qishloq joylari	Odamlar yashamaydigan hududlar
Tarixiy – taniShv	3	2	1	0
Arxeologik turizm	2	3	3	2
Ekologik turizm	0	2	2	3
Sarguzasht turizmi	1	2	2	3
Fermerlik yoki qishloq turizmi	0	2	3	1
Suv (dengiz) turizmi	0	0	2	3
Etnografik turizm	1	2	3	0

<sup>13</sup> N.Tuxliev, T.Abdullaeva. Natsionalnye modeli razvitiya turizma. T.: 2016

Kongress – biznes turizm	3	1	1	0
Ixtisoslashgan turizm	1	2	2	2
Kurort va sanatoriyalar	1	3	3	3
Diniy turizm	3	3	2	0
YOshlar turizmi	1	2	2	3
Gerontologik turizm	2	3	2	1
SHop – turlar	3	2	1	0

Izoh: 3 - yuqori darajada imkoniyat, 2 - o'rtta darajada imkoniyat, 1 - past darajada imkoniyat, 0 – umuman imkoniyatning yo'qligi.

Ekoturistik rayonlashtirishning ilmiy asosi sifatida qo'yidagi geoeologik tasnifiy belgilar olindi:

- har bir tabiiy geografik kompleks qaytarilmas ekoturistik imkoniyatlarga, ya'ni regionallik xususiyatlariga ega ;

- ekoturistik obyekt chegarasi doimo ham ma'muriy chegara to'g'ri kelavermaydi, ya'ni tabiiy geografik kompleks ta'sir doirasida turadi va Shning uchun ham undan kompleks foydalanish imkoniyati ochib berilishi lozim. Tabiatga uyushtirilgan sayyohlik mohiyatida tabiatni muhofaza qilish, turistlarning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash masalalari turishi lozim;

- ekoturistik rayonlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning jozibadorligini namoyon etish uchun ekoturistik marShrutlar, tarixiy, tabiiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy kabi turistik sayohatlar bilan birga olib borish imkoniyatlarini hisobga olish, ekoturistlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini yuzaga chiqarish va h.k.

Yuqorida aytib o'tilgan ilmiy prinsip va asoslarga binoan A.Nig'matov va N.SHomuratovalar O'zbekiston hududini 14 ta ekoturistik rayonga ajratgan..

**I. Ustyurt ekoturistik rayoni.** Ustyurt - O'zbekistonning shimoliy-g'arbi – Qoraqalpog'istonda joylashgan plato (yer yuzasi kam parchalangan yassi tekislik). Uning maydoni juda katta (200 ming km<sup>2</sup>), yo'llari asfaltsiz, o'nqir-cho'nqir yo'llardan iborat bo'lgani uchun ham ekoturistik marShrutlar “djip ” rusumdagi mashinalar, samolyot yoki vertolyotlarda olib borilgani maqul. Ustyurtning sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan ekoturistik obyektlariga :

- “chink”- dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlar bilan o'ralgan plato, doimiy oqar suvlarga ega bo'lmagan, lekin yer osti suvlariga ega supasimon tekisligi;

- davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta (1000 km<sup>2</sup>) tuzli Borsakelmas sho'rxoki. Unda o'simlik dunyosi deyarli yo'q. Osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. YAngi ochilgan Qo'ng'irotda soda zavodi aynan Borsakelmas tuzlari xisobiga qurilgan ;

- neolit davridan qolgan “ustyurt makoni”. Unda 60 yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy obyektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy ham ekoturistik ahamiyatga moyili “Tempa” makoni bo'lib, undan arxeolog S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasi 1300 dan ortiq chaqmoqtosh qurollari topilgan.

**II. Orol va Orolbo'yi rayoni** ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo'lgani uchun ham unda yuzaga kelgan ekologik inqiroz holati asosiy ekoturistik obyekt bo'lib hisoblanadi. Ekoturistik marShrutlar bir paytning o'zida ham Orolning qurilgan, ham uning ta'sirida turgan Orol atrofi hududlarini qamrab olishi zarur. Ekoturlar nafaqat trekking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertalyotlar orqali ham amalga oshirish lozim. Zero u masofadan turib katta va tekis maydonni yuqoridan turib vizual kuzatish imkoniyatini beradi. Orol dengizining shimoliy g'arbiy qismida joylashgan va kundan kunga kattalashib borayotgan Borsakelmas oroli insonlarni atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sirini aks ettiruvchi ekoturistik obyektidir. Unda Qozog'iston Respublikasi Borsakelmas qo'riqxonasi tashkil qilgan.

**III. Amudaryo rayoni.** Amudaryoning o'zaniga yaqin har ikkala sohillarida to'qayzorlar mavjud bo'lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft ko'rinishlardan bo'lib hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay langshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan. Unga ma'rifiy-ma'naviy maqsadda tashrif buyurishni uyushtirish mumkin. Ornitafaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha burmalangan tog' jinslari ochilmalaridan

iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog'lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan. Xorazmdagi arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish tavsiya etiladi.

**IV. Qizilqum rayoni** cheksiz qumliklardan iborat bo'lsada, lekin boy o'simlik va hayvonot olamiga ega. Bu yerda yo'l relief shakllari – qum marzalari, do'ng qumliklar faqatgina Sh yerga xos bo'lgan go'zal tabiat manzaralariga ega. U "sahro kemasi" — tuyalarda ekuskursiyalar uyushtirish ekzotik turizmni eslatadi. 1971- yilda tashkil etilgan va 10.3 mingga maydonda joylashgan Qizilqum davlat qo'riqxonasida to'qay va cho'l landshafiga xos bulgan o'simlik va xayvonlarni muhofaza etadi. Ekoturistik obyektlardan biri bulgan qo'riqxonada buxoro bo'g'usi (xongul), tung'iz, qirgovul, echkamar, jayron, qum charxiloni, turkiston kobrasini va xattoki, Prajivalskiy otlari saqlanadi. Ko'rkam tabiat o'rtasidagi ovullarda mehmon bo'lib, yulduzli osmon ostida kechani o'tkazish sayyohlarga zavq bag'ishlaydi. Qizilqumda bahor oylarida kishilarga estetik zavq berib, xordiq chiqaradigan chiroyli gulli o'simliklar – lola, chuchmoma, yeremurus, lolaqizg'aldoq, boychechak kabilar o'zgacha go'zallik kasb etadi. Qizilqum rayoni yilning barcha fasllarida ajoyibdir. Tuyalar karvoni esa unga yanayam ekzotik tus beradi, hamda uni jozibadorligini o'tiradi.

**V. Nurota rayoni** o'zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975- yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo'lgan Nurota tog' yong'oqzor - meva qo'riqxonasi mavjud. Bu qo'riqxonaga "Ekosan" qoshidagi "Ekosantur" firmasi tomonidan ko'plab marshrutlar uyushtirilgan.

**VI. Zarafshon rayonida** Zarafshon daryolari qayirlarida joylashgan tuqay landshafti, undagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtirilgan "Zarafshon qo'riqxonasi" mavjud. Buxoro viloyatining Shofrikon o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan qum cho'l landshafti, u yerdagi o'simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorlik (Vardanza shaxar xarobalari) davlatning alohida yetibori bilan qo'rikdanadi. "Vardanza qo'riqxonasi", "To'dakul flora va faunasini

boyitish buyurtmaxonasi", Qoravulbozor xo'jaligida joylashgan "Jayron-ekomarkazi", suv va botqoqqa moslashgan qushlarni ko'paytiruvchi "Dengizkul buyurtmaxonasi", Zarafshon tog' tizimlaridagi Omonquton va Temurlang karst g'orlari kabilar. Zarafshon ekoturistik rayonda O'zbekistonning qadimgi shaharlari Samarqand va Buxoro joylashganligi tufayli ham ekoturlar yakuni tarixiy-diniy arxitektura yodgorliklariga qilinadigan safarlar bilan olib borilishi maqsadga muvofikdir.

**VII. Aydarko'l rayonidagi** ko'llar tizimining paydo bo'lishi bevosita Mirzacho'lining o'zlashtirilishi bilan bog'likdir. Sizot suvlari hamda zovur-drenaj suvlarining Aydarko'l botig'i tomon harakatlanishi natijasida botikdagi Tuzkon ko'lining kengayishi Arnasoy hamda Aydarko'l ko'llarining paydo bo'lishiga olib keladi. Botiqdagi keyingi dinamik o'zgarishlar Chordara suv omboridagi (1969) ortiqcha suvlarning tashlanishi bilan bog'liq. Bu suvlarning to'planishi natijasida Arnasoy ko'llari birlashib yagona Aydar ko'llar tizimini va undagi faunani boyitib beruvchi "Arnasoy buyurtmaxonasi"ni tashkil etilishiga olib keldi.

**VIII. Sirdaryo rayoni** Sirdaryo o'zanidagi tuqayzorlari bilan ajralib turadi. Sirdaryoning ba'zi joylarida doimiy yoki mavsumiy orolchalar mavjud bo'lib, unda juda ko'p qushlar yig'iladi va manzarali ekoturistik obyekt bo'lib hisoblaniladi.

**IX. Chirchiq - Ohangaron** tog'li ekoturistik rayonda xalqaro ekologik rezervat joylashgani uchun ham uning xuquqiy maqomi tabiatga ara-lashmaslik prinsipiga moslashgirilishi lozim. Undagi ekoturistik sayohatda vertolyot va samolyotlardan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Ekoturlar oldindan belgilab berilgan kichik yo'lakchalar orkali, kam sonli turistik guruhchalarga bo'lingan tarzda, yilning hayvonot olamini urchimaydigan va ko'paymaydigan davrlarida piyoda va otlarda aylanish maqsadga muvofikdir. Mazkur ekoturistik marshrutlarda mahalliy aholining xizmatidan atroflicha foydalanish ularni noekologik yo'naltirilgan turmush tarzini ijobiy tomonlarga o'zgartiradi.

**X. Farg'ona rayoni** ekoturizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga kasb etadi. Chunki undagi landshaftlarining turli-tumanligi markazdagi cho'llardan tortib, to maftunkor tog' cho'qqilari barchani o'ziga jalb etadi. Tog'lardagi tez oqar va

baʼzida kechuv qiyin boʻlgan daralarda raftlarda oqish (rafting), Janubiy Fargʻonadagi balandligi 10 m keladigan, dam olayotgan tuyalarni eslatuvchi ekzotik relef shakillariga hamda «Yozyovon davlat tabiat yodgorligi»dagi ajoyib tabiiy qum massivi (1994- yilda tashkil etilgan va maydoni 1,9 ming ga) piyoda turlar uyushtirish mumkin. Koxu vodiysida 120 yil avval vujudga kelgan, oq, kulrang qoyalar bilan uralgan toza, muzdek suvli koʻk va yashil koʻllar ham ekoturizm obyektidir.

**XI. Turkiston rayonida** ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarda uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbagʻrida 1959- yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m. umumiy maydoni 21735 ga boʻlgan "Zomin davlat qoʻriqxonasi". Maydoni 24110 ga boʻlgan noyob togʻ-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978- yilda tashkil etilgan "Zomin milliy bogʻi" mavjud.

**XII. Qashqadaryo rayoni** Oʻzbekistonning janubiy qismida joylashgan boʻlib, u choʻl, dasht, togʻoldi va togʻli hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida choʻl va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa togʻ oldi va togʻli hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979- yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega boʻlgan, MDH davlatlari ichida yagona - "Kitob davlat geologiya qoʻriqxonasi", 1992- yilda tashkil etilgan "Muborak buyurtmaxonasi", 1992- yilda tashkil etilgan "Sechenkoʻl buyurtmaxonasi" mavjud. Qashqadaryo rayonida ekoturizmni tarixiy, diniy turizm bilan birgalikda olib borish uchun birqancha arxitektura yodgorliklari va diniy qadamjoylar mavjud.

**XIII. Hisor rayonida** 1983- yilda tashkil toptan Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv vazirligiga qarashli, absolyut balandligi 1150-4349 m.boʻlgan, 870 xil oʻsimlik, 140 xil hayvonot olamiga ega, maydoni 80,9 ming ga boʻlgan Hisor davlat qoʻriqxonasi mavjud. Bu rayonda ekoturlarni mahalliy aholining madaniyatini aks etgiruvchi "Boysun" etnografik-folklor ansambli chiqishlari bilan uygʻunlikda olib borish sayohlarni oʻziga koʻproq jalb qilish imkoniyatini beradi.

**XIV. Surxondaryo rayonida** Kuhitang togʻli hududda 1987- yil tashkil etilgan 53,7 ming ga maydonda 800 xil oʻsimlik va 290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yoʻnaltirilgan "Surxon davlat qoʻriqxonasi" mavjud.

**Tayanch iboralar.** Rekreatsiya, hududlarni muhofoza qilish, sogʻlomlashtirish, turistik majmua, qoʻriqxonasi, oʻsimlik, hayvonlar.

#### Savol va topshiriqlar

1. Hududiy rekreatsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM) haqida tushuncha bering?
2. Turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari.??

## 13-bob. TOSHKENT TURISTIK MINTAQASI

### 13.1. Toshkent viloyatining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'рни

Toshkent viloyati geografik jihatdan respublikaning shimoliy sharqida joylashgan bo'lib, shimol va shimoliy g'arbdan Qozog'iston, shimoliy sharqdan Qirg'iziston va janubdan Tojikiston davlatlari, shuningdek sharqdan Namangan, janubiy g'arbdan esa Sirdaryo viloyatlari bilan chegaradosh.

Viloyatda 15 ta tuman, 4 ta viloyat va 14 ta tuman bo'ysunuvdagi shaharlar, 18 ta shahar tipidagi posyolkalar 146 ta qishloq fuqarolar yig'inlari hamda 1157 ta qishloq aholi punktlari mavjud (11.1.1-



jadval). Viloyatning ma'muriy-hududiy tuzilmasi asosan sanoatga ixtisoslashgan to'rtta shahar (Angren, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq) va o'n to'rtta qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Chinoz O'rtachirchiq, Qibray, Quyichirchiq, Yuqorichirchiq, Yangiyo'l) tumanlardan iborat.

Viloyatda jami 110 tadan ortiq turizm obyektlari hamda 76 tadan ziyod tarixiy va madaniy meros obyektlari mavjud.

Viloyat iqtisodining asosini sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish, metallurgiya, paxtani qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati tashkil etadi. Bundan tashqari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan tarmoqlar jumlasiga kiradi. Engil sanoatning asosini mavjud paxta tozalash zavodlari, paxta va ipak tola yigiruvchi fabrikalar tashkil qiladi. Non mahsulotlari, qandolat, sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) mamlakat yalpi ichki mahsulotining 2016- yilda 8,8 foizini, aholi jon boshiga hisoblaganda esa o'rtacha mamlakat darajasining 109,6 foizini tashkil qiladi. YAIM

tarkibida keyingi yillarda, investitsiyalar va agrar sektor ulushining qisqarishiga, ayni vaqtda sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining ulushi ko'payishiga erishildi (13.1-jadval).

13.1-jadval

Toshkent viloyatining tarkibiy tuzilishi<sup>14</sup>

Tashkil topgan vaqti	1938- yil, 15- yanvar
Maydoni	15,26 (ming km <sup>2</sup> )
Aholisi soni	2829,5 ming kishi ( 2017 yil, 1 yanvar)
Shaharlar soni	18 ta
Tumanlar soni	15 ta
Shahar tipidagi posyolkalar soni	18 ta
Mahalla fuqarolar yig'inlari soni	990 ta
Qishloq fuqarolar yig'inlari soni	146 ta
Qishloq aholi punktlari soni	1157 ta

Toshkent viloyati mamlakat sanoatining hududiy tarkibida oldingi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Hozirgi vaqtda respublika sanoat mahsulotlarining 15 foizi, jumladan respublikada ishlab chiqarilayotgan elektrenergiyaning 45 foizi, ko'mirning 98 foizi, sementning 43 foizi, po'lat va metall prokatining 100 foizi, rangli metallarning asosiy qismi viloyat hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida viloyatda keyingi yillarda barqaror rivojlanish jarayonlari kuzatilmogda. Buni yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlari o'rtacha 7,5 foizni tashkil qilib, 2010-2016 yillarda 3,1 marotaba o'sganligida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 3,3 martaga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish - 4,9 martaga, chakana savdo aylanmasi 3,3 martaga, pullik xizmatlar 4 martaga ko'paygan. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotda ijobiy tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Tahlil qilinayotgan 2010-2016 yillar davomida sanoatning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 37,7 foizdan 38,8 % foizga o'sganligi, qishloq xo'jaligining

<sup>14</sup> Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ulushi 22,5 foizdan 19,7 foizga qisqarganligini, xizmatlarning 40 %dan 41,5 %ga o'sganlarini ijobiy jarayon sifatida baholash mumkin (13.2-jadval).

### 13.2-jadval

#### Toshkent viloyatining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rni (foiz hisobida)<sup>15</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	2000 y.	2010 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	Mamlakati-mizda tutgan o'rni (2016 yilda)
Aholisi soni	9,6	9,2	8,9	8,9	8,8	5
Yalpi hududiy mahsulot	10,8	9,0	9,8	9,6	10,2	2
Sanoat mahsulotlari	16,4	14,5	14,7	14,7	15,0	2
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	10,2	9,9	11,7	12,1	11,9	3
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	13,2	13,1	12,6	12,6	12,6	1
Asosiy kapitalga investitsiyalar	8,1	9,8	10,8	9,7	8	4
Chet el investitsiyalari	10,9	6,1	7,3	8,2	5,5	5
Chakana savdo aylanmasi	9,9	11,0	10,5	10,7	10,8	3
Pullik xizmatlar	7,0	6,1	6,6	9,2	9,4	5
Tashqi savdo aylanmasi	12,3	13,2	13,9	12,4	11,3	2
Ekspart	11,6	13,4	13,8	13,1	9,1	2
Import	13,2	13,0	14,1	11,7	13,6	2

Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishdagi ulushi bo'yicha Toshkent viloyati Qoraqolpog'iston Respublikasidan keyingi 2-o'rinda turadi.

Toshkent viloyati 2016- yilda investitsion faollik darajasiga ko'ra mamlakat hududlari ichida 4-o'rinda turadi. Milliy iqtisodiyotga jalb etilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,6 foizi, chet el investitsiyalarining 8,2 foizigacha viloyatga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar asosini mashinasozlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan markazlashgan investitsiyalar hamda engil va oziq-ovqat sanoatiga oid mahalliy loyihalar tashkil etadi. Keyingi 10 yil ichida xorijiy investorlar ishtirokida 198 ta qo'shma korxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi va ularning soni 532 taga yetdi. Mazkur korxonalar viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlaridagi

<sup>15</sup> Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

ulushi 2016- yil yakuniga ko'ra 27,5 foizni tashkil etdi. Bu esa, o'z navbatida, hududiy eksport hajmining 17,5 %ni ta'minlab bermoqda, shuningdek jami importning 24,7 % ulushiga teng bo'lib, ushbu korxonalarining 2005-2016 yillardagi rivojlanishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 12 barobarga oshishiga xizmat qildi (13.3-jadval).

### 13.3-jadval

#### Toshkent viloyati iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YAHM tuzilmasi<sup>16</sup>, (foizda)

Ko'rsatkichlar nomi	2010 y.	2011y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
YAlpi hududiy mahsulot	100	100	100	100	100	100	100
shu jumladan:							
Qishloq xo'jaligi	22,5	22,8	23,7	22,3	21,6	20,6	19,7
Sanoat (qurilish sohasi bilan birga)	37,7	38,4	38	40,4	40	39,7	38,8
Xizmatlar	40	40,9	40,6	38,6	38,8	36,3	41,5
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	54,7	57,2	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1

Toshkent viloyatining xizmatlar bozori bo'yicha O'zbekistondagi ulushi Toshkent shaxridan keyingi o'rinda turadi (aholi jon boshiga 3 o'rinda) va jami ulushi 9,3 %ni tashkil etadi. Viloyatda asosiy xizmatlar transport xizmatlari hisoblanadi va uning ulushi jami xizmatlarning 36,7 % hissasiga to'g'ri keladi (13.4-jadval).

### 13.4-jadval

#### 2016- yilda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyati<sup>17</sup>

Respublika va viloyat	Sanoat mahsuloti		Eksport		Import	
	mlrd. so'm	Xorijiy korxonalar ulushi	mln. AQSH doll.	Xorijiy korxonalar ulushi (%)	mln. AQSH doll.	Xorijiy korxonalar ulushi (%)
O'zbekiston Respublikasi	28667,6	25,8	2192,5	17,4	4022,7	33,2
Toshkent viloyati	4639,9	27,5	214,7	17,5	416,4	24,7

<sup>16</sup> Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

### 13.2. Toshkent turizm mintaqasining turistik imkoniyatlari

Toshkent viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini oshirishni ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Toshkent viloyatidagi turizm resurslari va moddiy madaniy meros obyektlari sifatida ro'yxatga kiritilgan obyektlarni o'rganish bo'yicha ishchi guruhi tomonidan viloyatda jami 110 tadan ortiq turizm obyektlari hamda 76 tadan ziyod tarixiy va madaniy meros obyektlari mavjudligi, Xo'jakent, Qoraqiyaoy, Boshqizilsoy, Chotqol, Parokandasoy, Ohangaronda topilgan petrogliflar bo'lganligi aniqlandi.

13.5-jadval<sup>18</sup>

#### Toshkent viloyatining turistik resurslari

№	Nomi	Soni
1.	Viloyatdagi moddiy-madaniy meros obyektlari soni	248
2.	Turistik korxonalar soni	18
3.	Mehmonxonalar soni	36
4.	Mehmonxonalardagi o'rinlar soni	2400
5.	Tabiat yodgorliklari	2
6.	Sayyohlar qabul qiladigan restoranlar soni	12
7.	Turoperatorlar soni	23

#### Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib Toshkent viloyati tumanlar kesimida turizm obyektlarini o'rganish bo'yicha ma'lumot<sup>19</sup>

Ko'rsatkichlar	O'rganilgan tarixiy obidalar soni	O'rganilgan diniy ziyoratgohlar soni	O'rganilgan tabiat yodgorliklari soni	O'rganilgan boshqa turizm obyektlari soni
Toshkent viloyati bo'yicha	9	11	-	-
Shu jumladan: tumanlar bo'yicha	-	-	-	-
Angren shahar	-	-	-	-

<sup>18</sup> TDIU O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kompleks o'rganish natijalari bo'yicha yig'ma tahliliy material. Toshkent 2017

<sup>19</sup> TDIU O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kompleks o'rganish natijalari bo'yicha yig'ma tahliliy material. Toshkent 2017

Olmalik shahar	-	1	-	-
Chirchiq shahar	-	-	-	-
Bekobod shahar	-	-	-	-
Zangi ota tumani	1	2	-	-
Oxangaron tumani	1	2	-	-
Bo'stonliq tumani	2	2	-	-
Oqqurg'on tumani	1	1	-	-
Qibray tumani	1	-	-	-
Yuqori chirchiq tumani (Yangibozor)	-	-	-	-
O'rta chirchiq (To'ytepa)	-	-	-	-
Quyichirchiq (Do'stobod)	-	-	-	-
Parkent tumani	1	2	-	-
Piskent tumani	1	-	-	-
Bo'ka tumani	-	-	-	-
Chinoz tumani	-	-	-	-
Yangiyo'l tumani	1	1	-	-
Bekobod tumani	-	-	-	-
Jami	20			

Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan loyixalar rejalashtirilgan mablag'larning asosiy qismi 33,28 %, Bekobod 18,8 %, Chirchiq shaxri 8,5 %, O'rtachirchiq va Qibray tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent viloyatida 2017-2018 yillar davomida amalga oshiriladigan yirik loyixalarning respublika miqyosidagi ulushi 10 %ni tashkil etsa, rejalashtirilgan mablag' esa respublikaning 22 %ni tashkil etmoqda. Respublika miqyosida amalga oshiriladigan sanoat saloxiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan loyixalarning soni 130 tani tashkil etib 7242,8 mlrd. so'm mablag'lar rejalashtirilgan.

Oxirgi 10 yil davomida viloyatda pishloq va brinza (5,4 marta), meva-sabzavot konservalari (3,1 marta), kolbasa mahsulotlari (1,5 marta), mineral suv (1,1 marta), uzum sharbati (1,4 marta), liker aroq (7 marta) 14 mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ortgan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga 15 ta yirik va 71 ta kichik sanoat korxonasi joylashgan Zangiota, Qibray, Yangiyo'l, Parkent va Bo'stonliq tumanlari eng ko'p hissa ko'shmoqda.

Yengil sanoat viloyat sanoatining jozibadorlikka ega bo'lgan tarmog'i hisoblanib, ayniqsa aholi zich joylashgan hududlarda iqtisodiy va ijtimoiy



muammolarning yechimini ta'minlaydi. Ushbu soha viloyat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish umumiy hajmida 9,4 foizni tashkil qilib, Chirchiq shahri, Bo'stonliq, Zangiota, O'rtachirchiq, Yangiyo'l va Chinoz tumanlari asosiy ishlab chiqaruvchi hududlar hisoblanadi.

### 13.3. Toshkent turistik mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari

Toshkent turistik mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishda o'rganishlar natijasida quyida ayrim obyektlarning hozirgi holati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Zangi ota ziyoratgohi.** Zangi ota tumanida joylashgan "Zangi Ota" ziyoratgohiga borib sharoitlar bilan tanishildi. Zangiota ziyoratgohi Toshkent shahri yaqinidagi Zangiota qishlog'ida joylashgan muqaddas qadamjo bo'lib, ulug' bobomiz Amir Temur tomonidan asos solingan. Ziyoratgoh etuk axlok-odob sohibi, xakim va tabib Zangi ota xazratlariga atab, ular yashab, dafn etilgan joylarida qad rostlagan. Zangiota ziyoratgohi Anbar bibi maqbarasi, darvozaxona, Madrasa, masjid, Xonaqoh shiypon, minora va xovuzdan iborat.

U yerdagi ayollar tahorat oladigan joyi talabga javob bermaydi, yaxshilash kerak. Me'moriy obida viloyat miqyosidagi madaniy me'ros obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan. Tashrif davomida obyektning hozirgi kundagi holati qoniqarsiz bo'lishiga qaramay u erga hali ham mahalliy ziyoratchilar tashrif buyurishi aniqlandi.

Ziyoratgoh atrofida ziyoratchi turistlar uchun soyabonli o'rindiqlar sonini ko'paytirish kerak. Shuningdek qo'shimcha ravishda ovqat tayyorlash va dam olish uchun sharoit yaratish lozim.

Qirq qiz bulog'i (ko'l ota)<sup>20</sup>

Olmaliq shahridan 6 kilometrcha g'arbda Ko'l ota qishlog'i bor. Uning yuqori tomonidagi tog' tagida 40 ta buloq qaynab yotibdi. Suvlarining ta'mi har xil. Zamonaviy tibbiyot ularning turli dardlarga davo ekanini tasdiqlagan. Bu er hozirgi

<sup>20</sup> TDIU Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини комплекс ўрганиш натижалари бўйича уйғма таҳлилий материал. Toshkent 2017

paytda ziyoratgohga aylangan. Har kuni O'zbekiston va qo'shni respublikalarning turli viloyatlaridan yuzlab ziyoratchilar tashrif buyurishadi.

Mahalliy aholining hikoya qilishicha, VIII asrlarda bu joylarda bir podshoh hukm surgan. Uning yolg'iz qizi bo'lgan ekan. Azaldan bu erlar turli qazilma boyliklari, xususan oltin konlariga boy bo'lgani uchun bu zaminga ko'p mamlakatlar hukmdorlari ko'z tikkan. Bir kuni yov bostirib keladi. Podshoh lashkarlari bilan yovga qarshi chiqadi. Biroq yov son-sanoqsiz edi. Engilishini sezgan podshoh qiziga chopar yuborib, yashirinishni amr etadi. Qiz qirq kanizagi bilan toqqa qochib ketayotib, dushman lashkarlariga duch keladi. Or-nomusini saqlab qolish uchun qizlar o'zlarini chuqurlikdagi ko'lga otadilar va halok bo'ladilar.

Oradan yillar o'tib, ko'lning quyi qismida Ko'l ota qishlog'i bunyodga keladi. Qishloq aholisi ko'paygan sayin suvga bo'lgan talab kuchaya boradi. Bora-bora ko'lning suvi kamlik qilib qoladi. Ular ko'lning ko'zini ochishga majbur bo'lishadi. Biroq suv sathi yildan-yilga pasayib boraveradi. Oradan yana 100 yillar o'tib, ko'lning o'rnida buloqlar hosil bo'ladi. Mahalliy aholi bu erga kelib, buloqlarni sanab ko'rishsa, jami qirqta ekan. Shunda ular ota-bobolari aytib ketgan hikoyani, ya'ni ko'lga o'zlarini tashlab, halok bo'lgan qiz rivoyatini eslashadi va unga Qirqqiz buloq deya nom berishadi. Bu muqaddas maskan ziyoratgohga aylanadi.

**Tayanch iboralar.** Toshkent turistik mintaqasi, Qirqqiz buloq, Zangiota, Ko'l-ota.

#### Savol va topshiriqlar

1. Toshkent turistik mintaqasining turizmdagi o'rni.
2. Toshkent turistik mintaqasiga qaysi viloyatlar kiradi?

## 14-bob. SAMARQAND TURISTIK MINTAQASI

### 14.1. Samarqand viloyatining tabiiy-geografik o'rnini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan va amalda joriy etilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hozirgi sharoitda yaratuvchanlik ruhida shijoat bilan mehnat qilayotgan Samarqand halqining istiqboldagi samarali faoliyatida dasturi amal bo'lib hizmat qilmoqda.

Respublikamizning sharqiy hududida joylashgan Samarqand viloyati o'zining nafaqat go'zal tabiati, qulay geografik joylashuvi, balki tabiatan mehnat sevar va jonkuyar halqi bilan vatanimiz taraqqiyotiga ulkan hissasini qo'shayotgan hududlardan biridir.

Samarqand viloyati 1938- yil 15- yanvarda tashkil topgan. Viloyat markazi Samarqand shahri. Samarqand viloyati sharqda Tojikiston Respublikasi, janubda Qashqadaryo viloyati, g'arbda Navoiy viloyati, shimolda Jizzax viloyati bilan chegaradosh.

Hozirgi kunda Samarqand viloyatida 14 ta tuman (Jomboy, Bulung'ur, Samarqand, Tayloq, Urgut, Oqdaryo, Nurobod, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Qo'shrobot, Payariq, Pastdarg'om, Narpay, Paxtachi), 2 ta shahar (Samarqand, Kattaqo'rg'on) mavjud bo'lib, 2017- yilning yanvar holatiga aholi soni 3635,3 ming kishi tashkil etgan bo'lib, maydoni 16,8 ming km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Samarqand viloyatining umumiy yer maydoni 431,7 ming gektar bo'lib, Shundan 183 ming gektari sug'oriladigan yerni, 248,8 ming gektari lalmi yerni tashkil qiladi.

Samarqand deganda, avvalo o'zining buyuk tarixi va madaniyati bilan haqli ravishda Sharq gavhari, Yer yuzining sayqali deb nom olgan betakror va xosiyatli bir zaminni o'zimizga tasavvur qilamiz. Samarqand nafaqat tarixiy madaniy shahar, balki dunyodagi nufuzli davlatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari tashrif buyuradigan, ko'plab uchraShv va muloqotlar, anjumanlar bo'lib o'tadigan markazga aylanib bormoqda.

Viloyat hududida millatimiz va yurtimiz dovrug'ini butun olamga taratgan bir ming ikki yuzdan ziyod tarixiy obidalarning mavjudligi viloyatda turizm sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Jumladan, Registon maydoni, Shohi-zinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek rasadxonasi, Imom-Al-Buxoriy majmuasi va Mahdumi A'zam xonaqohi kabi tarixiy obidalar viloyatda turizm sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Qolaversa, Kattaqo'rg'onlik hunarmandlar pishirgan SHarq shirinliklari mazasi og'izdan ketmaydi. Cho'pon tayog'ini qo'lidan qo'ymay kelayotgan Nurobodning chorvadorlari sohaning rivojiga munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Bulung'ur, Jomboy, Tayloq hamda qadimiy va hamisha navqiron shaharning yashil belbog'i hisoblangan Samarqand tumanlari bog'larida etishtirilayotgan sarxil va shirin-shakar mevalar bugun nafaqat yurtimizda, balki jahonga mashhur. Bu hududlarda etishtirilayotgan mevalarning bir qismi toza-tabiiy holatda va qayta ishlanib, eksportga chiqarilmoqda. E'tiborga loyiq tomoni, aksariyat usta dehqonlar yerdan bir yilda uch martagacha hosil olayotgani, tomorqasida etishtirayotgan hosilni ro'zg'oridan ortirib, bozorga chiqarayapti va qo'shimcha daromad olayapti.

Urgutlik tadbirkor va ishbilarmonlarning dovrug'i azaldan ma'lum va mashhur. Ushbu tumanda sanoatning bir necha turi muttasil ravishda rivojlanib kelayotgani, bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham o'z xaridorini topayotgani tahsinga sazovor.

Pastdarg'om, Payariq, Paxtachi, Ishtixon, Oqdaryo va Narpay tumanlari viloyat qishloq xo'jaligi yukini elkasiga olgan. Bu tumanlarda dehqon va fermerlar g'alla, paxta, pilla va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda yuqori hosildorlikka erishmoqdalar.

Dashtu dalalardan iborat Qo'shrobot tumanida tug'ilib o'sgan kadrlar bugun mamlakatimiz xalq xo'jaligining barcha jabhalari yuksalishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shayotgani e'tirofqa sazovor.

Viloyatda 70 dan ziyod sayyohlik firmalari va bir yo'la 4 ming nafardan ko'proq mehmonlarni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan 91 ta mehmonxona faoliyat

ko'rsatmoqda. Shningdek, 6 ta ilmiy-tekshirish va loyihalash institutlari, 8 ta oliy o'quv yurti mavjud.

Viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, savdo, xizmat ko'rsatish, san'at, sport kabi sohalar izchil rivojlanmoqda.

Viloyat respublikaning yirik sanoat markazlaridan biri bo'lib, "Samarqand avtomobil zavodi", "JV MAN Avto", "UrgGazKarpet", "Daka Teks", "SamAntepGilam", "Pulsar Grup", "Siyob saxovati" kabi 3300 dan ortiq sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Samarqand viloyati alohida o'rin tutadi. Bu fikrning tasdig'i sifatida albatta ko'p-ko'p misollar keltirish mumkin. Bu hakda gapirganda, avvalo, viloyat iqtisodiyoti 2010- yildan buyon 1,7 barobar o'sganini ta'kidlash joiz.

Bugungi kunda jahondagi eng yuksak standartlar asosida jihozlangan Samarqand avtomobil zavodida o'nlab turdagi mashinalar ishlab chiqarilmokda. Sh bilan birga, «British-Amerikan tabacco», «Sam Antep Gilam», «Amin Invest» qo'shma korxonalari, «Sharq sanoati» xususiy konserni singari yirik ishlab chiqarish quvvatlari viloyat sanoati rivojiga muhim hissa qo'shmokda.

Oxirgi besh yilda viloyatda 100 dan ortiq yangi qo'shma va xorijiy korxonalar tashkil etilib, ayni paytda ularning soni 259 taga etgani quvonarlidir. Mazkur korxonalarda yiliga 2,5 trillion so'mlik mahsulot tayyorlanmoqda.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti yahlit iqtisodiy tizimni o'zida ifodalab, izchil iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlik uning elementlari hisoblangan hududlarning muvozanatli rivojlanishiga mustahkam bog'liqdir. Shunday hududlarda biri Samarqand viloyati hisoblanadi. Samarqand viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy geografik joylashuvi, ulkan tabiiy resurs salohiyati va unumdor yer resurslari bilan Respublikaning yetakchi hududlari orasida alohida o'ringa egadir.

Keyingi yillarda viloyatda mahsulot ishlab chiqarish jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Viloyat kesimida yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish 2010- yilda 3974,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yilda 14060,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2017- yilda 15554,0 mlrd. so'mga yetkazish prognoz qilingan. 2010- yilda

yalpi hududiy mahsulot kishi boshiga 1244,0 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 3886,6 ming so'mni tashkil qilgan. 2017- yilgi prognoz ko'rsatkichlar bo'yicha 4319,2 ming so'mga yetkazish ko'zda tutilgan. (1- jadval).

Zamonaviy sharoitlarda rivojlangan mamlakatlarda kuzatilayotgan global moliyaviy inqiroz sharoitida ishsizlik muammosi nafaqat ijtimoiy muammolar, balki yalpi talabning pasayishi bilan bog'liq iqtisodiy muammolarni ham keskinlashtirib borgan. Shuning uchun ham joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda mahalliy homiyat organlari faoliyatining asosiy vektori, avvalo, aholining bandligini ta'minlash, ularning turmush farovonligini oshirishga yo'naltirilmoqda.

Jadval ma'lumotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, band aholining 2010- yildagi soni 1229,9 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1485,1 ming kishini tashkil qilgan.

Viloyat iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy tendensiya, yalpi hududiy mahsulot tarkibida xizmatlar sohasining rivojlanib borayotganligi hisoblanadi. Xususan, viloyatda 2010- yilda xizmat ko'rsatish hajmi 1739,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yilgacha ushbu tendensiyada barqaror o'sish kuzatilib, ushbu ko'rsatkich 6021,0 mlrd. so'mga etgan. 2017- yilda esa 6489,9 mlrd. so'mga prognoz qilingan. Bandlikni ta'minlash bilan bog'liq strategik vazifa ijrosida viloyat iqtisodiyoti tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlanib borayotganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Viloyatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yillik o'sish sur'atini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston respublikasining hududlariga nisbatan o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori o'sish sur'atlari kuzatilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'ati 2010- yilda 110,5 %ni, 2011- yilda 111,3 %ni tashkil yetib ushbu yillarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan. 2016- yilda zaif o'qish sur'ati kuzatilgan bo'lsa, 2017- yilda YalMning yillik o'sish sur'ati 108,5 %ga prognoz qilingan.

#### 14.1-jadval

##### Viloyatning asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari<sup>21</sup>

№	Ko'rsatkichlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
1	YaIM jami, mlrd. so'm	3974,4	4948,7	6317,9	8347,8	10278,8	12218,5	14060,4	15554,0
2	kishi boshiga, ming so'm	1244,0	1500,3	1883,9	2445,7	2953,5	3442,4	3886,6	4319,2
3	Aholining soni yil oxiriga, ming kishi	3270,8	3326,2	3380,9	3445,6	3514,8	3583,9	3651,7	3709,0
4	Aholining o'sishi, ming kishi	51,8	55,4	54,7	64,7	69,2	69,1	67,8	74,65
5	Band aholi, ming kishi	1229,9	1269,8	1314,4	1357,3	1402,5	1443,9	1485,1	1528,4
6	Ishsiz aholi, ming kishi	78,4	74,2	74,6	76,2	82,6	86,7	90,6	88,9
7	Xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'm	1739,9	2290,4	2995,0	4032,0	4273,1	4847,4	6021,0	6489,9

Viloyat YaIMda sanoatning ulushi 2010- yilda 26,7 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yilga kelib 22,4%ni tashkil qilgan. 2017- yilda tahlil qilinayotgan ko'rsatkich 23,9 %ni tashkil etmoqda.

Viloyatda sanoatning tez rivojlanib borayotgan tarmoqlari uchun zarur bo'lgan eksport salohiyatini kengaytirish, savdo va to'lov balansini maqbullashtirish imkonini

<sup>21</sup> TDIU Harakatlar strategiyasi risola Toshkent-2017

beradigan butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, sarflanadigan materiallar va qayta ishlangan xomashyo zaxiralari ishlab chiqaradigan mahalliy korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, valyuta mablag'larini birinchi navbatda ilg'or texnologiyalar va mashina-uskunalarni import qilishga yo'naltirish uzoq muddatli istiqbolni ko'zlab sanoatni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

2016- yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaIM) nominal qiymati 11248,8 mlrd. so'mda baholandi. Uning real hajmi o'sish sur'atlari o'tgan yilga nisbatan 108,7 foizni tashkil qildi. Viloyatda YaIM ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha tarkibi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan

#### 14.2-jadval

##### YaIM ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha tarkibi quyidagicha ifodalanadi<sup>22\*</sup>

	Yakunga nisbatan foiz hisobida		2015 yilga nisbatan foiz hisobida
	2015 yil	2016 yil	
Jami	100,0	100,0	110,5
Sh jumladan:			
sanoat	15,8	16,5	111,5
qishloq xo'jaligi	29,9	28,7	107,3
Qurilish	8,4	8,6	112,4
transport va aloqa	8,0	7,7	108,8
savdo va umumiy ovqatlanish	9,2	9,4	114,1
Boshqalar	26,7	26,9	112,1
mahsulotlar va eksport-import operatsiyalariga sof soliqlar	2,1	2,2	111,8

YaIM ishlab chiqarish umumiy hajmining 77,9 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2015- yilga nisbatan mos ravishda 0,5 foizli bandga ko'p bo'ldi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2016- yilning 1- yanvar holatiga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 51675 taga etdi, Shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 30940 tani (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 60,0 foizi) tashkil qildi.

<sup>22</sup> Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Ro'yhatga olingan korxonalar umumiy sonining 8,5 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar, Shundan 61,0 foizi fermer va dehqon xo'jaliklari, 11,2 foizi xususiy korxonalar, 0,4 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 0,1 foizi aksiyadorlik jamiyatlari, 18,8 foizi boshqa korxonalar ulushiga to'g'ri keldi.

2016- yilda jami 5109 ta xo'jalik yurituvchi subyektlari tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahar (viloyat bo'yicha ro'yhatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 13,6 foizi), Bulung'ur (10,2 foizi), Ishtixon (10,1 foizi), Payariq (9,0 foizi) va Urgut (8,5 foizi) tumanlariga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushida ham barqaror o'sish kuzatilib, 2010- yilda 73,6 %dan 2017- yilda 79,2 %gacha o'sishi kutilmoqda. Xizmatlar sohasining jadal sur'atlarda rivojlanishi viloyat iqtisodiyotining nafaqat makrodarajada, balki mega darajadagi raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Chunki, XXI asrning navbatdagi dekadasida yangi iqsodiyotning eng asosiy qonuniyati – industrial iqtisodiyotni postindustrial iqtisodiyotga yoki xizmatlar iqsodiyotiga shiddat bilan o'zgarib borayotganligidadir.

#### 14.3-jadval

##### Samarqand viloyat iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YaIM tuzilmasi<sup>23</sup>

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
YaIM	113,6	112,9	111,6	108,9	109,8	109,6	108,7	107,4
Shu jumladan:								
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	113,4	112,9	111,5	108,9	109,8	109,6	108,7	107,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	117,1	113,9	115,1	109,9	110,7	110,5	108,8	107,8
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	113,4	112,9	111,5	108,9	109,8	109,6	108,7	107,4
Qishloq xo'jaligi	106,9	107,7	106,2	106,7	106,9	107,7	107,3	106,8
Sanoat (qurilish sohasi bilan birga)	123,1	113,5	115,7	112,7	112,2	113,2	109,9	107,2
Xizmatlar	115,9	117,6	114,1	108,7	110,5	108,9	108,9	107,5
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi	73,6	76,2	75,9	77,1	77,4	77,9	78,0	79,2

<sup>23</sup> Samarqand viloyati hokimiyati iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari ( TDIU Harakatlar strategiyasi risola Toshkent 2017).

Viloyat yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda keyingi yillarda xizmatlar sohasining o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lmoqda. Xizmatlar sohasining ulushi 2010- yilda 15,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 8,9 %ga kamaygan. Xizmatlar iqsodiyotiga o'tish jarayoni zamonaviy milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligining bosh omilidir. Lekin, ushbu jarayon har bir mamlakatning o'z ichki imkoniyatlari asosida shakllanib borishi hamda bevosita iqsodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishning Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- birinchidan, viloyat aholisi mehnat resurslarining intellektual salohiyatini oshirish va iste'mol bozorini zamonaviy xizmat turlarining keng arsenali bilan to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iste'mol bozorini zamonaviy, sifatli xizmatlar turlari bilan to'ldirmoqda;

- ikkinchidan, xizmatlar sohasi yuqori qo'shimcha qiymatli tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning alohida segmentini o'zida ifodalab, iqtisodiyotni intensiv rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda;

- uchinchidan, xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik faoliyati yuqori kapital sig'imini talab qilmaydi. Qolaversa, mahalliy moddiy resurslardan keng foydalanish orqali xizmatlar sohasini rivojlantirish imkoniyatlari kattadir;

- to'rtinchidan, Samarqand viloyatida dolzarb muammolardan biri bo'lgan ishsizlikni oldini olishga qaratilgan islohotlarda xizmatlar sohasining roli g'oyat yuksak bo'lmoqda. Chunki, xizmatlar sohasini kengaytirish orqali viloyatda yangi ish o'rinlarini yaratish boshqa sohalarga nisbatan yuqori samara byermoqda.

- beshinchidan, xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining keng qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish imkoniyati natijasida ularning daromadlarini oshirish va pirovard natijada aholi turmush farovonligining oshirilishiga olib keladi.

- oltinchidan, mahalliy byudjetga tuShmlarni tushirish manbai sifatida yuqori imkoniyatlarga ega ekanligi.

2016- yilda YaIM va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligi bo'yicha davlat va nodavlat sektorlarining nisbati quyidagicha ifodalanadi, umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida (1-rasm).



**14.1-rasm. Samarqand viloyatida 2016- yilda aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandligi<sup>24</sup>**

2017- yilning 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 15375 tani tashkil qildi.

Joriy yilda yalpi hududiy mahsulotning 77,9 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich 2015- yilning Sh davrida 77,4 foizni tashkil etgan.

Iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 84,1 foizi (1214,9 ming kishi)ni kichik tadbirkorlik (biznes) sektorida band bo'lganlar tashkil qiladi. Band bo'lganlarning 79,4 foizi (1146,0 ming kishi) xususiy sektor hamda 16,7 foizi (240,7 ming kishi) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 124,8 foizga o'sdi va 3130,9 mlrd. so'mni (viloyat sanoat ishlab chiqarishining 55,4 foizi), qishloq xo'jalik mahsuloti 107,2 foizga o'sib, 4918,9 mlrd. so'mni (qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 98,4 foizi) tashkil qildi.

Kichik biznes subyektlari tashqi savdo aylanmasi viloyat tashqi savdo aylanmasi hajmining 65,5 foizini tashkil qildi. 2016- yilda 272,5 mln. AQSH dollari

<sup>24</sup> Samarqand viloyati hokimiyati iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari (TDIU Harakatlar strategiyasi risola Toshkent 2017).

yoki eksport umumiy hajmidan 82,2 foizi miqdorida mahsulot eksporti va 403,3 mln. AQSH dollari yoki umumiy importning 57,6 foizi miqdorida mahsulot importi kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirildi.

Viloyat iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 61,3 foizini kichik biznes subyektlari tomonidan kiritilgan investitsiyalar tashkil qildi. Qurilish ishlarining 93,5 foizi kichik biznes korxonalariga hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes subyektlarining avtomobil transportida yuk aylanmasi 109,7 foizga o'sdi va viloyat avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,8 foizini, yo'lovchi aylanmasi esa 110,8 foizga o'sib, umumiy yo'lovchi aylanmasining 82,9 foizini tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasi umumiy hajmining 89,6 foizi yoki 5404,1 mlrd. so'mi (o'sish 116,6 foizni tashkil qildi) va aholiga pulli xizmat ko'rsatish umumiy hajmining 58,8 foizi yoki 1630,1 mlrd. so'mi (115,8 foizga o'sgan) kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

**14.4-jadval**

**Samarqand viloyatida 2016- yilda kichik tadbirkorlikda yaratilgan mahsulot (ish, xizmatlar) umumiy hajmida xususiy tadbirkorlik (fuqarolar mulki) mahsulotining ulushi<sup>25</sup>**

Tarmoqlar va ko'rsatkichlar	Xususiy tadbirkorlik mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Kichik tadbirkorlik mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida
Sanoat	691,6	22,1
Qurilish	1496,4	78,9
Chakana savdo	4551,2	84,2
Pulli xizmat	1455,0	89,3
Yuk tashish, mln. tn	37,9	68,9
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	439,1	93,6
Eksport, ming AQSH dollari	31697,0	11,6
Import, ming AQSH dollari	56522,9	14,0

<sup>25</sup> TDIU Harakatlar strategiyasi Toshkent 2017.

Xususiy tadbirkorlik kichik biznesning asosiy qismini tashkil qiladi. 2016 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikda yaratilgan mahsulot (ish, xizmatlar) umumiy hajmida xususiy tadbirkorlik (fuqarolar mulki) mahsulotining ulushi quyidagicha ifodalanadi.

2016- yilda kichik tadbirkorlikda yaratilgan mahsulot (ish, xizmatlar) umumiy hajmida xususiy tadbirkorlik (fuqarolar mulki) mahsulotining ulushi. Viloyat ishlab chiqarishini rivojlantirish va hudud iqtisodiyoti raqobatbardoshligining bosh mezonini sifatida investitsion salohiyatni barqaror rivojlantirishni keltirish mumkin.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalaridagi investitsiya loyihalarini amaliyotga samarali tatbiq etish bilan ta'minlanadi. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmiga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining barqaror rivojlanishi, intensiv iqtisodiy o'sishni taminlashning muhim hududiy omillaridan biri investitsion faollikni oshirish hisoblanadi. Faol investitsiya siyosati, ishlab chiqarish infrastrukturasi va sanoat tarmoqlarini texnik modyernizatsiya ishlarini amalga oshirish natijasida yangi yuqori texnologik tarmoqlarni barpo etish imkonini yaratib byermoqda. Hududlar investitsion faolligi bo'icha yetakchi o'rinlardan birini egallovchi Samarqand viloyati iqtisodiyot tarmoq va sohalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar keyingi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

2016- yilda viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 2767,1 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi, o'sish sur'ati 116,7 foizni tashkil qildi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

14.5-jadval

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi (yakunga nisbatan foiz hisobida)<sup>26</sup>**

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'm	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha				
		Respublika byudjeti	Korxonalar va aholi mablag'lari	Chet el investitsiyalari va kreditlari	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari
Jami	2767,1	2,3	70,2	2,4	15,3	9,8
Shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:						
davlat	492,9	8,0	33,8	1,4	1,2	55,6
nodavlat	2274,2	1,0	78,1	2,6	18,3	-

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2.1 mingta kichik biznes subyektlari tashkil etilib, bugungi kunda ularning soni 17.0 mintaga etdi (14.5-jadval).

14.6-jadval

**2017- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes ko'rsatkichlari<sup>27</sup>**

Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari	16813 ta
Faoliyat ko'rsatayotganlari	15862 ta
Tashkil etilganlari	2121 ta
Oilaviy korxonalar soni	1435 ta
Qo'shma korxonalar soni	277 ta
Tijorat banklari kredit mablag'lari	800,0 mlrd so'm
Uzoq muddatga	256,0 mlrd so'm
Qisqa muddatga	544,0 mlrd so'm

2017- yilning 6 oylik yakuniga ko'ra yalpi hududiy mahsulotda kichik biznesning ulushi 72.1 foizni tashkil yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0.1 bandga oshgan.

Jumladan:

- Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 59.3 foizni, o'tgan yilga nisbatan 7.9 bandga;

<sup>26</sup> Samarqand viloyati iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>27</sup> Samarqand viloyati iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda 91.1 foizni, o'tgan yilga nisbatan 0.4 bandga;

- Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi 67.6 foizga o'tgan yilga nisbatan 8.2 bandga;

- Qurilish ishlarida 95.0 foizni, o'tgan yilga nisbatan 1.2 bandga;

- Jami xizmat ko'rsatishda 72.8 foiz, o'tgan yilga nisbatan 11.6 bandga oshgan.

Shu bilan birga mehnatda band aholi sonining 48.4 foizini kichik biznes subyektlari tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008- yil 29- dekabrda 662-F-sonli farmoyishiga asosan kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash maqsadida 2017- yilning 6 oyi davomida 1573 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 147.6 ming metr kvadrat bino inshootlar ijaraga berilib, natijada 2400 dan ziyod yangi ish o'rinlari yaralildi.

Viloyatda tijorat banklari tomonidan va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarishni kengaytirish va aylanma mablag'ni to'ldirish, xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirishga qaratilgan kreditlar ajratilib kelinmoqda.

#### **14.2. Samarqand mintaqasi turizmi rivojlanishining ko'rsatkichlari**

Ma'lumki, hozirgi kunda Samarqand nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda tan olingan sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, qadim sivilizatsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan Samarqand bugungi kunda ham butun dunyo e'tiborini o'ziga jalb yetib kelmoqda.

Bu haqda gapirganda, eng avvalo, har qanday insonni o'ziga maftun qiladigan, bir ko'rgan odam, qani endi yana bir bor ko'rsam, deb orzu qiladigan Sharq gavhari - go'zal va buyuk Samarqand shahri xayolimizda namoyon bo'ladi.

Samarqand nafaqat o'zining betakror me'moriy obidalari, so'lim tabiati, ayni paytda bag'rikeng va mehmondo'st xalqi, shirin-shakar, sarxil mevalari, eng muhimi, qulay infratuzilma tarmoqlari bilan ham nom qozongan.

Samarqandning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida yaqin besh yilda viloyatda 40 dan ziyod yangi mehmonxona qurish va 12 ta mehmonxonani kengaytirish mo'ljallanmokda. Buning natijasida mehmonxonalardagi o'rinlar soni 7 mingtaga etadi yoki hozirgiga nisbatan 1,5 barobar ko'payadi.

Samarqanddagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarini ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari izchil davom ettiriladi. Qadimda shahar atrofida Amir Temur bobomiz qanday mashhur boglar barpo etganini hammamiz yaxshi bilamiz. Ana Sh go'zal bog'larni qaytadan tiklab, ularni turistik marshrutlar yo'nalishiga kiritiladi va yanada rivojlantiriladi.

Shu borada Urgut tumanidagi Taxtaqoracha dovoni va Yuqori chinor, Samarqand tumanidagi Ohalik va Mironko'lda 20 ga yaqin ekoturizm maskani, Samarqand, Toyloq va Jomboy tumanlarida 10 ga yaqin agroturizm obyekti barpo etiladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda Samarqand nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda tan olingan sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, qadim sivilizatsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan Samarqand bugungi kunda ham butun dunyo e'tiborini o'ziga jalb yetib kelmoqda.

Samarqand nafaqat o'zining betakror me'moriy obidalari, so'lim tabiati, ayni paytda bag'rikeng va mehmondo'st xalqi, shirin-shakar, sarxil mevalari, eng muhimi, qulay infratuzilma tarmoqlari bilan ham nom qozongan.

Samarqandning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida yaqin besh yilda viloyatda 40 dan ziyod yangi mehmonxona qurish va 12 ta mehmonxonani kengaytirish mo'ljallanmokda. Buning natijasida mehmonxonalardagi o'rinlar soni 7 mingtaga etadi yoki hozirgiga nisbatan 1,5 barobar ko'payadi.

Jahon sivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biri, yer yuzining sayqali nomini olgan Samarqand mustaqil O'zbekistonning yirik iqtisodiy va ilmiy-madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Samarqand juda boy va qadimiy tarixga ega. Shaharning paydo bo'lishi va rivojlanishi nihoyatda murakkab jarayonda kechgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda tosh davridanoq Zarafshon vodiysi ibtidoiy



ajdodlar tomonidan o'zlashtirilgan. Bunga vodiyning serunum tuprog'i, mo'ʻtadil iqlim va odamzod yashash uchun qulay sharoit mavjudligi sabab bo'lgan.

**Samarqand** – qadimiy shahar, viloyat va tuman Sh nom bilan atalgan. Tarixchilar bu shaharni Vavilon, Fiva, Afina, Rim va boshqa Sh kabi shaharlar bilan tengdosh hisoblashadi. Toponimning etimologiyasi haqida turli qarashlar bor. Tadqiqotchilarning qariyb barchasi toponimning ikkinchi qismini turkiycha – **kent**, – **qand**, ya'ni qishloq, shahar deb hisoblaydilar. **Kent** Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, kunchiqar tomondagi har bir shaharga aytiladi. Ammo toponimning birinchi qismi manbalarda turlicha talqin etiladi. Ba'zi manbalarda **Samar** – kishi nomi, sarkarda ismi bilan bog'lansa, ba'zilarida **Samara** – meva, hosil, ya'ni shirinliklar shahri deb izohlanadi. Beruniy: "Samarqand – turkiy tilda **Samizkand**, ma'rifat shaharlaridan biri" deb yozadi. "O'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar Samarqandni kattaligi uchun **Samizqand** – Semiz shahar deyдилar" deb qayd qiladi Koshg'ariy. H.Hasanov toponimning Sh etimologiyasini ma'qul ko'rgan holda boshqa bir izohni, ya'ni nomning birinchi qismini forscha **Xamara** "yig'in, to'planish" so'zi bilan bog'lab, "to'planish joyi, maslahat qishlog'i" desa, T.Rahmatov Samarqand toponimining birinchi komponentini **Shamar** forscha "ariq, kanal" so'zi bilan aloqador hisoblab, nomni "ariq yonidagi qishloq" deb izohlaydi.

Samarqand shahri O'zbekistonda ikkinchi yirik shahar hisoblanadi. Shahar asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan.

XIV va XV asrlar davomida bu shahar temuriylar saltanatining poytaxti vazifasini o'tagan va o'sha davrlarda yirik ilm-fan, madaniyat markaziga aylangan.

Azaldan tadbirkorligi bilan olamga tanilgan samarqandliklar uchun istiqloq katta imkoniyatlar yaratdi. Shaharda mayda va o'rta biznes jadal rivojlanmoqda. Samarqand respublika avtomobilsozlik sanoatining markazlaridan biriga aylandi. hozirgi paytda Samarqandda 7 ta oliy o'quv yurti, ko'plab kollej va litseylar, 3 ta teatr, 7 ta muzey, 4 ta ilmiy-tadqiqot instituti, YUNESKONing Markaziy Osiyoni o'rganish xalqaro instituti, O'zRFA mintaqaviy bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiylarning muborak to'yolari keng nishonlandi. Yurt boshimizning bevosita tashabbuslari bilan har yili 18

oktyabrda Samarqand shahri kuni nishonlanib kelinmoqda. 1997- yildan boshlab esa har ikki yilda bir marta «Sharq taronalari» xalqaro festivali Samarqandda o'tkazilmoqda.

«Samarqand nafaqat muqaddas obida va betakror tarixiy mo'ʻjizalari, balki zamonaviy ishlab chiqarish salohiyati bilan, eng qimmatli boyligi – bag'ri keng, qalbi go'zal mehnatkashlari bilan butun dunyoda mashhur», - degan edilar I.A.Karimov 1996 yili Samarqand shahriga Amir Temur ordenini topshirish chog'ida so'zlagan nutqlarida.

Mustaqillik davrida shahar alohida nufuzga ega bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo'lgan Samarqand bundan keyin ham o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va madaniy salohiyati bilan xalqimizga xizmat qilaveradi.

Samarqand yurtimizdagi eng sanoatlashgan shaharlar sirasiga kiradi. Bu yerda 15 yirik ("Samarqand hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Samarqandkimyo" AJ, Ochiq AJ shaklidagi "Samarqand liftsozlik zavodi" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, "8-Mart" MCHJ, "Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati" AJ, "Samarqand donmahsulotlari" AJ, "Sino" AJ, "Samarqand avtomobil zavodi" MCHJ, MCHJ shaklidagi "Dakatex" Rossiya xorijiy korxonasi, "Alpomish" MCHJ, "SHyerdorplyuspoligraf" MCHJ, "Carpetservis" MCHJ, "Bestfarfor" MCHJ, MCHJ shaklidagi "Pulsargroupbrary" O'zbekiston-Chexiya qo'shma korxonasi va "Samarqand keramik" MCHJ), 114 ta qo'shma, 1008 ta kichik sanoat korxonalari, 4068 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda 2015- yilda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida barqaror o'sishni ta'minlash hamda ijtimoiy sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va uni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi omiliga aylantirish borasida izchil va maqsadli siyosat olib borildi. Uzoqni mo'ljallab olib borilgan makroiqtisodiy siyosatning amaliy natijasi ushbu sohaning mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotdagi hissasining keskin oshishida, aholi bandligi,

daromadlari, turmush darajasini shakllantirishning yetakchi omiliga aylanganligida o'zining yaqqol ifodasini topdi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi ham boshqa sohalar singari keskin rivojlanish pallasiga kirdi.

Galdagi vazifa joylarda ularni izchillik bilan amalga oshirilishidan iborat. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar mehmonxona xizmatlari sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Turizmning rivojlanishida katta omil buladigan soha – bu mehmonxona xizmatidir. Bu soha hozirgi paytda asosan xususiy sektor hisobidan tez rivojlanish bosqichini boshidan kechirmoqda va yaqin istiqbolda ham tez rivojlanishi uchun ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan. Bu istiqbolli sohaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, yangi qurilayotgan mehmonxonalar jahon standartlari talablariga javob beradigan darajada amalga oshirilmogda. Ularning yuqori sifatligi bilan birga narxi ham boshqa mamlakatlardan bir muncha arzonligi bilan farq qiladi. Bu esa turistlarning mamlakatimizga jalb qilinishi uchun muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, har yili mamlakatimizga 1.2 million nafardan ziyod xorijlik sayyoxlar tashrif buyurishadi<sup>28</sup>. Bugungi kunda turizmga bulgan e'tibor ushbu soxani jadal rivojlantirish uchun asos bo'lmoqda. Chunki mamlakatimizda 2011-2015- yillarga mo'ljallangan turizmni rivojlantirish bo'yicha barcha hududlar kesimida manzilli tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Bunda ham asosiy e'tibor turizm xizmatlari eksport salohiyatini oshirishga qaratildi. Bu tadbir joylarda mehmonxonalarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy transport vositalarini (avtobus va mikroavtobuslarni) xarid qilish kabi muhim tashkiliy ishlar bilan bog'liqdir. Bulardan ham ko'rinib turibdiki turizmni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor ancha kuchaytirilgan va yetarli darajada samarasini berishi tayin. Zero, mamlakatimizning turistik salohiyati bunga yetarlidir. Turistik xizmatlar mehmonxona xizmatlari bilan birga pulli xizmatlar tarkibiga kiritilgan va bular ham istiqbolda ko'payish tendensiyasiga ega. Hozirgi paytda mamlakatimizda

xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda turizm va mehmonxona xizmatlarning ham o'sishi ko'zda tutilgan. Qarorda ta'kidlanishicha, ushbu xizmatlarni 2011-2016 yillarda 2,3 martaga oshirish mo'ljallangan. Agar yillar bo'yicha kuzatadigan bo'lsak, ushbu xizmalarning har yili o'sishi belgilab qo'yilgan. Masalan, 2012- yilda 2011- yilga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 116,1 %ni tashkil qilsa, 2013- yilda 116,6 %, 2014- yilda 117,5 %, 2015- yilda 118,9 %, 2016- yilda 119,1 %ni tashkil qilishi ko'zda tutilgan<sup>29</sup>. Respublikamizda, jumladan Samarqand viloyatida statistik ma'lumotnomalar va to'plamlarda mehmonxona xizmatlarining barcha ko'rsatkichlari turistik xizmatlar bilan birgalikda hisobga olib boriladi. Shuning uchun ishda turistik xizmatlarga doir ayrim ko'rsatkichlarni ham keltirib o'tamiz. Samarqand shahrida turistik xizmat ko'rsatish sohasi hozirgi kunda eng istiqbolli xizmat turlariga kiradi. Uning barcha xizmatlardagi hissasi ham kelajakda oshib boraveradi. Chunki bu soha unga ehtiyoj oshib borish tendensiyasiga egadir.

Samarqand viloyatining jami xizmatlar tarkibida Samarqand shaharida yaratilgan xizmatlarning ulushi 2013- yilda 44,1 foizni tashki etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014- yilga kelib 2013- yilga nisbatan 11,2 foizga oshgan. Xuddi Shunday turistik xizmatlarning ham deyarli 98,5 foizi aynan turistik xizmatlar hissasiga to'g'ri kelishi bejiz emas, chunki barcha turistik tarixiy bino-inshoatlar va mehmonxonalar aynan Samarqand shahrida joylashgan. Samarqand shahrida yangi sayyohlik marshrutlarining ishlab chiqilayotganligi, Shuningdek zamonaviy vokzal va aeroportning rekonstruksiya qilinganligi, transport vositalari, zamonaviy restoranlar xizmati takomillastirilib, mehmonxona majmualari qad ko'tarayotganligi sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi hisoblanib, turistlarning Samarqand shahriga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga turtki bo'ladi. Bu tadbirlar albatta o'z natijasini byermay qolmaydi va shahrimizda turistik xizmatlar hajmining o'sishiga olib keldi.

<sup>28</sup> O'zbekiston turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlari 2015 y.

<sup>29</sup> O'zbekiston turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlari 2015 y.

O'rganilayotgan davrlarda Samarqandda jami xizmatlar hajmiga nisbatan turistik xizmatlar hajmining o'sish ko'rsatkichlari bir muncha yuqori bo'lgan. Jumladan, 2011- yilda xizmatlar hajmining o'sish ko'rsatkichi turistik xizmatlarga nisbatan 5,3 foizga (117,3-112,0) yuqori bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar keyingi yillarda teskari tarzda rivojlangan va turistik xizmatlarning o'sish tendensiyalari jami xizmatlarga nisbatan ortgan<sup>30</sup>.

**14.6-jadval**

**Samarqand shahrida turistik xizmatlarning jami xizmatlardagi ulushi.**

№	Ko'rsatkichlar	2013- y	2014- y	Farqi (+;-)	O'zgarish (+;-)
1	Jami xizmatlar, mlrd. so'm	1798,1	2944,8	1146,7	163,8
2	Turistik xizmatlar, mlrd. so'm	37,9	44,8	6,9	118,2
3	Jami xizmatlarda turistik xizmatlar-ning ulushi, %da	2.1	1.5	-0.6	72,2

Manba: Samarqand shahri statistika bo'limi ma'lumotlari 2015 y

Jumladan eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2013- yilda kuzatilgan bo'lib, Sh yili Samarqand shahrida har ikki yilda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining shahrimizda yuqori saviyada o'tishi bu ko'rsatkichning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Samarqand shahrida turistik xizmatlarning ulushi 2014- yilda 2013- yilga nisbatan -0,6 foizga kamaygan. Bunga asosiy sabab, 2013- yili Samarqand shahrida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining o'tkazilganligidir. Turistik xizmatlar hajmining o'sishiga avvalom bor mavjud mehmonxonalar soni katta ta'sir o'tkazadi. Sh sababli bizlar Samarqand shahrida mehmonxonalar soni va ularda mavjud o'rinlarni tahlil qilishni lozim topdik (14.7-jadval).

<sup>30</sup> Samarqand shahri statistika ma'lumotlari

**14.7-jadval**

**Samarqand shahrida mavjud mehmonxonalar va ulardagi o'rinlar soni**

№	Ko'rsatkichlar	2012- y	2013- y	2014- y	2014-yilda 2012- yilga nisbatan farqi (+;-)	O'zgarish sur'ati %
1	Mehmonxonalar soni	69	77	94	25	136.2
2	Ulardagi xonalar	1976	2262	2404	428	121.6
3	Ulardagi o'rinlar	3885	4331	4778	893	122.9

Manba: Samarqand shahri statistika bo'limi ma'lumotlari 2015 y.

14.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand shahrida 2012-2014 yillar mobaynida mehmonxonalar soni 94 taga etgan bo'lsa, ulardagi xonalar soni 2404ta va o'rinlar soni esa 4778 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar esa shaharda har yili o'rtacha 17-18 ta yangi mehmonxonalar qurilayotganligidan dalolat beradi. Samarqand shahrida mavjud mehmonxonalar va ulardagi o'rinlar sonining o'sish tendensiyalari Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda ro'y berganidek, Samarqand turistik bozorida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Bular quyidagilardan iboratdir:

- monopol xo'jalik yuritishdan ko'p ukladli xo'jalik yuritish tizimiga o'tildi, ya'ni, mamlakatimizning turistik bozorida xususiy turistik korxonalar paydo bo'ldi;
- turistik bozor yangi tartiblar asosida faoliyat yurita boshladi, ya'ni, turistik korxonalar uchun narx belgilash, iste'molchi va ta'minotchilarni tanlash erkinligi yaratildi;
- turistik bozorda turistik talabning yangi turlari paydo bo'ldi, ya'ni, shop-turlar, sarguzasht-turlar, til o'rganish turlari kabilar vujudga keldi;
- turizmning asosiy vositalariga bo'lgan talab yanada kuchaydi, ularning servis xizmati sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishini talab qilinmoqda, ya'ni avtomobillarning dizayni va xavfsizligini ta'minlashga qaratilganligi;

-Samarqand turistik bozoriga yirik mehmonxonalar kirib keldi va ular bilan amalga oshiriladigan qo'shma faoliyat rivojlanishida xorijiy investorlarning ishtiroki oshdi;

-turizmdan mahalliy aholining daromad olish imkoniyatlari etarli darajada o'sish bosqichiga kirdi.

Turistlarni bugungi kunda zamon talablariga asoslanib kutib oladigan mehmonxonalar ham shahrimizda anchani tashkil etadi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Samarqandda turizmni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi.

Dastlab kichik mehmonxonalar qurila boshlandi va bir necha sayyohlik firmalari tashkil etildi. Agar, ilgari bor yo'g'i 2-3 ta mehmonxona va Sh atrofda sayyohlik firmalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bugunga kelib Samarqandda turizm faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan 60 dan ziyod sayyohlik firmalari va 90 ga yaqin mehmonxonalar mavjud. Viloyatda har yili 8-10 ta sayyohlik firmalari tashkil etilayotgan bo'lsa, yana Shncha miqdorda zamonaviy va milliy usuldagi mehmonxonalar qurilib, ishga tushirilmoqda. Buning natijasida ulardagi o'rinlar soni 4000 taga yetdi hamda sohada qo'shimcha 300 ga yaqin ish o'rinlari yaratildi. Mehmonxona deganda mehmonlarning (turistlarning) vaqtincha yashashi, ya'ni dam olishi va ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilgan va talab qilinadigan qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishga mo'ljallangan maxsus xo'jalik tushuniladi. Hozirda bizning mehmonxonalarimizda iste'molchilarga nafakat turarjoy va ovqatlanish xizmatlari, balki transport, aloqa, ko'ngilochar ekskursiya xizmatlari, tibbiyot, sport, go'zallik salonlari kabi keng kamrovli xizmatlarni taklif etadi. Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, Samarqandga tashrif buyuradigan turistlarning 53 foizi Yevropaliklar hissasiga to'g'ri kelar ekan. Qolaversa, shahrimizga kelayotgan sayyohlar soni ham yildan-yilga oshib borayotir. Turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida «Samarqand nonlari» ko'rik-tanlovi, «Samarqand hunarmandlari», Milliy taomlar va «Sharq shirinliklari» ko'rgazmalari, «Qovun sayli», «Milliy folklor guruhlari» festivalini o'tkazish an'ana tusini olgan. Xorijiy sayyohlarga shahar va tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan hunarmandlar

mahsulotlari hamda xalq amaliy san'ati asarlarini namoyish etish maqsadida Registon ansamblining Tillakori madrasasida «Hunarmand» uyushmasi viloyat bo'limining doimiy ishlaydigan xalq amaliy san'ati asarlari va hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi tashkil etilgan.

Hozirgi kunda Samarqand viloyatda sayyohlar va mehmonlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar turi va sifatini ko'tarish maqsadida milliy hamda boshqa xalqlar taomlarini tayyorlaydigan restoran va choyxonalar qurildi, savdo markazlari, madaniy hordiq chiqarish maskanlari, valyuta almashtirish shoxobchalari tashkil etildi. Bundan tashqari, viloyatimizda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida yirik marketlar, milliy va Yevropa uslubidagi ovqatlanish tarmoqlari, turli ko'ngilochar maskanlar qurish, zamonaviy avtobuslar xarid qilish, yuqori salohiyatga ega Urgut, Samarqand, Jomboy, Paxtachi va boshqa tumanlarda sayyohlar tashrifi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, tarixiy obidalar, ziyoratgohlarni, ularga boriladigan yo'llarni ta'mirlash hamda atrofni obodonlashtirish masalalari ko'zda tutilgan.

Samarqand viloyatida turistlarni qabul qilish va turistik xizmatlar rivojlanishi tendensiyasi ustida olib borilgan tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha Samarqand shahri, Urgut, Nurobod, Payarik va Samarqand tumanlarida turizmni keng rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bu esa Samarqand shahri va uning yaqinidagi tumanlarida turizm infratuzilmasining birmuncha shakllanganligi bilan izohlanadi. Sh sababdan, mintaqaning turizm asosi hisoblangan Samarqand shahriga nisbatan yaqin hisoblangan tumanlarning (Jomboy, Oqdaryo, Samarqand, Toyloq tumanlari) turistik resurslaridan foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi (14.8-jadval).

Jadvalning ko'rsatishicha 3 -yuqori darajada imkoniyat, 2 -o'rta darajada imkoniyat, 1 -past darajada imkoniyat, 0 -umuman imkoniyat yo'q deb baholandi. Jadvalga asosan tumanlardagi ba'zi tarixiy joylar va ajoyib tabiat hududlariga alohida e'tibor qaratilmasa, turistik jozibadorligi yo'qoladi. Shu sababli birinchidan, bu hududlar tarixiy-madaniy meros yoki rekreatsion resurs sifatida tan olinib, maxsus muxofaza ostiga olinishi (maxsus ro'yhatga olinishi, ekologik, arxitekturaviy jihatdan nazoratga olinib muhofaza etish) kerak.

#### 14.8-jadval

##### Samarqand viloyati tumanlarida turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari

№	Tuman nomlari	Tarixiy, me'moriy, arxeologik tanishuv turizmi	Rekreatsion va ekologik turizm	Qishloq turizmi	Diniy, ziyorat turizmi	Madaniy va etnografik turizm	Jami
	Samarqand shahri	3	2	0	3	3	11
1	Bulunur	0	1	2	1	1	6
2	Jomboy	0	2	2	1	1	6
3	Ishtixon	0	2	2	0	1	5
4	Kattaqo'rg'on	1	2	2	1	1	7
5	Narpay	0	2	2	1	1	6
6	Nurobod	1	1	2	2	2	11
7	Oqdaryo	1	1	2	2	1	7
8	Payariq	0	1	2	1	1	7
9	Pastdarg'om	0	2	2	0	1	5
10	Paxtachi	1	2	2	1	1	7
11	Samarqand	2	2	1	2	2	9
12	Tayloq	1	1	1	1	1	5
13	Urgut	2		2	2	2	12
14	Qushrabod	0	2	1	1	1	7

Manba: Ibadullayev N.E.. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari. i.f.n. uchun yozilgan diss. avtoreferati.SamISI. 2010 y. -14 bet

Ikkinchidan, bu hududlardan foydalanish va muhofaza etishning iqtisodiy shart-sharoitini yaratish lozim. Bunda davlatning iqtisodiy-siyosiy yordami, samarali soliq, siyosati va moliyalashtirish dasturi kabilar amalga oshirilishi maksadga muvofiq.

Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirishning quyidagi muammolari mavjudligi aniqlandi:

Ko'ngilochar xizmatlar infratuzilmasining xorijiy turistlar uchun yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- yo'llarning ahvoli xalqaro talablarga to'liq javob bermasligi;
- gid-tarjimon va ekskursovodlar malakasining talab darajada emasligi;
- jamoat joylarida sanitariya holatining xalqaro talablarga to'liq javob byermasligi;

• xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina kamchiliklarning mavjudligi va ularning sifat darajasining pastligi;

• mintaqaning turistik resurslari to'g'risida xalqaro miqyosda yetarlicha ma'lumot yo'qligi, reklama xizmatidan yetarli darajada foydalanmasligi;

• milliy o'yinlar, folklor guruhlari namoyishlarining, milliy kiyimlar galareyalarining kamligi va boshqalar.

Mamlakatimiz uchun turistlarni (mahalliy va xalqaro) mintaqalar bo'yicha hududiy taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun turistik korxonalar va tashkilotlarning hamkorlikda ishlashi muhim. Bunda maxalliy turizmning sayyohlar almashuvini to'g'ri tashkil etish, ularning xarakatini ta'minlash uchun tegishli infratuzilmaning ham shakllanishi lozim.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan xizmatlarning sifati va nomenklaturasi kengaydi. Uning tarkibiga turizm-ekskursiya xizmatlarining kirib kelishi viloyatda turizmning moddiy-texnik bazasini tashkil qilish va yanada rivojlantirish zaruriyatini tug'diradi. Bu o'z navbatida hozirgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida yangi ish o'rinlarini ochilishiga erishishni ta'minlaydi.

Turistik resurslar mintaqada turizmni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beruvchi omildir. Shu sababli ularni baholash, muhofaza qilish va foydalanish masalalarini yechish bugungi kunda o'ta muhimdir. Ammo mintaqadagi mavjud turistik resurslar hozirgi kunda to'liq kadastrdan o'tmagan.

Tadqiqotlar natijasi ko'rsatdiki, Samarqand shahri va atrofidagi mavjud turistik resurslar joylashganligi bu yerda qisqa muddatli sayyohlik, ekskursiya xizmatlarini tashkil etish uchun qulaydir. Respublikamiz turizmida so'nngi yillarda qisqa muddatli sayohat ekskursiyani tashkil qilishda ichki turizm imkoniyatlari ortib bormoqda. Mahalliy aholi va qo'shni viloyatlardan kelayotgan ziyoratchilarning soni yildan yilga ortib borishi kuzatilmoqda. Ularga qisqa muddatli xizmat ko'rsatish turlarini o'zlashtirish ustida izlanishlar olib borish kerakli ma'lum bo'lib bormoqda. Samarqand shahriga yaqinda joylashgan bir qancha dam olish maskanlari mavjud. Bular esa butun Samarqand viloyatining turistik resurslaridan foydalangan holda turizm turlarini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Turistik turlarni

tashkil qilish uchun viloyatda bizning fikrimizcha quyidagi imkoniyat mavjuddir.

#### 14.9-jadval

### Samarqand viloyati turistik resurslari asosida turizm turlarini rivojlantirish yo'nalishlari

Turizm turi	Mazkur turizm turini rivojlantirish uchun mavjud resurslar va omillar	Rivojlantirish uchun kerakli bo'lgan tadbirlar
Tarixiy obidalar turizmi	Samarqand shahri va atrofidagi tumanlardagi tarixiy obidalar, qadimiy «Buyuk Ipak yo'li»ning mazkur hududdan o'tanligi.	Xizmat ko'rsatish infratuzilmasi va sifatini oshirishga doir ishlarni hamda sohani rivojlantirishning iqtisodiy-huquqiy asosini takomillashtirish.
Arxeologik turizm	Kadimiy Afrosiyob hududi va muzeyi, Samarqand tuma-nidagi arxeologik maskanlar.	Turli xalqaro darajadagi ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish, targ'ibotni rivojlantirish.
Diniy turizm	Buyuk diniy ulomalar Imom Al-Buxoriy, Al-Motrudiy, Maxdumi A'zam Daxbediy kabi majmualar va avliyolar kunim topgan joylar.	Xizmat ko'rsatish infratuzilmasi va sifatini oshirish, islom dunyosiga targ'ibot va reklama ishlarini rivojlantirish.
Ekoturizm	Tog'li va cho'l-dasht hududlari xamda «Zarafshon» qo'riqxonasi.	Ekoturizm obyektlariga investitsiya jalb etish, tabiatni muxofaza qilishni xisobga olib ekoturizmni rivojlantirish dasturni ishlab chiqish.
Sport turizmi	Tog'li hududlarda spelioturizm resurslarining mavjudligi, turli tabiiy g'aroyibotlar.	Faol turizm turlariga oid ixtisoslashtirilgan va ko'ngilli maktab va klublarni yaratish, kerakli vositalar bilan ta'minlash.
Rekreasion turizm	Xushmanzara tog'li va daryo sohili hududlari, Nurobod tumanidagi shifobaxsh mineral suvlar. «Zarafshon» sanatoriyasi.	Ushbu sohaga investitsiya va mahalliy sarmoyalarni jalb etish, bu asosda dam olish va davolanish uchun infratuzilmani shakllantrish va yanada
Ilmiy turizm	Tarixiy, arxeologik qadamjolar, tarixiy shaxslar uy muzeylari, ilmiy observatoriya kabilar.	Turli xalqaro darajadagi ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish, targ'ibot va reklama ishlarini rivojlantirish.

Manba: N.E. Ibadullaev. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari. i.f.n. uchun yozilgan diss. avtoreferati. SamISI. -16 bet

Mintaqada turistik resurslardan samarali foydalanish maqsadida mazkur turizm turlarini rivojlantirish uchun tarixiy-me'moriy va arxeologik taniShv turizmi, diniy

turizm, madaniy-etnografik turizm va ekologik turizmga doir istiqbolli turistik marshrutlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda Samarqand viloyati turizmi juda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rib o'tdik. Bu kabi imkoniyatlarni ishga tushirish orqali iqtisodiy samaradaorlikka erishishni maqsad qilib olishimiz kerak.

#### 14.3. Samarqand mintaqasi turizmi rivojlanishini mavsumiy rejalashtirish

Hududiy turizmni rivojlantirishning o'ziga xos noqulay xususiyatlarida biri mavsumiylik bo'lib, u turistik korxonalarining me'yorli ishlashini qiyinlashtiradi, iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy-texnik tusdagi noqulay oqibatlarini keltirib chiqaradi.

*Mavsumiylik* – turistik oqimlarning unchalik katta bo'lmagan vaqt oralig'ida ma'lum joylarda to'planishi hususiyati.

Iqtisodiy nuqtai nazardan mavsumiylik bir xildagi iqlimiy va ijtimoiy omillar ta'siri ostida turistik xizmatlar va tovarlarga turistik bozordagi talab va taklifning har yili tebranib turishidir. Mavsum – turistlar oqimining eng ko'paygan vaqtidir.

Ikki mavsum mavjud bo'lganda (yozgi va qishki) ular orasida mavsumlararo vaqt bo'ladi. Turistlar oqimining eng ko'paygan vaqti «qizg'in mavsum», ular deyarli bo'lmagan vaqt «o'lik mavsum» deyiladi.

Turizmdagi mavsumiylikni belgilab beruvchi boshqa omil ta'tillardan an'anaviy yozda foydalanish hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, ikkita yoz oyi mobaynida (iyul, avgust) Yevropa bo'ylab xorijiy turistlar umumiy sonining taxminan yarmi sayohat qiladi. Avgust oyida Fransiya ishlovchilarning 80% ta'tilda bo'ladi. Mavsumiylikning umumiy strukturasi hozirda ancha aniq belgilab olingan. 1 va 2-choraklardagi oylarga turizmni rivojlangan mamlakatlarda butun yuklanma (nagruzka)larning 2/3 qismi to'g'ri keladi<sup>31</sup>.

Talablarning bir joyda jamlanishiga ta'tillardan jamoa bo'lib foydalanish katta ta'sir ko'rsatadi. Fransiya va Shveysariya'dagi ba'zi korxonalar yozgi dam olish davrlarida (odatda har yil avgustning o'rtalaridan boshlab) umuman ishni to'xttishadi va butun jamoa ta'tilga chiqib ketadi.

<sup>31</sup> Шодиев Р. Туризм ривожланишини прогноллаш. Маъруза матни. ТДИУ, 2012 й. -84 б.

Shu narsani nazarda tutish zarurki, maktabdagi yozgi kanikullarning katta qismi ham yoz paytiga to'g'ri keladi, bu ham turistlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni keskinlashtiradi.

Turistlar oqimining bir joyda jamlanishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ham (an'anala, moda, taqlid qilish) mavjud. Ularni ko'pincha irratsional omillar ham deb atashadi, chunki ular na tabiiy-iqlimiy, na ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli kelib chiqmagan.

Taqlid qilish va moda mavsumiylikka quyidagi tarzda ta'sir etadi. Turistik oqimning yangi ishtirokchilari alohida mamlakatlar va rayonlardagi dam olish sharoitlarini bilmagan holda bu joylarni asosan psixologik sabablarga ko'ra tanlaydilar. Ular tajribali turistlar yoki mashhur shaxslar dam olishga ketayotgan vaqtni tanlaydilar. Yangi turist sifatida tajribaga ega bo'lganlarida keyingina ular o'zlari uchun eng ma'qul sayohat vaqtini tanlaydilar.

Mavsumiylikka oid noqulay ta'sirlar turistik jarayonning barcha tashkil qiluvchilariga – resurslar, joylashtirish vositalari, oziq-ovqat, transport, Shuningdek xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va turistlarning o'zlariga ham taalluqlidir.

Qisqa turistik mavsum faqat plyajlar, mineral suvlar, qimmatbaho turistik infrastruktura va malakali xoimdlarning xizmatlaridan qisman foydalanishga sabab bo'ladi, xolos. Bu kadrlarning qo'nimsizligini keltirib chiqaradi, ko'p xodimlarning o'z malakasini oshirishga qiziqishini kamaytiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan yil davomida faqat bir necha oy foydalanish turistik tovarlar va xizmatlarning tannarxidagi shartli-doimiy xarajatlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu esa moslashtirish narxlar siyosatini o'tkazish imkoniyatini kamaytiradi, turistik tashkilotning xalqaro bozordagi harakatini qiyinlashtiradi, uning raqobatbardoshligini yomonlashtiradi.

Mavsumiylik dam olish joyiga boradigan yo'llarda transport vositalarining to'planib qolishiga olib keladi, bunday holda xizmat ko'rsatish qulayligi va sifati pasayadi, turizmga xizmat ko'rsatuvchi transport, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarining ishidagi bir maromlilik buziladi.

Hukumat organlari va turistik firmalar turizmdagi mavsumiylik omilinin salbiy ta'sirini kamaytirishga doimiy ravishda kuch-g'ayratlarini sarflab keladilar: o'quv yurtlarida imtihonlarni topshirish muddatlarining o'zartirilishi, ta'tillar (asosiy va qo'shimcha) tuzilishidagi o'zgarishlar, haq to'lanadigan ta'tillardan foydalanish vaqtiga nisbatan rasmiy cheklashlar, ta'lim olayotgan yoshlarning kanikullarining davomiyligi va vaqti.

Umuman mamlakat bo'ylab va alohida turistik komplekslarda turistik mavsumning chegaralarini kengaytirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqiladi va joriy qilinadi. Ular quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi<sup>32</sup>.

1. Turistik bozorni tadqiq qilish natijalari. Bunda asosiy mavsumdan tashqari jalb qilinishi mumkin bo'lgan potensial mijozlar soni va tarkibi aniqlanadi (ishbilarmon odamlar, pensionerlar, mahsus qiziqishga ega odamlar va sh.k.); tovarlar va xizmatlar taqdim etishga oid so'rovlar o'rganib chiqiladi. Olingan axborotdan mehmonxonalar va restoranlarning moddiy-texnika bazasini yagilash, tegishli tovarlarni yetkazib berish, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini va uni tashkillashtirish takomillashtirish.

2. Umuman mamlakat, rayonlar va turistik komplekslar bo'yicha yil davomida turistlarni qabul qilishga tayyorgarlikni oshirish bo'yicha tadbirlar. Mavsumiy davrni uzaytirish bo'yicha barcha manfaatdor tashkilotlar o'rtasida muvofiqlashtirishni amalga oshirish nazarda tutiladi; turizm moddiy-texnika bazasi mavsumlar oralig'ida ishlashga moslashtiriladi va h.k.

3. Turistlarning mamlakatga va alohida turizm rayonlariga qiziqishini oshirish maqsadida ularni qitisodiy rag'batlantirish tizimi. Alohida tovarlar va xizmatlarga narxlar kamaytiriladi, chegirmalar qilinadi, turistik tashkilotlarning mavsum oralig'ida vaqtda faolligi uchun mukofotlar, rag'batlantirishlar beriladi.

4. Mavsumlar oralig'ida turistlarni jab qilish uchun reklama faoliyatini kengaytirish.

<sup>32</sup> Shodiyev R. Turizm rivojlanishini prognozlash. Ma'ruza matni. TDIU, 2012 y. -87 b.

5. Mavsumdan tashqari vaqtda turistlarni jalb qilish yoki qo'shimcha mavsum (qishki) tashkil qilish. Turar joy va transportga baholar pasaytirilishi, arzonroq joylashishi obyektlarini ko'proq qurish evaziga yashash fondini kegaytirish.

Masalan, bunday tadbirlarni amalga oshirishi Shvetsariya va Avstriya uchun Alp tog'larida qishki sport evaziga ikkinchi «qizg'in mavsum»ni tashkil qilish imkonini berdi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, qishda dam olishni xohlovchi turistlar soni har yetti yildan keyin ikki barobar ko'payadi.

Turli sport musobaqalari, festivallar, konkurslar, ko'rgazmalar, ilmiy konfyerensiyalar, kongresslar va sh.k.larni tashkil qilish ham turistik mavsumni kengaytirishga ko'maklashadi. Shuning uchun bunday tadbirlarni iloji boricha turistlar uchun mavsum oralig'ida o'tkazgan ma'qul.

Mavsumiylikning hududiy turistik faoliyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish uchun keyingi yillarda rejalashtirilayotgan choralarning natijalarini baholash maqsadida turli metodlar va modellar keng qo'llanilmoqda.

Masalan turistlarning joylashtirish vositalariga bo'lgan ehtiyojini hisoblab chiqish uchun bir o'rin-joyga va joylashish punktlaridagi nomerlarga bo'lgan talab hisoblab chiqiladi. Hisob-kitoblar quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi<sup>33</sup>:

1) bir o'rin-koykaga bo'lgan o'rtacha yillik talab ( $n_1^{s.k}$ )

$$n_1^{c.k} = \frac{N_1 \cdot \tau_1}{\tau_r \cdot K_1},$$

bu yerda  $N_1$  – turistlarning dam olish joyiga yillik o'rtacha kelishi (bir joyga bir odam hisobida). O'rtacha statistik ma'lumotlar yoki bashorat qilinayotgan (rejalashtirilayotgan) ma'lumotlar bo'yicha aniqlanadi;

$\tau_1$  – turist dam olish joyida bo'lishining o'rtacha davomiyligi (kunlarda hisoblanadi);

$\tau_g$  – bir yildagi kunlar soni ( $\tau_g = 365-366$  kun);

$K_1$  – dam olish joyi bandligining o'rtacha yillik koefitsenti. Haqiqiy (o'rtacha statistik) yoki bashorat ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi;

2) mavsum qizigan pallada bir o'rin-koykaga bo'lgan talab ( $n_2^{c.k}$ )

$$n_2^{c.k} = \frac{N_2 \cdot \tau_2}{\tau_c \cdot K_2},$$

bu yerda  $N_2$  – mavsum qizigan pallada dam olish joyiga keladigan turistlarning umumiy soni, odam hisobida;

$\tau_2$  – turisting mavsum qizigan pallada dam olish joyida bo'lish davomiyligi, kun hisobida;

$\tau_s$  –

3) nomerlarga bo'lgan o'rtacha yillik talab ( $n_1^{c.n}$ )

$$n_1^{c.H} = \frac{n_1^{c.k}}{z_1},$$

bu yerda  $z_1$  – nomerlarning o'rtacha yillik bandligi odam/numeri;

4) mavsum qizigan pallada nomerlarga bo'lgan talab ( $n_2^{c.n}$ )

$$n_2^{c.H} = \frac{n_2^{c.k}}{z_2},$$

bu yerda  $z_2$  – mavsum qizigan pallada nomerlarning bandligi, odam/numeri.

Keltirilgan metodikani tegishli mintaqada turistlarni joylashtirish vositalarining umumiy sonini rejalashtirishda qo'llash zarur. Mavsum qizigan pallada talabni hisob-kitob qilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu vaqt joylashish vositalariga bo'lgan maksimal ehtiyojlarni belgilab beradi

<sup>33</sup> Shodiyev R. Turizm rivojlanishini prognozlash. Ma'ruza matni. TDIU, 2012 y. -94 b.



## 15-bob. BUXORO-NAVOIY TURISTIK MINTAQASI

### 15.1. Buxoroda turizm sohasining rivojlanish holati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 19- maydagi PQ-2980-sonli “2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahri turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida sayyohlik industriyasini rivojlantirish borasida quyidagi loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

Buxoro shahrining Eski shahar qismida xorijiy sayyohlarning bo‘sh vaqtlarini tunu kun mazmunli tashkil etish uchun 12 gektarlik “Qadimiy Buxoro” turistik zonasi, uning hududida zamonaviy past qavatli mehmonxonalar, savdo-ko‘ngilochar markazlar, 500 o‘rinli amfiteatr barpo etiladi;

Shaharning tarixiy qismida yopiq bozor va hunarmandlar mahallasi tashkil qilindi, "Buxoro Palas" va “Zarafshon” mehmonxonalari qayta quriladi va 11 ta to‘rt yulduzli yangi mehmonxonalar bunyod etiladi.

Shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini Buxoro viloyatida ijrosini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturining navbatdagi bandlarida, O‘rta muddatli istiqbolda viloyatda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini,

2017- yil I- choragida yuqoridagi vazifalarni bajarish maqsadida O‘rta muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasida, Shuningdek, viloyatda turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha 2017-2019 yillarda yillarga mo‘ljallangan tadbirlar dasturi loyihasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan qaror loyihasi joriy yilning 31- mart kuni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan.

Tahlillar natijasida ko‘rishimiz mumkinki, Buxoro viloyati YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi keyingi yillarda ham o‘shirib boradi sababi, yuqoridagilar bilan bir qatorda Harakatlar strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali

raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur yo‘nalish avvalambor 2017- yilda ushbu sohani tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish nazarda tutiladi. Mazkur qonunda quyidagilar aks ettirilishi rejalashtirilgan:

- korxonalarining birlashishi va qo‘shib olinishida monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olish talablarini bixillashtirish;
- raqobatni cheklovchi keliShvlar, bitimlar va kelishilgan harakatlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish;
- ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarining aksiya va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik subyektlarining hujjatlarini ko‘rib chiqish tartibini soddalashtirish;
- manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish maqsadida korxonalar tomonidan ta‘sischining ustav fondidan ulush sotib olishini va korxonalar vakillarining ta‘sischi kuzatuvchilar kengashida a‘zozligini taqiqlash.

Turizm tarmog‘i jahon savdosining eng yirik tarmog‘iga aylanib bormoqda va hozirgi kunda yer yuzidagi jami tovar va xizmatlar eksportida daromad keltirish bo‘yicha uchta yirik tarmoqlar neft qazib olish va avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o‘rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo‘ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to‘g‘ri keladi. Buyuk Ipak Yo‘lida joylashgan, asrlar davomida o‘z g‘aznasining katta qismini sayohatchilar va xorijiy savdogarlar hisobidan to‘ldirib kelgan qadimiy yodgorlik va obidalar bilan mashhur, tarixiy va madaniy o‘tmishga ega Buxoro viloyati turizm tarmog‘ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlariga ega.

Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda, xususan Buxoro viloyatida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o‘rta muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, Shuningdek 2017- 2021 yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish rejashtirilgan. Mazkur vazifani amalga oshirilishi turizm sohasining tezkor

rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, turistik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish natijasida Buxoro viloyatida turistik sohani rivojlantirish bo‘yicha hududiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari aniqlab berilishi lozim. O‘z navbatida bu islohotlar mazkur sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keng rivojlanishiga zamin yaratadi.

Turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yuritish bo‘yicha qulay sharoitlarni yaratish, jahon tan olgan brendlarni, xorijiy investorlarni faol jalb etish borasida ham Buxoro viloyatida Harakatlar strategiyasiga asosan 2017- yilning birinchi choragida bir qancha ishlar amalga oshirilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 2- dekabrda PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish maqsadida viloyat markaziy bank bosh boshqarmasi hamda viloyat tijorat banklari bilan hamkorlikda viloyatda faoliyat yurituvchi mehmonxonalarda xorijiy valyuta terminallari o‘rnatilishi tashkillashtirildi.

“Varaxsha”, “Zarafshon”, “Buxoro” mehmonxonalarini kapital rekonstruksiya qilish hamda zamonaviy mehmonxonaga aylantirish yuzasidan mahalliy va xorijiy investorlar uchun investitsiya takliflarini tayyorlash bo‘yicha 2017- yil 13- yanvarda 2/200-sonli viloyat ishchi guruhi tasdiqlanib, mehmonxonalar bo‘yicha investitsion takliflar hamda tegishli ma‘lumotlar Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga taqdim etilgan.

Turizm sohasida biznesni yuritish bo‘yicha qulay sharoitlarni yaratish, jahon tan olgan brendlarni, xorijiy investorlarni faol jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017- yil 10-11 mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayonining ijrosini ta‘minlash yuzasidan ishlab chiqilgan nazorat-rejasiga muvofiq, zamon talablaridan kelib chiqib, viloyatda erkin turizm zonasini barpo etish

konsepsiyasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo‘yicha 2017- yil 24- martdagi 1/1569-2-sonli viloyat ishchi guruhi tasdiqlanib, hozirgi kunda erkin turizm zonasini barpo etish konsepsiyasi loyihasi viloyat hokimligiga taqdim etilgan.

Xususiy Mehmonxonalardan ko‘pchiligi eski shaharda joylashgan bo‘lib, xonalar soni 10-20 tadan oshmaydi. Asosan ular B&B xizmatlarini taklif qiladi. Undan tashqari Buxoro shahrida biznes-otellar ham mavjud, ular shaharning markazida joylashgan va keng turdagi xizmatlarni taklif qiladi.

2012- yil boshiga O‘zbekistonda jami 786 turistik korxonalar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2018- yilga kelib ularning soni 1000dan oshdi, shulardan 487 tasi turoperatorlik tashkilotlar. 299 tasi Mehmonxona va boshqa joylashtirish tashkilotlari. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida hukumat barcha mintaqalar uchun "2011 – 2012 yillarga turizmni rivojlantirish va turistik mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar rejasini"ni tasdiqlagan. Ushbu dasturning umumiy qiymati 385.5 mlrd so‘mni tashkil qiladi.

Turistlar oqimi 2017- yilda 4 million kishini tashkil qildi. Bu 2016- yilga nisbatdan 5,7% ga oshgan. Tashrif buyurganlarning 69% ni chet el fuqarolari tashkil qildi.

**15.1–jadval**  
**Buxoro viloyatida 2012-2013 yillarda turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari**

Turistlar oqimi (kishi)			Shundan qabul qilinganlar (kishi)				Shu jumladan: chet el fuqarolari (kishi)			Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming. Sum)		
2012 yil	2013 yil	Uzgarishi % da	2011 yil	2012 yil	Uzgarishi % da	2012 yil	2013 yil	Uzgarishi % da	2012 yil	2013 yil	Uzgarishi % da	
110687	116987	105,7	109031	111460	102,2	75387	77717	103,1	7988967	12300000	153,9	

Manba: Buxoro viloyati Davlat statistika Qo‘mitasi

Mamlakatimizga, xususan Buxoro viloyatiga ham turistlarning tashrifi yildan-yilga ortib bormoqda. 2013- yil mobaynida viloyatimizga jami 116.98 ming nafar


turist tashrif buyurgan edi. 2010- yilda ushbu ko'rsatkich 107.84 ming nafarni tashkil etgan. Bu 2013- yilda 2010- yilga nisbatan 104 %ga o'sganligidan dalolat beradi. Viloyatimiz bo'yicha xorijiy turistlarning tashrifi 2013- yilda 77.7 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa 2010- yilda ushbu ko'rsatkichning miqdori 83.4 ming kishini tashkil qilgan edi. Bu umumiy turistlarning 2013- yilda 69,3 %ni tashkil qilsa. 2010- yilda 77.4 %ni tashkil qilgan edi. Mamlakatimizda ham ushbu ko'rsatkichning miqdori yuqoridagi ko'rsatkichga mos ravishda ko'payish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2010- yil davomida turistik firmalar va mehmonxonalar tomonidan jami 1501152.6 ming so'm miqdorida umumiy xizmat ko'rsatilgan edi.

Umuman olganda Buxoro viloyatida hozirgi kunda turistik resurslardan to'liq va samarali foydalanayapti deb bo'lmaydi. Shu tufayli turistlarga mo'ljallangan mehmonxonalarning bandlik darajasi past holda qolib ketmoqda.


Hozirgi paytda turizmni rivojlantirish va mehmonxonalar samaradorligini oshirish hamda xizmat sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Buxoroda ekoturistik salohiyat ham boshqa turistik obyektlar singari yetarli bulishiga qaramasdan xorijiy turistlarni ekoturizm yo'nalishlari bo'yicha marshrutlar ishlab chiqilmagan. Turistik firmalar tomonidan bu yonalish bo'yicha yangi turistik marshrutlar ishlab chiqilib. Buxoroga turistlar tashrifini ko'paytirish choralarini ko'rishlari lozim. Chunki, mazkur sohani rivojlantirish ko'p mablag' sarflamasdan qo'shimcha valyuta tushumi ta'minlaydigan muhim yo'nalishlardan biridir. Zero, turistlarni ko'paytirish uchun mehmonxonalar bilan bog'liq turistik infratuzilmalar tegishli tarzda yaratilgan.

Hozirgi kunga kelib Buxoro shahrida 82 dan ziyod turistik majmualar ish yuritishmoqda. Shulardan 68 tasi Mehmonxona xo'jaligini yuritish uchun litsenziyalarga ega. Ushbu turistik majmualar yordamida 2015- yil yakunlariga ko'ra 12300000,2 ming so'm lik xizmat ko'rsatnlagan (15.1-rasm).

### Umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmi



Ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar 261845,9 ming so'mni tashkil etadi



### 15.2-rasm. Olingan daromadlarning umumiy hajmi

Bu rasmdan ko'rinib turibdiki, 2009- yilda turistlarning tashrif buyurishi eng katta ko'rsatkichga teng. 2017- yilda jami 111460 turist tashrif qilgan, Shulardan 77717 kishi (69,7 %) xorijiy turistlar va 33743 (30,3%) mahalliy turistlar bo'lgan. Bu ko'rsatkich 1995- yilga nisbatdan 1,7 marta o'sgan.

Shunday qilib xulosa qilishimi mumkinki, Buxoro viloyatida turizm sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelmoqda.

### 15.2. Buxoroda turizm infratuzilmasining tahlili

Dunyo turizmidagi o'sish O'zbekiston Respublikasi turizmidagi o'sishga ham ta'sir etdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlaboq, O'zbekiston dunyo turizm bozoriga dadil qadamlar bilan kirib borib, jahon turizmidagi o'z o'rnini egallamoqda.

Respublikamizda xorijiy turistlarga asosan madaniy-tanishuv turlari taklif qilinmoqda. Ularning davomida tarixiy, arxitektura, diniy obidalar va ziyoratgohlar bilan tanishtiriladi, mahalliy aholining turmush tarzi va madaniyati ko'rsatiladi. Bunday turlar davomida asosan Samarqand, Buxoro va Xivadagi obyektlarga tashrif buuriladi. Respublikamizda hammasi bo'lib 30 ga yaqin turlar taklif etiladiki, ularning ichida Toshkent va Farg'ona vodiysida amalga oshiriluvchi ko'ngilochar, sarguzasht, ov, dam olish – davolanish, tog'-chang'i va golf sporti bilan Shug'ullanish turlari ham mavjud.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda qo'lga kiritilgan yutuqlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, o'lkamizga tashrif buurayotgan xorijiy mehmonlar sonining oshibborayotganligini inobatga olish zarur bo'ladi.

Ammo ushbu sohaning rivojlanishi uchun hali ko'pgina salbiy omillar ham mavjuddir. Buxoroga yetib keluvchi turistik sayohatlarni o'sishiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan ba'zi hollarni sanab o'tish mumkin:

- ko'pgina mehmonxonalarda taomlarning zamonaviy talablarga javob bermasligi;

- O'zbekiston ichidagi Mehmonxona xizmatlari narxlarining asosiy raqobatchilariga nisbatan qimmatligi;

- turistlarning esdalik uchun xarid etiladigan milliy suvenirlarimizning kamligi va nisbatan qimmatligi;

- joriy infratuzilmani takomillashtirish va yangilarini yaratish uchun xususiy soha vakillarida mablag'larning yetishmasligi;

- targ'ibot masalalariga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tufayli xorijiy fuqarolarning aksariyatida O'zbekiston tog'risida ma'lumotning kamligi;

- O'zbekistondagi joriy narxlarning qimmatligidan tashqari, ba'zi hollarda, taklif etilayotgan tovar va xizmatlar sifatining shu narxga mos emasligi.

Buxoro hududidagi turistik infratuzilmani tahlil qiladigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishga ega

Aviartransport

Turistik mavsum paytida talab taklifdan oshib ketadi. Buxoro aeroportidan faqat Moskva, Sankt-Peterburg va Krasnodarga xalqaro aviareyslar amalga oshiriladi. Urgench aeroportidan Milan va Parijga reyslar mavjud. Shu bilan birga, Mamlaktning ichida shaharlar aro avia reyslar yo'lga qo'yilmagan, faqaitgina Toshkent orqali uchish mumkin.

Temir yo'l transporti.

Buxorodan Samarqand va Toshkent shaharlariga kunduzgi va kechki poezdlar bilan ulangan. Lekin temir yo'l stantsiyasi Kogon shahrida joylashgan bo'lib, Buxoro markazidan 10 km uzoq.

Avtomobil transporti

Avtobuslar, mikroavtobuslar va taksilar Samarqand, Xiva va Toshkent yo'nalishida o'z xizmatlarini asoson norasmiy ravishda taklif qiladilar. Avtobuslar aniq jadval asosida qatnamaydi. Shu uchun kelajakda ichki turizmni rivojlanirish uchun yo'llarni hamda transport infratuzilmasini yaxshilash kerak.

Muzeylar

Buxoroda muzey ularning filiallari mavjud. (15.5-jadval)

15.5-jadval

BUXORO VILOYATIDA MAVJUD MUZEYLARNING RO'YHATI				
1	Buxoro Davlat badiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi	Buxoro shahar, Abu Kabr ko'chasi, 2	Zikrillaev Abdurashid Nematovich	Qabulxona: 224-13-66; 224-14-04;
	Buxoro viloyat O'lkaShnoslik muzeyi	Buxoro shahar, Abu Kabr ko'chasi, 2		
2	Abu Ali Ibn Sino memorial muzeyi	Peshku tuman, Afshona qishlog'i	Nurullaev Mansur	
3	"Mohi-Xosa" Amaliy san'at muzeyi	Mohixosa qishlog'i	Jumaev Qoryog'di Jurayevich	Qabulxona: 228-50-47
4	K.Behzod nomidagi san'at muzeyi	Bahovuddin ko'chasi	Mavlonov Obid Olimovich	Qabulxona: 224-58-53
5	Romitan Davlat muzeyi	Romitan shahri, Samosiy ko'chasi, 17	Avezov Obid	Qabulxona: 552-18-65
6	Fayzulla Xo'jaev uymuzeyi	A.To'qay ko'chasi	Po'latova Munira Sharipovna	Qabulxona: 224-41-88
7	Naqshbandiya Tariqati muzeyi	Kogon tumani,	Sharipov	

		Baxouddin kishlog'i	Yusuf Zaripovich	
8	Imom Al-Buxoriy xotira majmuasi	Buxoro shahar, "Istirohat" bog'i	Nasimov Baxodir	Qabulxona: 224-32-90
9	Temirchilik hunari tarixi muzeyi-ustoxonasi	Haqiqat ko'chasi, 2	Kamalov Shokir Sharifovich	Qabulxona: 224-57-65
10	"Zindon" muzeyi (XVII asroxiri XVIII asr boshida qamoqxona)	Mirzo Usmon ko'chasi, 20	Qobilov Bobir Amonovich	Qabulxona: 224-95-02
11	Buxoro viloyati suv ta'minoti muzeyi	Buxoro shahar, "Istirohat" bog'i	Nasimov Baxrom	Qabulxona: 224-39-02
12	Qadimiy Poykend shaharchasi muzeyi	Qorako'l tumani, "Sayot" qishlog'i	Sabirov Normamat	Qabulxona: 300-95-33
13	Jondor tuman O'lkashunoslik muzeyi	Jondor tumani	Nurullaev Aleksey Fayzullaevich	Qabulxona: 292-33-97
14	Kogon shahar Zirotobod O'lkashunoslik xalq muzeyi	Kogon shahri	Qurboniy Yusuf Rajabzoda	Qabulxona: 522-63-82; f. 582-12-71
15	Qorako'l tuman O'lkashunoslik muzeyi	Qorako'l tumani	Abdullaeva Sofiya Mamarajabovna	Qabulxona: 565-31-34
16	G'ijduvon tumani Sadrididdin Ayniy hayoti va ijodi muzeyi	G'ijduvon tumani		

2011- yilda ularga 410 ming kishi tashrif qilgan, ulardan 133,2 ming xorijiy mexmonlar. 2012- yilda - 329,1 mingta tashrif, ulardan 123,1 ming xorijiy mexmonlar. 2013- yilning birinchi yarmida Buxoro muzeylarning umumiy foydasi 683 mln. sum tashkil qilgan. Bu kursatkichni 80-90 % Buxoro shaxrida ishlab topilgan.

Hududiy turizm infratuzilmasini rivojiga to'sqinlik qiluvchi muammolar katoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlat iqtisodiy qudrati va siyosati bilan bog'liq umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar;

- sohadagi yo'naltirilganlik (mavsumiylik, muayyan segment tanlash va hokazo)

- ijtimoiy-madaniy ko'rsatkichlar (tarixiylik, madaniyat va urf-odatlarining yo'qolib ketishi);

Keltirilgan guruhlariga mansub muammolar mamlakatdagi turizm rivojiga to'sqinlik qiladi va hududlardagi samaradorlik ko'rsatkichlarini tushiradi. Buxoro hududidagi turistik infratuzilmasiga oid ko'rsatkichlarni, uning ahvolini va muammolarni tahlil qilaylik.

Buxoro viloyati yuqori turistik potentsialga ega bo'lib geografik nazardan davlat markazida joylashgan. Buyuk Ipak Yo'li ustida joylashganligi sababli, Buxoro O'zbekistondagi eng asosiy turistik shaharlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Buxoroning tarixiy arxitektura merosi 250 turli xildagi obyektlardan iboratdir. Diniy inshootlar, madrasalar, karvonsaroylar, maqbaralar, imperiya davri binolari, an'anaviy uylar asosan Eski shaharning kichik hududida (200 ga) joylashgan. Shaharning eng asosiy diqqatga sazovor joylari bo'ylab sayohatni qiyinchiliksiz bir kunda piyoda amalga oshirish mumkin.

Buxoro tarixiy markazi 1993- yildayoq YUNESKOning umumjahon tarixiy Merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, betakror va bebaho tarixiy destinatsiya bo'lib hisoblanadi. Shahar arxitektura yodgorliklari uning eng asosiy boyligi hisoblanib, madaniy turizmning rivojlanishida kuchli turtki sifatida xizmat qiladi. O'z navbatida turizm va uning rivoji viloyat iqtisodiy o'sishi uchun ulkan ahamiyatga ega.

Ushbu iqtisodiy o'sish turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasi bilan mos kelishi, turistik xizmatlar assortimentini kengaytirishi, shu bilan birga ekologik turizmga alohida e'tibor qaratilishi va albatta ichki turizmni rivojlantirishi va yuqoridagi barcha yo'nalishlarni aniq tizimga kiritishi lozim.

Turizmga ma'lum bir yo'nalishlar rivojlanishi uchun eng asosiy muammolar shaharda ko'rsatkichlar yo'qligi, avtomobillar to'xtash joylari va xizmat ko'rsatish yetarli sifat darajasida emasligidadir. Undan tashqari, Buxoroda turist va sayyohlar uchun biror bir axborot informatsion markazlari mavjud emasligi sababli, shahar individual (yakka tarzda sayohat qiluvchi) turistlarni o'ziga etarli darajada jalb qila olmaydi. Qolaversa, biror bir umumiy axborot beruvchi internet-portal ham hali ishga tushmagan.

Shaharning avtotransport xizmatini taxlil kisak, bugungi kunda 230 avtobus, 180 mikroavtobus (yo'nalish taksilari) va 1000 dan ortiq xususiy taksilar shahardagi

umumiy transportni tashkil etadi. Avtobus va mikroavtobuslar jami 32 yo'nalishda xizmat ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishlarning ko'pligiga qaramay, ko'plab hol larda shaharning ma'lum nuqtasiga yetib borish uchun kamida 2 ta yo'nalish transportidan foydalanish kerak.

Hozirgi kunda umumiy foydalanish transportining asosiy qismini avtobuslar tashkil etishiga qaramay, avtobus to'xtash bekatlari va yo'llar avtobuslar uchun moslashtirilmagan va transport aniq bir tizim asosida harakatlanmasligiga amin bo'lish mumkin. Faqatgina shahar markazida joylashgan bazi bekatlarda yo'nalishlar to'g'risida axborot jadvali keltirilgan va qo'shimcha hech qanday informatsion ko'maklashuvchi manbalar mavjud emas. Bularning barchasi shaharda individual tarzda sayohat qilish imkoniyatini cheklashi tabiiy. Ko'plab sayyohlar ma'lumot olishi uchun mahalliy aholi ga murojaat qilishga majbur, ammo aholi ining asosiy qismi xorijiy tillarni bilmaydi.

Mustaqil tarzda sayohat qiluvchi turistlar uchun shahardan 8 km uzoqda, Kogon shahrida joylashgan Buxoro-1 temir yo'l vokzalida va 4 km uzoqlikda joylashgan yangi Buxoro Xalqaro Aeroporti yon atrofida hech qanday axborot shahobchalari va xorijiy tildagi ko'rsatkichlar mavjud emas. Vokzal va aeroport yonidagi xususiy taksi haydovchilari shahar mehmonlari uchun yuqori narxlar belgilaydi bu esa sayyohlarda salbiy taasurot qoldirmoqda.

Ta'kidlash joizki, 2015- yilga mo'ljallangan shaharning umumiy arxitektura rejasi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish komiteti tomonidan tasdiqlanishi kutilmoqda va ushbu reja Buxoroga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qanday ta'sir ko'rsatishi nomalum. Buxoroning yangi umumiy shahar rejasi amalga oshirilganidan keyin, turli xil informatsion ko'rsatkichlar va markazlashgan axborot markaziga bo'lgan talab yanada ortadi.

Buxorodagi yana bir muxim muammolardan biri - elektr, gaz va suvta'minotidagi tez-tez takrorlanuvchi nosozliklardir. Buning natijasida shahar bo'ylab ko'plab tashkilotlar va oddiy aholi yoqilg'ili elektr generatorlarni ishlatishga majbur. O'z navbatida bu, shahar ekologiyasining ifloslanishiga sabab bo'ladi, Qolaversa, etik va estetik qoidalarga zid keladi. Shundan kelib chiqib, turizmning

rivojlanish bilan bir qatorda shahar elektr va gaz infrastrukturasi rivojlantirishga katta e'tibor qaratish zarur. Yaqindà o'tkazilgan Osiyo quyosh energiyasi forumida ushbu muammolarni bartaraf qilish yo'llari va quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqildi.

Turistik infratuzilma ko'p jihatdan internet va yangi texnologiyalarga bog'liq. Buxoro viloyati va umuman O'zbekistonda internet sifati jahon standartlariga nisbatan judayam past va jahonda tezligi bo'yicha atigi 170 o'rinni egallamoqda. Shunga qaramay davlatda internet xizmatlari narxi judayam qimmatdir: internetga ulanishning o'rtacha narxi oyiga 75 000 so'mdan boshlanib, ma'lum bir cheklanishlar mavjud. Buxoroda 4 internet provayder mavjud bo'lib ularning barcha O'zbektelekom orqali faoliyat ko'rsatadi. Mobil operatorlar taklif etadigan 3G internet sifati ham hech bir jahon standartlariga mos kelmaydi va judayam yuqori narxlarda. Mobil operatorlar taklifi bo'yicha 1GB internet narxi o'rtacha 10 AQSH dollariga teng. Yuridik shaxslar uchun esa internet provayderlar tomonidan judayam yuqori narxlar belgilanganligi ("UZBEKTELEKOM" davlat internet provayderi narxlariga binoan nisbatan sifatli internet uchun o'rtacha oylik to'lov 1000 000 so'mdan yuqori) turistik tashkilotlar o'z mijozlariga sifatli internet xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega emas.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yirik mablag'larni talab etishi o'z o'zidan hammamizga ma'lum. Infratuzilmani boshqarish davlat markaziy hokimiyati zimmasida. Mahalliy hokimiyatlar va o'zini o'zi boshqarish organlari infratuzilma rivoji uchun imkoniyatlari markaziy hokimiyat tomonidan cheklatilgan. Shahar buning uchun etarli darajada iqtisodiy resurslarga ham, infratuzilma rivoji uchun qarz olish imkoniyatiga ham ega emas. Shahar hokimiyatining yuqoridagi masalalarda huquqlarining kengaytirilish, Shbhasiz shahar ifrastrukturasi rivojiga ijobiy ta'sir etadi.

Tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, Buxoro viloyati yalpi regional byudjeti turistik infratuzilmadagi ba'zi bir ko'zga ko'ringan muammolarni bartaraf etishga qudrati etadi degan xulosaga kelish mumkin. Bunda asosan infratuzilmadagi informatsion-kommunikatsion muammolar nazarda tutilmoqda.

### 15.3. Turizm infratuzilmasini takomillashtirish yo‘llari

O‘zbekistonda turistik infratuzilma hududiy turizmning rivojlanishi bilan uzviy hamjihatlikda bo‘lib, mamlakatdagi turizm va servisga qaratilgan e‘tibor va munosabatni o‘zida aks ettiradi. Shuning bilan bir qatorda, O‘zbekiston turistik hududlari infratuzilmasidagi muammolar mavjudligi ularning o‘zaro va xalqaro miqyosda raqobat qilish uchun yetarli sifatda emasligini ta’kidlash joiz.

Buxoroda turistik marshrutlarni rivojlantirish muammolari:

- Yo‘l ko‘rsatkichlarning yo‘qligi
- Avtomobillarni quyish joylarning mavjud emasligi
- Ma’lumot (informatsiya) beruvchi markazlarning yo‘qligi
- Internet portal mavjud emasligi
- O‘z izlanish va tahlillarimdan kelib chiqib ushbu muammolar yyechimi uchun bir qancha takliflarim quyidagilardan iborat:

Tarixiy markazlaridan boshlab butun shaharda yagona dizayndagi informatsion ko‘rsatkichlar o‘rnatish (yakka tartibdagi mustaqil sayyohlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida);

Labi Hovuz turistik kompleksi hududida yirik axborot informatsion markazi, vokzal va aeroportlar, ahvoli gavjum joylarida esa uning shahobchalarini yaratish (axborot olish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarini bartaraf etish maqsadida);

Shahar bo‘ylab o‘rnatilgan bank terminallarida shahar haqidagi informatsion dasturni o‘rnatish va uni yangilab turish (mavjud bo‘lgan resurslardan ratsional tarzda foydalanib, ularni mul‘tivazifali xususiyatlarini yaxshilash maqsadida);

Yagona internet portali yaratib, unda shaharda mavjud bo‘lgan barcha turistik tashkilotlar, diqqatga sazovor joylar, do‘konlar va hokozolar haqidagi barcha ma’lumotlarni joylashtirish (distantsion va tez ravishda ishonchli ma’lumot olishni osonlashtirish, umumiy axborot tizimini yaratish maqsadida);

Turistlar uchun call markazni tashkil qilish. U quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin, 1-chizma:



### 15.1 -rasm. Mehmonhonalarda turistlarga ma’lumot beruvchi punktlarni yaratish

Piyoda yurishga mo‘ljallangan zonalarini tashkil qilish va takomillashtirish. Namoyish obyektlarning ko‘rsatkichlariga QR-kodlarini o‘rnatish kabi vazifalarni bajaradi.

Yuqoridagilarni amalga oshirishni yosh kadrlar zimmasiga yuklab, ularning shaharga bo‘lgan munosabatlarini mustahkamlashiga va shahar rivojiga o‘z hissasini qo‘shishiga ko‘maklashish (yoshlarga o‘z vataniga bo‘lgan mehrni uyg‘otish va shakllantirish, shahar ravnaqi va farovonligiga nisbatan kelajak avlodning munosabatini mustahkamlash maqsadida).

Buxoroga tashrif buyuruvchi sayyohlarning mustaqil tarzda sayohat qilishlari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratilgani sababli, shaharning turistik obro‘i oshishi;

Domino effekti, ya’ni, bir sayyohning ijobiy bahosi mamlakatga tashrif buyuruvchilar soninè tabiiy hamda tizimli ravishda oshiradi;

Shaharning turistik infotuzilmasi sifati sezilarli darajada oshadi vashaharning jozibadorligi ma’lum miqdorda oshadi;

### 15.4. Navoiy viloyatining tabiiy-geografik o‘rni

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan va amalda joriy etilgan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” hozirgi sharoitda yaratuvchanlik ruhida shijoat bilan

mehnat qilayotgan Navoiy halqining istiqboldagi samarali faoliyatida dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016- yil 4- noyabr Navoiy viloyatiga saylovoldi uchrashuvida viloyatning tabiati o'ziga xos rang-barang bo'lib, shimoli-g'arbiy qismida Qizilqum sahrosi cho'llari, janubi-sharqiy qismida osmono'par Nurota tog' tizmalari hamda Zarafshon daryosining o'rta qismida boy va turfa xil dehqonchilik dalalari yastanib yotibdi deb ta'kidlab o'tdilar. Zarafshon daryosi bilan birgalikda Aydarko'l, Sho'rko'l, To'dako'l kabi ko'plab yirik suv manbalari viloyat tabiatini yanada rang-barang bo'lishiga hissa qo'shmoqda.

Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1992- yilda tashkil etilgan.

Maydoni- 110,99 ming kv.km. (10 937 435ga). Shundan: qishloq xo'jaligi yerlari – 8873664 ga, jumladan ekin yerlari – 111 190 ga, sho'rlangan yer maydoni - 20000 ga (17,9 %).

Turar joylar, tomorqa yerlari – 19 670 ga, avtomobil va temir yo'llari – 22 274 ga, o'rmon va daraxtzorlar – 1 263 193 ga, ijtimoiy obyekt va ko'chalar – 7 632 ga, boshqa yerlar (daryolar, tepaliklar, sanoat hududi, elektr uzatish tarmoqlari va boshqalar)- 751002 ga.

Aholisi soni – 949,6 ming kishi.

Milliy tarkibi: o'zbeklar – 87,7 % (826,4 ming), qozoqlar -3,9 % (36,7 ming), qoraqalpoqlar- 2,4 % (22,6 ming), tojiklar – 1,5 % (13,7 ming), ruslar -1,9 % (17,6 ming) va boshqalar –1,1 % (11,1 ming).

Chegaradosh-Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari, Qozog'iston Respublikasi.

Viloyat ixtisoslashuvi – rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari neft-gaz sanoati, oziq-ovqat va yengil sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash,

Paxta: 2016- yil davlat buyurtmasi - 98,6 ming t. bajarilishi 106,3 ming t.107,8 %.

G'alla: 2016 yil davlat buyurtmasi – 89,9 ming t. bajarilishi 90,1 ming t. 100,2 %.

Viloyatda 2 ta viloyat va 4 ta tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar, 10 ta tumanlar, 47 ta shaharcha, 577 ta aholi yashash punktlari mavjud bo'lib, ular – Karmana, Nurota, Xatirchi, Qiziltepa, Konimeh, Uchquduq, Tomdi, Navbahor tumanlaridir. Shuningdek yirik sanoat korxonalari negizida 2 ta yirik shahar Navoiy va Zarafshon shaharlari har tomonlama rivojlanib, obod hududga aylanib bormoqda.

Viloyatning respublika hayotida va iqtisodiyotidagi o'rni beqiyos. Xususan, bugungi kunda respublikada ishlab chiqarilayotgan sementning 45 foizi, mineral o'g'itlarning 30 foizi, elektr energiyasining 16 foizi, sanoat mahsulotlarining 10 foizi viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillarida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida viloyatda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Yirik sanoat korxonalari, kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy obyektlar, ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. Navoiy shahridagi O'zbekiston, Mustaqillik, Istiqlol, Navoiy ko'chalarining zamonaviy qiyofasi viloyatning bugungi taraqqiyoti ifodasidir.

Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, jumladan, eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi vazifalar aniq-ravshan belgilab berilgan va bu borada viloyatda keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi o'zining munosib o'rniga ega. Bugungi kunda hududda 18 ta korxonalar samarali faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan 100 dan ortiq turdagi eksportbop, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu yerda 2017- yilning birinchi yarmida 88,7 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, Shundan 3,3 million AQSH dollari qiymatidagi mahsulotlar eksport qilindi. Korxonalarda ming nafarga yaqin yuqori malakali kadrlar, asosan mahalliy yoshlar ishlayotganligi aholi turmush farovonligiga xizmat qilayapti.

#### **15.5. Viloyatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili**

Viloyatning O'zbekiston hayotida va iqtisodiyotidagi o'rni beqiyos. Xususan, bugungi kunda respublikada ishlab chiqarilayotgan sementning 45 foizi, mineral



o'g'itlarning 30 foizi, elektr energiyasining 16 foizi, sanoat mahsulotlarining 10 foizi viloyatning hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning qon tomiri bo'lgan xalqaro ahamiyatdagi avtomobil va temir yo'llarning qariyb 750 km.ni viloyat hududidan o'tganligi viloyatning naqadar katta transmagistral salohiyatga egaligini ko'rsatadi.

Xususan, viloyat hududidan xalqaro ahamiyatdagi 302 km, respublika ahamiyatidagi 2490 km avtomobil yo'llari (Shuningdek, 1125 km mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llari), 440 km temir yo'llari o'tgan.

Shu nuqtai nazardan, Navoiy viloyati ulkan iqtisodiy salohiyati bilan respublikada muhim ahamiyatga ega. Viloyat respublika iqtisodiyotining rangli metallurgiya, kimyo va qurilish sanoati yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. Respublikada yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 5,2 foizi viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Viloyatda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatining yo'lga qo'yilishi, jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot yetishtirish, zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga imkoniyat yaratildi.

Bugungi kunda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida 19 ta korxonada faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular tomonidan 100 turdan ortiq xaridorbop mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

15.5-jadval

Navoiy viloyati YaIMning tarmoqlar kesimida o'sish sur'ati, %

Yillar	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
I. Jami YaIM	105,6	104,3	105,0	103,5	104,7	108,1	15,2	104,2	105,8	103,9	105,9
Shu jumladan:											
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105,3	104,1	104,6	103,4	104,7	108,1	105,2	104,2	105,9	103,9	105,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	113,1	107,1	112,2	105,2	104,7	107,5	105,0	103,6	103,9	102,9	05,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105,3	104,1	104,6	103,4	104,7	108,1	105,1	104,2	105,9	103,9	105,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	108,6	108,6	104,4	106,3	104,3	110,3	106,1	107,5	107,4	108,4	107,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	103,3	101,9	102,2	101,1	100,3	106,0	102,5	102,3	104,0	101,0	104,0
Xizmatlar	108,6	107,4	110,9	1080	118,4	112,9	111,9	107,4	109,9	107,8	109,4
1) Dastlabki ma'lumotlar											
2) 2005-2009 yillarda XXTUT bo'yicha											

Joriy 2016- yilda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida amalga oshirilgan izchil ishlar samarasida yalpi hududiy mahsulot hajmi 10 trillion 5 milliard soʻmni tashkil etgan.

Viloyat miqyosida 2017- yilning 1-yarim yilligida qiymati 145,4 mlrd. soʻmlik 1132 ta loyihalar amalga oshirilishi va 3967 ta ish oʻrinlari yaratilishi koʻzda tutilgan boʻlib, haqiqatda umumiy qiymati 205,0 mlrd.soʻmlik (81,7 mlrd.soʻm bank kreditlari) 1356 ta loyihalar (120%) ishga tushirilib 4 754 ta yangi ish oʻrinlari yaratilgan.

“Navoiy” EIZ tashkil etilgandan buyon jami 122 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilgan. Kiritilgan investitsiyaning 35 %ga yaqini toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hisoblanadi.

Viloyat boʻyicha yalpi hududiy mahsulot tarkibini yuqorida keltirilgan jadval maʼlumotlaridan Shni koʻrishimiz mumkinki, yalpi hududiy mahsulotning tarkibiy oʻsib borishiga eʼtiborimizni qaratadigan boʻlsak, agarda 2010- yili yalpi hududiy mahsulot 4,7 foizga oshgan boʻlsa, 2016- yili bu koʻrsatkich, 5,9 foizni tashkil etgan. Taʼkidlash joizki sanoat (qurilish sohasi bilan birga) sohasida 4,0 foizga, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi 7,1 foizga oshgan alohida taʼkidlashimiz lozim.

Ayniqsa, Navoiy xalqaro aeroportini yanada rivojlantirish hisobiga, Yevropa va Osiyo davlatlari oʻrtasidagi yoʻnalishlarda katta hajmdagi yuklar va yoʻlovchi tranzit reyslari qabul qilish imkonini beruvchi Markaziy Osiyo hududidagi yagona xalqaro logistika markazi tashkil etilgani “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasining rivojida muhim oʻrin tutmoqda.

Navoiy xalqaro aeroporti orqali yuklar tashish Germaniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Shvetsariya, Belgiya, Avstriya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Bangladesh, Hindiston, BAA, Turkiya, Vetnam, Qirgʻiziston va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilayotgani nafaqat Navoiy viloyati, balki respublikamizning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, qoʻshimcha minglab ishchi oʻrinlarini yaratish, pirovardida, xalq farovonligini yuksaltirishda muhim omil boʻlmoqda.

Navoiy viloyatini yanada rivojlantirish maqsadida muhtaram Yurtboshimizning joriy yil 28 mart kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari asosida “2017-2018 yillarda Navoiy viloyatida sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi” ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 9- iyundagi 366-son qarori bilan tasdiqlandi.

Mazkur qaror ijrosini taʼminlash toʻgʻrisida 2017- yil 17- iyunda viloyat hokimining Q-224-sonli qarori qabul qilindi. Ishlab chiqilgan dastur doirasida 2017-2018 yillarda qiymati qariyb 6,4 trln. soʻmlik 2516 ta loyiha (1,2 trln.soʻm bank krediti) 21 mingdan ortiq ish oʻrinlari yaratish belgilangan.

Jumladan, sanoatda qiymati 5,9 trln.soʻmlik 648 ta loyihalarda (1,1 trln.soʻm bank krediti) 14501 ta ish oʻrni, qishloq xoʻjaligida qiymati 322 mlrd.soʻmlik 761 ta loyihalarda (200 mlrd.soʻm bank krediti) 3692 ta ish oʻrni, xizmat koʻrsatishda qiymati 235,7 mlrd.soʻmlik 1107 ta loyihalarda (95,2 mlrd.soʻm bank krediti) 4150 ta ish oʻrni yaratilishi belgilangan.

Shundan, 2017- yilning 1-yarim yilligida qiymati 145,4 mlrd. soʻmlik 1132 ta loyihalar amalga oshirilishi va 3967 ta ish oʻrinlari yaratilishi koʻzda tutilgan boʻlib, haqiqatda umumiy qiymati 205,0 mlrd.soʻmlik (81,7 mlrd. soʻm bank kreditlari) 1356 ta loyihalar (120%) ishga tushirilib, 4 754 ta yangi ish oʻrni yaratildi.

Shu jumladan, sanoatda 285 ta loyiha 1882 ta ish oʻrni, qishloq xoʻjaligida 458 ta loyiha 1 046 ta ish oʻrni, xizmat koʻrsatish sohasida 613 ta loyiha 1 826 ta ish oʻrni.

Ishga tushirilgan loyihalarning yillik ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish quvvatlari 80,2 mlrd.soʻmni tashkil qilib, byudjet daromadlari bazasi yiliga 4,7 mlrd.soʻmga oshishi taʼminlandi.

Taʼkidlash joizki, joriy yilda viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan qoʻshma korxonalar, xorijiy korxonalar soni-61 tani tashkil etgan. Natijada ishga tushirilgan loyihalarning yillik eksport salohiyati natijasida viloyat boʻyicha jami tashqi savdo aylanmasi 2016- yilda 700,4 mlrd. dollarni tashkil yetib, tashqi savdo balansi 11,3 mlrd.doll. ijobiy koʻrsatkichga erishilgan.

Navoiy viloyatining tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. so'm)

	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Tashqi savdo aylanmasi	850211,6	925947,4	1009093,5	1082194,1	1081154,2	1012765,3	802468,2	700354,3
Eksport	493592,1	553368	617969,1	522355,5	458179,5	45991,6	441448,5	355782,1
Import	356619,5	372579,4	391124,39	559838,6	622297,7	55285,7	361019,7	344572,2
Savdo balansi	136972,6	180788,6	226844,7	-37483,1	-164795,2	-92944,1	80428,8	11209,9
Shu jumladan								
MDH mamlakatlari bilan	232232,9	239974,1	28563,0	321412,1	340622,9	378516,3	204378,9	208888,1
Eksport	66708,4	60052,2	1115264	117849,4	118188,8	144006,2	83482,9	71590
Import	165524,5	179921,9	174116,6	203562,7	222434,1	234510,1	120896	137298,1
Savdo balansi	-98816,1	-119869,7	-62590,2	-85713,3	-04245,3	-90503,9	-37413,1	-65708,1
Boshqa mamlakatlar bilan	617978,7	685973,3	72450,5	760782,0	740531,3	634249,0	598089,3	491466,2
Eksport	426883,7	493315,8	506442,7	404506,1	339990,7	315904,4	357965,6	284192,1
Import	191095,0	192657,5	217007,8	356275,	400540,6	318344,6	240123,7	207274,1
Savdo balansi	235788,7	300658,3	289434,9	4230,2	-60549,9	-2440,2	117841,9	76918,0

O'z navbatida ta'kidlash joizki, viloyat tashqi savdo balansida MDH davlatlari hissasi 208,9 mlrd.doll., yoki salkam 30 foizni tashkil yetib savdo balansida 65,8 mlrd.so'mlik pasayish holati kuzatildi.

Viloyat tashqi savdo balansida boshqa xorijiy davlatlar bilan samarala investitsiya siyosatini olib borish natijasida salkam 70 mlrd.dollarlik ijobiy natijaga erishilgan.

2017- yilning 2-yarim yilligida dastur doirasida umumiy qiymati 989,8 mlrd. so'mlik (396,9 mlrd. so'm bank krediti) jami 594 ta loyihalar amalga oshirilib 7746 ta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan.

Shundan, sanoatda 234 ta loyiha 5 011 ta ish o'rni, qishloq xo'jaligida 112 ta loyiha 1 350 ta ish o'rni, xizmat ko'rsatish sohasida 248 ta loyiha 1 385 ta ish o'rni.

2017- yilning ikkinchi yarmida ishga tushiriladigan loyihalarning yillik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvatlari 445,1 mlrd.so'mni tashkil qilib, byudjet daromadlari bazasi yiliga 22,9 mlrd. so'mga oshishi ta'minlanadi. Shuningdek, ishga tushirilgan loyihalarning yillik eksport salohiyati 12,9 mln. dollarni tashkil etadi.

Birgina misol, 2017-2018 yillarda Nurota tumani markazidan 35 km shimolda joylashgan "Karatosh" zaxira konidan (mavjud zaxira hajmi 2,6 mln tonna) kelgusida samarali foydalangan holda qurilish industriyasini tubdan rivojlantirishga qaratilgan yuqori qo'shimcha qiymatli importbop bazaltli qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Viloyatdagi demografik holat va istiqbolda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ijtimoiy tadbirlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2017- yil 1- aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 945,9 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 3061 kishiga yoki 0,3 foizga ko'paydi.

Tug'ilish darajasi. 2017- yilning yanvar-martida tug'ilganlar soni 3902 kishini tashkil etdi va 2016- yilning shu davriga (4349 kishi) nisbatan -447 taga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 18,8 promilleni tashkil etdi va 2016 yilning Sh davriga (16,8 promille) nisbatan 2 promillega kamaydi. Tug'ilish darajasining

kamayishi viloyatning Zarafshon (20,9 dan 17,1 promillega), Qiziltepa (17,7 dan 13,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2017- yilning yanvar-martida o‘lganlar soni 1071 kishini tashkil etdi va 2016- yilning Sh davriga (1114 kishi) nisbatan -43 taga kamaygan. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,6 promilleni tashkil etdi (2016- yil yanvar-martida – 4,8 promille).

O‘lganlar soni kamayishi Zarafshon (4,4 dan 3,2 promillega), Navbahor (5,3dan 4,8 promillega), Navoiy (5,6 dan 5,4 promillega), Xatirchi (4,6 dan 3,8 promillega) kamaygani kuzatildi.

Mazkur ma’lumotlardan ko‘rinadiki, viloyatda o‘lganlar umumiy sonidan 64,1 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,0 foizi - o‘sma kasalliklaridan, 5,7 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 5,1 foizi - nafas olish organlari kasalliklaridan, 7,5 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan vafot etgan. Viloyatning hududlari miqyosida aholining demografik harakatlanish holatini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ko‘rishimiz mumkin:

O‘z navbatida esa o‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha har 1000 kishi hisobida Konimex, Karmana tumanlari va Navoiy shahrida kuzatilgan.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2017- yilning yanvar-martida bir yoshga to‘lmagan 47 ta bolalar o‘limi kuzatildi. Bolalar o‘limi koeffitsienti 9,3 promilleni tashkil qildi (2016 yilning yanvar-martida 9,4 promille).

Bir yoshgacha o‘lgan bolalarning umumiy sonidan 62,4 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,1 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 6,7 foizi – tug‘ma anomaliyalar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Eng katta manfiy qoldiqlar Navoiy shahrida (manfiy 1516), Xatirchi (manfiy 523), Konimex (manfiy 280) tumanlarida kuzatildi. Mehnat resurslarining soni dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2016- yil yanvar-martga nisbatan 100,6 foizga ko‘payib, 545,4 ming kishini yoki viloyat doimiy aholisining 57,7 foizini tashkil etdi.

Aholining tabiiy harakati 2017- yil yanvar-martda quyidagicha ifodalanadi: Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlar orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

### Tayanch so‘z iboralar.

Buxoro Palace, To‘dako‘l, ziyorat, Navoiy – qizilqum, Xatirchi, Nurota, Sarimishsoy.

### Savollar

1. O‘zbekistondagi qaysi viloyatimizda borishni xohlaysiz.
2. Xalqaro turizm va mintaqaviy turizmning farqlarini izohlang ? Natijani konseptual jadval ko‘rinishida to‘ldiring.
3. “O‘zbekistonda turistik resurslar tahlili” (lavha).
4. O‘zbekistonda turistik resurslarni mintaqalar bo‘yicha sanab o‘ting va tavsif bering.

Turizm turlari	Maqsad	Tahliliy fikrlar	Ijobiy natijalar	Salbiy natijalar
Xalqaro turizm	O‘zbekiston aholisini chet elga sayohati yoki chet ellik sayyohlarni O‘zbekistonga turizm maqsadida kelishi			
Mintaqaviy turizm	Yurtimizda turizm rivojlanishini geografik joylashuvi va turistik resurslari bo‘yicha taqsimlash			

## 16-bob. XORAZM TURISTIK MINTAQASI

### 16.1. Xorazm viloyati tarixi va tabiiy-geografik o'rnini va iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari

Xorazm O'rta Osiyo hududidagi eng qadimiy davlatlardan biri bo'lib, aholisi o'troq va ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lgan. Uning hududi Amudaryoning quyi qismidan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan. U haqdagi ilk ma'lumotlar "Avesto", birinchi Doroning Bihistun tosh bitiklari, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. "Avesto"ning dasht qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqlarga boy o'lka" sifatida madh etiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi".

Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir.

Xorazm tarixini chuqur o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)
2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)

3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)

4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy V asrlar)

Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi.

Abu Rayhon Beruniy afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kot (Kos) shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana Sh davrlarda qurilgan.

Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xorazmning boy ko'p qirrali tarixi qadim zamonlardan buyon xorijiy va yurtdosh olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi.

Viloyat hududida ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Ayniqsa, Xiva shahridagi me'moriy obidalar bugun dunyo ahlining e'tiborini tortib kelmoqda. Bu yerda Ark, Kaltaminor, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Dishanqal'a yodgorliklari alohida ajralib turadi. Xivadagi Ichanqa'la yodgorlik majmui esa YUNESKONing Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Sharq durdonasi bo'lgan qadimiy Xiva shahrining 2500 yilligi 1997- yilda xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

Xorazm viloyati mustaqil o'zbek davlatchiligini qayta tiklash, istiqbolimizni mustahkamlash, yurtimiz salohiyatini yanada oshirish, milliy qadriyatlarimizni ko'z qorachigidek asrash va boyitish, yosh avlodni milliy istiqbol g'oyasi ruhida tarbiyalash ishiga qo'shgan hissasi uchun 2003- yilda Vatanimizning yuksak mukofoti - Jaloliddin Mangubiyerdi ordeni bilan taqdirlangan.

Ma'lumki, Xorazm diyori dunyo sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Olimlarning xulosalariga ko'ra, milliy davlatchiligimizning asoslari

ham dastlab mana Shu yerda yaratilgan. Xalqimiz manaviyatining noyob yodgorligi bo'lgan «Avesto» kitobi ham Xorazm tuprog'ida yaratilgani bugungi kunda ko'pchilikka yaxshi ma'lum. «Xorazm» so'zi ham ilk bor anan shu noyob kitobda uchraydi. Xorazm so'zi forscha «xvar» - quyosh va «azm» - o'lka, yer, yurt so'zlarining birikmasidan kelib chiqqan bo'lib, «quyoshli o'lka» degan ma'noni anglatadi. Qadimda bu zaminda massaget, sak, apasak, os, dax kabi urug' va qabilalar yashagan.

Bu ko'hna zamin dunyoga algebra, algoritm kabi fanlarga asos solgan Muhammad Muso Xorazmiy, Xristofor Kolumbdan besh yuz yil oldin Atlantika ummoni ortida quruqlik, noma'lum qit'a borligini aytib, yerning aylana shakldagi xaritasini yaratgan Abu Rayhon Beruniy, arab tilining mukammal qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, butun musulmon olamida Jorilloh, ya'ni Ollohning qo'shnisi degan nomga sazovor bo'lgan Mahmud Zamahshariy singari allomalarni bergan. Xorazm viloyati Pahlavon Mahmud, Sulton Uvays, Nosiruddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk o'g'li Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Ali Xorazmiy, Ismoil Jurjoni, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Bayoniy, Chokar, Hojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov singari ko'plab mutafakkir, ilm-fan va san'at namoyandalarining vatani hisoblanadi.

Xorazm viloyatida aholi soni 2017- yil 1- yanvar xolatiga 1776,8 ming kishiga teng. Aholining 32,8 foizi shaharda, 67,2 foizi qishloqda yashaydi. Xorazm viloyati ma'muriy hududiy tuzilishi bo'yicha 10 ta tuman va Urganch shahriga ajratiladi.

Bular o'z navbatida 101 qishloq fuqarolar yig'ini, 612 aholi punktlari, 3 ta shahar va 7 ta shahar tipidagi shaharchalarga bo'linadi.

Viloyatda 27ta yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib shundan 13tasi yengil sanoat korxonasiga qarashlidir.

Viloyatda tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirish dasturiga ko'ra sanoatni qayta jihozlash, kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada yaxshilash va ularning qayta ishlashini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasini hamda sayyohlikni rivojlantirishga

katta e'tibor qaratilgan. Hozirgi vaqtda viloyatda 39 ta zamonaviy mexmonxonalar faoliyat olib bormoqda.

Avtomobil yo'llarining uzunligi 2296 kilometrni, shundan qattiq qoplamli yo'llar 2218 kmni tashkil qiladi. Viloyatda xalqaro klassdagi aeroport bo'lib, hozirda turli yo'nalishlar bo'yicha havo yo'llari bilan bog'langan. Viloyatda zamonaviy telefon tarmoqlari, kommunikatsiya sistemalari (aloqa, peydjyer, modem va uyali telefon) radio va televidenie mavjud.

#### 16.1-jadval

##### Xorazm viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YalM tuzilmasi tarkibining o'sishi<sup>34</sup>, (o'tgan yilga nisbatan %da)

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil yanvar-iyun
YalM	109,5	110,0	110,3	109,1	109,0	111,0	106,4	111,3
Shu jumladan:								
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	109,3	109,8	110,3	109,1	108,7	110,8	106,5	111,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	111,8	113,2	109,9	110,2	117,0	115,0	103,7	117,0
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	109,3	109,8	110,3	109,1	108,7	110,8	106,5	109,3
Qishloq xo'jaligi	103,4	102,0	109,6	107,6	106,8	106,0	108,6	105,1
Sanoat (qurilish sohasi bilan birga)	115,2	120,3	112,1	117,6	113,0	122,3	98,0	121,5
Xizmatlar	112,5	112,1	110,0	106,8	107,9	108,2	109,9	107,6
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	105,3	103,2	99,2	100,4	100,1	100,3	100,1	100,0

Xorazm viloyatining tarkibidagi 10 ta tuman (Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Xazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot, Yangiariq va Yangibozor), 1 ta shahar (Urganch) larning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'rganilmoqda. 2017- yilning 1- yanvar holatiga viloyatning aholisi soni 1776,7 ming kishini tashkil etishi va viloyat yalpi hududiy mahsuloti aholi jon boshiga hisoblaganda 4026,2 ming so'mni tashkil etadi. Respublikamiz Yalpi ichki mahsulotida esa viloyatning Yalpi hududiy mahsulotining ulushi 3,5 foizdan ortiqni tashkil etadi.

<sup>34</sup> Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan dasturlarning ijrosini ta'minlash natijasida 2021- yilga borib Yalpi hududiy mahsulot 1,5 barobarga oshishi, unda sanoat mahsulotini ishlab chiqarishning ulushi hozirgi 23,5 foizdan 25,6 foizga oshishi, qishloq xo'jaligining ulushi 29,6 foizdan 24,1 foizga kamayishi, xizmatlar sohasi esa 46,9 foizdan 50,3 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Viloyatda Harakatlar strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 124 ta tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Xususan, ushbu dasturga asosan 2017 yilda viloyatda umumiy qiymati 491,2 mlrd. so'mlik 473 ta loyihalarni foydalanishga topshirish, ya'ni, bu meva-sabzavot va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash, tayyor charm-poyabzal, to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, farmatsevtika va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohaslarida loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan Shuni ko'rishimiz mumkinki, Xorazm viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YaIM tuzilmasi tarkibining o'sib borishiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, agarda 2010-yili yalpi hududiy mahsulot 9,3 foizga oshgan bo'lsa, 2016- yili bu ko'rsatkich, 6,5 foizni tashkil etgan. Sh o'rinda hududda xizmatlar sohasi 9,9 foizga, qishloq xo'jaligi 8,6 foizga oshgan alohida ta'kidlashimiz lozim.

Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,5 barobar, iste'mol tovarlari 3,3 barobar, qurilish ishlari 1,8 barobar va chakana savdo tovar aylanmasi 1,5 barobarga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan Qarori agrar yo'nalishda bo'lgan viloyat xalq xo'jaligidagi sanoat ulushini oshirish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turmush faravonligi darajasini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu muhim hujjat qabul qilinganidan keyin o'tgan davrda 300 mln. dollardan ortiq investitsiya mablag'lari hisobiga yangidan 430 dan ziyod ishlab chiqarish quvvatlari bunyod etildi.

Shu yo'nalishdagi eng katta loyihalardan biri "GM O'ZBEKISTON" qo'shma korxonasi Xorazm viloyat filiali tashkil etilganligi bo'ldi. Pitnak shahridagi

bo'sh turgan ishlab chiqarish maydonlari qisqa vaqtda rekonstruksiya qilinib, eng zamonaviy ishlab chiqarish majmuasiga aylantirildi. Natijada bugun viloyatning eng chekka tumanida "DAMAS", "ORLANDO" va "LABO" kabi yengil avtomashinalar ishlab chiqarilmoqda. Bu tadbirning yana bir muhim jihati ushbu korxonalar ish boshlagach avtomobillarning ehtiyot qismlarini mahalliyashtirish dasturi asosida vohada avtomobil ehtiyot qismlari tayyorlashga ixtisoslashgan qator kichik ishlab chiqarish quvvatlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Shuningdek, viloyatda an'anaviy yetakchi bo'lgan engil sanoat sohasida ham ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Shovot, Bog'ot, Xazorasp va Yangibozor tumanlarida yangi to'qimachilik majmualari ish boshladi.

Yaqinda Shovot tumanida yana bir korxonalar "KATQAL'A TEX"da eng zamonaviy paypoq to'qish dastgohlari o'rnatilib, bu yerda yiliga 70 million juft mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ko'rilayotgan tadbirlar bois 2016- yil yakuni bilan viloyatda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 62 foizi yoki 54 ming tonnadan ziyodi o'zimizda qayta ishlanadi.

Iqtisodiyotimiz taraqqiyotini ta'minlash, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalar, zamonaviy ishlanmalarni tatbiq etishda qo'shma korxonalar alohida roli bor. Bugun viloyatda 34 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 15 tasi yoki qariyb yarmi oxirgi 5 yil mobaynida ilgari qo'shma korxonalar mavjud bo'lmagan tumanlarda tashkil etildi. Bu barcha hududlarning bir xil iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashi bilan birga yangi ish o'rinlari yaratib, eng chekka hududlarda yashayotgan yurtdoshlarimizni ham ijtimoiy jihatdan puxta himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xitoylik hamkorlar bilan Urganch shahrida zamonaviy gidravlik ekskavatorlar, yo'l qurilishi buldozerlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "UzXMJ" qo'shma korxonasi ishga tushirilishi bu sohadagi salmoqli loyihalardan biri bo'ldi. Bu yerda 200 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Korxonaning Markaziy Osiyoda yagona ekanligini ham alohida ta'kidlash zarur.

Mototsikl va mopedlar ishlab chiqaruvchi “Qo‘shko‘pir texno SERVIS”, maishiy sovutkich va muzlatkich kabi xaridorgir tovarlar etkazib berayotgan “Yangiariq import SERVIS” korxonalarida voha uchun yangi bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Viloyatda oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa yo‘nalishlarda 19 ta yirik sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan 2016- yil 1 trillion 416,2 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu yirik korxonalarda 11 mingdan ortiq aholi mehnat qilmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida hududiy eksportyor korxonalar tomonidan 5 million dollarga yaqin qiymatdagi sanoat va meva-sabzavot mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, eksport qilingan jami mahsulotlarning 315 ming tonnasi temir yo‘l transporti orqali tashilgan. Davlatimiz rahbarining mazkur qaroriga muvofiq, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ro‘yxatdan o‘tgan eksportyor korxonalar mahsulotlarini davlat chegarasigacha amaldagi ichki tariflar miqdoridagi haq evaziga etkazib berilishi belgilangan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu preferensiya ham eksportyor korxonalarning logistika xarajatlari keskin kamayishi va natijada mahalliy mahsulotlarning tashqi bozordagi tannarxi qisqarishi hamda raqobatbardoshligining oshishiga turtki bo‘ladi. Ushbu imtiyozdan to‘laonli foydalangan xolda eksportyor korxonalar tomonidan kelgusida eksportga chiqariladigan mahsulotlarning 70-80 foizi temir yo‘l transporti orqali amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimizda ana shunday xalq iste‘moli tovarlari keng miqyosda ishlab chiqarilmoqda. Sifatli va qulay bunday mahsulotlar barchaga manzur bo‘lmoqda. Viloyatda “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg‘asi bilan ishlab chiqarilayotgan maishiy texnika vositalari jahon bozorida xaridorgir. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahalliy xomashyodan tayyorlangan, yangi dizayndagi texnika vositalari import o‘rnini to‘ldirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozir ushbu yo‘nalishda 10 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan muzlatgich, transformator, suv filtrlari, LED lampa,

savdo muzlatgichi kabi 15 dan ortiq turdagi mahsulotlar savdoga chiqarilmoqda. 2017-2018-yillarda 25 milliard 400 million so‘mlik investitsiya mablag‘lari hisobidan 19 loyihani amalga oshirish, 300 dan ziyod yangi ish o‘rni tashkil etish belgilangan.

Viloyatda sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy o‘zgarishlarga e‘tiborimizni qaratsak, 2010 -yilda jami sanoat tarmoqlarida yengil sanoatning ulushi 37,2 foizni, oziq-ovqat 20,5 foizni, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 3,6 foizni tashkil etgan. 2016- yilga kelib bu ko‘rsatkichlar yengil sanoat 25,6 foizni, oziq-ovqat 16,9 foizni, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 23,4 foizni 2017- yilning yanvar- iyun oylarida yengil sanoat, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, hamda oziq ovqat sohalariga alohida ahamiyat qaratilgan bo‘lib, jami sanoat tarmoqlarida mashinasozlik va metalni qayta ishlash 27 foizni, engil sanoat 22,6 foizni va oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,3 foizni tashkil etmoqda.

Shu o‘rinda Respublika iqtisodiyotini modernizatsiyalash bo‘yicha Xorazm viloyati davlat dasturi loyihalari va ularda investitsiyalarni o‘zlashtirilishi bo‘yicha 2017- yili 120693,1 ming dollar o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan. Buning asosida tarmoqlar kesimida rejalashtirilgan investitsiya loyihalarida 2017- yilga 11870 ta yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Agarda viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tumanlar bo‘yicha taqsimlanishiga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, asosiy investitsiyalar Urganch shahar 23,4 %, Urganch tuman, Xazorasp, Shovot, Honqa tumanlariga taqsimlanganligi ko‘rishimiz mumkin.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan bir deb e‘lon qilingan edi.

O‘tgan davrda sohaning mustahkam huquqiy bazasi yaratildi. Aniq – puxta ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat, qulay investitsion sharoit, ishbilarmonlar uchun yaratilgan qator imtiyozlar soha taraqqiyotini ta‘minlamoqda. Tashabbuskor kishilar mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy jarayonlarning tobora faol ishtirokchisiga aylanmoqdalar.



Bugun viloyatda 11 mingdan ortiq kichik biznes subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 5,3 mingtadan oshig'i keyingi besh yilda tashkil etilgan.

Xorazm viloyatida 2017- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 11 ming 156 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan 700 mingdan ortiq aholining 82,3 foizi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

16.2-jadval

**Iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi (% da)**

Hududlar	YaIM		Sanoat		Qishloq xo'jaligi		Qurilish		Savdo	
	2015	2016	2015	2016	2015	2016	2015	2016	2015	2016
Xorazm viloyati	74,1	74,2	39,7	47,6	96,0	95,1	81,6	87,0	81,3	87,6

Viloyatda iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, 2015- yil yakunlariga ko'ra sanoatda 39,7%, qishloq xo'jaligida 96,1%, qurilishda 81,0% va savdoda 81,3 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yil yakunlariga ko'ra sanoatda 47,6%, qishloq xo'jaligida 95,1%, qurilishda 87,0 % va savdoda 87,6 %ni tashkil etadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, viloyatda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishigi alohida ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi.

Viloyatda ijtimoiy sohani qo'llab – quvvatlash, ularning moddiy texnik bazasini yaxshilash ishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi besh yilda oltmishga yaqin tibbiyot muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bu tadbirlar tufayli viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, viloyat onkologiya va endokrinologiya dispanserlari, viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Xorazm viloyati filiali, Bog'ot, Xonqa, Xiva, Gurlan va Yangibozor tumanlari tibbiyot birlashmalari zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldilar. Eng asosiysi aholiga tez va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi.

Xalq ta'limi tizimida istiqloq yillarida 7 ta maktab yangidan qurildi, 185 tasi qayta rekonstruksiya qilindi. 295 maktab mukammal ta'mirlandi. Mavjud umumta'lim maktablarining barchasi zamonaviy kompyuter texnikalari bilan ta'minlandi, kompyuter sinflari tashkil etildi.

**16.2. Xorazm viloyatida turistik resurslarning hozirgi kundagi holati va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar**

Xorazm "Buyuk ipak yo'li"da joylashgan ming yillik tarix, boy – madaniy merosga ega qadimiy o'lka. Viloyatda 18 ta arxeologiya, 134 ta arxitektura, 66 ta haykaltaroshlik san'ati yodgorliklari, 40 ga yaqin diqqatga sazovor va muqaddas joylar mavjud.

Xivaning Ichan qal'a va Doshon qal'asi, Qal'ajik, Hazorasq qal'alari, Yangiariq tumanidagi Olma otishgan, Shovot tumanidagi Yusuf Hamadonoy kabi obidalar dunyoning turli burchaklaridan kelgan sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. Sayyohlik viloyat iqtisodiyotida tobora ko'proq o'z o'miga ega bo'lmoqda. Shu sababdan ichki va tashqi turizmni rivojlantirish asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risidagi qarori bu boradagi ishlarimizni yangi darajaga olib chiqdi. Ushbu Davlat dasturi doirasida bugungacha yuzdan ortiq sayyohlikka doir loyiha amalga oshirildi.

Yigirmadan oshiq madaniy meros obyektlarida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. "Ichan qala", "Deshon qal'a", "Qalajik qal'a" devorlarida, "Muzxona" yodgorligi, "To'rt shavvoz" majmuasi va "Bog'i shamol", Ollaqulixonning yozgi dala hovlisida katta hajmdagi rekonstruksiya tiklash tadbirlari amalga oshirildi.

Yangi sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlari joriy etildi. Urganch shahrida SHovot kanali bo'yida, Xiva tumanida "Chodra bog'", "Xiva qorako'l" fermer xo'jaligida, "Eshon Ravot" ko'lida, Bog'ot tumanida "Qalajiq qal'a", Urganch tumanidagi "Ulli hovli" obyektlarida zamonaviy sayyohlik infratuzilmalari yaratilgan.

Agarda tahliliy ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, viloyatda 2010- yil turizm sohasi bo'yicha xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning soni 61506 tani tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilga kelib bu ko'rsatkich, 200358 tani tashkil etgan. Sh o'rinda 2010- yil viloyatda turistik firmalar va tashkilotlar soni 733 tani tashkil etgan bo'lsa, 2016- yilga kelib bu ko'rsatkich 124367 tani tashkil etgan.

### 16.3-jadval

#### Xorazm viloyatida turizm industriyasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning soni, kishi	61506	191009	194414	187683	183092	182193	200358
Shundan:							
Turistik firmalar va tashkilotlar	733	121394	121893	114480	114416	116760	124367

Shuni alohida ta'kidlash joizki, viloyatda turizm salohiyatining yuqoriligi, uning milliy va hududiy iqtisodiyot taraqqiyotidagi ustuvor o'rni va ahamiyati, turizm korxonalarining va ular bilan bevosita bog'liq xizmat ko'rsatuvchi tarmoq sohalarning faolligi turizm majmuasi va uning infratuzilmalari shakllanishi va rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Zamonaviy turizm majmuasi va uning infratuzilmalari shakllanishi, avvalambor turizmning innovatsiyaviy-investitsiyaviy rivojlanishi boshqarish modeliga va turizm tizimida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga tayanadi. Zamonaviy turizm majmuasi shakllantirishda uning ishlab chiqarish, transport, joylashtirish vositalari, axborot-kommunikatsiya va reklama xizmatlari, hamda moliya, kredit, sug'urta infratuzilmalari bilan bir qator infratuzilmalarning o'rni va ahamiyati juda yuqoridir.

### 16.5-jadval

#### Xorazm viloyatining asosiy turistik resurslari<sup>35</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Asosiy turistik resurslar, dona	170	172	167	169	184	185	185
Muzeylar	2	2	2	2	2	2	2
Teatrlar	2	2	2	2	2	2	2
Madaniy va istirohat bog'lari	11	11	11	11	11	11	11

<sup>35</sup>TDIU harakatlar strategiyasi materiallari

Tarixiy obidalar	134	134	134	134	134	134	134
Diniy ziyoratgohlar	34	34	34	34	34	34	34
Madaniy dam olish maskanlari	126	126	126	126	65	65	65
Axborot resurslari va kutubxonalar	157	159	153	153	164	166	167

Xorazm viloyati madaniyat va sport ishlari boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra faqat hozirgi kungacha ro'yhatga olingan madaniy yodgorliklaridan 18 ta arxeologik, 134 ta tarixiy me'morchilik yodgorliklari hamda 6 ta diqqatga sazovor va 32 ta muqaddas, jami 256 ta bunday obyektlar mavjudligi hudud tarixiy yodgorliklarga boyligini ko'rsatadi, turizm salohiyatini yanada oshiradi va turizmning hudud uchun yangi yo'nalishlarini tashkil qilish imkoniyatlari kattaligidan dalolat beradi. Bugungi kunda turistik xizmat sohasi xususiyashtirish va modyernizatsiyalash talablariga mos holda qayta isloh qilindi. Turistik xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash uchun turizm industriyasi asosida turistik resurslar potentsiali yuqori bo'lgan Xorazm viloyati mintaqasida rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Oxirgi yillar davomida viloyatda turistik xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash bilan turizm industriyasi faoliyatini shakllantirish omillarining ijobiy ta'siri kuchaytirildi, turizm xizmati sifatini ko'tarish ishlari amalga oshirildi, milliy turistik korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashga erishildi va turistik mahsulotga bo'lgan xorij talabini o'stirishga asos yaratildi.

Hozirgi kunda viloyatda 2 ta muzey, 11 ta madaniy va istirohat bog'lari, 134 tarixiy obidalar, 34 ta diniy ziyoratgohlar, 65 ta madaniy dam olish maskanlari faoliyat yuritmoqda.

Viloyatda turizm sohasini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijobiy natijalari turistik xizmatlar hajmining o'sishida o'z aksini topmoqda. Shlardan kelib chiqib buni quyidagi ko'rsatkichlar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Xorazm viloyatiga 2015- yilda tashrif buyurgan jami (xorijiy va mahalliy) sayyohlar soni 63,4 mingdan ortiqni tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yil yakuni bilan bu ko'rsatkich 75,8 mingdan ortiqni tashkil qilib, deyarli 20 %ga oshgan. Birgina, 2015- yilning o'zida dunyoning 80 dan ortiq davlatidan 40,6 mingga yaqin xorijiy sayyohlar viloyatimizga tashrif buyurishgan bo'lishsa, 2016- yil yakuni bilan, bu ko'rsatkich 46,6 mingdan ortiqni tashkil qilib, o'tgan yilning Sh davriga nisbatan

15 %ga oshgan Shu jumladan, MDH davlatlaridan 2015- yil davomida 5767 ta sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2016- yilda ushbu ko'rsatkich 6600 tani tashkil qilib, 15 foizga oshgan. 2015- yilda 22767 ta mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2016- yilda ushbu ko'rsatkich 29200 tadan ortiqni tashkil qilib, qariyb 30 foizga oshgan. 2012- yilda xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 5562,1 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016- yil yakuni bilan 11389,9 mln so'mni tashkil qildi va jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2012- yilga nisbatan ikki barobarga oshgan.

Aholining kommunal xizmatlarga bo'lgan talabini to'la qondirish, eldoshlarimizga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish ishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan 5 yil mobaynida Tuyamo'yin suv ombori hududida joylashgan Kaparas nasos stansiyasi mukammal ta'mirlandi. Pitnak shahridagi "Tozalash inshooti", Urganch shahriga ichimlik suv yetkazib beruvchi "Urganch shahar suv taqsimlash inshootidagi" nasos stansiyalari kapital remont qilindi.

Shuningdek, Urganch shahrida yangi suv tozalash inshooti qurilib, ishga tushirildi.

Bundan tashqari, Qo'shko'pir, Xiva va Yangiariq tumanlarida 113 kilometr ichimlik suv tarmoqlari yotqizildi. Natijada ushbu chekka huddudlarda istiqomat qiluvchi aholining ichimlik suv bilan ta'minlanishi yaxshilandi.

Umuman 2011-2015 yillarda Xorazm viloyatida 815 kilometr suv tarmoqlari qurildi. Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 70,1 foizdan 73,7 foizga yetkazildi.

Aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani elektr bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida o'tgan 5 yil mobaynida viloyat shahar va tumanlarida 129 kilometr elektr tarmoqlari tortildi, 77 ta transformator punkti yangidan qurildi.

Bu sohadagi yana bir loyiha – "Taxiatosh" issiqlik elektr stansiyasidan Xorazmning Sarimoy aholi punktigacha bo'lgan masofaga 220 kVt kuchlanishli Havo liniyasi qurish loyihasidir. U amalga oshirilsa Xorazm viloyati aholisi, ishlab chiqarish

korxonalarini va ijtimoiy obyektlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash kafolati yanada oshadi.

2017- yil 9- avgust holatiga Dastur bo'yicha jami 2,9 trln.so'm hamda 239,3 mln.dollarlik mablag'lar sarflanishi rejalashtirilgan. Xususan:

- bank krediti mablag'lari hisobidan 932,5 mlrd.so'm va 26 mln.dollar;

- o'z mablag'i hisobidan 853,8 mlrd.so'm va 77,1 mln.dollar;

- boshqa manbalar hisobidan 1,1 trln.so'm va 136,2 mln.dollar investitsiyalar sarflanishi rejalashtirilgan.

Ushbu mablag'larni yo'nalishlar kesimida tahlil qilinganda:

- qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari masalalari kompleksi bo'yicha 20,9 mlrd.so'm va 152 mln.dollar;

- makroiqtisodiy rivojlantirish, tarkibiy o'zgartirishlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish kompleksi bo'yicha 2754,6 mlrd.so'm va 87,5 mln.dollar;

- Xorazm viloyatining Xiva tumanida turizm sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha 1,2 mlrd.so'm;

- eksport salohiyatini va mashinasozlik, avtomobil va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalari kompleksi bo'yicha 16,4 mlrd.so'm;

- geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi bo'yicha 49,5 mlrd.so'm;

- sog'liqni saqlash, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari kompleksi bo'yicha 41,0 mlrd.so'm;

- boshqa masalalar bo'yicha 1,0 mlrd.so'm sarflanishish belgilangan.

Mazkur topshiriqlarni bajarilishi bo'yicha jami 405,9 mlrd.so'm hamda 8,0 mln.dollarlik investitsiyalar o'zlashtirildi, xususan tijorat banklari tomonidan jami 216,6 mlrd.so'm va 8,0 mln. dollarlik kredit mablag'lari ajratildi.

Tadbirkorlarga jami 4,5 ming gektarga yaqin yer maydonlari ajratib berildi.

Berilgan topshiriqlar bo'yicha "Urganch temir yo'l vokzali"da chet el tajribasi asosida xizmat ko'rsatish va SERVIS xizmati turlarini ko'paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlasin va ijrosini ta'minlash topshirilgan.

"Urganch temir yo'l vokzali"da chet el tajribasi asosida xizmat ko'rsatish va servis xizmati turlarini ko'paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Vokzalning kirish qismiga 3 tilda ko'rsatish belgilari va avtobuslar nomerlari ko'rsatilgan belgilar va harakatlanish kartalari, vokzal hududiga kirish va chiqish joylariga shaharning ehtiborga loyiq joylari ko'rsatilgan kartalari joylashtirilgan.

Chet el turistlari uchun alohida nazorat-o'tish punktlari tashkil etildi. Vokzalda zamonaviy mobil va statsionar savdo shoxobchalari barpo etildi. Internet tarmog'iga Wi-Fi ulanish, bankomatlar va planshetlar taklif etilishi joriy qilingan.

O'zbekiston Xalq artisti Komiljon Otaniyozov nomi bilan ataladigan zamonaviy ijod markazi va uning tarkibida bog'ni qurish ishlarini jadallashtirish choralari ko'rish topshirilgan.

Mazkur bog' va ijod markazi qurilishi uchun Urganch tumani G'alaba qishlog'i hududidan 3,4 ga yer maydon ajratildi. (Xorazm viloyati hokimining 2017- yil 10- fevraldagi 47 q-sonli qarori). 2017- yil 20- iyul kuni Komiljon Otaniyozovning 100 yilligi munosabati bilan san'atkor nomi bilan atalgan Ijod markazining ochilish tadbiri bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda Respublika vazirliklar va idoralar rahbarlari, Xorazm viloyati hokimligi, Shuningdek, vohamizdagi bir qator mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirok etishdi.

2017- yilning 1- iyunigacha Amir Temur parkida qurilish ishlarini to'liq yakunlash bo'yicha tarmoq jadvalini o'n kun muddatda ishlab chiqish, bajarilishini ta'minlash belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida loyiha tashabbuskorlari aniqlangan va tarmoq jadvallari tasdiqlangan. Amir Temur istirohat bog'ining umumiy yer maydoni 25,6 gektar bo'lib, ushbu istirohat bog'ida Urganch shahar xokimligi tomonidan 31 ta loyiha tashabbuskorlariga yer maydonlari ajratib berilgan.

Attraksionlar, kichik va katta o'yin qurilmalari o'rnatish, bolalar maydonchalari tashkil qilish, qurilish ishlarini amalga oshirish maqsadida O'zmilliybank Urganch bo'limi tomonidan hozirgacha jami 20,7 mlrd.so'm kredit liniyasi ochilgan.

2017- yil 1- iyun kuni Amir Temur istirohat bog'ining ochilish tadbiri bo'lib o'tdi.

Viloyatning transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida belgilangan tarmoq reja-jadvallari asosida 2017- yilning 1- dekabriga qadar 35 dona "Isuzu" avtobuslari etkazib berish choralari ko'rish belgilangan.

Bugungi kunda viloyatning transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida tashabbuskorlar tomonidan 35 ta "ISUZU" rusumli avtobuslar sotib olib kelingan.

Viloyat aholisining talablaridan kelib chiqqan holda hududda avtotransport vositalarining keskin ko'payishini inobatga olib, Urganch shahri ko'chalarida transport qatnovlarini tartibga solish maqsadida Urganch xalqaro aeroporti va Urganch temir yo'l vokzalini bog'lovchi Al-Xorazmiy ko'chasining Al-Beruniy va G'ofur G'ulom ko'chalari oralig'ini ochish topshirilgan.

Urganch" xalqaro aeroporti va "Urganch temir yo'l vokzali"ni bog'lovchi Urganch shahar Al-Xorazmiy ko'chasining Al-Beruniy va G'.G'ulom ko'chalari oralig'i jami 1,3 km uzunlikdagi (Al-Xorazmiy ko'chasi 0,452 km, Al-Beruniy ko'chasi 0,846 km) yo'lni ochish bo'yicha jami 2 ta obyektida 6,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, Al-Xorazmiy ko'chasida 0,452 km, 3,7 mlrd so'mlik va Al-Beruniy ko'chasi 0,846 km, 3,1 mlrd so'mlik ta'mirlash ishlari bajarilib, avtomobil yo'li foydalanishga topshirilgan.

### **16.3. Xorazmda turizm infratuzilmasi va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari**

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko'tarish borasida, avvalo ko'hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda jahon ahlini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimgi tarixiy

yodgorliklar beqiyos ko'p. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o'z ko'zlari bilan ko'rish orzusida yashaydilar. Ko'p mamlakatlarda O'zbekiston o'zining shaharlari bilan mashhurdir. O'zbekistonning tarixiy shaharlarini bemalol «Sharqning javohirlari» deb atash mumkin.

Mamlakat turizmini rivojlantirishda Xorazm viloyatining turistik salohiyati alohida ahamiyatga egadir. Ushbu mintaqa O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida, Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, mintaqadan turizm maqsadlarida foydalanish asosan Ichanqal'a me'morchilik qo'riqxonasida joylashgan Xiva tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga asoslanadi. Ko'plab tarixiy madaniy yodgorliklari butun rayon bo'ylab joylashgan. Xivadan janubi-sharq tomonda Sho'rko'l ko'li bor. Rayondagi taraqqiy etgan aloqa yo'llari tizimi kelajakda bu yerda rayon va rayonlararo ahamiyatga ega bo'lgan turli xil turizm marshrutlarini o'rnatishga imkon beradi.

Quyida esa tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida Xorazm viloyati turizm infratuzilmasining holatiga baho berilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Urganch xalqaro aeraporti. Xorijiy va mahalliy turistlarni turli rusumdagi samolyotlarda qabul qila oladi. Uchish zali 2 qavatli binodan iborat bo'lib jahon andozalariga javob bera oladigan 170 o'rindiqli kuzatish zali, barcha qulayliklarga ega va barcha xizmatlar tashkil etilgan. Birinchi qavatda 6 ta ro'yxatdan o'tkazish ustunlari, pasport nazorati xizmatlari va bojxona nazorati xizmatlari mavjud bo'lib turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun barcha qulayliklarga ega. Jumladan: 17 ta yuk tashish aravachasi, valyuta ayirboshlash shahobchasi, meditsina xizmatlari ko'rsatish shahobchasi, nogironlarga mo'ljallangan hojatxona, reklama tablolari, aviareyslar jadvali, yagona axborot xizmati tizimi, aviachiptalar sotish va ma'lumot berish ustunlari mavjud.

Urganch xalqaro aeraporti faoliyatini takomillashtirish va sifatli xizmatlar ko'rsatish uchun takliflar:

Kutib olish zallarida atigi 50 o'ringa mo'ljallangan o'rindiqlar, 2 ta chegara nazorati ustuni va deklaratsiya to'ldirish ustunlari mavjud;

Yirik samolyotlar yo'lovchilarni kutib olish zalida sifatli xizmat ko'rsatish yaxshi yo'lga qo'yilmagan;

Ichki reyslarda kutib olish zali xizmatlaridan foydalanilmaydi. Kutib olish zalini yanada kengaytirish va uchish zali infratuzilmasi darajasiga yetkazish maqsadga muvofiqdir;

Xalqaro charter sayyohlik aviareyslari tarmog'ini kengaytirish; Aeraport oldida, avtoulavlarni to'xtab turish joylarida aeraportgacha bo'lgan joylarda etarli darajada yoritish va bino ustidagi "Urganch xalqaro aeraporti" tablosini yorish (reyslar amalga oshirilayotgan vaqtda);

Urganch aeraportida chartyer safarlarini amalga oshirayotgan, aeraport xizmatlaridan foydalanayotgan chet el aviakompaniyalarining xizmati uchun to'g'ridan to'g'ri valyutada qabul qilishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir emas.

Xorazm viloyatidagi temir yo'l vokzallari. Xorazm viloyatida 4 ta temir yo'l vokzali mavjud: Urganch, Shovot, Xazarasp, Pitnak. Urganch temir yo'l vokzalida xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatiladi. Vokzalda quyidagi infratuzilmalar mavjud: 1 ta valyuta ayirboshlash shahobchasi, dam olish xonasi, chiptalarni sotish va ma'lumot berish ustuni, vokzalda temir yo'l poezdlarining harakatining olti oylik jadvali va yagona axborot tizimi mavjud.

Vokzalning infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir va quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- Avto'lovlar to'xtaydigan maxsus joylarni tashkil qilish;
- Vokzal ichida reklama, mamlakatimiz turistik maskanlarini aks ettiruvchi shitlari va monitorlarni o'rnatish;
- Valyuta ayirboshlash shahobchasida etarli darajada naqd pul mablag'lari bilan ta'minlash va bank tyerminallarini o'rnatish;
- Yuk tashish aravachalari sonini ko'paytirish;
- Vokzal ichida internet tarmog'ini yo'lga qo'yish;
- Urganch-Buxoro-Urganch va Samarqanda-Urganch-Samarqand yo'nalishlari bo'yicha turistik tezyurar poezdlari marshrutlarini tashkil qilish (turistik mavsumlarda);

- Vokzal ichida sovutgich va isitgichlarni o'rnatish;
- Vokzalda sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilish.

Xorazm viloyatining turistik marshrutlar yo'li va yo'l bo'yi infratuzilmalari. Xorazm viloyatida xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'li A-380 "Guzor-Nukus-Kungirov-Beyneu" 439-552km.lari Xorazm viloyati hududi hisobiga kiradi. Ushbu yo'lining 439-520 km rekonstruksiya ishlari olib borilgan, 520-553km.larini rekonstruksiya ishlari PK-1041 asosan tuproq ishlari bajarilib 2010- yilda rekonstruksiya ishlari to'liq yakunlanishi mo'ljallangan. 2008- yilda 4r158 "Urganch - Xiva" avtomobil yo'lining 0-25km.larida to'liq ta'mirlash ishlari bajarilib, yo'ning ikki tomoni yoritkichlar bilan to'liq jihozlandi. 4r162 "Urganch aylanma yuli" 0-5km.lari to'liq ta'mirlanib yangidan asfaltobeton qoplamasi yotqizildi va yo'l yoritkichlar bilan to'liq jihozlandi. 4r156 "Urganch-Xonqa-Xazorasp-Turkmaniston chegarasi" avtomobil yo'lining 41-62 km.larida o'rta ta'mirlash ishlari bajarilgan, 2009- yilga 30-41km, 62-68km.larida ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan.

4r161 "Urganch sh.-Cholish k.-Beruniy sh." avtomobil yo'lining 13 km.dagi Amudaryo ustiga uzunligi 680 p/m bo'lgan temir beton avtomobil ko'prigi qurilishi 2008-yilda boshlanib 2010-yilda foydalanishga topshirilishi kerak.

Turistik marshrutlar yo'li va yo'l bo'yi infratuzilmalarini yaratish bo'yicha takliflar:

Turistik marshrutlarda sayyohlarning ovqatlanishi sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan, sifati va sertifikatiga bo'lgan oziq-ovqatlar bilan ta'minlangan ovqatlanish obyektlarida tashkil etish.

#### 16.4. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Xorazm viloyati mamlakat turizm bozorida o'ziga xos rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'lishi bilan birga bir qator bajarilish lozim bo'lgan ishlar ham mavjud. Ushbu kamchiliklarni tadqiq etib biz quyidagicha holatga ega bo'ldik.

Viloyatda ekskursiya jarayonini olib borish uchun kadrlar bilan ta'minlanganligini holati. Hozirgi kunda Xorazm viloyatida jami 24 ta gid-tarjimon sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda. Shundan 2 tasi oliy darajali, 6 tasi birinchi darajali va 16 tasi ikkinchi darajali hamroh tarjimonlardir. Viloyatda joylashgan obyektlar va

muzeylarda ekskursiya olib borish huquqini beruvchi hujjatlarsiz gid-tarjimonlarning ekskursiya o'tkazishga ruxsat berilmaydi. Malakali tajribaga va sertifikatga ega bo'lgan gid-tarjimonlar 2 yilda bir marta 7-14 kunlik maxsus kurslarda malaka oshiradi va attestatsiyadan o'tkaziladi.

Hududga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar va sayyohlarga xizmat ko'rsatiladigan transport vositasi haydovchilarini maxsus tayyorlov kurslari mavjud emas.

Mehmonxonalaridagi maxsus xizmat mutaxassislari (mehmonxona ma'muri, ofitsiant, barmen, shvetsar-dasyor, qavat va xonalar bekasi, farroshlar) ishlarining sifati qoniqarli darajada yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga hududda ekskursiya jarayonini olib borish uchun malakali kadrlarni tayyorlashda quyidagi takliflar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'lardi;

Xorazm mintaqaviy bo'limi qoshida tayyorlash, tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda gid-tarjimonlar va ekskursovodlar uchun davriy o'quv kurslarini o'tkazish maqsadga muvofiq;

- Xorazm viloyatidagi tarixiy obidalar to'g'risidagi axborotlarni Xiva «Ma'mun» akademiyasi va Urganch Davlat Universiteti tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq. Chunki viloyatda joylashgan obyektlar va obidalar bo'yicha ma'lumotlar mazkur oliy o'quv yurtlarida etarli darajada mavjud;

- turistlar diqqatini jalb qilish maqsadida mavsumga qarab milliy hamda zamonaviy liboslarni uyg'unlashtirib yagona uniforma tayyorlash maqsadga muvofiq;

- hamroh-tarjimonlar va ekskursiya olib boruvchilarni hukumat darajasida yagona akkreditatsiyadan o'tkazish masalasini hal etish zarur;

- Ichan-qa'lada joylashgan muzeylarda faoliyat olib boruvchi xodimlarning aksariyati 40 yoshdan oshganlar tashkil etadi. Muzeylarda faoliyat olib boruvchi xodimlarni yosh hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir;

- hududga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar va sayyohlarga ekskursiya xizmatini ko'rsatishda malakaga ega bo'lmagan hamroh-tarjimon va ekskursovodlar tomonidan xizmat ko'rsatishiga yo'l quymaslik uchun Soliq idoralarini jalb qilgan

holda joylarda monitoring o'tkazilishi va aniqlangan qonun buzilishlar to'g'risida tuzilgan dalolatnomalarni tegishli idoralarga taqdim qilish orqali choralar ko'rish lozim;

- hududdagi mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan holda xorijiy mehmonlar va sayyohlarga xizmat ko'rsatiladigan transport vositalari haydovchilarini maxsus tayyorlov kurslarini tashkil qilish, har kuni marshrutga chiqadigan haydovchilarni ko'rikdan o'tkazish tartibini joriy qilish zarur;

- viloyatning turizm sohasida mehnat qilayotgan xodimlar va mutaxassislarni chet ellarda va xalqaro tashkilotlarning granti orqali o'qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;

- xodimlarning ish samaradorligini oshirishlari uchun xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan mehmonxonalariga xizmat safarlari uyushtirish orqali malakalarini oshirish maqsadga muvofiq

Xorazm viloyatida reklama ta'minoti va yodgorlik buyumlari mahsulotlarini ishlab chiqarish holati.

Xorazm viloyatida reklama faoliyati bilan shug'ullanadigan bir qancha tashqi reklama mahsulotlarini bosmadan chiqaradigan xususiy korxonalar mavjud. Ularda asosan turistik firmalar, mehmonxonalar o'z turistik mahsulotlarini bukletlar, broshyuralar, kataloglar, xaritalar, plakatlari, kitoblar va boshqalar. Reklama mahsulotlari o'zbek, rus, ingliz, nemis, yapon, koreys va boshqa tillarda chop etilgan. Ishlab chiqarilayotgan reklama mahsulotlarida yagona milliy «UZBEKISTAN» turistik brendidan foydalanish sust olib borilmoqda.

Xorazm viloyatida xalq hunarmandchili keng yo'lga qo'yilgan jumladan, «Hunarmand» uyushmasi Xorazm viloyat bo'limi tomonidan. Xorazmda 11 ta «USTO-SHOGIRD» maktablari tashkil etilib, 47 ta shogirdlar mavjud. Mahalliy mahsulotlardan: gujum, terak, sada, tut, turangi daraxtlaridan zamonaviy mebellar ishlab chiqarilmoqda.

Ishlab chiqariladigan reklama mahsulotlarining targ'ibot-tashuviqot etilish joylari sifatida temir yo'l poezdlari, vokzallari, aeroportlar va havo kemalari bortlari,

mehmonxonalar, internet, ko'rgazmalar, yarmarkalarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xorazm viloyatida sayyohlarga meditsina xizmati ko'rsatilishi va xavfsizlikning ta'minlanishi holati.

Sayyohlarga meditsina xizmatlarini tashkil qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash eng muhim masalalardan biridir. Turistik obyektlarda asosan Xiva shahridagi Ichan Qal'a muzey qo'riqxonasi ichida va Dishan Qal'a atrofida meditsina punktlarini tashkil etish va chet tillarini biladigan meditsina xodimlari jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Undan tashqari xalqaro magistral yo'llari bo'yida har 100 km.da talabga javob beradigan meditsina punktlarini tashkil qilish lozim. Turistik marshrutlarda sayyohlarni transport vositalarida xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda hamkorlikda ishlar olib borilgan.

Sayyohatchilarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalarini holati. Viloyatda sayyohatchilarga transport vositalarida xizmat ko'rsatadigan transport vositalari «Xorazm Palas» mehmonxonasi balansidagi 1 ta avtobus, 1 ta mikroavtobus va «Asia-Xiva» mehmonxonasi tasarrufida 1 ta 45 o'rinli yevrostandartlarga javob beradigan avtobus mavjud. Ushbu avtobuslar holati talablarga javob beradi.

Sayyohatchilarga transport xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

- Turistik firmalar va mehmonxonalariga transport vositalarini sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berish va lizing xizmatlarini tashkil etish;
- Mavjud transport vositalarini har bir marshrutdan oldin uning texnik ko'rikdan o'tkazish;
- Haydovchilarni meditsina ko'rigidan davomli o'tkazib turish;
- Haydovchilarni marshrut davomida avtobuslarni boshqarishini 8 soatdan oshmasligi qattiq nazorat qilish;
- Avtomobillarni arendaga berishni tashkil qilish.

Viloyatda ushbu sohani rivojlantirishga hukumat tomonidan ham alohida e'tibor berilmoqda.

Xorazm viloyati unda jamlangan diqqatga sazovor joylari bilan dunyoning turli burchaklaridan tarixiy-madaniy turizm ishqibozlarini o'ziga tortmoqda. Ishtioqmand sayohlar Xivada – “ochiq osmon ostidagi muzey”da bo'lish, Ichanqal'aning qadimiy me'moriy inshootlariga nazar solish, rivoyatlarga ko'ra noyob “Avesto” yozma yodgorligi – otashparastlarning muqaddas kitobi yaratilgan zaminga oyoq bosish uchun bu yerga keladilar.

Ma'lumki, turistik mavsumlarning qizg'in paytlarida sifatli mehmonxonalarning yetishmasligi chet ellik turistlarning kelishi ko'payishini to'suvchi omildir. Shu munosabat bilan joriy yilda Urganchning asosiy shohko'chasi – Al Xorazmiy ko'chasida to'rtta mehmonxona qurilishi rejalashtirilgan. Maxsus mavzuviy uslubda bezatilgan mo'jaz mehmonxonalar turistlarning shinam bilan dam olishlarini ta'minlaydi.

Urganch shahrida turistik infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha keng miqyosli ishlar rejalashtirilgan. Bu yerda asosiy ko'chalar rekonstruksiya qilinadi, 12 umumiy ovqatlanish shahobchasi, 4 minibank, 12 savdo shahobchasi, gipermarket, 2 milliy kiyimlar do'koni va boshqa obyektlar quriladi. Xivada ham, xususan “Ichanqal'a” majmuasi atrofida turistik infratuzilma rivojlantiriladi.

Dasturning ko'pgina bandlari o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarini, uning o'ziga xos madaniyatini namoyish qilishga yo'naltirilgan ko'ngil ochish tadbirlarini tashkil etishga qaratilgan.

**Tayanch iboralar.** Xazarasp, Ichanqal'a, milliy kiyimlar do'koni.

#### **Savol va topshiriqlar.**

1. Xorazmning turizm salohiyati ulushi qancha?
2. Xorazm viloyatida qanday tarixiy obidalarimiz bor?
3. Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari qanday?
4. Xorazm viloyatining turizm infrastrukturalar holati?

## **17-bob. FARG'ONA TURISTIK MINTAQASI.**

### **17.1. Farg'ona mintaqasining tabiiy-geografik o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi**

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan va amalda joriy etilgan “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” hozirgi sharoitda yaratuvchanlik ruhida shijoat bilan mehnat qilayotgan Farg'ona halqining istiqboldagi samarali faoliyatida dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasining 12 viloyatlaridan biri. Viloyatning shimoliy sharqiy va sharqiy qismini Chotqol, Qurama, Piskom, Ugom tog' tizmalari tashkil qiladi. Hududning katta qismi - janub va janubiy g'arb tomoni Sirdaryoga qiya tushgan tog'oldi tekisliklaridan iborat bo'lib, seysmik hududda joylashgan. Iqlimi kontinental bo'lib, qishi nam, nisbatan yumshoq, yozi issiq va quruq, bahor va yoz mavsumlarida kuchli yomg'ir, momaqaldiroq hamda do'l yog'ish, Shuningdek, shamolning sezilarli darajada kuchayish holatlari kuzatilib turadi. Maydoni 6,7 ming kv.km. Farg'ona viloyatida 2016- yilda 3564 mingdan ortiq aholi (respublika aholisining 11,1 foizi) istiqomat qiladi. Bugungi kunda viloyatda 14 ta tumanlar, 4 shaharchalar mavjud. Markazi – Farg'ona shahri. 2017- yilning 1- yanvar holatiga viloyat aholisi soni 3565,1 ming kishini tashkil etishi va viloyat yalpi hududiy mahsuloti aholi jon boshiga hisoblaganda 3905,4 ming so'mni tashkil etadi.

Farg'ona viloyatida 4 ta shaharlar, 15 ta tumanlar mavjud. Farg'ona viloyati o'zining tabiati, mineral resurslari, madaniyati va boshqa resurslarga boyligi bilan ham boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Ushbu resurslardan foydalanish natijasida viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishilmoqda. Farg'ona viloyati o'zining geografik joylashuvi hamda katta ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotida salmoqli o'rin egallaydi.

Bu zaminning hosildor tuprog'i, yer osti va yer usti boyliklari, katta suv zaxiralari, rivojlangan sanoat tarmoqlari va xomashyo manbai bo'lgan qishloq xo'jaligi viloyatning qudratli tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan dalolat beradi.



Shimoldagi Tyan-Shan tog'lari o'rmonlaridagi hayvonot olamining noyob turlari, janubdagi Pomir tog'lari kengliklarining dam olish maskanlari o'zining jozibadorligi bilan ajralib turadi. Viloyatning Oltiariq, Rish-ton va So'x tumanlari etishtirilayotgan uzum va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda ulardan tayyorlanadigan sanoat mahsulotlari bilan iste'molchilarga yaxshi tanilgan.

Viloyatda Farg'ona davlat me'moriy-badiiy muzey qo'riqxonasi, 318 ommaviy kutubxona, 14 ta muzey, 1 ta hayvonot bog'i, 18 madaniy va istirohat bog'lari, 91 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari bor. Farg'ona shahridagi viloyat kutubxonasi respublikadagi nufuzli kutubxonalardan sanalib, unda noyob qo'lyozmalar mavjud. Farg'ona viloyatida 4 ta teatr bor.

Viloyat tumanlari va shaharlari kesimida YaIM hisobi olib borilmasligi tufayli aholi jon boshiga, har bir mehnat resursi hisobiga, ish bilan ta'minlangan xar bir kishi hisobiga yaratilgan YaIM hajmini aniqlash imkoniyati bo'lmadi. Bu ma'lumotlarni olish imkoniyati bo'lganda, ma'muriy hududlar bo'yicha inson resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash mumkin bo'lur edi.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga yaratilgan YaIM 3905,4 ming, har bir mehnat resursi hisobiga 6902,1 ming, ish bilan ta'minlangan har bir kishi hisobiga 9230,8 ming so'mni tashkil qiladi.

Quyidagi jadval ko'rsatkichlari ham Farg'ona viloyatining iqtisodiy faoliyati zaifligini ko'rsatadi. Viloyat aholisi o'zining mehnatkashligi, tadbirkorligi, ish-bilarmonligi bilan tanilgan. Nufuzi bo'yicha 11,1 foizga teng bo'lgan aholining YaIMida 7,2 foiz ulushga ega bo'lishi viloyatda faollik etishmasligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi YaIMida Farg'ona viloyatining ulushi<sup>36</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	Jami 2010-
O'zbekiston Respublikasi (mlrd.so'm)	62 38	78 76	97 92	120 86	145	171 80	199 32	876921
Farg'ona viloyati (mlrd.so'm)	8,3	4,2	9,3	1,5	846,4	8,3	5,1	,3
Viloyat ulushi (foizda)	4434	5686,3	7082,9	8672,0	10706,6	12583,5	13922,6	63085,3
	7,1	7,2	7,2	7,2	7,3	7,3	7,0	7,2

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti 2000-2015 yillarda o'tkazgan tadqiqotlari Shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda Toshkent shahri, Samarqand, Jizzax, Andijon, Namangan, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqori o'sishga erishildi. Bu holat, asosan, iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanganligi, sanoatning mashinasozlik tarmog'i, engil va oziq-ovqat sanoati hamda xizmat ko'rsatish sohaslarida erishilgan ijobiy o'zgarishlar tufayli yuz byerdi. Farg'ona viloyati keyingi yillarda o'sish dinamikasi past bo'lgan viloyatlar qatoriga kiradi. 2000- yilda Farg'ona viloyatining mamlakat YaIMidagi ulushi 13,2 foiz bo'lsa, 2015- yilga kelib 7,3 foizga tushib qolgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmatlar sohasini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Respublika bo'yicha 2016- yilda 90202,9 mlrd.so'mlik xizmat yaratilgan, jon boshiga 6258,6 ming so'mlik xizmat ko'rsatilgan, mamlakat ko'rsatkichini 1 deb olsak, Farg'ona viloyatida bu indeks 0,565ni tashkil qiladi. Demak, viloyatda xizmatlar ishlab chiqarishning umumiy, uning jon boshiga to'g'ri keladigan hajmlari mamlakat ko'rsatkichidan deyarli ikki barobar past. Bu viloyat YaIMini ko'paytirish uchun xizmatlar yaratish sohasida katta imkoniyatlar borligini ko'rsatadi.

<sup>36</sup>O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

### 17.2. Fargʻona mintaqasining turistik imkoniyatlari

Fargʻona viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini oshirishni taʼminlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Fargʻona viloyatidagi turizm resurslari va moddiy madaniy meros obyektlari sifatida roʻyxatga kiritilgan obyektlarni oʻrganish boʻyicha ishchi guruhi tomonidan Qoʻqon shahri hamda Furqat, Oʻzbekiston, Beshariq, Bagʻdod, Dangʻara, Uchkoʻprik tumanlaridagi jami 128 ta moddiy madaniy meros obyektlar roʻyhatga olinganligi aniqlandi. Fargʻona viloyati Madaniy meros inspeksiyasining maʼlumotlariga koʻra 21 ta arxeologik, 75 ta meʼmoriy, 11 ta monumental yodgorliklar va 21 diqqatga sazovor joylar ekanligi aniqlandi.

#### Fargʻona viloyatining turistik resurslari

№	Nomi	Soni
	Viloyatdagi moddiy-madaniy meros obyektlari soni	371
2.	Turistik korxonalar soni	24
3.	Mehmonxonalar soni	18
4.	Mehmonxonalardagi oʻrinlar soni	900
5.	Muzeylar	14
6.	Teatrlar	4
7.	Madaniy va istirohat bogʻlari	19
8.	Tabiat yodgorliklari	2

Shuningdek, oʻrganishlar natijasida quyida ayrim obyektlarning hozirgi holati boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

#### Umarali Eshon ziyoratgohi

Umarali Eshon ziyoratgohi - Uchkoʻprik tumani “Yakkatut” MFY hududida joylashgan. Yodgorlik tarixiy madaniy yodgorlik kompleksi sifatida tuman miqyosida oʻz qimmatiga ega. Obyektning asosiy ahamiyatli jihati uning shiftlaridir. Uning shiftlari tarixiy naqshlardan iborat. Obyektning holati taʼmir talab.

### Fargʻona viloyati tumanlar kesimida turizm obyektlarini oʻrganish boʻyicha

#### maʼlumot

Koʻrsatkichlar	Oʻrganilgan tarixiy obidalar soni	Oʻrganilgan diniy ziyoratgohlar soni	Oʻrganilgan tabiat yodgorliklari soni	Oʻrganilgan boshqa turizm obyektlari soni
Fargʻona viloyati boʻyicha	7	17	-	-
Shu jumladan: tumanlar boʻyicha				
Margʻilon shahri	-	-	-	-
Fargʻona shahri	-	-	-	-
Quvasoy shahri	-	-	-	-
Qoʻqon shahri	-	-	-	-
Bogʻdod tumani	-	3	-	-
Beshariq tumani	2	2	-	-
Buvayda tumani	2	3	-	-
Dangʻara tumani	1	2	-	-
Yozyovon tumani	-	-	-	-
Oltiariq tumani	-	-	-	-
Koʻshitepa tumani	-	-	-	-
Rishton tumani	-	-	-	-
Soʻx tumani	-	-	-	-
Toshloq tumani	-	-	-	-
Uchkoʻprik tumani	2	3	-	-
Fargʻona tumani	-	-	-	-
Furqat tumani	-	1	-	-
Oʻzbekiston tumani	-	3	-	-
Quva tumani	-	-	-	-
Jami	24			

Meʼmoriy obida viloyat miqyosidagi madaniy meʼros obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan. Tashrif davomida obyektning hozirgi kundagi holati qoniqarsiz boʻlishiga qaramay u yerga hali ham mahalliy ziyoratchilar tashrif buyurishi aniqlandi.

Ichki turizmni rivojlantiradi va zamonviy turistik obʻktlar sonini oshiradi. Yoshlarning maʼnaviy boylklarga hurmat ruhini oshiradi.

### Yigitpirim ziyoratgohi

“Yigitpirim” ziyoratgohi to‘g‘risida ma‘lumot

<b>Obyekt nomi</b>	“Yigitpirim” ziyoratgohi
<b>Obyekt joylashgan Manzil</b>	Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani “Kenagas” QFY, “Olmurod” mahallasi
<b>Qurilgan vaqti</b>	XIX asrlarda
<b>Kim tomonidan qurilgan</b>	Mahalliy ustalar tomonidan
<b>Ta‘mirlangan vaqti</b>	-
<b>Qayta ta‘mirlangan</b>	2005-2008 yillarda qisman qayta ta‘mirlangan
<b>Egallagan maydoni</b>	Umumiy hududi 1 ga
<b>Hududdagi qo‘shimcha obyekt</b>	Ziyoratchilar uchun dam olish joylari
<b>Sifatli xizmat ko‘rsatishga yaroqliligi</b>	Yaroqsiz
<b>Infratuzilmasi</b>	Intfratuzilma rivojlanmagan
<b>Aholi uchun ahamiyati</b>	Mahalliy aholi uchun ziyoratgoh va oromgoh hisoblanadi
<b>Hozirgi holati</b>	Zamonaviy holatda emas
<b>Obyektning shakli va ko‘rinishi</b>	Ziyoratgoh joy va dam olish uchun joylar sharoitlar qisman yaratilgan
<b>Ro‘yhatga kiritilganligi</b>	Davlat muhofazasiga olingan va reestrga kiritilgan

Yigitpirim ziyoratgohi – Uchko‘prik tumanining “Kenagas” QFY, “Olmurod” mahallasida joylashgan. Yodgorlik tarixiy madaniy yodgorlik kompleksi sifatida tuman miqyosida o‘z qimmatiga ega. Ushbu madaniy yodgorlik kompleksi dam olish oromgohi bo‘lib ham hisoblanadi. Yoz mavsumida obyekt hududida tashkil etiladigan sayllarda atrof tumanlardan aholi ziyorat maqsadida tashrif buyuradi.

Yoshlar va qariyalar uchun oromgoh va diniy ziyoratgoh yoshlar tarbiyasida ma‘naviy qadryatlarga bo‘lgan saviyani oshirishga xizmat qiladi.

### G‘oyib Bobo ziyoratgohi

“G‘oyib Bobo” ziyoratgohi to‘g‘risida ma‘lumot	
<b>Obyekt nomi</b>	“G‘oyib Bobo” ziyoratgohi (reestrga kiritilmagan)
<b>Obyekt joylashgan manzil</b>	Farg‘ona viloyati Beshariq tumani, “Qorajiyda” MFY, Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i
<b>Qurilgan vaqti</b>	XIX asrlarda
<b>Kim tomonidan qurilgan</b>	Mahalliy ustalar tomonidan
<b>Ta‘mirlangan vaqti</b>	-
<b>Qayta ta‘mirlangan</b>	2014-1-2016 yillarda qisman qayta ta‘mirlangan
<b>Egallagan maydoni</b>	Umumiy hududi 1 ga
<b>Hududdagi qo‘shimcha obyekt</b>	Ziyoratchilar uchun dam olish joylari
<b>Sifatli xizmat ko‘rsatishga yaroqliligi</b>	Yaroqsiz
<b>Infratuzilmasi</b>	Intfratuzilma rivojlanmagan
<b>Aholi uchun ahamiyati</b>	Mahalliy aholi uchun ziyoratgoh va oromgoh hisoblanadi
<b>Hozirgi holati</b>	Zamonaviy holatda emas
<b>Obyektning shakli va ko‘rinishi</b>	Ziyoratgoh joy va dam olish uchun joylar sharoitlar qisman yaratilgan
<b>Ro‘yhatga kiritilganligi</b>	Davlat muhofazasiga olinmagan va ro‘yhatga kiritilmagan

G‘oyib Bobo ziyoratgohi Beshariq tumani “Qorajiyda” MFY Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i hududida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh madaniy me‘ros obyekti sifatida davlat muhofazasiga olinmagan. Lekin bu joyga ko‘plab ziyoratchilar tashrif buyuradi. Ziyoratchilarni qabul qilish, ularga xizmat ko‘rsatish uchun mahalliy aholi tomonidan ovqat tayyorlash uchun oshxona va ovqatlanadigan joy barpo qilingan.

### Ko'ktul Buva ziyoratgohi

“Ko'ktul buva” ziyoratgohi to'g'risida ma'lumot	
<b>Obyekt nomi</b>	“Ko'ktul buva” ziyoratgohi
<b>Obyekt joylashgan manzil</b>	Farg'ona viloyati Beshariq tumani “Gambey” QFY
<b>Qurilgan vaqti</b>	XIX asrlarda
<b>Kim tomonidan qurilgan</b>	No'malum
<b>Ta'mirlangan vaqti</b>	-
<b>Qayta ta'mirlangan</b>	2014-2015 yillarda qisman qayta ta'mirlangan
<b>Egallagan maydoni</b>	Umumiy hududi 3 ga
<b>Hududdagi qo'shimcha obyekt</b>	Ziyoratchilar uchun dam olish joylari
<b>Sifatli xizmat ko'rsatishga yaroqliligi</b>	Yaroqsiz
<b>Infratuzilmasi</b>	Intfratuzilma rivojlanmagan
<b>Aholi uchun ahamiyati</b>	Mahalliy aholi uchun ziyoratgoh hisoblanadi
<b>Hozirgi holati</b>	Zamonaviy holatda emas
<b>Obyektning shakli va ko'rinishi</b>	Ziyoratgoh joy va dam olish uchun joylar sharoitlar qisman yaratilgan
<b>Ro'yhatga kiritilganligi</b>	Davlat muhofazasiga olinmagan va ro'yhatga kiritilmagan

Ushbu ziyoratgoh madaniy me'ros obyekti sifatida davlat muhofazasiga olinmagan. Lekin bu joyga ko'plab ziyoratchilar tashrif buyuradi. Ziyoratchilar davolanish maqsadida ham tashrif buyuradi. Mahalliy aholining ma'lumotiga ko'ra bu yerga keladiganlar yo'talga qarshi shifo topadi. Ziyoratchilarni qabul qilish, ularga xizmat ko'rsatish uchun mahalliy aholi tomonidan ovqat tayyorlash uchun oshxona va ovqatlanadigan joy barpo qilingan.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikning bugungi muammolari haqida so'z borganda, bu sohaning tarixiga nazar tashlash joizdir. Azaldan Sharq milliy hunarmandchiligi va amaliy san'atning barcha turlari (zargarlik, zardo'zlik,

misgarlik, temirchilik, chilangarlik, duradgorlik, toshlaroshlik, o'ymakorlik, ganchga, toshga, yog'ochga naqsh berish, musavvirlik, quruvchilik, kulolchilik, aravsozlik, tandirchilik, beshiksozlik, taqachi va egarchilik, mahsido'zlik, bo'zchilik va dastgohchilik, chorvachilik va kashtachilik do'ppi, to'n chorsi, hoshiya, jiyak tikuvchilik, sovunchilik, qandolatchilik, novvoychilik, teriga ishlov berish, tegirmonchilik, juvozkashlik kabi) rivojlangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning o'troq tumanlarida 108 mingdan ortiq hunarmandchilik korxonlariyu, do'konlari bo'lib, ular yiliga 60 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarishgan. Bular qatoriga yakka yoki oilaviy tartibda mehnat qiluvchilar va amaliy san'at vakillarini qo'shadigan bo'lsak, Turkiston aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va amaliy san'at bilan Shg'ullanganligining guvohi bo'lamiz. Har bir xalqning milliy madaniyati turdosh yoki o'zaro ta'sir yordamida rivojlansa, ikkalasining ham uyg'unlashgan holda ravnaq topishi muqarrardir. O'rta Osiyo mahalliy xalqlari, ya'ni o'zbek, turkman, qozoq, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarining madaniyati bunga yaqqol misoldir.

Ammo, XIX asr oxirlaridan boshlab ahvol batamom o'zgardi. Ya'ni Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning egallab olinishi natijasida, bu yerda yirik korxonalar tashkil topa boshladi. Bu jahon taraqqiyotida obyektiv holat bo'lib, u endilikda Turkistonni chetlab o'tishi mumkin emas edi. Xilma-xil shirkatlar, artellar, manufaktura, fabrika va zavodlarning oyoqqa tura boshlashi va ular tomonidan ko'plab miqdorda iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishi – qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning inqirozga uchrashiga olib keldi. Chunki qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning fabrika yoki zavod bilan raqobatlasha olmasligi muqarrar edi.

Bunday nohaqliklar hunarmandlar mehnatini qadrsizlantirdi. Endilikda bunday qatag'onlik munosabatlariga chiday olmagan hunarmandlar artel, fabrika va zavodlarga ishga o'tib ishlashga majbur bo'ldilar. Bu milliy xalq hunarmandchiligiga, uning amaliy san'atiga nisbatan ham siyosiy ham iqtisodiy shapko'rlik edi. Chunki, dunyoga dovrig'i ketgan, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atida durdonalar yaratgan, xalqni iste'mol buyumlari bilan ta'minlagan, ish bergan usta-yu, shogirdlar,

hunarmandchilik va amaliy san'at maktablarining nomi ana Shunday qabihlik va shapko'rlik evaziga tobora o'sa boshladi. Oqibat-natijada, jahonga mashhur Turkiston gilamlari-yu, naqshinkor zargarlik buyumlari-yu, tarixiy yodgorliklari, chinni idishlari-yu, shohi so'zanalarini, muzey yoki shaxsiy to'plam (kolleksiya)larda uchratish mumkin, xolos.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasining 1993- yilgi buyrug'iga asosan, Chust badiiy buyumlar fabrikasi "Chevar" hissadorlik jamiyatiga aylantirildi. Mazkur jamiyatda 1390 nafar ishchi xizmatchi mehnat qilishadi. Ular 1993- yilda 2,5 mln. so'mlik xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishdi.

#### **17.4. Farg'ona mintaqasida milliy hunarmandchilikni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyati**

O'zbekiston qadimdan hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan. Allomalarning yozishicha, bu yerda 4,0 ming yil ilgari hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Unda, albatta, hozirgi vaqtda mavjud faoliyat turlari, asboblari yo'q edi. Shning uchun ham hunarmandchilik mahsulotlari oddiy, sodda kundalik turmushda foydalaniladigan asbob-uskunalaridan iborat bo'lgan edi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda hunarmandchilikni tiklash, uni aholi bandligi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi rolini kuchaytirish borasida izchillik bilan ish olib borilmoqda. Bu yo'nalishda mamlakat ma'lum bir yutuqlarga ega bo'ldi.

O'zbekistonda hunarmandchilik bilan band bo'lgan aholi soni 2008- yilda 12013 kishini tashkil etdi. Bu 2005- yilgi ko'rsatkich (10076 kishi)dan 19,2% foizga ortiq hisoblanadi. Shunga qaramasdan hunarmandchilikda band bo'lganlarning soni jami bandlarning 0,1 %ni tashkil etadi, xolos.

Hunarmandlarning soni va ulushiga binoan Respublikada Toshkent va Shahrixon shaharlari ancha yuqori ko'rsatkichlariga ega. Iqtisodiy mintaqalar ichida Farg'ona mintaqasi keskin ajralib turadi. Viloyatlar qatorida esa Andijon va Farg'ona viloyatlari mamlakatda peshqadamlik qilib kelmoqda.

Uning hissasiga hunarmandchilikda band bo'lganlardan 4516 kishi yoki 37,6 %i to'g'ri keladi. Mintaqa hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hissasi esa 66,3 %ni yoki 24,2 mld so'mni tashkil etadi.

Farg'ona mintaqasi O'zbekistonda hunarmandchilikning quyidagi faoliyati turlar bo'yicha yetakchilik qiladi. Zardo'zlik, kashtachilik, popochilik, chokli buyumchilik mintaqahissasi (90,2 %), kosibchilik (80,9 %) pichoqchilik, kandakorlik, temirchilik, tunikasozlik (74,9 %), uy-ro'zg'or buyumlari yasash (72,3 %), gilam, polos, namat to'qish, atlas to'qish, chopondo'zlik, do'ppido'zlik, gazlamaga gul bosish (71,0 %), yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik (69,3 %), charmdo'zlik, egar-jabdug' anjomlari yasash (63,5 %), hajmi qoliplarda quyuvchi ustalarning ishlab chiqargan mahsuloti qiymati (51,4 %) bo'yicha mintaqaning hissasi miniatyurachi rassomchilik, naqqoshlik va ganch o'ymakorligi, zargarlik bo'yicha 32-37 %ni tashkil etadi. Uning hissasi faqat kulolchilik, tadirchilik, chinnisozlik hamda qo'g'irchoqsozlikda birmuncha past xolos.

Ko'pchilik ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy ikkinchi o'rinni Toshkent mintaqasi egallaydi. Mazkur mintaqahissasi O'zbekiston miqyosida kulolchilik, tadirchilik, chinnisozlik, minatyurachi rassomlik, zargarlik mahsulotlari qiymati bo'yicha hissalariga betakror hisoblanadi. Mintaqa undan tashqari naqqoshlik va ganch o'ymakorligi, charmdo'zlik, egar-jabdug' anjomlari yasash, kosibchilik, hajmi qoliplarda quyulgan mahsulotlar hamda yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik mahsulotlarining hajmlari bo'yicha ulushlari 10,3 dan 13,7 foizga o'zgarmoqda.

Zarafshon mintaqasi Farg'ona va Toshkent mintaqalariga nisbatan umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha ancha orqada tursa ham u ba'zi-bir sohalardagi mavqelariga binoan yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, naqqoshlik va ganch o'ymakorligi hamda qo'g'irchoqsozlik mahsulotlarining hajmiga binoan u mamlakatda birinchi o'rinlarni egallaydi. Mintaqa hajmi qoliplarda gilam, polos,

namat, atlas, chopon, do'ppi mahsulotlari hamda gazlamaga gul bosish hajmiga ko'ra uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish O'zbekistonda Farg'ona mintaqasidan keyin ikkinchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Shu bilan birga mintaqada hunarmandchilikning qator soha va tarmoqlarini bo'sh rivojlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi chunki uy-ro'zg'or buyumlari hamda charmdo'zlik, egar-jabdug' anjomlari yasash, zargarlik, pichoqchilik, kondakorlik, temirchilik, tunikasozlik kabi hunarmandchilik sohalari bo'sh rivojlangan. Umuman olganda, Zarafshon mintaqasi hunarmandchilik sohasining rivojlanganlik darajasiga binoan O'zbekistonda barqaror uchinchi o'rinni egallaydi. Lekin ikkinchi o'rinni egallab turgan Toshkent mintaqasidan 7 punktga orqada qolgan bo'lsa, to'rtinchi o'rindagi Quyi Amudaryo mintaqasidan uning ustunligi 9,3 punktga ega.

Mirzacho'l va Janubiy mintaqalarni hunarmandchilik bo'yicha mamlakatdagi mavqelari ancha past, mos holda 0,9 va 0,6 % bilan belgilanadi. Lekin shunga qaramasdan ikkala mintaqada ham nisbatan yaxshi rivojlangan hunarmandchilik sohalari mavjud. Shundaylar qatoriga Mirzacho'l va Janubiy mintaqalarda pichoqchilik, kandakorlik, temirchilik, tunikasozlik, yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik kabi sohalarni tashkil etmoqda.

Hunarmandchilikning hududiy tarkibini o'rganganda uni tashkil bo'lishida ustun ahamiyat kasb etuvchi omillarni ko'rsatish zarur. Shular qatoriga joyning ijtimoiy-geografik o'rni, uni jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, xalq mentaliteti va boshqa shu kabilar kiradi.

O'zbekiston hududi qadimgi Movaraunahr sivilizatsiyasining markazida va Ipak yo'li chorrahasida joylashgan. Mana shu holat O'zbekistonda hunarmandchilikning rivojlanishi darajasini, uning tarmoqlari tarkibini belgilab beradi.

Farg'ona mintaqasi milliy hunarmandchilikda o'ziga xos mintaqahisoblanadi. Milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda Andijon va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qilishiga qaramay Namangan viloyati milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish turiga ko'ra mintaqada yetakchi maqomga ega.

Chust o'zining pichoqchiligi, kulolchilik va yog'och o'ymakorligi bo'yicha viloyatda alohida maqomga ega bo'lsa, Namangan shahrining o'zida xalq cholg'u asboblari, so'zana to'qish, kulolchilik, do'ppi tikish, shoyi va atlas to'qish, Shningdek, yog'och o'ymakorligi va yog'och buyumlari yasash bo'yicha mintaqada o'ziga xos o'rin tutadi.

Mintaqaning Andijon viloyati Andijon shahrida do'ppi tikish, kulolchilik, gilam to'qish, so'zana to'qish va metal buyumlar yasashda; Shahrixonada pichoqchilik, teriga badiiy ishlov berish, shoyi va atlas to'qish, do'ppi tikish kabi hunarmandchilik mashg'ulotlari ommaviylashgan.

Farg'ona viloyatida hunarmandchilik eng rivojlangan shahar bu Marg'ilon bo'lib, unda mischilangarlik, kulolchilik, gilam to'qish, do'ppi tikish, shoyi va atlas to'qish, so'zana to'qish va Farg'ona shahrida qisman pichoqchilik kabi hunarmandchilik ishlab chiqarishi shakllangan.

Bunda mamlakatda mavjud hududlarning ijtimoiy-geografik o'rni, ya'ni ularni yashash va turmush kechirish uchun qulay bo'lgan voha va vodiylarda joylashganligi, Shu bilan birga cho'l-yaylov, tog' oldi va tog' hududlarida ham yangi aholi manzillarining vujudga kelganligi kabi xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda xohlagan hunarmandchilik markazini olib qaraganda, uni "Ipak yo'liga", sivilizatsiyaga aloqador ekanligini bilish mumkin. Lekin ana shunday mintaqalarning ichida ham o'ziga xos "lider" shaharlarning mavjudligi e'tiborga molik bir holatdir. Chunki, Farg'ona vodiysida bunday "Lider"lar qatorida Andijon, Farg'ona yoki Namangan shaharlari emas, balki boshqa Shahrixon, Asaka shaharlarining yetakchilik qilishi qandaydir bir kutilmagan holatdek tuyuladi. Lekin, aslida vodiy ushbu markazlarning ijtimoiy-geografik o'rni, demografik salohiyati, band aholining tarkibi kabi omillar bilan asoslanishi mumkin.

O'zbekistonda yuqorida aytib o'tilgandek, hunarmandchilik keng amaldagi barcha tarmoqlari mavjud. Lekin ularning rivojlanganlik holati va darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. Bunda "Talab-taklif" kategoriyalari bilan birga mintaqada bo'lib o'tgan chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar muhim rol o'ynab kelmoqda.

## 18-bob. JIZZAX-SIRDARYO TURISTIK MINTAQASI

### 18.1. Jizzax turistik mintaqasining resurslari va ularni belgilari.

Jizzax viloyati– O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning markaziy qismida. 1973- yil 28- dekabrda tashkil etilgan. Shim.-sharqda Qozog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubi-g‘arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubisharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydon 21,1 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 991 ming kishi (2001). Jizzax viloyatida 12 qishloq tumani (Arnasoy, Baxmal, Do‘stlik, Jizzax, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor, Yangiobod, Forish, G‘allaorol), 7 shahar (Gagarin, Dashtobod, Do‘stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, G‘allaorol), 8 shaharcha (Bo‘ston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, O‘smat, Uchquloq, Yangiqishloq, Qo‘ytosh), 95 qishloq fuqarolari yig‘ini bor (2001). Markazi — Jizzax shahri.

Relyefi tog‘lik, qir va tekisliklardan iborat. Janubiy qismini Turkiston tizmasining tarmoqlari (Molguzar tizmasi), g‘arbini Nurota tizmasining sharqiy qismi egallagan. Shim., shimoli-g‘arbi va sharqiy qismi (Mirzacho‘l va Qizilqum cho‘lining janubi-sharqi) tekislikdan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi –G dan —4 gacha, iyulniki 28°. Tog‘ oldilarida iqlim cho‘l va dashtlarga nisbatan yumshoq. Yillik yog‘in viloyat janubida 400–500 mm, shimolida 250–300 mm. Vegetatsiya davri 210 – 240 kun. Yillik quyoshli kunlar 2800 – 3000 soat. Eng yirik daryolari — Sangzor, Zominsuv. Tog‘lardan oqib tushuvchi soy ko‘p. Ekinlarni sug‘orish uchun Tuyatortar kanali, 1- va 2-Janubiy Mirzacho‘l kanallari, Jizzax, Zomin, Qorovultepa suv omborlari qurilgan. 2001 yilda Arnasoy suv ombori qurila boshlandi. Arnasoy, Aydarko‘l va Tuzkon ko‘llaridan baliqchilikda foydalaniladi. Tog‘ yon bag‘irlarida yovvoyi jiyda, archa, bodom, yong‘oq, na‘matak, zira, rovoch, zirk kabilar o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan oq timoqli ayiq, chiyabo‘ri, tulki, quyon, qobon, bo‘rsiq, jayra uchraydi; burgut, lochin, qora turna, bulduruq, tuvaloq, tustovuq, qirg‘ovul, yovvoyi o‘rdak, kaklik kabi qushlarning 150 dan ortiq turi mavjud. Viloyatda Zomin milliy bog‘i, Zomin va Nurota davlat quriqxonalari tashkil qilingan.

Ota-bobolarining an‘analarini davom ettirayotgan Marg‘ilon shahar kosib hunarmandlari milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san‘atini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. “Hunarmand” uyushmasi va “Yodgorlik” firmasida ko‘plab mohir ustalar mehnat qilmoqdalar. “Ustoz-shogird” maktablarida mehr bilan kasb-kor o‘rgatilmogda, Marg‘ilon atlaslari, adraslari, ipak gilamlari, zargarlik va misgarlik buyumlari jahon ko‘rgazmalarida namoyish etilmogda. Marg‘ilon shahrida har yili hunarmandlar va tovar ishlab chiqaruvchilarning an‘anaviy ko‘rik tanlovlari o‘tkazilmogda. Hozirgi davrda ham Marg‘ilonning usta hunarmandlari ajdodlar an‘anasini davom ettirib, sifatli, nafis shoyi gazlamalar va atlaslari bilan jahon bozoriga chiqmoqdalar. Ulardan mohir atlaschi Turg‘unboy Mirzahmedov, chitgar Solijon Ahmadaliev, zargar Abduhamid Abdujabborovlar BMTning “Xalqaro usta” unvoniga sazovor bo‘ldilar.

Muqaddas ziyoratgohlar har bir xalqning tarixi va urf-odatlari, diniy qarashlari hamda milliy ruhiyatini, azaliy orzu armonlarini o‘zida mujassam etadi. Binobarin, mamlakatda yuz bergan urushlar, qonli to‘qnashuvlar, tabiiy ofatlar, ijtimoiy-iqtisodiy to‘qnashuvlar yoxud shaxsiy oilaviy muosabatlarni boshidan kechirayotgan davrlarda, insonlar uchun muqaddas ziyoratgohlar boshpana vazifasini ham bajarib kelgan.


Muqaddas joylarni ziyorat qilish va shu asnoda diniy peshvolar va xalqning ishonchini qozonish har davrda ham hukmron sulolalar tashqi va ichki siyosatining muhim belgilaridan biri bo‘lib kelgan. Asrlar o‘tgan sari mazozlar haqida tushunchalar kishilar ongida muqaddas joy sifatida shakllanib, tabiat yodgorliklari, ko‘hna manzilgohlar, arxeologik va madaniy me‘moriy obidalar muqaddas ziyoratgohlar sifatida e‘zozlanib kelingan.

**Tayanch iboralar.** Farg‘ona, Mintaqa, Chust, do‘ppi, pichoq, hunarmandchilik, kasanachilik.

#### Savol va topshiriqlar

1. Farg‘ona mintaqasining milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishdagi o‘rni?
2. Farg‘ona mintaqasida milliy hunarmandchilikni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi o‘rni va ahamiyati.
3. Qaysi viloyatimiz ekologik resurslarga boy?

Viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2,5 mlrd. soʻmdan ziyod kredit mablagʻlari ajratildi. Faoliyat koʻrsatayotgan 9400 ga yaqin xoʻjalik subʻyektlarining qariyb 8300 tasi nodavlat xoʻjaliklaridir.



18.1- rasm. Hududiy boʻlinishi.

	Tuman nomi	Tuman markazi
1	Arnasoy tumani	Gʻoliblar
2	Baxmal tumani	Oʻsmat
3	Doʻstlik tumani	Doʻstlik (shahar)
4	Forish tumani	Yangiqishloq
5	Gʻallaorol tumani	Gʻallaorol
6	Sharof Rashidov tumani	Uchtepa (qishloq)
7	Mirzachoʻl tumani	Gagarin
8	Paxtakor tumani	Paxtakor (shahar)
9	Yangiobod tumani	Balandchaqir

	Tuman nomi	Tuman markazi
10	Zomin tumani	Zomin
11	Zafarobod tumani	Zafarobod
12	Zarbdor tumani	Zarbdor

Umuman olganda, mintaqalarni turistik resurslarini baholash orqali, bu mintaqalarda turizm industriyasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini belgilash mumkin. Shunday ekan, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi.

### 18.2. Turizmi rivoji, rivojlanish uchun turizm

Oʻzbekistonning Jizzax viloyati Zomin tumanida ekoturizmni rivojlantirish uchun juda ulkan salohiyat mavjud. Bu mazkur yangi dam olish zonasiga kelishga qaror qilgan Oʻzbekistonlik va xorijiy sayyohlarning qiziqishini orttiradi. Bundan tashqari, sayyohlarning bu yerda dam olishi Oʻrozboy Esirgapov va uning oilasi kabi mahalliy aholiga manfaat keltirishini taʼminlash boʻyicha barcha choralar amalga oshirilmoqda.

Zomin tumanining tanilishi tufayli turizmning yangi turi — ekoturizm shakllandi va rivojlanmoqda, mahalliy aholining farovonligi oshmoqda.

Tumanning sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida 2010- yildan boshlab BMTDning “Mahalliy boshqaruv tizimini qoʻllab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik” loyihasi mahalliy hukumat organlari va fuqarolar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Bunda madaniy-tarixiy koloritning barqarorligini taʼminlash masalasiga alohida eʼtibor qaralib, shu yoʻl bilan mahalliy aholining amalga oshirilayotgan tashabbusning asosiy benefitsiari boʻlishiga koʻmaklashilmoqda.



Tumanda turizm sohasida bir qator tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi va modernizatsiya qilindi, bunga 12 ta mehmonlar uchun mo'ljallangan uy, 2 ta sayyohlik bazasi va bitta mehmonxona, tabiiy va arxeologik hududlar ichida axborot markazlari va dam olish hududida 350 metrlik chan'i trassasi kiradi. Mazkur obyektlarning barchasi mahalliy aholi tomonidan boshqariladi, bu ularni bandlik va daromad bilan ta'minlaydi.

10 ta axborot lavhasi va 20 ta yo'l belgilari o'rnatildi. 80 nafar mahalliy mutaxassis turizm sohasiga o'qitildi, Zomin tumani esa O'zbekistonda o'zining brendi, veb-sayti (www.zaamin.uz) va «Facebook»da sahifasiga ega bo'lgan birinchi tuman bo'ldi. Zomin brendi xalqaro turistik yarmarkalarda tumanga va butun O'zbekistonga tadbirkorlarni jalb etuvchi mahalliy mahsulotning zaruriy o'ziga xos belgisiga aylandi.

Loyiha tomonidan Zomin tumaniga tashkillashtirilgan safar ishtirokchilaridan biri, «Travel Ornament» sayyohlik agentligi vakili Rustam Rasulov sayyohlik industriyasining rivojidan sayyohlar ham, mahalliy aholi ham birdek manfaatdor bo'lganini ta'kidladi.

O'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan. O'rta asrlarga oid ko'pgina qal'aqo'rg'on va karvonsaroylar tepa va qo'rg'on (Ko'ltepa, Oqtepa, Rabot, Qo'rg'ontepa, Xonimqo'rg'on, Kaliyatepa) kabi nomlar bilan ataladi. Bularning soni 100 dan ortiq. Jizzax va G'allaorol tumanlari hududidagi Takalisoydagi qoyatoshlarda ibtidoiy chorvachilik, ovchilik davriga oid mingdan ortiq rasm, Baxmal, G'allaorol, Jizzax tumanlarida juda ko'p yer osti yo'llari saqlangan. 1956- yilda Baxmal tumani hududidan Budda ibodatxonasi qoldig'i topilgan. Parpiota, Malik Girkushoq, Avliyoi Serob, Nuriddin masjidlarining qoldiqlari saqlangan. Forish tumanida qad. "Band" to'g'oni qoldig'i hozir ham mavjud. Jizzax tumanida Uzunota qabri bor. Bu yerda sohibqiron Amir Temur 1404 y.dekabrnig so'nggi kunida bir kecha tunagan. Jizzax ruslar tomonidan bosib olingandan so'ng rus harbiy ish boshchilari nazoratida mahalliy aholi kuchi bilan barpo etilgan bir qancha imoratlar (uyezd hokimi binosi, rus askarlari qarorgohi, qamoqxona, cherkov) saqlanib qolgan.

Viloyat 1973-yil 29-dekabrida tashkil topgan.

Respublikaning markaziy qismida joylashgan. Shimolda Qozog'iston, janubda Tojikiston, g'arbda Samarqand va sharqda Sirdaryo viloyatlari bilan chegaralanadi. Maydoni 20,5 ming kvadrat kilometrga teng bo'lib, respublika maydonining 4,5 foiziga teng. Tabiiy-geografik jihatdan viloyatning janub tomonlarida Turkiston tog' tizmasining g'arbiy tarmoqlari (Molguzar tizmasi), g'arbiy qismida Nurota tog' tizmasi tarmog'i mavjud. Viloyat aholisi 1166,7 ming(2011)dan ortiq bo'lib, uning taxminan uchdan ikki qismi qishloq aholisi hisoblanadi.

Jizzax viloyati hududida aholining o'rtacha zichligi 57 kishi. Viloyat tarkibiga 12 tuman kiradi: Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, G'allaorol, Jizzax,Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l,Paxtakor,Forish va Yangiobod. Viloyatda 7 shahar mavjud, markaziJizzax shahri.

Viloyatda 2 ta oliy o'quv yurti, 31 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari bor.

Jizzax shahrining Qipchoq maxallasida Juda katta zavod bulib Oxak ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va bu zavod Toshkent Sirdaryo Samarqandni taminlab beradi.Yana bir malumot Qipchoq maxallasida Butun O'zbekistonga malum bulgan uzining Somsasi bilan ham mashg'ul Va Qipchoq maxallasida Shodmanov Yo'ldash ota Qabristoni ham mavjud.

**Tayanch iboralar.** Zomin, Forij, milliy park, qoriqxon, tog' ekskursiyalari.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. Nima deb o'ylaysiz, Jizzax turistik resurslarini qanday asosiy belgilariga ko'ra ajratish mumkin?
2. V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi quyidagi asosiy belgilarni ajratishgan
3. O'ylang, Ulug'bek abservatoriyasi, Xo'ja Doniyor payg'ambar ziyoratgohi, Ishratxona, Qadimiy Siyob arig'i, Afrosiyob arxeologik muzeyi va xarobalari, Xazrati Xizir masjidi, Shohi – Zinda majmuasi qayerda joylashgan?
4. Qo'chqorli ota ziyoratgohi, Qo'tirbuloq dam olish maskani, shifobaxsh bulog'i va avliyo baliqlari, Qo'shtepa qayerda joylashgan?

## 19-bob. O‘ZBEKISTONNING JANUBIY TURISTIK MINTAQASI

### 19.1. Qashqadaryo viloyati tarixi va tabiiy-geografik o‘rni

Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat hisoblanib, 1924- yil 1- noyabrda tashkil etilgan. 1927- yil 17- fevraldan 1938- yil 15- yanvargacha Qashqadaryo okrugi maqomida bo‘lgan, 1938- yil 15- yanvarda Buxoro viloyatiga qo‘shib yuborildi. 1943- yil 20- yanvarda qayta tashkil etildi. 1960- yil 25- yanvarda Surxondaryo viloyatiga qo‘shildi. 1964- yil 7- fevraldan yangidan tashkil etildi. Respublikaning janubiy-g‘arbida, Qashqadaryo havzasida, Pomir-oloy tog‘ tizimining g‘arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog‘lari orasida. Shimoli-G‘arbdan Buxoro, janubi-Sharqdan Surxondaryo, janubi-g‘arb va g‘arbdan Turkmaniston, sharqdan Tojikiston va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh. Maydoni 28,6 ming km<sup>2</sup>.

2017- yilning 1- aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3100,2 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 11358 kishiga yoki 1,3 foizga ko‘paydi.

Tarkibida 13 qishloq tumani Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, Qarshi, G‘uzor), 12 shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tolimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Yangi Nishon, Qamashi, Qarshi, G‘uzor), 4 shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Eski Yakkabog‘, Qashqadaryo), 147 qishloq fuqarolari yig‘ini, 1064 qishloq bor. Markazi – Qarshi shahri.

Viloyat hududi, asosan, Qashqadaryo botig‘ini o‘z ichiga olgan; shimoli- sharq va janubi-sharqdan Zarafshon hamda Hisor tizma tog‘lari bilan o‘ralgan. Tog‘lar bilan tekisliklar orasini adirlar egallagan. Tekislikning katta qismi g‘arbda Sandiqli va Qizilqum cho‘llari bilan tutashgan Qarshi cho‘lidan iborat. Iqlimi kontinental. qishi nisbatan yumshoq. Yozi uzoq (155—160 kun), issiq, quruq. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi 0,2 dan 1,9 gacha, iyulniki 28—29,5. Eng yuqori temperatura 45. Eng past temperatura — 20. Yiliga tekisliklarda 290–300mm, adirlarda 520–550mm, tog‘larda 550–650mm yog‘in tushadi. Yog‘in, asosan, bahor va qishda yog‘adi, yozda garmsel esadi. Tog‘larda turg‘un qor qoplami hosil bo‘ladi (2—6 oy).

Vegetatsiya davri tekisliklarda 290—300 kungacha. Asosiy daryosi — Qashqadaryo. Uning irmoqlari — Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog‘daryo, Tanxozdaryo, G‘uzordaryo (Katta va Kichik O‘radaryo bilan birga). Daryolar qor, yomg‘ir va muzliklar suvidan to‘yinadi. Daryo suvidan, asosan, sug‘orishda foydalaniladi. Chimqo‘rg‘on, Qamashi, Paxtkamar suv omborlari; Fayziobod, 8 Mart, Eskibog‘, Eski Anhor, Koson, Paxtaobod, Qarshi va boshqalar kanallar bor. Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda 6 nasos stansiya, ochiq va yopiq kollektor drenaj tarmoqlari qurilgan. Sug‘oriladigan yerlarning tuprog‘i, asosan, tipik va och bo‘z tuproqlar. Kitob — Shahrisabz soyligida ko‘proq qumoq tuproqlar mavjud. Tog‘larda balandlik mintaqalari bo‘ylab tipik bo‘z tuproqlar tarqalgan. Tabiiy florasida 1200 ga yaqin yuksak o‘simlik turidan iborat. Viloyatda 76,6 ming ga o‘rmon mavjud. O‘rmonlarning asosiy qismini archa va saksovlzorlar tashkil etadi. Tog‘ yon bag‘irlari har xil o‘t o‘simliklari bilan qoplangan, Shningdek, butazorlar ham bor. Tog‘ o‘rmonlari archa, bodom, pista, jiydazorlardan iborat. Tog‘larda na‘matak, zirk, chakanda, anzur piyozi, qora zira va boshqalar o‘sadi.

Keng ko‘lamli islohotlar samarasida mamlakatimizning barcha hududlari qatori Qashqadaryo viloyati ham izchil taraqqiy etmoqda. Qashqadaryo mamlakatimizni eng yetakchi viloyatlaridan sanaladi. Yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 38 foizni tashkil etayotgani ham shundan dalolat beradi.

19.1-jadval

#### Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha YaIM tuzilmasi (2010-2017 yy)

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017*
Yalpi hududiy mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:								
YaIMda sanoatning ulushi (qurilish sohasi bilan birga)	55,5	50,2	49,8	46,2	43,6	44,9	45,2	49,5
YaIMda xizmatlar sohasini ulushi	26,1	30,2	30,5	32,5	34,4	34,4	36,3	41,6
YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi	55,0	56,2	51,4	51,4	51,5	51,6	51,7	45,0

2017- yilning 1- yanvar holatiga aholi soni 3089,4 ming kishi, Shundan shahar aholisi 1326,6 ming kishini, qishloq aholisi 1762,8 ming kishi tashkil etmoqda. Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 28,6 ming kv.km. bo‘lib,

Shndan jami haydaladigan yerlar 679144 gektarni tashkil etadi, Shndan sug'oriladigan yerlar 420523 gektarni, lalmikor yerlar 258621 gektarni tashkil etadi. Viloyat miqiyosida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot hajmi bo'yicha tahliliy o'rganishlarimiz natijasida Shnga amin bo'ldikki, 2017- yil yarim yillik holat bo'yicha yalpi mahsulot hajmi 2008511,6 mln.so'mni tashkil etgani holda, 2016- yilga nisbatan 106,1 foiz hisobida o'sishga erishilgan.

Joriy yilning 9 oyida Qashqadaryo viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 10 trillion 630 milliard so'mdan ziyodni, o'sish sur'ati 6,5 foizni tashkil etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 62,3 foizga etdi.

Mamlakatimizga jalb etilayotgan investitsiyalarning 11,2 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelayotir. Bu yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etilishi, ish o'rinlari ko'payib, aholining turmush farovonligi hamda daromadining yanada oshishiga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z saylovoldi dasturida mamlakatimizda rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilishda ochiqlik va oshkorlikni ta'minlash, bu borada fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va aholi bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini keng qo'llash, 2030- yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko'paytirish, iqtisodiyotimiz tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish, iqtisodiyotimizning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiyaviy faollikni kuchaytirishga 37 doir strategik maqsadlar o'z ifodasini topgan.

<sup>37</sup> Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б

Qashqadaryo viloyatidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi borasidagi ma'lumotlarni ko'radigan bo'lsak, yangidan tashkil etilgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni 2005- yilda 1326 tani tashkil etgan bo'lsa(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari), 2017- yil yanvar holatiga ko'ra 1743 tani tashkil etgan.

19.2-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YaIM tuzilmasi (o'tgan yilga nisbatan %da) (2010-2017 yy)

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017*
YaIM	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:								
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	92,8	90,4	91,8	91,7	91,1	90,8	93,5	91,8
Mahsulotlarga soliq soliqlar	7,2	9,6	8,2	8,3	8,9	9,2	6,5	8,2
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq xo'jaligi	18,4	19,6	19,7	21,3	22,0	20,7	18,5	8,9
Sanoat (qurilish sohasi bilan birga)	55,5	50,2	49,8	46,2	43,6	44,9	45,2	49,5
Xizmatlar	26,1	30,2	30,5	32,5	34,4	34,4	36,3	41,6
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	55,0	56,2	51,4	51,4	51,5	51,6	51,7	45,0

O'tgan 2013-2017 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiyotini modernizatsiyalash bo'yicha davlat dasturi loyihalari va ularda investitsiyalarni o'zlashtirilishi holatini tahliliy ko'radigan bo'lsak, viloyatning tumanlar kesimida 2013- yilda 431,7 mln.dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2017- yil yarim yillik holatda bu ko'rsatkich 622,8 mln.dollarni tashkil etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo'yicha davlat dasturi loyihalari va ularda investitsiyalarni o'zlashtirilishi bo'yicha eng yirik o'zlashtirilgan investitsiyalar asosan viloyatning Nishon va Qarshi tumanlari hisoblanadi.

## 19.2. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari

Qashqadaryo viloyatida sayyohlarni jalb qilish uchun 1311 ta madaniy-meros obyektlari bo'lib, Shndan 200 ta arxitektura yodgorliklari, 1041 ta arxeologiya yodgorliklari, 43 ta haykallar, 27 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi.

Sayyohlarni qabul qilish uchun hozirgi kunda 32 ta mehmonxona faoliyat olib borib, Shndan: Qarshi shahrida 21 ta, Shahrisabz shahrida 2 ta, Koson tumanida 2 ta, Muborak tumanida 2 ta, Dehqonobod tumanida 2 ta, Kitob tumanida 2 ta va Mirishkor tumanida 1 ta mehmonxona joylashgan. Bundan tashqari hozirgi kunda viloyatda 10 ta sayyohlik firmalari faoliyatda bo'lib, turistik mavsumni ajoyib tarzda o'tkazishmoqda.

Ko'pchilikka ma'lumki, ushbu mavsum boshlanishidan oldin 2017- yil 13-14 aprel kunlari Toshkent shahridagi "Uzexpocentre"da "Dam olish dunyosi" nomli ko'rgazma va "Ipak yo'li lazzati" nomli taomlar festivali bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri vakillari hamda xorijiy va mahalliy turfirmalar va mehmonxona vakillari ishtirok etdilar.

Ishtirokchilar orasida Qashqadaryo viloyati vakillari ham bo'lib, viloyatimizga eng katta 100 m<sup>2</sup> hudud ajratilgandi. Qashqadaryo viloyati bu yerda o'zining turizm salohiyatini to'liq namoyon eta oldi. Ishtirokchilarimiz tomonidan davlatimiz rahbari tashriflari davomida belgilab bergan vazifalardan biri – SHahrisabz brendiga alohida urg'u berilib, katta ekranda "Qashqadaryo" to'g'risida keng qirrali videorolik namoyish qilindi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyat teatr aktyorlari tomonidan namoyish etilgan "Amir Temur" sahnaviy ko'rinishi ko'rgazma ishtirokchilarini hayratda qoldirdi.

Qarshi shahri "Momogul" ansambli chet ellik sayyohlar uchun o'zlarining ajoyib milliy va an'anaviy ashulalari bilan ishtirokchilarni o'ziga jalb qila oldi. Turizm sohasida viloyat tadbirkorlari xorijiy va mahalliy turfirmalar bilan 200 dan ortiq shartnomalar imzoladilar. Shu jumladan, birgina "Kitob-sayyoh" turfirmasi misolida oladigan bo'lsak, chet ellik turfirmalar bilan 20 dan ortiq shartnoma imzolashga muvaffaq bo'ldi.

Viloyatimiz stendini ko'rish uchun 13 aprel kuni minglab tomoshabinlar tashrif buyurdi. Sh kuni O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Qozog'iston Madaniyat va sport vazirligi o'rtasida turizm sohasida memorandum imzolandi. Shndan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolari va Qozog'iston Madaniyat va sport vaziri, hamda Qozog'iston Respublikasining O'zbekistondagi Muxtor elchisi Qashqadaryo viloyati stendini ko'rish uchun tashrif buyurdi.

2017- yil 22- aprel kuni "Amir Temur hayoti va Temuriylar davlati" haqida hujjatli ko'rsatuv tayyorlash maqsadida Buyuk Britaniyaning "Sky TV" va Avstraliyaning "Foxtel" kanallarining buyurtmasi bilan Avstraliyaning "David Adams Films" kompaniyasi s'embkachi guruhi Shahrisabz va Kitob tumanlarini videotasvirga olish uchun tashrif buyurdi. Shahrisabz va Kitobning tog'li, ekoturistik hududlari mehmonlarni juda hayratga soldi. Bu bizning tariximizga, jannatmakon maskanlarimizga jahon hamjamiyatining qanchalik e'tibori belgisidir.

Bugungi kunda Respublikamizda Turizm sohasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, jumladan, 2016- yil 2- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4861 sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisining 35-sonli bayonida berilgan ko'rsatmalar ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari ijrosini ta'minlash, viloyatga mahalliy va xorijiy sayyohlarni ko'proq jalb qilish uchun, bugun shahrimiz tarixiy markazida joylashgan, XV-XVI asrlarga bunyod etilgan "Chorsu" majmuasida "Milliy san'at galariyasi" o'z ishini boshlaydi.

Ushbu "Milliy san'at galariyasi"ni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, Respublika iqtidorli yoshlarini bobokalonimiz, buyuk Amir Temur vatani bo'lgan Shahrisabz shahriga jalb etish, o'zbek xalqining milliy va amaliy san'at namunalari bilan yoshlarni tanishtirish, xorijiy sayyohlarga Shahrisabz shahrining qadimiy hunarmandchiligining eng asl namunalari ko'rsatish, Shahrisabz shahridagi

hunarmandlar brendini yaratish va shu orqali mamlakatimiz dovruq'ini butun dunyoga tanitish.

“Milliy san’at galariyasi” faoliyati boshlanishi natijasida, viloyatimizga xorijdan sayyohlik oqimi ko‘chayadi, “Chorsu” majmuasidagi milliy va xalq amaliy san’at namunalari iqtidorli yoshlar uchun tajriba maktabiga aylanadi, turizm sohasida malakali kadrlar etishib chiqishi uchun asos bo‘ladi.

Biz faqat bu tadbirlar bilan cheklanib qolmay, avgust oylarining o‘rtalarida har yili o‘tkaziladigan “Qashqadaryo hunarmandlar maskani” festivalini o‘tkazishni o‘z oldimizga maqsad qildik. Bunda viloyatning barcha shahar, tumanlaridagi hunarmandlar, ustalar, dizaynerlar o‘zlarining bor imkoniyatlari, mahoratlarini ko‘rsatadilar.

Qashqadaryo viloyatida ekoturizm sohasini rivojlantirish uchun, Shahrisabz tumanida ichki turizmni rivojlantirish, xorijiy sayyohlarni ko‘proq jalb etish maqsadida “Village Eco Park” majmuasi qurilishi boshlandi. Ushbu loyiha mehmonxona, restoran, kafe, sport maydonchalari va atraksionlarni o‘z ichiga oladi. Loyiha 2018 yil oxiri bilan o‘z faoliyatini boshlaydi.

“Qashqadaryo viloyati Turizm sohasini 2017-2018 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi” asosida 2018- yil oxiri bilan viloyatdagi mehmonxonalar soni 45taga etadi. Jumladan, Qarshi shahrida 8 tayangi zamonaviy mehmonxonalar, Shahrisabz shahrida 5 ta uy mehmonxona va 2 ta yangi zamonaviy mehmonxonalar o‘z faoliyatini boshlaydi. Bu mehmonxonalar mehmonxona servisi, mehmonxona ho‘jaligi yo‘nalishlarida zamon talablariga, jahon standartlariga to‘liq javob berib, ularning tashqi qiyofasi zamonaviy arxitekturaviy loyihalari asosida bunyod etiladi.

Rivojlangan hayot tarzidan charchagan ko‘plab turistlar turizmning ushbu yo‘nalishini ma‘qul ko‘rishadi, chunki agroturizm kishiga ma‘lum bir muddatga tabiat qo‘ynida bo‘lib, qishloq hayotini yaqindan o‘rganish, xalq madaniyati durdonalarini o‘rganish, mahalliy urf odatlar bilan tanishish, an’anaviy qishloq mehnatida va xalq bayramlarida ishtirok etish imkonini beradi.

### 19.3. Surxandaryo viloyatida turizm sohasining istiqbollari

Surxandaryo viloyatida turizmni rivojlantirish uchun 374 tarixiy, madaniy, san’at, me‘moriy obidalar, noyob arxeologik qazilmalar mavjud. Viloyatdagi boy tarixga ega qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar hududda ziyorat turizmni joriy etib, nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, hozirgacha viloyatning bu boradagi salohiyatidan samarali foydalanishga e‘tiborsizlik bilan yondashib kelinayotgan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 19–20-yanvar kunlari Surxandaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida e‘tibor qaratgan edi. Shunga muvofiq viloyatda 2018–2019- yillarda Surxandaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilinmoqda. Unda hududning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko‘rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratadi.

O‘tmishda Surxandaryo muqaddas islom dinini targ‘ib qilgan va uni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan Hakim Termiziy, Iso Termiziy kabi ko‘plab buyuk olimlarga beshik bo‘lgan, — deydi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Surxandaryo viloyati vakili Sh.Ibragimov. — Boy tarixga ega bu yurtida So‘fi Olloyor, Alouddin Attor, Muhammad Zohid singari ulug‘ zotlar mangu qo‘nim topgan. Mazkur dastur asosida Boysun, Termiz, Jarqo‘rg‘on, Oltinsoy, Denov, Uzun, Sherobod tumanlaridagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar rekonstruksiya qilinib, obodonlashtiriladi. Yo‘llar ta‘mirlanadi. Savdo-hunarmandchilik do‘konlari quriladi. Xorijlik sayyohlarning emin-erkin ziyorat qilishi uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

Denov tumanida Naqshbandiya ta‘limotining asoschisi Hazrat Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attor mangu qo‘nim topgan muqaddas ziyoratgoh mavjud. Oltinsoy tumanida “Silsilai oliya” tarkibiga kiruvchi ulug‘ zotlardan yana biri – Muhammad Zohid maqbarasi, turkiy tasavvuf ta‘limotining

yirik namoyandasi So‘fi Olloyor qadamjosi va ul zot tomonidan barpo etilgan masjid saqlanib qolgan. Yangi yo‘nalishlarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da aziz-avliyolar muqaddas hoki qo‘yilgan bu maskanlarni obodonlashtirib, ziyoratchi sayyohlarning tahorat qilishi, namoz o‘qishi uchun zamonaviy qulayliklar yaratish, “halol” standartini joriy etish belgilab berilgan.

Ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari doirasida Termiz tumanidagi Kokildor ota, Qirq qiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Chorgumbaz masjidi, Boysun tumanidagi Hazrati Eshonbobo ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Hazrati Sulton Valiy kabi joylarda turistik infratuzilmalar tashkil etildi.

**Tayanch iboralar.** Dehqonobod, ziyorat turizmi, tuz ko‘l, Chorgumbaz, yo‘l xaritasi, Chorgumbaz ziyoratgohi.

#### Savol va topshiriqlar

1. O‘z fikringizdan kelib chiqib, ekoturizm tushunchasiga izoh bering?
2. Ekoturizmni qanday turlari mavjud deb o‘ylaysiz?
3. O‘ylang, ekoturizmning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
4. O‘zbekistonda ekoturizm resurslarini izohlang.
5. Nima deb o‘ylaysiz, O‘zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish nimalardan iborat.i? Javobingizni asoslang.

## 20-bob. QORAQALPOG‘ISTON TURISTIK MINTAQASI

### 20.1. Qoraqalpog‘iston Respublikasining tabiiy-geografik o‘rni

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan va amalda joriy etilgan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hozirgi sharoitda yaratuvchanlik ruhida shijoat bilan mehnat qilayotgan qoraqalpoq halqining istiqboldagi samarali faoliyatida dasturi amal bo‘lib hizmat qilmoqda.

Ma‘lumki, sahovatli va betakror qoraqalpoq diyori mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojida alohida o‘rin tutadi. Bu haqda so‘z yuritganda, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning qoraqalpoq xalqi haqida “Yuragimga, qalbinga yaqin insonlar” degan so‘zlarini esga olish o‘rinlidir.

Qoraqalpog‘istonning tarixi mamlakatimizning barcha qadimiy mintaqalarining tarixi kabi juda boy, xilma-xil va qiziqarlidir. Bu zaminni o‘ziga xos arxeologik topilmalar qo‘riqxonasi deyish mumkin. Chunki, bu yerda kishining diqqatini tortadigan, hayratlantiradigan ko‘plab arxeologik yodgorliklar mavjudki, ular o‘ta noyoblighi va maftunkorligi bilan alohida ajralib turadi.

Qoraqalpoq xalqining milliy madaniyati, folklori, o‘ziga xos san‘ati, mumtoz adabiyoti, urf-odat va an‘analari keng dunyo jamoatchiligi e‘tiborini muntazam ravishda ohanrabodek o‘ziga tortib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalqi Sulton Uvays, Hakim ota kabi aziz-avliyolarning o‘gitlaridan bahra olib, ma‘nan va ruhan yuksalgan. Bu muqaddas zamin muhabbati Kunxo‘ja, Ajiniyoz va Byerdaqni bulbulzabon shoir qilgan, Yernazarbiy, Olloyor Do‘stnazarov kabi bahodirlarni ozodlik uchun kurashga undagan. “Qirqqiz”day o‘lmas dostonlar qoraqalpoq xalqining teran madaniyati, aql-zakovati, mardlik va matonatidan dalolatdir.

Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, “Haqiqatdan ham, taqdirning hayotning har qanday og‘ir sinov va qiyinchiliklariga qaramasdan, o‘z yurti, o‘z zaminiga, otabobolarining mozoriga hamisha sadoqat ko‘rsatib yashayotgan mard va matonatli

qoraqalpog' elining mustahkam irodasiga tan berib, bunday xalq bilan har qancha faxrlansak, arziydi” .

Qoraqalpog' diyorida “Alpatmy”, “Edige”, “Qirqqiz”, “Erkosay”, “Koblan”, “Shahriyor”, “Maspatsha” va iste’dodli xalq baxshilari tomonidan ijro etiladigan boshqa ko‘plab qahramonlik mavzusidagi dostonlar juda Shhrat qozongan va ularda tarix voqealari badiiy obrazlar orqali jonli va yorqin lavhalarda aks ettiriladi.

20.1-jadval

### Qoraqalpog'iston Respublikasi haqida umumiy ma'lumot

<b>Aholisi soni</b>	1 817,5 (shahar aholisi – 888,3, qishloq aholisi – 914,1) ming kishi
<b>Yer maydoni</b>	166,6 ming km.kv.
<b>Ma'muriy-hududiy bo'linishi</b>	14 tuman, 12 shahar, 14 shaharcha va 124 fuqarolar yig'ini
<b>Markazi</b>	Nukus shaxri
<b>Chegaralari</b>	Qozog'iston Respublikaci, Turkmaniston Respublikaci, Xorazm viloyati, Navoiy viloyati

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida, Amudaryoning quyi qismi, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Shimoldan va g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, janubdan Turkmaniston Respublikasi, sharqdan O'zbekistonning Navoiy viloyati va janubiy-sharqdan Xorazm viloyati bilan chegaradosh.

Qoraqalpog'iston umumiy yer maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat. Respublikaning aholisi 01.01.2017y holatiga 1 million 817 ming kishidan ziyoddir.

Respublikada 14 (Amudaryo, Beruniy, Qorao'zak, Kegayli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l, Muynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Sho'manoy, Ellikqal'a) tuman va Nukus shahri, 386 ta MFY va OFY lari mavjud. Respublikaning oliy ijroiya hokimiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tasdiqlangan Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Respublika Vazirlar Kengashi tarkibiga Kengash Raisi, Raisning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari, yirik konsyern va birlashmalar rahbarlari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, o'z vazifasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi poytaxti - Toshkent

shahrida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy vakolatxonasi faoliyat ko'rsatadi.

Qoraqalpog'istonning poytaxti Nukus shahrida yirik sanoat korxonalari, banklar, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, YOzuvchilar, Kompozitorlar, Arxitektorlar uyushmalarining bo'lim va filiallari, teatr va muzeylar, kinostudiya, ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2003 yilda Nukus shahri mamlakatimiz rivojiga qo'shayotgan katta hissasi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ko'plab sohalarida qo'lga kiritayotgan salmoqli yutuqlari hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasidagi xizmatlari uchun Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov farmoniga binoan “Do'stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Mintaqada sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, savdo, xizmat ko'rsatish, san'at, sport kabi sohalarda rivojlanmoqda.

### 20.2. Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy

#### ko'rsatkichlari tahlili

Ma'lumki, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat, qurilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalari ham jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda yalpi hududiy mahsulotning qariyb yarmi, hududiy eksportning 75 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi aynan Sh sohada mehnat qilmoqda.

Shu bilan birga, oxirgi besh yilda mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti 1,5 barobarga o'sdi, yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 31 foizdan oshdi. Hudud iqtisodiyotiga jalb qilingan kapital qo'yilmalar hajmi 13300 mlrd so'mni tashkil etgan holda, uning tarkibida xorijiy investitsiyalarning o'zi 2400 mln AQSH dollaridan oshdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi YaIM hajmi yillar davomida o'zgaruvchan tendensiyaga ega bo'ldi. Xususan, 2011- yilda Respublikaning YaIM hajmi 2760,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014- yilda 3632,1 mlrd. so'mni 2016 yilda 6518

mlrd. soʻmni tashkil etgan edi. Bu koʻrsatkich mamlakat YaIMga nisbatan olganda 30 barobardan past hisoblanadi, yaʼni Respublikada etarli darajada oʻz imkoniyatlaridan foydalanilmayapti. Bunga sabab esa investitsiyalarning ishlab chiqarish sohasida kamligi, hududlardagi rivojlanish darajasidagi notengliklar, atrof muxitdagi geologik muammolar mavjudligi kabilardir. Masalan, orol dengizining atrofidagi hududlarning ifloslanishi natijasida yerlarning shoʻrlanish darajasi yuqorilagan boʻlib, qishloq hoʻjaligi, sanoat va boshqa sohalarda bu yerlardan foydalanish imkoniyati kam yoki umuman foydalanilmayapti. Natijada ilgari yashnab yotgan zamin hozirgi kunda yerlari shoʻrlangan, ichimlik suvi kam boʻlgan choʻlga aylanib bormoqda.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi YaIM hajmi yillar davomida oʻzgaruvchan tendensiyaga ega boʻldi. Xususan, 2011- yilda Respublikaning YaIM hajmi 2760,1 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2014- yilda 3632,1 mlrd. soʻmni, 2016- yilda 6518 mlrd. soʻmni tashkil etgan edi. Bu koʻrsatkich mamlakat YaIMga nisbatan olganda 30 barobardan past hisoblanadi, yaʼni Respublikada etarli darajada oʻz imkoniyatlaridan foydalanilmayapti. Bunga sabab esa investitsiyalarning ishlab chiqarish sohasida kamligi, hududlardagi rivojlanish darajasidagi notengliklar, atrof muxitdagi geologik muammolar mavjudligi kabilardir. Masalan, orol dengizining atrofidagi hududlarning ifloslanishi natijasida yerlarning shoʻrlanish darajasi yuqorilagan boʻlib, qishloq hoʻjaligi, sanoat va boshqa sohalarda bu yerlardan foydalanish imkoniyati kam yoki umuman foydalanilmayapti. Natijada ilgari yashnab yotgan zamin hozirgi kunda yerlari shoʻrlangan, ichimlik suvi kam boʻlgan choʻlga aylanib bormoqda

Xizmatlar sohasini rivojlantirishning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻlmoqda:

birinchidan, hudud aholisi mehnat resurslarining intellektual salohiyatini oshirish va isteʼmol bozorini zamonaviy xizmat turlarining keng asartementi bilan toʻldirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Isteʼmol bozorini zamonaviy, sifatli xizmatlar turlari bilan toʻldirmoqda;

ikkinchidan, xizmatlar sohasi yuqori qoʻshimcha qiymatli tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning alohida segmentini oʻzida ifodalab, iqtisodiyotni intensiv rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda;

uchinchidan, xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik faoliyati yuqori kapital sigʻimini talab qilmaydi. Qolaversa, mahalliy moddiy resurslardan keng foydalanish orqali xizmatlar sohasini rivojlantirish imkoniyatlari kattadir;

toʻrtinchidan, mintaqalarda dolzarb muammolardan biri boʻlgan ishsizlikni oldini olishga qaratilgan islohotlarda xizmatlar sohasining roli gʻoyat yuksak boʻlmoqda. Chunki, xizmatlar sohasini kengaytirish orqali hududda yangi ish oʻrinlarini yaratish boshqa sohalarga nisbatan yuqori samara byermoqda.

beshinchidan, xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining keng qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish imkoniyati natijasida ularning daromadlarini oshirish va pirovard natijada aholi turmush farovonligining oshirilishiga olib keladi;

oltinchidan, mahalliy byudjetga tushumlarni tushirish manbai sifatida yuqori imkoniyatlarga ega.

Xizmatlarning rivojlanishi oʻzining uzoq tarixiga ega ekanligi natijasida XX asr soʻnggiga kelib uning jahon Yalpi hududiy mahsuloti tarkibidagi ulushi 68,0 %ga etdi. Oʻtgan 100 yil davomida xizmatlar sohasi tarkibiy jihatdan keskin oʻzgardi. XX asr boshlarida koʻrsatilayotgan xizmatlar doirasi chegaralangan boʻlib, ularning katta qismini uy xizmatlari, Shningdek savdo, transport, maishiy xizmatlar tashkil etgan. Bugungi kunda esa ilmiy tadqiqotlardan tortib toki taʼmirlash xizmatlarigacha, taʼlimdan boshlab toki qariyalar va nogironlarga xizmat koʻrsatishgacha boʻlgan 160 ta xizmat turlari mavjud boʻlib, (XST klassifikatsiyasi boʻyicha) murakkab aqliy mehnatdan foydalaniladigan sohalar yuqori oʻrinni egallaydi.

Oxirgi yillarda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishda xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish va uning anʼanaviy turlarini yanada rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmokda. Qoraqalpogʻiston Respublikasida xam xizmatlar koʻrsatish jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biri xisoblanadi. Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 50,2



foizni tashkil etmoqda, bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasidagiga nisbatan 4,3 foizga kamdir. Xizmatlar sohasida mintakadagi iqtisodiy faol aholining 52,4 foizi mehnat qilmokda (O'zbekiston bo'yicha 51,6 foiz).

Shu bilan birga, oxirgi yillardagi statistikasiga nazar tashlasak, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2014- yilda 877,4 mlrd. so'mlik pullik xizmatlar ko'satilgan bo'lib, 2016- yilda bu ko'rsatkich 1297,2 mlrd. so'mga etgan. YA'ni 2016- yilda 2014- yiga nisbatan 147,8 foizga o'sish kuzatilgan. Bu esa deyarli 50 % lik o'sish deganidir

20.3-jadval

2014-2016 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida pullik xizmatlar sohasini rivojlantirish holati, mlrd. so'mda

Shahar va tumanlar	Pullik xizmatlar			
	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2016 yil 2014 yilga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha	877,4	1 065,0	1 297,2	117,5
Tumanlar:				
Amudaryo tumani	32,4	40,6	49,5	120,0
Beruniy tumani	25,6	32,2	39,2	120,5
Qonliko'l tumani	7,1	9,0	11,0	121,2
Qorauzak tumani	14,8	18,5	22,5	119,7
Kegayli tumani	13,1	16,4	19,9	119,0
Qo'ng'iro't tumani	32,7	42,2	51,4	123,3
Mo'ynoq tumani	5,4	6,8	8,3	121,3
Nukus tumani	11,1	13,9	16,9	119,7
Taxtako'pir tumani	9,8	12,3	15,0	119,4
To'rtkul tumani	34,3	41,8	50,9	116,5
Xo'jayli tumani	42,7	53,5	65,2	119,9
Chimboy tumani	24,4	30,4	37,0	119,3
SHo'manoy tumani	15,7	19,6	23,9	120,0
Ellikqal'a tumani	21,6	27,1	33,0	120,4
Nukus shahri	586,7	700,7	853,5	114,4

Lekin shunday bo'lsada, Qoraqalpog'iston Respublikasida pullik xizmat ko'rsatish sohasini tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Nukus shahri eng katta ulushga ega bo'lgan hudud bo'lishi bilan birga deyarli pullik xizmatlarning 66-67 foizlik qismini Sh shahar hududida xosil qilinmoqda. Bu degani qolgan hududlar

bo'yicha o'rtacha olib qaralganda har bir tumanga 2,3-2,4 foizga to'g'ri keladigan xizmat ko'rsatish amalga oshirilmoqda. Bu esa agar hududlarda teng miqdorda pullik xizmatlar ko'rsatiladi deb olib qaralsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida 40 dan ortiq hudud mavjud bo'lishi kerak bo'ladi. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu Respublikada tumanlar miqyosida pullik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha notenglik mavjud va qoloq tumanlar soni 50 %lik dovondan oshgan. Ya'ni, agar qolgan tumanlarda Nukus shahri kabi xizmat ko'rsatish rivojlantirilmaydigan bo'lsa, qoloq tumanlar soni bundan ham ko'payishi turgan gap.

Mamlakatimizda ko'rsatilayotgan jami xizmatlarning 3,2 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri keladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtacha O'zbekiston Respublikasi ko'rsatkichining 50,6 foizini tashkil etadi va mamlakatimizda 10-o'rinni egallaydi, bu jihatdan kam rivojlangan mintaqalar qatoriga kiradi. Xizmatlar sohasi o'rtacha rivojlangan hududlarga Xo'jayli, Taxtako'pir, Qonliko'l, To'rtko'l, Amudaryo, Mo'ynoq, Ellikkal'a, Chimboy tumanlarini kiritish mumkin.

Bu tumanlarda axoli jon boshiga hisoblaganda, xizmatlar sohasi o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichining 60 foizga yakinini tashkil etadi va xizmatlarning asosan savdo va umumiy ovkatlanish hamda transport, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishlari yaxshi rivojlangan.

Istiqbolda xizmatlar sohasini keng rivojlantirish orqali hudud iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo'yicha juda katta imkoniyatlar mavjuddir. Buning uchun ushbu zamin keng tabiiy resurs, kapital va yuqori intellektual ishchi kuchi resurslariga egadir.

Asosan, korxonalar qarz mablag'lari (debitorlik, kreditorlik) hisobiga faoliyat yuritmoqda, Shuningdek, mavjud bo'lgan korxonalar qoloq yoki ishlaymaydigan ahvolga kelib qolgan va mavjud infratuzilma etarli talablar darajasida emas. Investitsiyalar jalb etish bo'yicha undan keyingi o'rinlarda esa 2016- yilda Kegayli (14,5 mlrd. so'm -umumiy investitsiya hajmidagi ulushi – 0,38 %ga teng), Shmanay

(9,8 mlrd. so‘m - umumiy investitsiya hajmidagi ulushi – 0,26 %ga teng) tumanlari turadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar haqida ma‘lumot

	2010- yil		2015- yil		2016- yil	
	mlrd. so‘m	o‘tgan yilga nisbatan %	mlrd. so‘m	o‘tgan yilga nisbatan %	mlrd. so‘m	o‘tgan yilga nisbatan %
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	458,5	63,2	5 925,7	134	3 718,9	56
Nukus sh. tumanlar:	89,3	173	650,7	104,4	562,8	77,3
Amudaryo	21,2	189	70,5	136,1	86,9	110,3
Byeruniy	16,8	184,6	75,5	191,7	106,8	126,5
Qorao‘zak	6,8	134,2	80,4	30,8	70,2	78
Kegayli	8,1	107,3	12,5	65,4	14,5	104,5
Qo‘ng‘irot	74,5	82	4 638,40	151,3	1925,8	37
Qanliko‘l	3,3	147,8	9,3	68,8	17,4	168,9
Mo‘ynoq	28,3	46	124,6	108,7	553,1	40,8
Nukus	6,3	154,5	43,9	107,9	63,1	128,6
Taxtako‘pir	2,6	312,7	7	107,4	6,6	85,4
To‘rtko‘l	17,8	170,6	59,3	148,6	65	98,1
Xo‘jayli	26,6	178,2	65,3	103,9	111,3	152,6
Chimboy	11,9	121,7	21,2	99,9	23,8	100,4
Shmanay	3,6	217,9	10,4	76,2	9,8	84,7
Ellikqala	12,9	115,3	56,5	132,9	100,9	159,8

Tahlil o‘rnida solishtirganda, Qo‘ng‘irot tumaniga o‘tgan yil davomida 1925,8 mlrd. so‘m, Mo‘ynoq tumaniga 553,1 mlrd. so‘m hamda Nukus shaxriga 562,8 mlrd. so‘m investitsiya kiritilgan. Mintaqada xorijiy investitsiyalarning ulushi ham past darajada bo‘lib, 2016- yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining miqdori 1683,5 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, 2015- yilga nisbatan 1216,4 mlrd. so‘mga yoki 42 %dan ko‘proqqa kamaygan. 2010- yilda bu ko‘rsatkich 62,8 mlrd. so‘mga, 2013- yilda 736,6 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. Keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarni Respublikada ko‘payishiga asosiy sabab neft va gaz konlarini izlash borasidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi hisoblanadi. Lekin Respublikada to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni umumiy jalb qilingan xorijiy investitsiyalardagi ulushi past darajada.

**Tayanch so‘z iboralar.** Mo‘ynoq, Ellikqal’a, Nukus, Orol boyi, kemalar qabristoni

**Savol va topshiriqlar:**

1. Fikr bildiring, Qoraqalpog‘iston turizm salohiyati to‘g‘risida tushuncha bering?
2. Nima deb o‘ylaysiz, Qoraqalpog‘istonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
3. O‘zbekistonning islom obidalariga ta’rif bering?

## 21-bob. MINTAQAVIY TURIZM INFRATUZILMALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

### 21.1. Madaniy tarixiy merosimizning turizmdagi o‘rni

Madaniy meros jamiyat asosini, xalqimizning avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyatlarini va an’alarini mustahkamlaydigan omil hisoblanadi. Tarixiy va madaniy yodgorliklar har bir odamga ta’sirini ko‘rsatib, o‘ziga maftun qiladi va g‘ururlantiradi. Shu bois ularni saqlash, eng avvalo, faqatgina davlatning emas, balki har bir kishining burchi, maqsadiga aylanishi kerak, deb o‘ylaymiz.

Hozirgi kunda davlat muhofazasiga olingan 7570 ta madaniy meros obyekti bo‘lib, shundan 2330 tasi me’morchilik, 3945 tasi arxeologik, 1138 tasi monumental yodgorliklar va 157 tasi diqqatga sazovor joylardir. Muqaddas qadamjolar hamda ziyoratgohlar, e’tiborga tushgan joylarni tiklash va ta’mirlesh ishlari butun mamlakat bo‘ylab amalga oshirilmogda. Jumladan, oxirgi paytlarda faqatgina Toshkent viloyatidagi Shamir Qori avliyo, Zarkent Ota, Shodmalik Ota, Zunnun Ota yodgorliklarida ana shunday ezgu ishlar nihoyasiga yetkazilmogda. Bo’stonliq tumani Bog’iston qishlog’idagi, Xo’ja Ahror faxrli nomi bilan ko’proq mashhur bo’lgan, XV asrda yashagan Shayx Umar Vali Bog’istoniyning bog’i va qabrini ta’mirlesh-tiklash ishlariga tayyorgarlik ko’rilmogda. Har bir viloyatdagi tarixiy yodgorliklar va muqaddas qadamjolar bo’yicha turkum kitoblar nashrga tayyorlanayapti.

Bilasiz, YuNESKOning butun jahon madaniy va tabiat yodgorliklari merosi ro’yxatiga Xivadagi ochiq osmon ostidagi muzey — Ichan qal’a, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz shaharlarining tarixiy-madaniy, diqqatga sazovor qismlari kiritilgan.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati yo‘nalishlaridan biri, bu — o‘tmish qa’ridan yetib kelgan boy tarixiy-madaniy merosimizni saqlash. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”, “Muzeylar

to‘g‘risida”, “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlar asosida insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishida muhim o‘rin egallagan qadimgi va o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan shaharlar xarobalari, monumental san’at yodgorliklari, alohida aholi ziyoratgoh joylari, me’morchilik merosi yodgorliklarini saqlab qolish, ta’mirlesh va o‘rganishda davlatimiz tomonidan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmogda.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan mahorat bilan bunyod qilingan va bugungi kungacha saqlanib kelinayotgan, ularning nomini asrlar osha abadiylashtirgan me’morchilik tarixiy majmualari — Samarqanddagi Shohi Zinda, Registon, Bibixonim, Ruhobod, Amir Temur maqbarasi, Buxorodagi Kalon masjidi va minorasi, Mir Arab madrasasi, Labi Hovuz va Bolo Hovuz majmualari hamda boshqa o‘nlab, yuzlab qadimgi, o‘rta asrlardagi me’morchilik durdonalari xalqimizning yuksak ijodkorlik imkoniyatlaridan darak beradi.

O‘tmishdagi buyuk ajdodlarimiz shon-sharafi uchun Amir Temurga Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda, Mirzo Ulug‘bekka Toshkentda, Ahmad al-Farg‘oniyga Farg‘ona va Quvada, Alisher Navoiyga Toshkent, Navoiyda, Alpomishga Termizda, Jaloliddin Manguberdi hamda “Avesto” kitobiga Urganchda va milliy tarixiy hamda madaniy merosimizga katta hissa qo‘shgan ko‘plab tarixiy shaxslarga yodgorliklar o‘rnatildi.

Bularning barchasi bizni hamisha g‘ururlanib yashashga undaydi. Demak, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosni saqlash mamlakatimizda yashayotgan har bir kishining burchidir.

Tabiiy rekreatsiya resurslariga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go‘zal tabiat go‘sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko‘l, dengiz bo‘ylari, tog‘ etaklaridagi o‘simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo‘lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog‘lar yoki qo‘riqxona, milliy bog‘lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

## 21.2. Madaniy – tarixiy resurslar

Madaniy – tarixiy resurslar. Ma'lum hududda turizmni rivojlantirishda u joyning tarixiy – madaniy resurslari potentsiali asosiy o'rinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy – tarixiy resurslardan ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va tasviriy bahosiga, foydalanish qo'layligiga bog'liq.

Mavjud resurslardan turizm faoliyatida intensiv foydalanish, ya'ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tabiiy turistik resurslarning ifloslanishiga, tarixiy obidalarning tez buzilishiga olib keladi.

Turizmga oid Gaaga deklaratsiyasida qo'yidagi takliflar bildirilgan:

- Turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy ieros va atrof – muhitni saqlashga, ularga nisbatan hurmatda bo'lishga o'rgatish, hamda targ'ib qilish;

- Joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash, me'yordan ortishiga yo'l qo'yimaslik lozim deb ta'kidlanadi.

- Madaniy – tarixiy resurslarga moddiy va madaniy turli yodgorliklari majmuasi, ma'lum mintaqaning turistik qiziqish obyektlari hisoblanadi.

Mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizmni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ammo oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu resurslardan turizm maqsadida saqlashni quyidagicha amalga oshirish taklif qilinadi:

- mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish obyektlari sifatida qayta tiklash;

- tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;

- turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof – muhitni saqlash va yaxshilashda boshqaruv organlari ma'suliyatini oshirish

Turistik resurslar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy obyekt va yodgorliklar asosiy o'rinda turadi. «Madaniy meros» deyilganda quyidagilar tushiniladi:

- Yodgorliklar: arxitektura binolari, arxeologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g'orlar, yozuvlar;

- Ansanbillar: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o'zaro bog'langan binolar guruhi. Masalan, Registon ansambili;

- Mehmondo'stlik joylari: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga jalb qiluvchi o'ziga xos joylar.

Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritiladigan obyektlarning qo'yidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

- inson ijodining noyob namunalari;

- ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;

- zamonaviy tsivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;

- inson tarixi bilan bog'liq binolar yoki arxitektura ansambllari, landshaftlari.

Tabiatning noyob ko'rinishlarini butunjahon ro'yxatiga kiritiladigan hususiyatlari qo'yidagilardan iborat:

- Yer taraqqiyotida geologik-geomorfologik jarayonlar asosida shakllangan yodgorliklar;

- turli-tuman o'ziga hos ekosistemalar, landshaftlar;

- ma'lum mintaqaning o'ziga xos o'simlik va hayvonlari;

- kamyob biologik turlari.

Ijtimoiy – iqtisodiy resurslar. Turizm – ko'plab iqtisodiyot tarmoqlarini o'z ichiga olgan, qurilishdan boshlab, transport xizmatigacha bo'lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasidagi band ishchilar sonini baholashni qiyinlashtiradi. Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, qishloq xo'jaligi korxonalari transport vositalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxonalar va boshqalar bilan o'zaro aloqada rivojlanadi.

Mehnat resurslari. Turistik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida insonlarning jismoniy va aqliy mehnati ishlatiladi. Bunda insonlarni sog'ligi va jismoniy kuchi, ma'lumoti hamda malakasi darajasi asosiy o'rinni egallaydi. Mehnat resurslarining miqdori, malakasi iqtisodiy omil sifatida katta ahamiyatga ega.

Turizm jahon xo'jaligining mehnat resurslarini ko'p talab qiluvchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Turizm sohasidagi band ishchi kuchining o'ziga xos xususiyati shundaki, 80% mehnat resurslari malakasiz hisoblanadi. Ularning yarmidan ortig'ini ayollarni tashkil qiladi. Undan tashqari turizm industriyasida yoshlar va chet el ishchi kuchidan keng foydalaniladi. Misol uchun Yevropa ittifoqi mamlakatlarida har bir uchinchi 16 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan o'smir turizmning xizmat ko'rsatish sohasidagi ishlaydi.

Butunjahon mehnat tashkiloti turizmda bandlikni 3ta asosiy shakllarga bo'ladi:

Mavsumiy ish, bunda asosan sayyohlik mavsumida turistlar soni bir necha barobarga oshib ketadi, shunda qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshadi.

To'liqsiz ish kuni, bu asosan rivojlangan mamlakatlarning mehmonxona va restoran xo'jaligidagi band ishchi kuchlari kiradi. Turli mamlakatlarda to'liqsiz ish kuni bilan ishlayotganlar butun mehmonxona biznesida band ishchi kuchlarining 12% dan 52 %gacha tashkil etadi.

Vaqtinchalik ish bilan bandlik (dam olish kunlari, ko'rgazmalar tashkil etish).

Sarmoya resurslari. Ishlab chiqarishning birinchi omillari er va mehnat bo'lsa, ularni sarmoyalar asosida mehnat kuchi yordamida amalga oshiriladi.

Sarmoya elementlari tasnifi mutaxassislar tomonidan quyidagicha belgilangan:

- asosiy binolar: otellar, bar, restoran, klub va boshqalar.
- yordamchi binolar: garaj, isitish sistemasi va boshqalar.
- inshoot va qurilmalar: yo'llar, turistik poezdlar, sport maydonlari va boshqalar.
- o'tkazgich qurilmalari: elektroo'tkazgichlar, quvurlar va boshqalar.
- mashina va jihozlar: transformator, kompyuter va boshqalar.
- transport vositalari: engil avtomobil, avtobus va boshqalar.

Turizm salmog'ining yuqoriligi iqtisodiy tomondan daromadning oshishiga, yangi ish o'rinlarini yaratilishiga hamda kichik biznesni rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Turistik mamlakatlarda 50 foizdan ortiq mehnatga yaroqli aholi turizm sohasi bilan to'g'ridan – to'g'ri yoki bilvosita bog'langan. Agarda ularda turistlar kelishi qaysidir sababga ko'ra kamaysa, ishsizlar soni ortib boradi. Lekin yirik industrial

mamlakatlarda turizm sohasida band aholi 5 foizdan ortmaydi, ammo turizmning dunyo bo'yicha rivojlanishi tufayli bu mamlakatlarda ham turizm sohasidagi band mehnat resurslarini salmog'i ortib boradi.

Turizm sohasida miqdor jihatdan tahlil qilishdan tashqari, bandlikning sifat jihatdan tahlili ham mavjud. Ma'lumki turizm asosan past malakali ishchilar, ya'ni xizmatchilar, yuk tashuvchilar, ofitsiantlar ishlashadi. Bular bilan yuqori malakali gid – tarjimon, bosh oshpaz, menejerlar ham ishlashadi. Albatta bu sohani ham yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega. Turizmda band ishchilarning jinsiy tahlili ham ahamiyatga ega bo'lib, mehmonxona xo'jaligida ayol ishchilarning ulushi 50 foizdan ortiq. Turistik axborot resurslari. Sayohat vaqtida yoki unga tayyorgarlik ko'rishda turistlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga beriladigan ma'lum hudud, obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar majmuasi turistik axborot resurslari hisoblanadi.

Mutaxassislar turistik axborot resurslariga turistik marshrutda joylashgan hamda tarixiy, ilmiy ahamiyatga ega obyektlar bo'yicha ma'lumotlarni kiritishadi. Undan tashqari turizm ahamiyatiga ega shaharlar, qishloqlar, tabiat manzaralari ularga bog'liq afsona va qissalar, har xil adabiyotlar, xaritalar, tasviriy albomlar, rasmlar, audio – video mahsulotlarni ham kiritishadi. Ko'pgina shaharlarda turistik axborot beruvchi markazlar ishlab turibdi, ular iste'molchilarga barcha ma'lumotlarni etkazib berishadi.

Umuman olganda hozirgi kunda turistlar uchun informatsiya asosiy o'rinni egallaydi. Chunki turist borayotgan joyi haqida qancha ko'p bilsa, sayohatini samarali o'tkazadi. Albatta har qanday turist ma'lum vaqt oralig'ida iloji boricha ko'proq joylarga borishga harakat qiladi. Buning uchun u albatta ma'lumotlarga etarli darajada ega bo'lishi kerak.

Axborot beruvchi resurslarga internet tarmog'i, adabiy va tasviriy nashrlar hamda xalq etnoslari, afsonalari ham kiradi. Axborot tashuvchilar moddiy obyektlar – inson va ijodlari, nomoddiy obyektlar – turli axborot manbalari hisoblanadi. Diniy turizmda moddiy obyektlar bo'lib, monax va dindorlar, ekskursiya olib boruvchilar, hamda diniy markaz va shaharlarning fotosi, kartasi, sxemalari hisoblanadi.

### **21.3. Turizm resurslari va milliy turistik resurslarni shakllantirishning iqtisodiy va ijtimoiy mazmuni**

Turizm bugungi kunda jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi sohaga aylandi. So'nggi yillarda uning jahondagi tovarlar va xizmatlar savdosining 10 % to'g'ri kelmoqda. SHuning uchun ko'pgina mamlakatlarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga davlat darajasida qarab, barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega. Birinchi navbatda, turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir. Albatta turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi.

Turistik resurslarning turizmdagi ahamiyati uning ijtimoiy – iqtisodiy mazmunidan kelib chiqadi. Turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo'lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchiga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o'zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining umumiy ma'lumoti va madaniy – texnik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda turistik resurslar orqali dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtdan unumli, to'g'ri foydalanish ta'minlanadi. Shuningdek, turistik resurslar shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual darajasini oshirishda, asabiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida tavsifini berishda xalqaro, davlatlararo va va shaharlararo munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi. Undan tashqari turistik resurslar turizmni ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydi. Bu soha bevosita aholining ijtimoiy sohaga muhtoj qatlamini, ya'ni maktab o'quvchilarini, nafaqaxo'rlarni, talaba – yoshlarni, nogironlarni, keksa nuroniyarlari kabi aholining shunday toifasini sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhimi ushbu sohaga qo'yilgan investetsiya foyda uchun emas, balki ijtimoiy qo'llab – quvvatlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o'rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashilotining ma'lumotlariga

ko'ra, aholi salomatligi 50-50 % ularning iqtisodiy ta'minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof-muhitning holatiga, 20-30 % tibbiy xizmat darajasiga bog'liq bo'ladi. Xavoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo'ladi. Zamonaviy gigiena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o'rtacha darajasi 20% ga oshirishni aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, u aholining ishdan bo'sh vaqtdan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi.

Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo'nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog'lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog'lomlashtirish, umrni o'zaytirish, insonning jismoniy va ma'naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm) shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini oshirishnigina ta'minlab qolmay, balki 20-50 %ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo'lishining oldini olishni ta'minlaydi.

O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat O'zbekiston fuqarolarining, balki Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. O'zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh er osti mineral suv manbalariga ko'plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. Chimyon va To'rtko'l

kabi tog‘ - chang‘i sportini rivojlantirish mumkin bo‘lgan bir qancha tog‘ maskanlari mavjud. Baland qorli tog‘lar alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog‘ turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning ko‘pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o‘simliklar yig‘ish uchun turlarni tashkil etishga ikmoniyat yaratadi. Bu esa ko‘plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg‘otadi.

Turistik resurslar xalq madaniyati, urf-odatlarini, rusumlari, ma‘naviyatini ko‘rsatuvchi, belgilovchi milliy boylikdir. Xattoki, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur “Bizni qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz, biz qurdirgan inshootlarga boqing” deb bejiz ta‘kidlamagan. Ana shu qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy obyektlar hamda atrof-muhit, tabiatning qay ahvolda ekanligiga qarab o‘sha joyning aholisining ma‘naviy-madaniy darajasini belgilash mumkin.

Turizmni barqaror rivojlanishida turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni yotadi. Hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlarda turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanmoqda.

Hozirgi davrda jahon xo‘jaligida bu sohada band ishchi kuchining ufushi yildan – yilga oshmoqda. Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council) ma‘lumotlariga ko‘ra 1996- yil turizm sohasida 225 mln. ish o‘rni mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2006- yilga kelib, yana 130 mln. ish o‘rni ortdi. Hozirgi vaqtda turizm sohasida jahondagi mavjud har 10 ta ishchi kuchining biri band. Ayrim mamlakatlarda bu ko‘rsatgich yanada yuqori. Masalan, Ispaniyada turizm sohasida iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda – 10,5 foizi, Maltada – 15 foizidan ortig‘i band.

## GLOSSARIY

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingiliz tilida	Atamaning mazmuni
<b>Turizm</b>	<b>Туризм</b>	<b>Tourism</b>	jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil maddatga jo‘nab ketishi.
<b>Turist</b>	<b>Турист</b>	<b>Tourist</b>	O‘zбекистон respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) jismoniy shaxs
<b>Turistik faoliyat</b>	<b>Турстическая деятельность</b>	<b>Tourist activities</b>	sayohat va ular bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat.
<b>Ekskursiya faoliyati</b>	<b>Экскурсионное деятельность</b>	<b>Excursion activities</b>	Turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa obyektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi.
<b>Turistik resurslar</b>	<b>Туристические ресурсы</b>	<b>Touristic resources</b>	Tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog‘lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma‘rifiy va ijtimoiy – maishiy obyektlari majmui.
<b>Turistik faoliyat subyektlari</b>	<b>Деятельность туристической субъектов</b>	<b>The subjects of tourist activity</b>	belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan va turistik xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi bo‘lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar.
<b>Turistik industriya</b>	<b>Индустрия туризма</b>	<b>Tourism industry</b>	Turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko‘rsatishni ta‘minlovchi turli subyektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui.
<b>Tur</b>	<b>Тур</b>	<b>Tour</b>	Muayyan yo‘nalish bo‘yicha turistik xizmatlar majmui (joybandlash,

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Turistik xizmatlar	Туристические услуги	Touristic services	joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat Turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot –reklama xizmatlari ko'rsatishborasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar.
Litsenziya	Лицензия	License	Turistik faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruhsatnoma.
Sertifikat	Сертификат	The certificate	Turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.
Turistik yo'llanma (vaucher)	Туристическое направление (vaucher)	Tourist Redirect (voucher)	Turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat.
Turistik tovarlar	Туристические товары	Touristic goods	turistik sovg'alar, xaridlar.
Turistik (tur) mahsulot	Турпродукт	Touristic products	turizm jarayonida amalga oshiriladigan xizmatlar va harajatlar yig'indisi.
Turistik sug'urta	Турстрахование	Tourism insurance	turistlarning hayotini majburiy sug'urtalash
Turistik (tur) yo'nalish	Тип (Экскурсионный маршрут)	Tour (tour) route	turistlarni turizm faoliyatini amalga oshirishlari uchun olib borilgan yo'nalish.